ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2025

3-son
(May-Iyun)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O‘zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro‘yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI		
V. Rajapov	4	Sinf rahbarlarining o'smir yoshdagi qizlar ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishning nazariy asoslari
A. Abdug'aniyev	8	Umumiy o'rta ta'lim maktablarida inklyuziv ta'limni tashkil etish va boshqarishning dolzarb masalalari
Z. Hojiyeva	10	Bo'lajak o'qituvchilarni samarali hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlash qonuniyatlari va tamoyillari
E. Murodov	13	Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini zamonaviy kasb-hunarlarga o'qitish va mehnat faoliyatiga tayyorlashning nazariy asoslari
M. Sharipova	17	Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitish jarayonida kognitiv - kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish
G. Maqsudova	21	Bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirishda konstruktivlikning o'rni
A. Xayitova	25	Integrativ yondashuv asosida chet tilini o'qitishning nazariy aspektlari
M. Nishanova	29	Andragogik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish
F. Kalandarova	33	Bo'lajak boshlang'ish sinf o'qituvchilarining deontologik kompetensiyasini takomillashtirish mexanizmlari
R. Bazarbayeva	36	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ kompetensiyalarini shakllantirish
D. Shamalikova	40	Bolalar nashrlari vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining odob-axloq ko'nikmalarini rivojlantirish (Pedagogik-psixologik xususiyatlar)
S. Azimova	44	Ota-onalarning pedagogik bilimlarini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish
M. Abdulazizova	47	Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda aksiologik yondashuvning ahamiyati
K. Abdullayeva	50	Tarbiyachilarda kreativlik qobiliyatlarining shakllanganligi - ta'lim-tarbiya sifatini ta'minlashning asosi
TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI		
T. Pardaev	54	"Xrontop" tushunchasining antik adabiyot namunalarida aks etishi
Sh. Musayeva	60	Boshlang'ich sinflarda jarangli va jarangsiz undoshlarni o'rgatish metodlarini takomillashtirish
Sh. Amonova	63	"Ko'rsatkichli tenglamalar" mavzusini raqamli texnologiyalar asosida o'qitishning afzalliklari
M. Mamirova	69	"O'yin terapiyasi" vositasida bolalarda ijtimoiy odobni shakllantirish
ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI		
M. To'ychiyeva	72	Adabiy ta'limda "Steam" ta'lim texnologiyasini qo'llash mexanizmlari
U. Kubayev	76	Virtual muhitlarni tashkil qilish metodologiyalarini qo'llash talablari va ishlab chiqish uslublari

V. Shukurov	81	Ta’limga oid milliy kontentlarni ishlab chiqishda internet texnologiyalarining ahamiyati
		MILLIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI NAZARIYA VA AMALIYOT
D. Adilova	85	Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida milliy tarbiya masalalari: axloqiylik va komillik
		TA’LIMDA MENEJMENT
M. Xalilova	89	“Erasmus Mundus” (EMJM) dasturi uzluksiz ta’lim tizimida inson kapitalini ta’minlashning hamkorlik mexanizmi sifatida
		JISMONIY TABIYA VA SPORT
R. Badayev, N. Mamadiyorov	94	Jismoniy tarbiyaning mehnat unumdorligiga ta’siri: korxona va tashkilotlarda sog‘lom turmush tarzining ahamiyati
A. Xurshidbekov	98	Talabalarining fanlarni o‘zlashtirishida auditoriyadan tashqari sport mashg‘ulotlarining ahamiyati (Sportning erkin kurash turi misolida)
		MAKTABGACHA TA’LIM
Z. Bozorova	102	Bo‘lajak tarbıyachılarning kasbıy tayyorgarlık jarayonlarıda tarbıyalanuvchılar bılan o‘zaro munosabatlarnı shakllantırısh
		TA’LIMDA MUTOLAA MADANIYATI
D. Kamoljonova	105	Milliy kontentlar vositasida o‘quvchilarda kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish
		XALQ PEDAGOGIKASI
D. Badriddinova	109	O‘zbek xalq maqollarida mehnat va hallolikning ulug‘lanishi, donishmandlik tarbiyasining badiiy talqini
		QIYOSIY PEDAGOGIKA
J. Fayzullayev	115	Turizmni rivojlantirishda xorij tajribasi
		ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ
В. Жамединова	118	Понимание концепта в современной лингвистике
		МЕТОДИКА ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ
Н. Тошманов, С. Абидова	123	Пути повышения эффективности обучения на основе использования понятий и терминов на уроках биологии
		СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ
Ю. Бадельбаева	130	Цифровые образовательные технологии в обучении иностранным языкам
		THEORY OF EDUCATION AND UPBRINGING
Z. Khabirova	135	The potential of artificial intelligence to facilitate personalized learning: a new paradigm in education (Shaxsiylashtirilgan ta’limni osonlashtirish uchun sun’iy intellektning potentsiali: ta’limdagi yangi paradigma)
		PSYCHOLOGY
O. Zaripov	139	The concept, factors and indicators of mental health of a person (Insonning ruhiy salomatligi tushunchasi, omillari va ko‘rsatkichlari)

Vahobjon RAJAPOV,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, birinchi prorektor

SINF RAHBARLARINING O'SMIR YOSHDAGI QIZLAR MA'NAVIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada yoshlarni jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish ruhida tarbiyalashda, ularga jaholatning obyektiga ko'ra ko'rinishlari, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashning zamonaviy taktik usullari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, ma'naviy dunyoqarashning namoyon bo'lish shakllari yoritilgan.

Tayanch so'zlar. Jaholatga qarshi ma'rifat, zamonaviy taktik usullar, moddiy va ma'naviy, hayotidagi ijobiy o'zgarishlar, millat va xalqlarning qadriyatlari.

В статье рассматриваются современные тактические методы борьбы с невежеством посредством просвещения в воспитании молодежи в духе борьбы с невежеством, их проявления в соответствии с объектом невежества. Также освещены формы проявления духовного мировоззрения.

Ключевые слова. Просвещение против невежества, современные тактические методы, позитивные изменения в материальной и духовной жизни, ценности наций и народов.

The article discusses the manifestations of ignorance according to its object in educating youth in the spirit of fighting ignorance with enlightenment, and modern tactical methods of fighting ignorance with enlightenment. Also, the forms of manifestation of the spiritual worldview are highlighted.

Key words. Enlightenment against ignorance, modern tactical methods, positive changes in material and spiritual life, values of nations and peoples.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish davr talabi ekanligini ta'kidlaydi: "Yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarga, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir. Bu borada biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy ma'naviy merosiga tayanamiz".

O'quvchi-yoshlar ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishda ma'rifat alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, ma'rifat – ma'naviyatga olib keladigan yo'l, uni shakllantiruvchi vositadir. Ma'rifat millat tarixining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan BMT Bosh Assambleyasining "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish taklifi ham davlatimizni xalqaro miqyosda nufuzini yanada ko'tardi. Bu hujjatning asosiy maqsadi – barchaning ta'lim olish huquqini ta'minlashga, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko'maklashishdan iborat. Ushbu rezolyutsiya bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta'minlash, e'tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashishga qaratilgan.

Sharq uyg'onish davri mutafakkirlarining fikricha, pokiza xulq-atvor, go'zal axloq-odob, halollik, ilohiy ma'rifat – komillik darajasiga yetish manbaidir. Komil insonlargina millatning yorqin ko'zgusi bo'lishi mumkin. Faqat ma'naviyatli va ma'rifatli insonlargina

xalq va davlat manfaati, ravnaqi yo‘lida mehnat qilishga qodirdirlar.

Aziziddin Nasafiy komil inson fazilatlari haqida gapirib, uning yuksak axloqli, o‘zini anglagan, dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan ma’naviyatli va ma’rifatli bo‘lishi zarurligini aytadi: “Bilgilki, Komil inson deb, shariat, tariqat va haqiqatda yetuk bo‘lgan odamga nisbatan aytadilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin: bilgilki, komil inson shunday insondirkim, unda quyidagi to‘rt narsa kamolga yetkan bo‘lsin: yaxshi so‘z, yaxshi fe’l, yaxshi axloq va maorif”.

Yoshlarni jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish ruhida tarbiyalashda, ularga jaholatning obyektiga ko‘ra quyidagi ko‘rinishlarda, ya’ni jaholatparastlikning:

1) ich-ichidan mavjud dunyoviy tartibni ko‘rolmasdan, unga nisbatan ilmsizlarcha, ya’ni uning moddiy va ma’naviy hayotidagi ijobiy o‘zgarishlarga nodonlarcha salbiy munosabatda bo‘lishida;

2) davlat hokimiyati tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy islohotlarning mohiyatini tushunmasdan, ularga jahl bilan aqlsizlarcha qarshilik ko‘rsatayotganligida;

3) uzoq va yaqin qo‘shni davlatlar bilan tenglik va o‘zaro yordam tarzida o‘rnatilayotgan munosabatlarga raxna solishga urinishlarida;

4) elat, millat va xalqlarning qadriyatlarini mensimasdan, ularni vahshiylarcha vayron qilishga harakat qilayotganliklarida;

5) ilm-fan yutuqlarini tan olmasdan taraqqiyotga to‘sqinlik qilayotganliklarida;

6) din niqobi ostida xalqlar o‘rtasida nizo chiqarib, mavjud hokimiyatni ag‘darib tashlab o‘zlarining hokimiyatini o‘rnatishni avj oldirayotganliklarida;

7) insonni oliy qadriyat deb hisoblamasdan, bolalar va ayollarning haq-huquqlarini paymol qilib, ularni sotib yuborish evaziga katta mablag‘ to‘playotganliklari kabi xatti-harakatlarida yaqqol namoyon bo‘lishini tushuntirmoq zarurdir.

Shu bilan bir qatorda jaholatning subyektiga ko‘ra quyidagi ko‘rinishlarda, ya’ni jaholatparastlikning: a) jamiyat hayotida vujudga kelgan muammolarni aql, ilm bilan emas, balki jismoniy kuch ishlatish yo‘li bilan hal etishga urinishida;

b) o‘ziga-o‘zi mahliyo bo‘lib ma’rifatgo‘y donishmandlarning maslahatlariga quloq solmasdan o‘ta o‘jarlik bilan ish bajarishida;

v) mansabparastlik balosiga chalinib, barcha odamlar unga bo‘ysunishini, o‘zi hech kimga bo‘ysunmaslikni xohlashida, bo‘ysunmaganlarni o‘ziga va jamiyatga dushman deb bilishida;

g) o‘tkinchi, yuzaki narsalar, mol-dunyo, jismoniy lazzatlar, hirs-u shahvat, obro‘, amal, shon-shuhratni haqiqiy baxt, farovonlik deb o‘ylashida va bilishida;

d) obro‘parastlik balosiga yo‘liqib, o‘zaro bir-birlarini maqtash, ko‘kka ko‘tarishni yaxshi ko‘rishida, ularni boshqalar so‘zda ham ishda ham ulug‘lashlarini istashlarida;

j) mutloq hokimiyatga ega bo‘lib, o‘zga xalqlarni qurol kuchi bilan qo‘rqitib o‘ziga tobe qilib olishga, ya’ni yakka hukmronlik gashtini surishga bo‘lgan xatti-harakatlari shaklida namoyon bo‘lishini ko‘rsatib bermoq kerak.

Bu haqida Sh.M. Mirziyoyev: “Biz “jaholat” deganda odatda diniy jaholat, aqidaparastlikni tushunamiz. Lekin bugungi hayotiy jarayonlar jaholat hamma sohada ham uchrashi, agar unga qarshi o‘z vaqtida kurash olib borilmasa, o‘ta og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ko‘ramiz. Biz bugun jaholat degan baloga iqtisodiyot sohasida ham, ta’lim-tarbiya, sog‘liqni saqlash, madaniyat tizimida ham qo‘yingki, hayotimizning barcha jabhalarida duch kelayapmiz va bu illat qo‘l-oyog‘imizda bamisoli kishan bo‘lib turibdi. Bu kishandan xalos bo‘lmasdan turib, taraqqiyot va rivojlanish haqida hech qanday so‘z bo‘lishi mumkin emas”, – degan edi.

Bugungi jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashning zamonaviy taktik usullari quyidagilardan iborat:

– buzg‘unchi vayronkor g‘oya va mafkuralar to‘riga tushib qolgan, ammo qo‘li “qon”ga botmagan holda qaytib kelgan fuqarolarga nisbatan kechirimli bo‘lish, ya’ni ularni avf etish;

– kechirilgan fuqarolarni, ularning ota-onalari, oila a’zolari va qarindosh urug‘larini kamsitmagan holda ish bilan ta’minlab ijodiy mehnatga, jamoat ishlariga jalb qilish;

– avf etilganlarga nisbatan har bir oila, ijtimoiy guruh, mahalla va boshqa jamoat va mehnat jamoalarida yaxshi ma’naviy-mafkuraviy muhitni yaratish;

– uzoq vaqt davomida qo‘shni mamlakatlardan kelib, mamlakatimizda yashab, halol mehnat qilib, shu yurtni tanlagan, biroq fuqarolik huquqiga ega bo‘lmaganlarni fuqarolikka qabul qilinishi va shu asosida ularning ruhini ko‘tarish;

– to‘g‘ri yo‘ldan adashib, chet ellarda xor-zor bo‘lib, azob-uqubatlarni ko‘rib, tavbasiga tayanib o‘z vataniga qaytib kelgan fuqarolar bilan yoshlarning uchrashuvlarni tashkil etib, buzg‘unchi-vayronkor g‘oyalarning asl mohiyatini ularning vujudida chuqur his ettirish.

Ma’lumki, jamiyat taraqqiyotida, uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida insonning ijtimoiy faoliyati, xususan, uning ma’naviy kamoloti birinchi o‘rinda turishi kerak. Ana shu ma’naviy jihat qancha yuqori bo‘lsa, birgina oilada emas, balki butun jamiyatda ham insoniylik yuzaga chiqib, farovon hayot kechirishga imkon yaratiladi, chunki jamiyatning eng katta boyligi ana shu insonlar va ularning go‘zal taqdiridir. Agarda jamiyat shakllanishiga qat’iy ishongan, bunga chuqur e’tiqod etadigan yuksak ma’naviyatli kadrlar yetishtirilsa, ana shu jamiyat va davlatda barqarorlik, farovonlik, osoyishtalik, taraqqiyot tezlashadi. Shuning uchun ham mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, toki bugungi kunga qadar bu masalaga davlat siyosati darajasida qarab kelingan.

Ma’naviy dunyoqarashning namoyon bo‘lish shakllaridan biri – kishida ma’lum hayot sharoitlari va tarbiya ta’sirida qaror topgan qat’iy bilimlar va ma’naviy tartib-qoidalarga emotsional munosabatdan iborat bo‘lgan ishonch hisoblanadi.

Ishonch xulq me’yorini subyektiv qabul qilish bo‘lib, kishi namuna oladigan ma’naviy tamoyillarning to‘g‘riligi va adolatli ekanligiga ishonch bildirishidir. Faqat ma’naviy ishonch bu bilan cheklanmaydi, chunki bu faqatgina ma’naviy zaruratni aqliy hissiyot bilan tushunishdir. Ma’naviy ishonch shaxsning biron faoliyat yo‘nalishini, uning maqsad sari intilishi, xulqning yashirin motivlari tuzilmasini hamda uning umumiy nuqtayi nazarini, hayotdagi o‘rnini, yashash ma’nosini belgilaydi. Ma’naviy ishonch o‘zida ratsional va emotsional tomonlarni ifodalaydi, bunda inson har qanday qiyin sharoitlarda ham o‘z tamoyillaridan qaytmaydi.

Moddiy va ma’naviy olam uyg‘unlashib, insonning qo‘sh qanotiga aylansangina, jamiyatning to‘laqonli erkin rivojlanishi ta’minlanadi. Lekin, afsuski, ma’naviy inqirozning oldini oladigan, yoshlarni yuksak ma’naviyatli shaxs sifatida rivojlantirishni kafolatlaydigan ta’lim-tarbiya tizimi dunyoda hali yaratilmaganligini bugun hayotning o‘zi tasdiqlab ko‘rsatmoqda.

Haqiqatdan ham, bugun murakkab vaziyatda ma’naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xususan, jahonning ayrim mintaqalarida tobora kuchayib, ildiz otib borayotgan ma’naviy inqiroz xavfi xalqimiz ma’naviyatini asrash barobarida uni yuksaltirish, ayniqsa, yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g‘oya va mafkuralar ta’siridan himoya qilishni talab qilmoqda.

Hech shubhasiz, dunyoning qaysi burchagida bo‘lmasin, ma’naviyatga qarshi qanday tahdidning paydo bo‘lishi o‘zining bugungi kuni va ertangi istiqbolini o‘ylab yashayotgan har bir ongli inson, har bir xalqni tashvishga soladi. Albatta, bunday ma’naviy tahdid va mafkuraviy xurujlar milliy va diniy tomirlarimizga bolta urishi, ulardan avvalo farzandlarimiz ko‘proq aziyat chekishi mumkinligi, yoshlarda ma’naviy dunyoqarashi yanada yuksaltirishni taqozo etmoqda.

Ta’lim tizimining barcha bosqichlarida bu fazilatlarni rivojlantirish o‘ziga xos xususiyatlarga egadir. Xususan, yuqoridagi ma’naviy fazilatlar ta’limda yanada mustahkamlanadi va hayotda faoliyat mezoniga aylanadi. Tarbiyaviy ishlar to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan ta’lim muassasalarida o‘smirlarning o‘z faoliyatida maqsadli kurash olib borish, mustaqil fikrga ega bo‘lgan fidokor, tarixni to‘g‘ri anglash, o‘z kuchiga ishonchni qabul qilish, islohotlarda faol ishtirok etish, urf-odatlarni, an’analarni asrash, demokratiyaga hurmat bilan qarash, ezgu g‘oyalarga sadoqat, ma’rifatni yot g‘oyalarga qarshi qo‘ya bilish, ogohlikni, bunyodkorlikni, ma’naviy yuksaklikni namoyon etish, jamoa tashkilotlarida faol ishtirok etish, mafkuraviy tahdidga qarshi kurash, globallashuvning salbiy jihatlarini fosh etish, yurt tinchligini saqlash, demokratiya eksporti mohiyatini fosh etish fazilatlari namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, mustaqillikni mustahkamlashning faol kurashchisi bo‘lib, milliy bayramlardan, marosimlarda g‘oyaviy targ‘ibotdan foydalanish, globalizm illatlariga, axborot xurujiga, “ommaviy madaniyat” tahdidiga nisbatan g‘oyaviy kurashchanlikni namoyon qilish, milliy o‘zlikni himoya qilish uchun kurasha olish, buzg‘unchi g‘oyalariga, xoinlikka, loqaydlikka, mahalliychilikka, terrorizmga, kosmopolitizmga qarshi kurashish, buyuk kelajakka ishonch hissi bilan yashash fazilatlari shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, qiz bolalarda ona Vatanga muhabbat, milliy g‘oyaga sadoqat, mehnatsevarlik, jonkuyarlik, oilaparvarlik, ibo, hayo, nafosat, did-farosat, qanoat, vafodorlik, mehribonlik, rahmdillik, kamtarlik, ziyraklik, mehmondo‘stlik, bolajonlik, murosalilik, orastalik, saranjomlik, xushmuomalalik, pazandalik kabi malakalarni rivojlantirishga qaratilgan treninglar dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish davlat hujjatlarida alohida qayd etilgan.

Umumiy o‘rta ta’lim tizimida sinf rahbarlarining o‘smir qizlarda ma’naviy dunyoqarashni rivojlantirish borasidagi ishlari ayni damda rivojlanmoqda. Bu jarayonda milliy qadriyatlar, zamonaviy ta’lim metodlari va oila bilan hamkorlik asosiy yo‘nalishlar sifatida alohida o‘rin tutmoqda. Biroq bu sohadagi muammolarni hal etish va natijalarni yanada oshirish uchun qo‘shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismonan barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-sonli Qarori,

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi Qarori

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni,

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.03.2021-yildagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-son Qarori.

Abdurauf ABDUG‘ANIEV,
O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,
bosh mutaxassis

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA INKLYUZIV TA’LIMNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISHNING DOLZARB MASALALARI

Annotatsiya

Maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida inklyuziv ta’limni tashkil etish va uni samarali boshqarishning nazariy hamda amaliy jihatlari yoritilgan. Shuningdek, inklyuziv ta’limning asosiy tamoyillari, mavjud muammolar, ilg‘or tajribalar hamda boshqaruv mexanizmlari tahlil qilinadi. Bundan tashqari, O‘zbekiston tajribasi va xalqaro amaliyotlar asosida takliflar ilgari suriladi.

Tayanch so‘zlar. Inklyuziv ta’lim, boshqaruv mexanizmlari, o‘quvchilarning ehtiyojlari, pedagogik yondashuv, differensial ta’lim, qo‘shma ta’lim muhitlari.

В статье освещаются теоретические и практические аспекты организации и эффективного управления инклюзивным образованием в общеобразовательных школах. Также будут проанализированы основные принципы инклюзивного образования, существующие проблемы, передовой опыт и механизмы управления. Кроме того, будут выдвинуты предложения на основе опыта Узбекистана и международной практики.

Ключевые слова. Инклюзивное образование, механизмы управления, потребности учащихся, педагогический подход, дифференцированное обучение, совместная образовательная среда.

The article covers theoretical and practical aspects of the organization and effective management of inclusive education in general secondary schools. Also, the basic principles of inclusive education, existing problems, advanced experiences and management mechanisms are analyzed. In addition, proposals will be put forward based on the experience of Uzbekistan and international practices.

Key words. Inclusive education, management mechanisms, student needs, pedagogical approach, differential education, co-educational environments.

Bugungi kunda inklyuziv ta’lim global miqyosda ijtimoiy adolat, teng imkoniyatlar va inson huquqlari tamoyillarining amaliy ifodasi sifatida qaralmoqda. O‘zbekistonda ham ushbu yondashuv bosqichma-bosqich joriy etilib, umumiy o‘rta ta’lim maktablari orqali inklyuziv ta’lim muhiti shakllantirilmoqda.

Inklyuziv ta’limning mohiyati va tamoyillari:

Inklyuziv ta’lim – bu barcha bolalar, jumladan, imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning teng va sifatli ta’lim olishlarini ta’minlovchi tizimdir. Bu yondashuv quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

– tenglik va adolat; – individual yondashuv; – moslashuvchan pedagogik metodlar;

– jamiyat bilan hamkorlikUNESCO (1994) tomonidan qabul qilingan Salamanca deklaratsiyasida barcha bolalar umumiy ta’lim maktablarida o‘qishi kerakligi e’tirof etilgan.

O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish tendensiyalari:

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim bo‘yicha qator huquqiy-hujjatlar qabul qilindi:

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4860-sonli Qarori (2020-yil 13-noyabr) – “2020–2025 yillarda inklyuziv ta’limni rivojlantirish” bo‘yicha milliy dastur.

– “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunga (2020 yil) inklyuziv ta’lim tushunchasining kiritilishi.

Bu hujjatlar asosida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida inklyuziv ta'limni joriy etish ishlari jadallashmoqda. Natijada, bugungi kunda respublikamiz bo‘yicha 952 ta maktabda 1511 ta inklyuziv sinflarga 2201 nafar nogironligi bo‘lgan bolalar jalb etildi.

Inklyuziv ta’limni tashkil etish bosqichlari:

1. Normativ-huquqiy asoslarni yaratish.
2. Infratuzilmani moslashtirish.
3. Pedagogik kadrlarni tayyorlash.
4. Pedagogik va metodik ta’minotni rivojlantirish.
5. Ota-onalar va jamoatchilik bilan hamkorlik qilish. Masalan, BMT Bolalar fondi – UNICEF tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan pilot maktablarda pedagoglar uchun maxsus kurslar o‘tkazilmoqda.

Boshqaruv mexanizmlari: muammolar va yechimlar

Inklyuziv ta’limni samarali boshqarish uchun quyidagi mexanizmlar muhim:

– multidissiplinar jamoalarni shakllantirish (pedagog, psixolog, defektolog);
– mahalliy ta’lim boshqarmalari darajasida monitoring tizimini joriy etish;
– moslashtirilgan baholash tizimlarini tatbiq etish;
– o‘quvchilarning individual rivojlanish kartalarini yuritish.

Boshqaruvning asosiy muammolari quyidagilardan iborat:

– malakali mutaxassislarning yetishmasligi;
– infratuzilmaning yetarlicha mos emasligi;
– ijtimoiy stigma va stereotiplar;
– moliyaviy resurslarning cheklanganligi.

Xalqaro tajribalar asosida tavsiyalar

Norvegiya, Italiya, va Yaponiya tajribasiga ko‘ra, inklyuziv ta’limni muvaffaqiyatli joriy qilish uchun:

– maxsus markazlar orqali o‘qituvchilarni tayyorlash;
– har bir maktabda inklyuziv muvofiqlashtiruvchi mutaxassis faoliyatini yo‘lga qo‘yish;
– yillik inklyuziv baholash va hisobot tizimini joriy etish zarur.

Inklyuziv ta’lim – bu zamonaviy ta’limning ajralmas qismidir. O‘zbekiston sharoitida quyidagi tavsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Inklyuziv ta’lim bo‘yicha alohida milliy strategiya ishlab chiqish.
2. Maktablarda inklyuziv markazlarni joriy etish.
3. Har yili pedagoglar uchun inklyuziv malaka oshirish kurslarini yo‘lga qo‘yish.
4. Jamiyatda ongni o‘zgartirish uchun ko‘plab targ‘ibot ishlarini tashkil etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov A. (2022). O‘zbekistonda inklyuziv ta’limning huquqiy asoslari. –T.: TDPU nashriyoti.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori PQ–4860-son. (2020). https://lex.uz/docs/5087037.

3. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (2020). https://lex.uz/docs/5013007.

4. UNICEF Uzbekistan. (2023). Inclusive Education in Uzbekistan: Progress and Challenges. https://www.unicef.org/uzbekistan.

5. Abdurahmonova D. (2023). Inklyuziv ta’limda boshqaruv mexanizmlarining samaradorligi. Ilmiy maqola, "Ta’lim va innovatsiyalar" jurnali, №1.

Zulfiya HOJIYEVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
“Umumiy pedagogika” kafedrasi, dotsent, (PhD)

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI SAMARALI HAMKORLIKDAGI FAOLIYATGA TAYYORLASH QONUNIYATLARI VA TAMOYILLARI

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni samarali hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslari, pedagogik qonuniyatlari va tamoyillari chuqur tahlil etilgan. Shuningdek, hozirgi holat, ilgari surilgan metodik yondashuvlar, yuzaga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etish istiqbollari yoritilgan. Ilmiy asoslangan tavsiyalar orqali pedagogik ta’lim tizimini takomillashtirish yo‘llari ko‘rsatib berilgan.

Tayanch so‘zlar. Samarali hamkorlik, bo‘lajak o‘qituvchilar, pedagogik tayyorgarlik, kompetensiya, interfaol metodlar, tamoyillar, pedagogik muhit, refleksiya, jamoaviylik, kasbiy rivojlanish.

В статье подробно анализируются теоретические основы, педагогические закономерности и принципы подготовки будущих учителей к эффективной совместной деятельности. Освещено текущее состояние, предложенные методические подходы, возникающие проблемы и перспективы их преодоления. На основе научных рекомендаций показаны пути совершенствования системы педагогического образования.

Ключевые слова. Эффективное сотрудничество, будущие учителя, педагогическая подготовка, компетенции, интерактивные методы, принципы, педагогическая среда, рефлексия, командная работа, профессиональное развитие.

This article provides an in-depth analysis of the theoretical foundations, pedagogical laws, and principles of preparing future teachers for effective collaborative activities. It highlights the current state, proposed methodological approaches, emerging challenges, and prospects for their resolution. Based on scientific recommendations, the paper outlines strategies for improving the system of pedagogical education.

Key words. Effective collaboration, future teachers, pedagogical training, competence, interactive methods, principles, educational environment, reflection, teamwork, professional development.

XXI asrda ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – ijtimoiy o‘zgarishlarga moslashgan, mustaqil fikrlovchi, innovatsion yondashuvga ega, hamkorlikda ishlay oladigan o‘qituvchilarni tayyorlashdir. Global kompetensiyalar, raqamli savodxonlik, tanqidiy tafakkur, shuningdek, jamoaviy muhitda ishlash qobiliyati zamonaviy pedagogik faoliyatning ajralmas jihatiga aylangan. Aynan shu omillar bo‘lajak o‘qituvchilarni samarali hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlash masalasini dolzarb qiladi. Xususan, samarali hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlash masalasi ta’lim sifatini oshirishda muhim omillardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki hamkor, lider, tashkilotchi va jamiyat bilan faol muloqotda bo‘ladigan shaxs sifatida shakllanishi lozim.

Samarali hamkorlik – bu faqatgina birgalikda ishlash emas, balki umumiy maqsad sari yo‘naltirilgan o‘zaro mas’uliyat, fikr almashinuvi, murosaga kelish, qaror qabul qilishda teng ishtirok etish, o‘zaro fikr va qadriyatlarni hurmat qilishga asoslangan faoliyatdir. Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak o‘qituvchilarda ushbu kompetensiyalarni shakllantirish, ularni kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Bo‘lajak o‘qituvchilarni samarali hamkorlikka tayyorlashda bir nechta nazariy-psixologik aso-

siy qonuniyatlar mavjud. Birinchi navbatda, o‘qituvchilik faoliyati – bu ijtimoiy faoliyat bo‘lib, u o‘z mazmuni va mohiyati bilan boshqalar bilan o‘zaro ta’sirni talab qiladi. Bu degani, o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchi, ota-ona, hamkasblar, jamiyat bilan uzluksiz aloqada bo‘ladigan ijtimoiy subyektdir. Shunday ekan, uning professional tayyorgarligida samarali hamkorlik madaniyatini shakllantirish alohida o‘rin tutadi.

Mazkur tayyorlov jarayonida quyidagi psixologik-pedagogik qonuniyatlar namoyon bo‘ladi:

O‘zaro ta’sir va ijtimoiy faollik qonuniyati – shaxsning faol rivojlanishi doimo o‘zaro ta’sir va hamkorlik orqali amalga oshadi. Talabalar o‘rtasidagi hamkorlik, kichik guruhlar, jamoaviy muammolarni hal qilish orqali o‘rgatish samaradorlikni oshiradi.

Motivatsion qonuniyat – talabaning samarali hamkorlikda ishtirok etishi uning ichki motivatsiyasiga bog‘liq. Agarda hamkorlik natijasida o‘zini anglash, ijtimoiy ahamiyatini ko‘rish, shaxsiy rivojlanish hissi uyg‘onsa, bu jarayon yanada faol kechadi.

Reflektiv qonuniyat – hamkorlikdagi faoliyatda shaxs o‘zining o‘tmishdagi tajribasini tahlil qiladi, uni baholaydi va yangi faoliyatga tatbiq qiladi. Refleksiya o‘qituvchilik kasbining doimiy tarkibiy qismidir va bu jarayon samarali hamkorlikni mustahkamlovchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Individual va ijtimoiy integratsiya qonuniyati – samarali hamkorlik shaxsiy fazilatlarni jamoviy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish orqali shakllanadi. Har bir talaba guruh ichida o‘zining rolini topadi, bu esa o‘z-o‘zini anglash, ijtimoiy rollarni o‘zlashtirishga yordam beradi.

Mazkur qonuniyatlar asosida pedagogik tamoyillar tizimi shakllanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni samarali hamkorlikka tayyorlashda quyidagi tamoyillar muhim hisoblanadi:

Subyekt-subyekt munosabat tamoyili – o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, tenglikka asoslangan muloqot va o‘zaro ta’sir bo‘lajak o‘qituvchida shaxsiy mas’uliyatni shakllantiradi.

Kooperatsiya va kollegiallik tamoyili – pedagogik jarayonni birgalikda rejalashtirish, amalga oshirish va tahlil qilish orqali talabalar o‘rtasida jamoaviylik ruhini rivojlantiradi.

Refleksiya tamoyili – har bir faoliyatdan so‘ng o‘z-o‘zini tahlil qilish, muammolarni aniqlash va takomillashtirish yo‘llarini izlash bo‘lajak o‘qituvchini tanqidiy fikrlashga o‘rgatadi.

Kasbiy yo‘naltirilganlik tamoyili – barcha hamkorlik shakllari va metodlari bo‘lajak kasbiy faoliyat talablariga mos holda tashkil qilinadi. Masalan, dars modeli yaratish, sinfda o‘zini tutish strategiyalari, o‘quvchilar bilan individual ish yuritish kabilar.

Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, pedagogik oliy ta’lim muassasalarida interfaol metodlar orqali tashkil etilgan mashg‘ulotlar, loyihaviy faoliyat, rolli o‘yinlar, “Peer teaching” (talabalararo o‘qitish), “Case-study” (muammo tahlili) usullari samarali hamkorlik kompetensiyalarini shakllantirishda yuqori natija beradi. Shuningdek, pedagogik amaliyot davomida o‘qituvchilar jamoasi bilan ishlash, sinf rahbarligi vazifalarini bajarish, ota-onalar bilan ishlash ko‘nikmalari real hayotiy vaziyatlarda samarali hamkorlikni o‘rgatadi.

So‘nggi yillarda pedagogika fanida “kollektiv kasbiy identifikatsiya” tushunchasi rivojlanmoqda. Bu atama o‘qituvchilarning birgalikda kasbiy o‘zlikni shakllantirishi, jamoaviy qadriyatlar va axloqiy me’yorlar asosida faoliyat olib borishini anglatadi. Bunday yondashuv, ayniqsa, pedagogik jamoalarda madaniyatli muloqot, ochiqlik va ishonch muhitini yaratishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, zamonaviy o‘qituvchi nafaqat mahalliy balki global darajadagi hamkorlikga tayyor bo‘lishi lozim. Shu bois, xalqaro loyiha va almashuv dasturlari, masofaviy ta’lim tizimlari orqali bo‘lajak o‘qituvchilarni transmilliy pedagogik muloqotga tayyorlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Oliy pedagogik ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarning hamkorlik kompetensiyala-

rini shakllantirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, dars jarayonlarida interfaol metodlarning qo‘llanilishi, amaliyot davrida talabalarni jamoaviy loyihalarda ishtirok ettirish, hamda kompilyatsiyalashgan darslar orqali o‘zaro o‘rgatish tajribasining joriy etilishi muhim yutuq sifatida baholanmoqda. Biroq mavjud rivojlanishga qaramay, pedagogik amaliyotda muayyan muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, talabalar orasida hamkorlikka tayyorlik ko‘proq “yordam berish” yoki “topshiriqni bo‘lishish” kabi soddalashtirilgan tushunchalar bilan cheklanmoqda. Haqiqiy hamkorlikning mohiyati – qarorlarni birgalikda qabul qilish, o‘zaro fikr almashish va javobgarlikni teng taqsimlashda namoyon bo‘lishi kerak.

Bundan tashqari, hamkorlik uchun metodik qo‘llanmalar va amaliy vositalar yetarli emasligi, o‘qituvchilarning ko‘pchiligi tomonidan an’anaviy yondashuvlarga sodiqlik, shuningdek, texnologik vositalardan foydalanish ko‘nikmalarining pastligi, mavjud muammolar qatoriga kiradi. Talabalarda ijtimoiy-emosional savodxonlikning yetishmasligi, ba’zida individual raqobatchilik jamoaviylikni so‘ndirishga olib kelayotgani ham kuzatilmoqda.

Tahlillardan ko‘rinib turibdiki, samarali hamkorlik – bu ko‘nikma emas, balki kompleks kompetensiya bo‘lib, u kommunikatsiya, empatiya, muammolarni hal qilish, qaror qabul qilish, liderlik va mas’uliyat kabi bir necha tarkibiy qismlardan iborat. Bunday kompetensiyalarni shakllantirish esa tizimli, rejalashtirilgan va nazariy asoslangan ta’lim jarayoni orqali amalga oshiriladi

Yuqorida qayd etilgan yutuq va muammolarni uzviy ravishda tahlil qilar ekanmiz, samarali hamkorlikni shakllantirish jarayonida kompleks yondashuvga ehtiyoj borligi ayon bo‘ladi. Bunda quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha ish olib borish tavsiya etiladi:

Har bir fan doirasida hamkorlik kompetensiyasini shakllantiruvchi topshiriq, loyiha va muhokama shakllarini kiritish; O‘qituvchi va talabalar o‘rtasida “co-teaching” modelini sinovdan o‘tkazish; “Virtual jamoalar” asosida xalqaro hamkorlikni rag‘batlantirish; Hamkorlik faoliyatini baholovchi rubrikalar va diagnostik vositalarni ishlab chiqish; Sun’iy intellekt, raqamli kollaboratsiya platformalari (masalan, Miro, Padlet, Google Docs)dan foydalanishni o‘rgatish.

Bu yo‘nalishlar orqali bo‘lajak o‘qituvchilarda shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy moslashuvchanlik va professional hamkorlik kompetensiyalari kengayadi. Shu bilan birga, ushbu yondashuvlar nafaqat ta’lim jarayonining sifatini oshiradi, balki ta’lim muassasasining jamoaviy madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni samarali hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlash masalasi zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u nafaqat kasbiy tayyorgarlik, balki shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish bilan bevosita bog‘liqdir. Ilmiy asoslangan qonuniyatlar va tamoyillar, interfaol metodlar va texnologik yondashuvlar orqali bu jarayonni mazmunan boyitish, ayni paytda mavjud muammolarni bartaraf etishga xizmat qiluvchi kompleks strategiyalarni ishlab chiqish muhim vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fullan M. (2007). The New Meaning of Educational Change. Teachers College Press.

2. Salomova N.A. (2021). O‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda hamkorlikning o‘rni. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar, №4.

3. Turdiyev A. (2020). Zamonaviy o‘qituvchini tayyorlashda jamoaviy kompetensiyalar. Pedagogika va psixologiya, №2.

4. Senge P. (1990). The Fifth Discipline: The Art & Practice of The Learning Organization. Doubleday.

Erkin MURODOV,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat Milliy instituti, “Uzluksiz kasbiy ta’lim” kafedrasi, dotsent, (PhD)

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARI O‘QUVCHILARINI ZAMONAVIY KASB-HUNARLARGA O‘QITISH VA MEHNAT FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini zamonaviy kasblarga o‘qitish va tayyorlash jarayonida zarur bo‘lgan kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish, kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha yaratilayotgan milliy tizimning nazariy asoslari, uni amaliyotga joriy etish tartibi, amalga oshirish mexanizmlari bayon etilgan. Shuningdek, bugungi kunda respublikaning har bir hududida yuqori sinf o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha tashkil etilgan tayanch maktablar faoliyati va undagi ta’lim jarayonlari tahlil etilgan.

Tayanch so‘zlar. Kasbiy ko‘nikmalar, bizness va kasb-hunarga o‘rgatish, amaliy kasblar, zamonavaiy kasblar, kreativ industriya, kasb-hunar o‘rgatish bo‘yicha tayanch maktablar.

В статье изложены теоретические основы создаваемой национальной системы профессиональной ориентации, формирования профессиональных навыков, необходимых в процессе обучения и подготовки учащихся общеобразовательных учреждений к современным профессиям, порядок ее внедрения в практику, механизмы реализации. Также проанализирована деятельность базовых школ, организованных сегодня в каждом регионе республики по профориентации старшеклассников, и образовательные процессы в них.

Ключевые слова. Базовые школы профессионального мастерства, делового и профессионального обучения, прикладных профессий, современных профессий, креативной индустрии, профессионального обучения.

The article describes the theoretical foundations of the national system being created on the formation of professional skills necessary in the process of training and preparation of students of general secondary educational institutions for modern professions, vocational guidance, the procedure for its introduction into practice, the mechanisms of implementation. Also, today in each region of the Republic, the activities of base schools and educational processes in it are analyzed, which are organized to target upper-class students to the profession.

Key words. Base schools for professional skills, bizness and vocational training, practical professions, modern professions, creative industry, vocational training.

Bugungi kunda ta’lim tizimida maktab o‘quvchilarini kasb-hunarga o‘qitish, yoshlar orasida mehnat faoliyatiga yo‘nalish berish, ularni qo‘llab-quvvatlash va o‘zaro rag‘batlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy kasblarga o‘qitishning ahamiyati – umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni zamonaviy kasblarga o‘qitish va tayyorlash, bir tomondan, o‘quvchilarning mustaqil hayotga muvaffaqiyatli tayyorlashni ta’minlashga, ikkinchi tomondan esa mamlakatda kelgusida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash orqali iqtisodiyotning rivojiga hissa qo‘shishga qaratilgan. Bundan tashqari, zamonaviy kasblarga o‘qitish va tayyorlash o‘quvchi-yoshlarning o‘zaro munosabatlarini rivojlantirish, kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirish, aqliy va mehnat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish,

o‘ziga bo‘lgan ishonch va mas’uliyat bilan qarash tuyg‘usini shakllantirishga yordam beradi.

Zamonaviy kasblarga o‘qitish va tayyorlashning maqsadlari – umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning qiziqishi, layoqati va qobiliyatidan kelib chiqib, zamonaviy kasblarga o‘qitish orqali ularning mustaqil hayotda muvaffaqiyatga erishish, farovon hayotga tayyorlash, hayotda o‘z o‘rnini topish, tanlagan kasbi bo‘yicha mehnat faoliyatini davom ettirishga mas’uliyat bilan yondashishni o‘rgatishdan iborat. Shu bilan birga, kasb-hunarga o‘qitish:

– o‘quvchilarda kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish va uni hayotda qo‘llash qobiliyatini rivojlantirish;

– jamiyatda kasbiy o‘zini-o‘zi rivojlantirishga va mustaqil ishlashga qobiliyatli o‘quvchilarni tarbiyalash;

– zamonaviy texnologiyalarni ishlatish va innovatsion ishlash usullarini amalga oshirish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Zamonaviy kasblarga o‘qitish usullari. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida zamonaviy kasblarga o‘qitishning turli usullari mavjud. Ular o‘quvchining individual qobiliyatlariga qarab, turli xil shakllarda va usullarda amalga oshiriladi. Quyidagi usullar maktabda kasb-hunarga o‘qitishda samarali hisoblanadi:

Amaliy mashg‘ulotlar: o‘quvchilarga turli kasblar bo‘yicha amaliyotlar o‘tkazish, ularga real hayotda kerakli ko‘nikmalarni o‘rgatish.

Variativ (tanlov) o‘quv dasturlari: turli soha va kasblar bo‘yicha xususiy o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, bu orqali o‘quvchilarning qiziqishlarini e’tiborga olish.

Kelajak kasblariga o‘qitish dasturlari: umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini mehnat bozorida talab qilingan va kelajakda zarur bo‘ladigan kasblarni tanlashga yordam berish.

Zamonaviy kasblarga o‘qitishdagi muammolar.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni zamonaviy kasblarga o‘qitish va tayyorlashda kasb-hunarga o‘qitishda bir qator muammolar mavjud. Ular orasida asosiylari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Birinchidan, zamonaviy kasblarga o‘qitish va tayyorlash uchun umumiy o‘rta ta’lim muassasalari rahbarlarining e’tibori yetarli emasligi, ya’ni maktablar hali ham umumta’limga asoslangan ta’lim usullariga ustuvorlik berishmoqda, bu esa kasbiy tayyorgarlikka yetarli darajada e’tibor berilmasligiga olib keladi.

Ikkinchidan, zamonaviy kasblarga o‘qitish va tayyorlashga mas’ul bo‘lgan pedagoglarning yetishmasligi, kasbiy malakasi yetarli emasligi, ya’ni kasb-hunarga o‘rgatish uchun pedagoglarning alohida kasbiy mahorati talab etiladi, buning uchun “kasb ustasi” bo‘lishi zarur.

Uchinchidan, zamonaviy kasblarga o‘qitish va tayyorlash uchun zarur sharoitlarning yetarli emasligi, ya’ni o‘quvchilarni zamonaviy kasblarga tayyorlashda o‘quv dasturlar, o‘quv ustaxonalar, jihozlar, xom-ashyo va boshqa resusrlar yetarli emas.

Zamonaviy kasblarga o‘qitish va tayyorlashda mavjud muammolarning yechimida davlatning ishtiroki.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarining xorijiy tillar va kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ushbu jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish hamda mehnat bozori talablariga mos malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash maqsadida yaqinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagi PQ-53-son qarori qabul qilindi.

Mazkur qaror bilan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash borasida 1-4-sinflarda o‘quvchilarga boshlang‘ich 5-9-sinflarida

tayanch hamda 10-11-sinf o‘quvchilarining qiziqish va qobiliyatiga mos bo‘lgan bilimlarni berishga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlari joriy etilishi nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, kelgusi 2024-2025-o‘quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich tajriba-sinov tariqasida o‘quvchilarni zamonavaiy kasblarga tayyorlash borasida quyidagi tartibni joriy qilish belgilandi:

– umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 10-11-sinflarida tayanch o‘quv rejasi asosida o‘qitish bilan bir qatorda “Fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish” hamda “Bizness va kasb-hunarga o‘qitish” yo‘nalishlari bo‘yicha ham ta’lim dasturlarini joriy qilish;

– “Fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish” yo‘nalishi doirasida – o‘quv jarayonini tashkil etishda asosiy e’tiborni aniq, tabiiy fanlar yoki xorijiy tillarga qaratish, “Bizness va kasb-hunarga o‘qitish” yo‘nalishi doirasida esa, o‘quvchilarni ishchi yoki raqamli texnologiyalarga oid kasblarga o‘qitish.

Shu bilan birga, 2024-2025-o‘quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida xorijiy tillarni o‘qitishning quyidagi tartibi joriy etilishi nazarda tutilmoqda:

– 5-9-sinflarda xorijiy til o‘qitish intensivligini oshirish orqali o‘quvchilarda bazaviy bilim va nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish;

– 10-11-sinflarda xorijiy tilni o‘qitishda asosiy e’tibor o‘quvchilarning akademik yozuv va so‘zlashish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratish.

“Fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish" yo‘nalishi doirasida xorijiy til fanini tanlagan o‘quvchilar 10-11-sinflarda ikkinchi xorijiy tilga o‘qitiladi.

Buning uchun 2024-yil 1-mayga qadar mahalliy va xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda xorijiy til fani bo‘yicha o‘quv reja va dasturlar takomillashtiriladi. Bunda, o‘quvchilar tomonidan 11-sinfda ikkinchi xorijiy tilning kamida A2 darajada o‘zlashtirilishi nazarda tutiladi. 2024-yil yakuniga qadar xorijiy tilni o‘qitish bo‘yicha xalqaro nashriyotlar darsliklarini xarid qilish va mahalliylashtirish hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida xorijiy tilni o‘qitish samaradorligini oshirish maqsadida ingliz, koreys, nemis, fransuz, xitoy va yapon tillari bo‘yicha malakali mutaxassislarni jalb qilish choralari ko‘riladi.

Ayni vaqtda respublika umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 500 nafar ingliz, fransuz va nemis tillaridan xorijlik mutaxassislar faoliyat yuritmoqda. Kelgusi yilda ularning sonini 1500 nafarga yetkazish rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, yangi o‘quv yiliga qadar umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining xorijiy til o‘qituvchilarining bilim va ko‘nikmalari diagnostikadan o‘tkaziladi hamda zamonaviy ta’lim metodikalar asosida ularning malakasini oshirish bo‘yicha qisqa muddatli o‘quv kurslari tashkil etiladi.

Bugungi kunda, o‘quvchilarni zamonaviy kasblarga o‘qitish bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlashda oliy ta’lim tizimi bilan uzviylik ta’minlanmagan. Ta’limning uzviyligini ta’minlash maqsadida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan birgalikda 2024-yil 1-sentabrga qadar xorijiy tillar yo‘nalishlari bo‘yicha pedagoglarni tayyorlaydigan davlat oliy ta’lim muassasalarining o‘quv reja va dasturlarini takomillashtirib, ular umumiy o‘rta ta’limning xorijiy tilni o‘qitish dasturiga muvofiqlashtiriladi.

2024-2025-o‘quv yilidan boshlab xorijiy tillar yo‘nalishlari bo‘yicha pedagoglarni tayyorlaydigan davlat oliy ta’lim muassasalari talabalarining umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida pedagogik amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi. Jumladan, xorijiy tillar yo‘nalishlari bo‘yicha pedagoglarni tayyorlaydigan davlat oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan bitiruvchi kurs talabalariga bir vaqtning o‘zida ham o‘qish, ham pedagogik faoliyatni amalga oshirish imkonini beruvchi moslashuvchan dars jadvali joriy etiladi. O‘quvchilarni zamonaviy kasb-hunarga o‘rgatish maqsadida “Bizness va kasb-hunarga o‘qitish” tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Bunda o‘quvchilar ‘‘Milliy malakalar ramkasi’’ning 2-darajasiga mos bo‘lgan kasblarga o‘qitiladi.

O‘quvchilarni kasblarga o‘qitish ishlarini samarali yo‘lga qo‘yish uchun umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ustaxonalar tashkil etiladi va oylik ish haqi oliy ma’lumotli umumta’lim maktabi o‘qituvchisiga tenglashtirilgan “Kasbiy ta’lim ustasi” lavozimi joriy qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini zamonaviy kasblarga o‘qitish va tayyorlash nafaqat ularning kasbiy tayyorgarligini oshirish, balki ularni ijtimoiy va iqtisodiy hayotga faol va mas’uliyatli shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Kasb-hunarga o‘qitishga ustuvorlik berish, mutaxassislar malakasini oshirish va zamonaviy texnika bilan ta’minlash maktab ta’lim tizimida ijobiy o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. Shu bilan birga, kasb-hunarga o‘qitish jamiyatning har tomonlama rivojlanishiga, kambag‘allikni qisqartirish, ishsizlikning kamayishiga va iqtisodiy barqarorlikka hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, Toshkent sh., 2019-yil 24-aprel, PF-5712-son, https://lex.uz/docs/4312785.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” Toshkent sh., 2023-yil 28-fevral, PF-27-son, https://lex.uz/docs/4347851.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezident qarori “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini xorijiy til va zamonaviy kasblarga o‘qitish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Toshkent sh, 2024-yil 2-fevral, RQ-53-son, https://lex.uz/docs/6787995

4. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2023-yil 14-avgustdagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish ishlarini tizimli tashkil etish to‘g‘risida”gi 238-sonli buyrug‘i.

5. 21st Century Competencies, https://www.moe.gov.sg/education-in-sg/21st-century-competencies.

6. Bitiruvchi sinf o‘quvchilarini hunarga tayyorlash bo‘yicha 46 ta kasb ro‘yxati tuzildi, 12.08.2022-yil. https://kun.uz/news/2022/08/12/bitiruvchi-sinf-o‘quvchilarini-hunarga-tayyorlash-bo‘yicha-46-ta-kasb-ro‘yxati-tuzildi.

Muxabbat SHARIPOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
“Xorijiy tillar” kafedrasi, dotsent

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INGLIZ TILINI O‘QITISH JARAYONIDA KOGNITIV-KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitishda o‘quvchilarning kognitiv-kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishning ilmiy jihatdan asoslanishi, ularda nutqiy faoliyat komponentlarini o‘stirish, lug‘at boyligini oshirish, matn ustida ishlash bilimlarini kengaytirish, ingliz tilida so‘zlash ko‘nikmalarini hosil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari, og‘zaki va yozma nutq savodxonligini shakllantirish bo‘yicha tilshunos, metodist, pedagog olimlar va psixologlarning ilmiy qarashlari tahlil qilinib, subyektiv munosabat bildirilgan.

Tayanch so‘zlar. O‘quv-kognitiv jarayon, o‘zbek adabiy til me’yorlari, diqqat, kuzatish, nutqiy, lingvistik kompetensiyalar, bilim, ko‘nikma, malaka, so‘zlarning lug‘aviy-semantikasi, lug‘atlar, kichik hajmli gap va matn ustida ishlash.

В статье дается научное обоснование развития у учащихся познавательно-коммуникативных компетенций при обучении английскому языку в начальных классах, развитие у них компонентов речевой деятельности, увеличение словарного запаса, расширение знаний по работе с текстом, формирование навыков разговорной английской речи особенности формирования устной и письменной речевой грамотности. анализ взглядов, выражается субъективная реакция.

Ключевые слова. Учебно-познавательный процесс, нормы узбекского литературного языка, внимание, наблюдательность, речевые, языковые компетенции, знания, умения, навыки, лексико-семантика слов, словари, работа над мелким предложением и текстом.

The article analyzes the scientific justification of the development of cognitive-communicative competencies of students in teaching english in primary classes, the development of components of speech activity in them, increasing vocabulary wealth, expanding knowledge of working on text, the peculiarities of generating english speaking skills, the scientific views of linguists, methodists, pedagogists and psychologists on the formation of oral and written speech literacy.

Key words. Educational-cognitive process, Uzbek literary language norms, attention, observation, speech, linguistic competencies, knowledge, skills, competence, vocabulary-semantics of words, dictionaries, work on a small volume sentence and text.

Boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitishda kognitiv-kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda o‘quv materialini o‘rgatish ahamiyatli. Til materialini o‘zlashtirishda nutqiy kompetensiyaning tarkibiy elementlaridan tinglash va gapirish ko‘nikmasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ingliz tilini o‘rganishda avval tinglash va uni tallaffuz qilish samaradorligini oshiradi. Bunda ingliz tilida muloqot qilish, o‘zaro suhbatlashish yordamida tilga oid ko‘nikmalar o‘zlashtiriladi. Chet tilda muloqot qilish ko‘nikmasini shakllantirish uchun o‘quvchi til materialini o‘zlashtirishi, tinglab tushunishi, ingliz tilida kichik hajmli matnlardagi so‘zlar bilan ishlashi va gapirishni rivojlantirishi zarur. Professor J.J.Jalolovning fikriga ko‘ra, ko‘ruv analizatori grafik (yozuvda ko‘rish mumkin bo‘lgan) timsollar va mazmunan bog‘lanishlar yaxlit timsol

sifatida sintezlashadi. Nutq faoliyati turlarini sodir etilishida analizatorlarning o‘zaro harakati quyidagi tartibda kuzatiladi:

Gapirishda yetakchi – nutq-harakat, qo‘shimcha – eshituv, o‘qishda – ko‘ruv, qo‘shimcha – nutq harakat, yozuvda yetakchi – qo‘l harakat, qo‘shimcha – ko‘ruv, tinglab tushunishda yetakchi-eshituv, qo‘shimcha–nutq harakat analizatorlari xizmat qiladi. B. Belyayevning e’tiroficha, “Xorijiy til o‘qituvchisi o‘z faninigina emas, bolaning psixofiziologik xususiyatini ham yaxshi bilishi kerak. Zero, xorijiy tilni o‘zlashtirish orqali bolada obyektiv olamning aks etishi o‘zgarishi mumkin. Tilning lug‘at tarkibini egallash o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi, ularning filologiya, tarix, madaniyat, geografiyaga oid bilimdonligini oshiradi”. Shunisi ayonki, ingliz tilini o‘rganishni boshlagan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida birinchi navbatda lug‘at bilan ishlash yo‘lga qo‘yilishi kerak. F.Nazarovaning fikri tahsinga sazovor. “Xorijiy tilni o‘rganish jarayonida ko‘pchilik gapirish yoki o‘qishni o‘rganish bilan cheklanib qoladi, ammo ular og‘zaki nutq amaliyoti uchun kommunikativ grammatika va kommunikativ leksikaning ham muhim o‘rni borligini anglab yetishi lozim”.

So‘z shaklini anglash uni boshqa so‘zlar bilan biriktirib tugal fikr anglatadigan gaplar yasash, shuningdek, fikrni tinglab va o‘qib tushunish, grammatik ko‘nikma va malakalarni egallashni talab qiladi. Umuman olganda, so‘zlarning ma’no va grammatik jihatdan mazmunli birikishini hosil qilish, so‘z qo‘shilmasi va so‘z birikmasining o‘zaro farqlanishini anglash, matn sarlavhasi, yoritishga xizmat qiladigan jumlalarni tuzishni, gap tarkibiga mos so‘z birikmalarini o‘rinli tanlay olishni o‘zbek tili va chet tili grammatikasining qoidalariga tayanishni taqozo qiladi. Qator izlanishlarda xorijiy tilni egallashda ona tilining roliga katta e’tibor qaratilgan.

Ma’lumki, tilning lug‘at tarkibiga kiruvchi so‘zlar leksika deyiladi. “Leksika” tilning doimo rivojlanuvchi elementi hisoblanadi. Umumiy o‘rta maktab ta’limi tizimida o‘quvchilar o‘zlashtirib olishlari zarur bo‘lgan leksika anglab olinishi kerak. O‘quv jarayonida mavzuni o‘rganish uchun tanlab olingan leksik birliklarni o‘quvchilar birinchi navbatda, o‘zlashtirib olishlari lozim. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitishda kognitiv – kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda til ta’limiga imkon qadar matn va uning ustida ishlash, o‘quvchilarga zarur bo‘lgan bilim va malakalarni berish, lug‘at zaxirasini yaratishi ko‘nikmalariga e’tibor qaratish lozim. Shuningdek, o‘quv jarayonida mavzu doirasida o‘quvchilarning leksik birliklar, to‘g‘ri va mantiqqa asoslangan matn yaratish, chet tilini o‘rganish tamoyillariga amal qilishni yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois o‘quvchilardagi ingliz tilini o‘rganish bo‘yicha tinglab tushunish va to‘g‘ri talaffuz qoidalariga rioya qilishni o‘stirish zarur. Darsda lug‘at zaxirasini yaratishda so‘zning kontekstda ko‘p uchrashi va uni asosiy nutqiga olib chiqishni o‘rgatish maqsad qilib olinishi va bolalarda og‘zaki nutq faoliyatini o‘yinlar orqali rivojlantirish ahamiyatga molik. Ingliz tilini o‘rgatish uchun tayyorlab kelingan material tinglab tushuniladi, keyin esa amaliyot sifatida og‘zaki nutqda qo‘llaniladi.

Bu funksiyalar, o‘quvchilarning xorijiy til manbalarini o‘zlashtirishlariga turtki bo‘ladi, sababi til o‘rganishning muhim tarkibiy qismlaridan biri nutq ko‘nikmani oshirishdir. Xorijiy tilni o‘zlashtirish, o‘quvchilarning diqqatini va hissiyotlarini oshishiga ko‘maklashadi, xotirani mustahkamlaydi va tasavvur qobiliyatini rivojlantiradi. Bu xislatlar bolalarga o‘zaro muloqotda bo‘lish, savollar yoki muammolarga yechim topish va boshqa ko‘nikma va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishda yordam beradi. 6–7 yoshli bolada hamma narsaga qiziqish hissi paydo bo‘lganligi kuzatiladi. Bu yoshdagi bolalarda tahlil qilish, qiyoslash, umumiylashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhimdir. Ko‘p

psixologik izlanishlarda ta’kidlanishicha, qiyoslash, kuzatish, rivojlantirish idrok etishda samarali usullardan biri hisoblanadi. Bunda xatoga yo‘l qo‘yishlar kamayib, idrok etish rivojlanadi. Bunday sharoitda bola katta yoshidagiga nisbatan xorijiy tilda tezroq va muvafaqqiyatliroq gapira olishni o‘rganadi. Bolalikda o‘zlashtirilgan bilim abadiy saqlanib qoladi, degan fikr mavjud. Lekin ingliz tili (umuman, xorijiy tillar) da og‘zaki nutq faoliyatini rivojlantirishga ozgina e’tibor berilmay qolinsa, og‘zaki gapirish malakasi yo‘qolib ketadi. Ingliz tilini o‘rganishda, ayniqsa, fonetikasini e’tiborga oladigan bo‘lsak, o‘qituvchi qanday yuz ifodasi va ovoz bilan so‘z va iboralarni talaffuz etishi juda muhimdir. Shubhasiz, o‘qituvchining ovozi yumshoq, mayin, chehrasi esa ovoz toniga mos xushchaqchaq, quvnoq yoki jiddiy bo‘lishi kerak. 1-sinfda ingliz tilini o‘rganishda o‘quvchining atrofdagilar bilan muloqot qila olishiga, ya’ni til kompetensiyasining shakllanganligiga e’tibor berish lozim.

Dars jarayonida o‘rganilgan so‘z, iboralarni o‘quvchilar amaliyotda qo‘llab, o‘z natijalarini ko‘rishlari mumkin. Xorijiy tilni o‘rgatishda doimo o‘quvchining ona tili hisobga olinadi. Ingliz tili va ona tilidagi tovushlarning umumiy va farq qiluvchi jihatlarini ko‘rsatish muhimdir. Ta’lim berish jarayonida faqat individual shaklni emas, balki guruh, jamoa shakllarini ham tatbiq etish zarurdir. Bugungi kunda chet tilini umumyevropa standartlari asosida o‘qitishda kompetensiyalarga alohida e’tibor qaratilgan.

O‘quvchilarning chet tilini amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalari, ularni yoza olish, ma’lumotlarni ingliz tilida o‘qish va inglizcha gapirish, inglizcha so‘z va iboralardan foydalanish va fikrlarini ifodalash, muloqot qilish va boshqa amaliyotlar kabi ko‘nikmalarni o‘rgatishga imkon beradi. Xorijiy tilni kichik yoshdan o‘rgatish nafaqat ta’limiy, balki tarbiyaviy va informativ xususiyatga ega. Bola umuminsoniy qadriyatlarni o‘zga til orqali o‘zlashtira boshlaydi. Xorijiy tilni bolalikdan o‘rganish kimlargadir taqlid qilish emas, bu davr talabi va ehtiyojidir. Avvalo, pedagog o‘quvchilarning qiziqish va intilishlarini oshirish uchun o‘quv jarayonini qiziqarli tashkil etishi lozim. Buning uchun o‘quvchilarga qiziqarli amaliy mashg‘ulotlar tashkil qilish, o‘quv materialini qiziqarli va ularning yoshidan kelib chiqib tanlash, o‘quvchilarning muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantirish kabilarni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, o‘qituvchi o‘quvchilarning nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda zarur hisoblangan ko‘nikmalarni o‘rgatishda yordamlashadi. Bunday ko‘nikmalar tilni o‘rganishni yanada osonlashtiradi va o‘quvchilarga tilni amaliyotda qo‘llashga ko‘maklashadi. O‘qituvchilar mashg‘ulotlar va turli o‘yinlar bilan tilni o‘rganish jarayonini yengillashtirishadi. O‘qituvchi o‘quvchilarning shaxs bo‘lib shakllanishi va rivojlantirishiga ko‘maklashadi. Bu jarayon, o‘quvchilarning o‘zini o‘rganishga qaratilgan ishlar va mashg‘ulotlar orqali o‘zlarining istaklarini belgilab olish va o‘zini-o‘zi tahlil qilishiga yordam beradi.

Maktab yoshiga yetgan o‘quvchining aql-idroki, sezgirligi, kuzatuvchanligi, uquvi hamda esda saqlash qobiliyatlari shakllangan bo‘ladi. Shu bilan birga, ta’lim olish jarayonida ularning bilishga qiziqish imkoniyatlari kengayib boradi, ijodiy izlanish qobiliyatlari rivojlanadi, ularda tafakkurning faolligi hamda mahsuldorligi ortib boradi va nihoyat idrok qilish orqali aqliy faoliyat bilan shug‘ullanish imkoniyatlari shakllanib boradi.

Professor E. G‘oziyevning tadqiqotlariga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sezish, his qilish, tafakkur tushunchalarining o‘ziga xos jihatlari mavjud. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sezgi alohida ahamiyatga ega hisoblanib, bolalarning fikrlashi, dunyoqarashi, odamlar bilan aloqalarini anglash va o‘z hislarini ifodalashda asosiy ahamiyat kasb etadi. Sezgi o‘quvchilarning o‘zlarini hamda o‘zaro aloqa-munosabatlarini tushunishda muhim sanalib, quyidagi fikrlarni beradi. Mazkur yoshdagi bolalar

o‘z fikrlarining aniqligi, ravonligi, sofligi bilan boshqa yosh davridagi o‘quvchilardan keskin farqlanadi. Ular har bir narsaga berilib, o‘ta sinchkovlik bilan qarashlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Zamonaviy lingvistik adabiyotda til va nutqning o‘zaro aloqasiga oid hamma tomondan e’tirof etilgan yagona fikr mavjud emas. Tilshunos V. Shcherba’ning fikri bo‘yicha, nutq faoliyati gapirish va nutqni tushunish jarayonlaridan, til tizimi, tillar lug‘atlari va grammatikalaridan, til materiali esa matndan iboratdir. Tilning asosiy farqi shundan iboratki, til tizimi va ularning vositalaridan iborat bo‘lib, nutq esa bu tizimdan foydalanish jarayoni va natijasi hisoblanadi, ya’ni nutqiy muomala ijtimoiy hodisa sanaladi. Tilning tildan farqi shundan iboratki, nutq bir paytda individual ruhiy hodisa sanaladi, tizim sifatidagi til esa ijtimoiy hodisadir: nutq rivojlanuvchan, o‘zgaruvchan, vaziyat bilan bog‘liq va tasodifiy hodisadir. Til esa ichki aloqalarning mujassamlangan tizimidir va o‘z mohiyatiga ko‘ra, doimiy, qat’iy, o‘zgarmas hodisa sanaladi. Til birliklari shaklan semantik jihatiga ko‘ra tizimga birikadi. Til va nutq tushunchasini farqlash, metodika uchun juda muhimdir. Nutq esa til tizimining ma’lum nutqiy harakatlarda ifodalanishidan iboratdir, ya’ni u aloqa jarayonini ham, shu jarayon mahsuli bo‘lgan matnlarni o‘z ichiga oladi. “Qiziqish (emotsiya tarzida) – malaka va ko‘nikmalarning rivojlanishiga, ta’lim olishga moyillik tug‘diradigan bilimlarni egallashga yordam beradigan ijobiy hissiy holatdir”[1].

Boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitishda kognitiv – kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda grammatik, lisoniy ifodalarning keng qamrovli o‘rgatilishi, pedagogik jarayonda so‘z boyligini o‘stirish ustida ishlash, to‘g‘ri talaffuz qilishni muntazam nazorat qilish ta’lim sifati va samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Беляэв Б. В. К вопросу о сознателности обучения иностранним язикам. В сб.: “Вопроси психологии и методики обучения иностранним язикам”, под ред. В.

2. Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi: chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. -Toshkent: O‘qituvchi, 2012. -432-b

3. Щерба Л.В. Преподавание язиков в школе: Обшие вопроси методики: учеб. пособие для студ. филол. фак. –3-е изд., испр. и доп. – СПб.: Изд-во СПбГУ; М.: Академия, 2003. – 160 с

4. Митрофанова О.Д., Костомаров В.Г. Методика преподавания русского языка как иностранного. — М., 1990. — 269 с.

5. G‘oziev E.G‘. Psixologiya. – T.: O‘qituvchi, 1994. 120-215-b.

[1] Изард К. Э. Психология эмоций . — СПб.: Питер, 2012. - 464 с.

Gulnoz MAQSUDOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
“Xorijiy tillar” kafedrasi, dotsent

BO‘LAJAK XORIJIY TIL O‘QITUVCHISINING KASBIY NUTQ FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KONSTRUKTIVLIKNING O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirishda nutq o‘stirish va undagi konstruktivlikning ilmiy jihatdan asoslanishi, ularda nutqiy faoliyat komponentlarini o‘stirish, lug‘at boyligini oshirish, matn ustida ishlash bilimlarini kengaytirish, ingliz tilida so‘zlash ko‘nikmalarini hosil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, og‘zaki va yozma nutq savodxonligini shakllantirish bo‘yicha tilshunos, metodist, pedagog olimlar va psixologlarning ilmiy qarashlari tahlil qilinib, subyektiv munosabat bildirilgan.

Tayanch so‘zlar. O‘quv-kognitiv jarayon, boshlang‘ich sinf, o‘zbek adabiy til me’yorlari, diqqat, kuzatish, nutqiy, lingvistik kompetensiyalar, malaka, so‘zlarning lug‘aviy-semantikasi, lug‘atlar, kichik hajmli gap va matn ustida ishlash.

В статье рассмотрено научное обоснование развития речи и конструктивизма в ней в процессе развития профессиональной речевой деятельности будущего учителя иностранного языка, особенности развития в них компонентов речевой деятельности, пополнения словарного запаса, расширения знаний о работе над текстом, формирования навыков владения английским языком. Анализируются также научные взгляды лингвистов, методистов, педагогов и психологов на формирование устной и письменной речевой грамотности, выражается субъективное отношение.

Ключевые слова. учебно-познавательный процесс, начальный класс, нормы узбекского литературного языка, внимание, наблюдательность, речевые, языковые компетенции, компетентность, лексико-семантика слов, словари, работа над мелким предложением и текстом.

The article reflects on the peculiarities of growing speech and the scientific justification of Constructivism in the development of professional speech activity of the future foreign language teacher, growing components of speech activity in them, increasing vocabulary wealth, expanding knowledge of working on the text, generating English speaking skills. The scientific views of linguists, Methodists, pedagogical scientists and psychologists on the formation of oral and written speech literacy were also analyzed and reacted subjectively.

Key words. Educational-cognitive process, primary class, Uzbek literary language norms, attention, observation, speech, linguistic competencies, competence, vocabulary-semantics of words, dictionaries, work on a small volume sentence and text.

Ma’lumki, bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchisi o‘quvchilarga o‘z fanini o‘qitayotganda ko‘plab jihatlarga e’tibor qaratishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning nutqiy faoliyatini o‘stirish, fikrlash qobiliyatini, lug‘at boyligini oshirish zarur. B.Belyayevning fikricha, chet til o‘qituvchisi o‘z faninigina emas, bolaning psixofiziologik xususiyatini ham yaxshi bilishi kerak. Zero, chet tilni o‘zlashtirish orqali bolada obyektiv olamning his qilish, rivojlanish aks etadi. Tilning lug‘at tarkibini egallash o‘quvchilarni dunyoqarashini kengaytiradi, ularning filologiya, tarix, madaniyat, geografiyaga oid bilimdonligini oshiradi. Tabiiyki, bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchisi bolalarda so‘zlash, kommunikativ, o‘zaro muloqot qilish ko‘nikmalari rivojiga o‘quv jarayonida asosiy maqsad

tariqasida rivojlantirib boradi. Bunday jarayonlar samarasida konstruktiv nutqning takomillashuvi diqqatga sazovordir.

Konstruktiv nutqning dinamikligi, dars jarayonining bevosita ishtirokchilari sanalgan o‘quvchilarning kontekstlar bilan ishlash, kommunikativ, pragmatik kompetensiyalar rivojlanishi uchun tashkillashtirilgan dars loyihalariga uyg‘un holatda bo‘lishi talab qilinadi. A.A. Ivinning so‘zlariga ko‘ra, "tilning asosiy vazifalari – muloqot va bilish jarayonida hal qilinadi. Fikrlash og‘zaki jarayon sifatida o‘qituvchi va talabaning individual kognitivligi nazarda tutiladi”. Shuningdek, bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirishda nazariy va amaliy bilimlar mutanosibligidan kelib chiqib, ulardagi kogtivlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Og‘zaki muloqotning maqsadi chet tili darsidagi umumiy mavzuning mantiqiy kontekstga nisbatan kommunikativ aloqalarning aksiologik nuqtayi nazarlarini uyg‘unlashtirishdir. Kasbiy muloqotning uyg‘unligi – bu o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi rasmiy ijtimoiy tomonlar bilan shug‘ullanadigan mavzu mantiqiy ma’lumotlarning ahamiyati haqidagi kelishuvdir. Xorijiy tilni o‘qitishda professional nutq ikki tilli muloqot uchun fikrlash subyektining ijodiy yondashuvi dunyoning professional pedagogik yondashuvini o‘z ichiga oladi. Xorijiy tilda muloqotning aniq va yetarli darajada olib borilish mazmuni tuzilmaviy jihatdan atama, termin va tushunchalarning lug‘aviy ma’nosiga va nutqda ularni o‘rinli qo‘llashni nazardan chetda qoldirmasligi ahamiyatli. Bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchisi shaxsining konstruktivizmi faol og‘zaki va aqliy faoliyat uchun umumiy mavzu-mantiqiy makonga ega bo‘lgan kommunikativ sheriklar munosabatlarining ekstraversiyasini anglatadi. Fikrlash subyektining ongli ravishda o‘tishi professional nutq aloqasining evolutsion yo‘nalishiga aylanadi. Muloqotning har qanday fikr bayoni o‘z-o‘zidan paydo bo‘lishi mumkin. Umuman olganda, fikrlash subektining maqsadi deganda, biz uning o‘qituvchi chet tilini o‘rganuvchilar o‘rtasidagi konstruktiv o‘zaro ta’sirning professional mohiyatini tushunish o‘sib boradi. Ko‘pincha, bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchisining shaxsiyati talabalar uchun chet tili darsida dolzarb axborot masalalari bo‘yicha o‘z qarashlarini so‘rashni eng samarali deb hisoblaydi. V.L.Abushenkoning e’tiroficha, konstruksiyalarni assimilyatsiya qilish, "empirik bilim" dan konseptual bilimga o‘tish sodir bo‘ladi, empirik va nazariy til bilan mantiq o‘rtasida tarjima funksiyalarini bajaradi. Aslida, konstruksiyalar bilim tarkibidagi kashf etilgan va belgilanmagan bo‘shliqlarni to‘ldiradi va ular yaratgan bilimlardan tashqarida mustaqil ma’noga egaligi sinovdan o‘tadi[1]. Ikki tilli muloqotda konstruksiyalarni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

V.L. Abushenkoning asosli ta’riflari, bu chet tilida o‘quv jarayonida kuzatiladigan, o‘lchanadigan va takomillashtirishga o‘tishga imkon beradi. Qadriyat yo‘nalishlari allaqachon maktab ta’limida rivojlantirilib borilishi lozim. So‘zlarni, tushunchalarni, nutq sathlarini aniqlashtirish usuli ma’lumotni qayta ishlash va undan foydalanishning kognitiv jihati bilan bog‘liq holda talabaning nutqiy faoliyatini o‘stirishga yordam beradi. Aniq bo‘lmagan so‘zlar terminal shaxs uchun noma’lum tushunchalar bo‘lib chiqadi, bunday holatda vaziyatning mos yozuvlar maydonini takrorlash qiyin. So‘zning "ma’lum" shaxslari, masalan, "muloqot", "tanlash" yoki noma’lum (lot. nedensellik) va boshqalar kabi konseptual asosga aniqlanmagan bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchisining shaxsiyati “muloqot" yoki "madaniyatli so‘zlashuv" so‘zlari tushunchalarini bilishi, shu bilan birga, amalda "nutq madaniyati" konstruksiyalarining ishlatilishini keltirib chiqaradi. Demak, o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning referent maydonida barcha so‘zlar kommunikativ mohiyatiga aniqlik kiritilishi kerak.

[1] Абушенко В.Л. Норма// Новейший философский словарь. - М., 1999.- С. 327.

O‘zaro muloqot qilish, hamkorlikdagi kasbiy nutq faoliyati agar aloqa vosita bo‘yicha ma’lumotlar modullarini qabul qilish orqali biz boshqa narsa emas, balki aynan nutq subyekti tomonidan uzatilgan narsa deb atasak, amalda chet tilini o‘qitishni tashkil etishni boshqarish talabalar tomonidan olingan ma’lumotlarni kuzatishga tushadi. Lekin mustaqil ravishda boshlashi mumkin bo‘lgan kommunikativ faollik o‘qituvchi bilan bir vaqtning o‘zida davom etayotgan muloqotga parallel ravishda amalga oshadi. Bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchisi atrofdagi umumiy voqea-hodisalarni mustaqil tahlil qilsa, sohani rivojlantirishga oid ma’lum nazariy ma’lumotni o‘rgansa, undagi tuzilgan savollarga javob bera olishi, uzatuvchi subyektning nutq harakatlarini rejalashtirishi, ijobiy ta’sir ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan tavsiflarni, ya’ni lingvistik – semantik konstruksiyalarni nutqida ishlatishni bilishi ayni muddaodir. Bunday nutqiy bilimlarni egallashga oid informatsiyalar majmui, ularning mazmuni, mohiyati, ilmiy manbalardagi leksik tushunchalar, nazarda tutilgan ma’nolar mutanosibligi bo‘lishi zaruriydir. E.Zaretskayaning ta’kidlashicha,“bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchisining kasbiy faoliyatidagi lingvistik intensivlik shaxsning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bilan shakllanadi va pedagogik nutqiy muloqot jarayonida takomillashtiriladi. Bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchisi nutq faoliyatining intellektual salohiyati nutq oqimlarining chiqish nuqtasidan ma’lumot olish nuqtasigacha bo‘lgan sifatini belgilaydi. Nutq kompozitsion qurilishi asosida bir nechta tamoyillar mavjud – bu nutq turi, nutq tushunchasini ishlab chiqish, yaratish, nutqni tartibga solish va uni bayon etish – deb fodalaydi. Bizningcha, bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchisi nutq faoliyatida nutqning muayyan tushunchalari, bu tushunchalarni mustaqil tahlil qilishi va mazkur tushunchalar mavjud bo‘lgan nazariy ma’lumotlarni o‘rganishi ularning ilmiy salohiyatini mustahkamlaydi.

Chet tilini o‘rgatish jarayonida o‘rganuvchilarning xorijiy tildagi muloqot qilishga mo‘ljallab tuzilgan matnlar va ta’lim mazmuni ustida ishlash muntazam davom ettirilishi lozim. Chet tilining o‘ziga xos grammatikasi bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalar hosil qilinishi muhimdir.“O‘rganilgan grammatik qoidalar lingvistik kompetensiyani shakllantirish jarayonidagi asosiy omillardan biridir. Lingvistik va nutqiy materialni to‘g‘ri tanlash bilan birga, bo‘lajak o‘qituvchilarning imkoniyatlariga, shuningdek, muloqotning haqiqiy nutq holatlariga mosligi muhim. Chet tilini o‘rganuvchilar uchun keng so‘z boyligini, to‘g‘ri talaffuzni rivojlantirish, chet tili grammatikasini yaxshi bilish bilan birga shuningdek, madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish muhimdir. Bu kompetensiya, o‘z navbatida, tilni bilishning yetarli darajasiga erishishni nazarda tutadi, suhbat davomida kutilmagan burilishlarga yetarli darajada va tezkor javob berishga, nutqning tegishli uslubini topishga va o‘ziga xos lug‘atdan deyarli aniq foydalanishga imkon beradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni chet el madaniyati bilan tanishtirish ularning o‘z madaniyatining o‘ziga xos jihatlari, uning o‘ziga xosligini anglashiga yordam beradi, shuningdek, nafaqat mamlakatimizda, balki butun jahon madaniyatida yashovchi boshqa xalqlar madaniyatini yetarlicha anglash qobiliyatini rivojlantiradi”.“Lingvistik kompetensiya ingliz tili fanining asoslarini bilishni o‘z ichiga oladi, lingvistik tushunchalar majmuasini o‘zlashtirishni, tilning jamiyatdagi o‘rni haqida ma’lumotni, tilning tuzilishi, sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar haqida g‘oyalarni shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Unda ingliz tili fanining tarixi va uning yetakchi vakillari haqida, shuningdek, ta’lim va til ko‘nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Bularga, eng avvalo, quyidagi qobiliyatlar kiradi: tovushlarni, harflarni, so‘z qismlarini, morfemalarni, nutq qismlarini va boshqalarni tan olish, bir hodisani boshqasidan farqlash. Ko‘nikmalarning ikkinchi guruhi – tasniflash: til hodisalarini guruhlarga bo‘lish qobiliyati. Uchinchi guruh – analitik ko‘nikmalar: fonetik, morfemik,

so‘z yasash, morfologik, sintaktik, stilistik tahlil qilish“. O‘quv jarayonida rivojlantirilib borilgan sintaktik, morfologik, morfemik birliklar ustida ishlash, shular asosida mashq va topshiriqlar bajarish ulardagi muloqot qilish ko‘nikmalari, hamkorlikdagi kasbiy nutq faoliyati, nutqiy malakalar takomili bu talabalarning chet tilida so‘zlash va fikr bildirish kompetentligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Demak, bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchisi atrofdagi umumiy voqea-hodisalarni mustaqil tahlil qilsa, sohani rivojlantirishga oid ma’lum nazariy ma’lumotni o‘rgansa, undagi tuzilgan savollarga javob bera olishi, uzatuvchi subyektning nutq harakatlarini rejalash-tirishi, ijobiy ta’sir ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan tavsiflarni, ya’ni lingvistik–semantik konstruksiyalarni nutqida ishlatishni bilishi ayni muddaodir. Bunday nutqiy bilimlarni egallashga oid informatsiyalar majmui, ularning mazmuni, mohiyati, ilmiy manbalardagi leksik tushunchalar, nazarda tutilgan ma’nolar mutanosibligi bo‘lishi zaruriydir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Баева И.В. Корректив-но-корригирующая методика развития лингвистической компетенции студентов бакалавриата языковых факультетов: на материале английского языка: диссертация...кандидата педагогических наук: 13.00.02 /; [Место защиты: Моск. пед. гос. ун-т]. - Псков, 2016.

2. Зарецкая Е.Н. Риторика: Теория и практика речевой коммуникации. 2-е изд. - М.: Дело, 1999. - 480 с.

3. Ивин А.А. Логика: Учебник. - М.: Гардарики, 1999. - 352 с.

4. Каплун О.А. Сравнительная характеристика понятий "Лингвистическая компетенция" и "Языковая компетенция" и их структурных компонентов в методике преподавания русского и иностранного языков / Ученые записки Орловского государственного университета. Серия: Гуманитарные и социальные науки. 2014. № 4 (60). С. 277-279.

Aziza XAYITOVA,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti,
“Fakultetlararo ingliz tili” kafedrasi, stajyor o‘qituvchi

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA CHET TILINI O‘QITISHNING NAZARIY ASPEKTLARI

Annotatsiya

Maqolada chet tili o‘qitish jarayonida integrativ yondashuvning nazariy aspektlari, integrativ yondashuv til o‘rganishni kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bilan birga, madaniy, ijtimoiy va psixologik omillarni tashkil etilishi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, integrativ yondashuvning asosiy tamoyillari, an’anaviy yondashuvlardan farqlari, hamda uning samaradorligini oshirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Muallif, chet tili o‘qitish metodikasida integrativ yondashuvni qo‘llash orqali o‘quvchilarning tilga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularni faol va mustaqil fikrlashga undash imkoniyatlarini ko‘rib chiqgan.

Tayanch so‘zlar. Integrativ yondashuv, kommunikativ kompetensiya, madaniyatlararo muloqot, motivatsiya, til ko‘nikmalari (tinglab tushunish, o‘qish, yozish, gapirish), interfaol metodlar, kognitiv jarayonlar, lingvistik kompetensiya, didaktik tamoyillar.

В статье рассматриваются теоретические аспекты интегративного подхода в процессе обучения иностранному языку, рассматривается организация интегративного подхода к изучению языка с учетом развития коммуникативной компетентности, а также культурных, социальных и психологических факторов. Также были проанализированы основные принципы интегративного подхода, его отличия от традиционных подходов, а также его роль в повышении эффективности. Автор рассмотрел возможности повышения интереса учащихся к языку, побуждения их к активному и самостоятельному мышлению посредством применения интегративного подхода в методике обучения иностранному языку.

Ключевые слова. Интегративный подход, коммуникативная компетентность, межкультурное общение, мотивация, языковые навыки (понимание на слух, чтение, письмо, говорение), интерактивные методы, познавательные процессы, лингвистическая компетентность, дидактические принципы.

The article reflects on the theoretical aspects of the integrative approach in the process of teaching a foreign language, the integrative approach is organized with the development of communicative competence in language learning, taking into account cultural, social and psychological factors. It also analyzed the basic principles of the integrative approach, differences from traditional approaches, as well as its role in improving efficiency. The author considered the possibility of increasing students ‘ interest in language by applying an integrative approach to Foreign Language Teaching Methodology, encouraging them to think actively and independently.

Key words. Integrative approach, communicative competence, intercultural communication, motivation, language skills (listening, reading, writing, speaking), interactive methods, cognitive processes, linguistic competence, didactic principles.

Bugungi globallashuv jarayonida chet tillarni o‘rganish va o‘rgatish zamonaviy ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Bugungi kunda tilni grammatik qoidalar asosida o‘rganish yetarli darajada emas, u madaniyatlararo muloqot, kommunikativ kompetensiya va funksional savodxonlik kabi ko‘plab omillarni o‘z ichiga olgan integrativ yondashuv asosida amalga oshirilmoqda. Integrativ yondashuv nafaqat til bilimlarini egallashni, balki uni amaliy hayotda samarali qo‘llashni, til o‘tganuvchining shaxsiy rivojiga ta’sir ko‘rsatishni, madaniy ong va empatiya

shakllanishini ham ko‘zda tutadi. Bu yondashuv nazariy jihatdan ko‘plab pedagogik va psixolingvistik konsepsiyalarga tayanadi hamda o‘quv jarayonini yaxlit, izchil va samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Til — kishilik jamiyatini shakllantirgan, uning rivojlanishiga turtki bergan va turli xalqlarni bir-biriga bog‘lovchi buyuk ne’mat, qudratli vositadir. Shu bois tillarni o‘rganishga doimo alohida e’tibor qaratilgan, til o‘qitish uslublari esa uzluksiz ravishda takomillashtirib borilgan. Ayniqsa, mamlakatimizda amalga oshirilgan ta’lim sohasidagi islohotlar chet tillarini o‘qitish tizimiga ham jiddiy o‘zgarishlar olib keldi. 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-sonli qarorga muvofiq, xorijiy tillarni boshlang‘ich sinflardan boshlab uzluksiz o‘qitish yo‘lga qo‘yildi. Bu esa davlat ta’lim standartlarini xalqaro talablar asosida yangilash, o‘quv dasturlarining mazmunini tubdan qayta ko‘rib chiqish, ta’lim jarayoniga zamonaviy yondashuv va ilg‘or texnologiyalarni joriy etishni taqozo etadi.

Jahon tajribasida tillarni o‘rganishda turli yondashuvlar qo‘llanilib, ular doimiy ravishda takomillashtirib borilgan. Masalan, N.I. Gez o‘z davrida metodikada to‘rt asosiy yondashuv — bixevioristik, induktiv-ongli, kognitiv va integrativ yondashuvlar mavjudligini ta’kidlagan. M.N. Vutnev esa chet tilini o‘rganishda oltita yondashuv — grammatik, to‘g‘ri, bixevioristik, o‘qish orqali, guruh orqali hamda kombinatsiyalashgan individual yondashuvlarni ilgari surgan. G.V. Rogova esa ingliz tilini o‘rgatishda beshta yondashuvni — ongli (Conscious approach), amaliy (Practical approach), struktural (Structural approach), situativ (Situational approach) va turli xil (Different approach) yondashuvlarni qo‘llashni taklif etgan.

Tillarni o‘rganish masalasi bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda va til ta’limi jarayonining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan. T.Q. Sattorov o‘z tadqiqotida pedagogika fanlaridagi yondashuvlarni uch asosiy guruhga ajratib tasniflagan: Didaktik jihatdan: Yaxlit (kompleks) holda tabaqalashtirilgan, sistemali, struktural, individual va boshqa yondashuvlar. Psixologiya nuqtai nazaridan: Bilishga qaratilgan, induktiv-ongli, faoliyatga bog‘liq, shaxsga oid, shaxs faoliyatiga taalluqli va boshqa yondashuvlar. Lingvistik tarafdan: Grammatik, bevosita to‘g‘ri, struktura asosidagi, sistemali, amaliy, sistemali-struktural, funksional, kommunikativ va boshqa yondashuvlar.

Ushbu tasnifga ko‘ra, kompleks yondashuv chet tilini o‘qitish metodikasida o‘ziga xos tarzda qo‘llanilib, amaliy, tarbiyaviy, ta’limiy va rivojlantiruvchi maqsadlarni yagona tizimda ro‘yobga chiqarish, shuningdek, faoliyatning asosiy turlarini birgalikda rivojlantirishni nazarda tutadi.

Bugungi kunda ta’lim jarayoniga integrativ yondashuvlarning joriy etilishi nafaqat barcha fanlar, balki chet tillarni o‘qitishda ham yangi metodik yechimlar, innovatsion usullar va pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishni talab etmoqda. Mazkur fikrlarimiz asosan “integratsiya” tushunchasining mohiyatini tahlil qilishga asoslanadi. “Integratsiya” tushunchasi ilk bor XVIII asrda G. Spencer tomonidan izohlangan bo‘lib, u buni alohida qismlar yoki elementlarning o‘zaro bog‘lanishi, yagona tizimga birlashuvi va butunlik shakllanishi jarayoni sifatida ta’riflagan.

“Integratsiya” tushunchasi ilmiy termin sifatida pedagogikaga 1980-yillarning birinchi yarmida kirib keldi va tez fursatda ijtimoiy hayotning turli sohalari – iqtisod, siyosat, axborot texnologiyalari va boshqalarda qo‘llanila boshlagan. 1990-yillarga kelib esa bu tushuncha til ta’limi sohasiga ham kirib borgan holda “integratsiyalash” deb atala boshlagan. Lotin tilidan olingan “integratsiya” atamasi “integer” (butun, birlashgan) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “integration” – qayta tiklash, to‘ldirish, birlashtirish kabi

ma’nolarni anglatadi. So‘nggi yillarda ta’lim sohasida “integratsiya”, “integrativ yondashuv” (integrated approach), “integrativ ko‘nikmalar yondashuvi” (integrated-skill approach) kabi yangi tushunchalar keng qo‘llanila boshladi.

XXI asr boshlarida bilimlarni integratsiyalash yo‘nalishida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ta’lim sohasida sezilarli yutuqlarga olib keldi. Natijada “Integrativ psixologiya byulleteni”, “Ta’lim integratsiyasi”, “Integrativ pedagogika” kabi ixtisoslashtirilgan ilmiy nashriyotlar paydo bo‘ldi. Bugungi kunda dunyoning 70 foizdan ortiq mamlakatlarida integrativ uslubda ishlab chiqilgan o‘quv dasturlari va darsliklardan samarali foydalanilmoqda.

G‘arb mamlakatlarida integrativ yondashuvlar asosida ta’lim beruvchi maktablar ancha ilgari tashkil etilgan. XVIII asrda Chikagodagi Devey maktabi (The Dewey School, 1898–1948), XIX asrda AQShdagi Linkoln maktabi (Lincoln School, 1926) hamda Xyuston maktablari (The Houston City Schools, 1924–1930) buning yorqin misoli hisoblanadi. Ushbu maktablarda o‘qituvchilar dars maqsadlariga erishish uchun o‘quvchilarni jamoaviy faoliyatga jalb qilgan holda turli mashq va topshiriqlarni bajarishni taklif etganlar. Mashqlar hayotdan olingan misollar asosida tashkil qilingan bo‘lib, ular orqali o‘quvchilar muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va yechim topish ko‘nikmalarini shakllantirganlar. Shu tariqa, fanlararo integrativ yondashuv asosida o‘quvchilarda kommunikativ kompetentsiya rivojlantirilgan.

Integrativ yondashuv – ta’lim jarayonida turli usullar, metodlar va resurslarni uyg‘unlashtirib, til o‘rganuvchilarga chet tilini chuqur va qamrovli o‘rganish imkoniyatini beruvchi pedagogik model hisoblanadi. Ushbu yondashuvda nutqiy, lingvistik, madaniy va kognitiv jihatlar bir-biri bilan uzviy bog‘lanadi, natijada til o‘rganish samaradorligi oshadi.

Respublikamizda integratsiyalashgan ta’lim dastlab chet tillarni o‘qitish sohasida joriy etila boshlangan. Ushbu yondashuvni amaliyotga tatbiq etgan oliy ta’lim muassasalaridan biri O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti hisoblangan. 2004-yilda tashkil etilgan “IELTE” (Institute for English Language Teacher Education) va 2008-yillarda shakllangan “PreSETT” (Pre-service English Teacher Training) guruhlari bugungi kunga kelib integratsiyalashgan ta’lim yondashuvining asoschilaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Bundan tashqari, tabiiy va texnika fanlari sohasida ham integrativ ta’lim g‘oyasini ilgari suruvchi ayrim ilmiy tadqiqotlar olib borilayotganini ta’kidlash joiz. Shu o‘rinda, “integrar”, “integratsiya”, “integratsiyalashgan” kabi atamalar bilan bir qatorda “integral”, “integrallashgan kurs” (Integrated Course) tushunchalari ham faol qo‘llanilmoqda. Biroq bu atamalar o‘rtasidagi farqlar borasida biron bir ilmiy manbada aniq fikr bildirilmagan. Bu esa, o‘z navbatida, mazkur atamalarning mazmuni va ularning to‘g‘ri qo‘llanilishi masalasiga aniqlik kiritishni talab etadi.

O‘rganishlar davomida, o‘zbek tilining izohli lug‘atida ushbu atamaga quyidagi ta’riflar berilgan: “Integratsiya” so‘zi lotincha integratio – tiklash, qayta boshlash, to‘ldirishdir.” Shuningdek, ayrim alohida qismlar yoki elementlarning o‘zaro bog‘lanishi va ularni yagona tizimga birlashtirish jarayoni. Turli fanlararo yaqinlik hosil bo‘lishi hamda o‘zaro bog‘liqlikning shakllanishi – ikki yoki undan ortiq davlatlarning iqtisodiy tizimlarini uyg‘unlashtirish va bir butun holatga keltirish jarayoni. Integral (lotincha integer – bir butun, buzilmagan, tiklangan) – Oliy matematikada cheksiz kichik sonlar yig‘indisi sifatida qaraladigan butun miqdor. Integrallash – matematikada berilgan funksiyaning yoki ifodaning integralini topish, aniqlash jarayoni.

Chet tilini nutq faoliyati turlarini integrativ yondashuv asosida o‘qitishning o‘ziga xosligi shundaki, bu yondashuv talabalarga tilni bir butun tizim sifatida o‘rganishga

ko‘mak beradi. Ushbu yondashuvda nutq faoliyati turlari (tinglash, gapirish, o‘qish, yozish) bir-biriga bog‘lanib, o‘zaro uyg‘unlikda rivojlanadi. Bu o‘qitish usulining asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni tahlil etdik:

Barcha ko‘nikmalarni o‘zaro bog‘lash: Nutq faoliyati turlarining o‘zaro aloqasi ta’lim jarayonida e’tiborga olinadi. Masalan, tinglash va gapirish ko‘nikmalarini bir vaqtda rivojlantirish, o‘qish va yozish o‘rtasida bog‘liqlikni yaratish.

Kontekstdan foydalanish: O‘qituvchilar hayotiy vaziyatlar, mavzular yoki matnlar asosida talabalarga tilni o‘rgatish davomida talaba nafaqat grammatikani o‘rganadi, balki nutqning ijtimoiy va madaniy kontekstlarini ham anglaydi.

Faol ishtirok etish: talabalar faqatgina nazariy bilim olish bilan cheklanmay, turli interaktiv faoliyatlar orqali (muhokamalar, rolli o‘yinlar, guruh ishlarini bajarish va h.k.) tilni amaliyotda qo‘llaydi.

Individual yondashuv: talabaning ehtiyojlari, qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda mashg‘ulot mavzulari shakllantiriladi. Bu usul vositasida har bir talaba o‘zining o‘rganish sur’ati va uslubiga mos tarzda tilni o‘zlashtirishi mumkin.

Muntazam takrorlash va baholash: o‘qitish jarayonida o‘qituvchilar talabaning rivojlanishini muntazam ravishda kuzatib borib, natijalariga ko‘ra, qo‘shimcha mashg‘ulotlarni belgilaydi.

Tilni to‘liq tushunish: integrativ yondashuvda til faqat grammatika va lug‘at o‘rgatishdan iborat emas, balki tilni o‘zlashtirish jarayonida turli muloqot usullari, madaniyatlararo tafovutlar, til va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar ham o‘rganiladi.

Integrativ yondashuvda tilni o‘rganish jarayoni nafaqat bilim olishni, balki tilni amaliyotda qo‘llashni, uning to‘liq tushunilishini ta’minlashni ham o‘z ichiga oladi. Bu o‘z navbatida, talabalarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Dars jarayonida interaktiv yondashuv asosida mashqlar bajarish, muntazam takrorlashlar orqali talabalar tilni amaliyotda mustahkamlashtirish imkoniga ega bo‘ladi.

Fikrimizcha, chet tillarni integrativ yondashuv asosida o‘qitishda fanlararo aloqalarni mustahkamlash, turli fanlardan olingan bilimlarni birlashtirish, talabalarning turli mavzular bo‘yicha axborot to‘plash va ularni amaliyotga mos ravishda qo‘llash qobiliyatlarini shakllantirish muhimdir. Bu jarayonda tinglash, gapirish, o‘qish va yozish kabi nutqiy faoliyat turlarini integratsiyalashtirish ham juda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi “Chet tillarni o‘rganish yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ 1875. “Xalq so‘zi” 2012 y, 240 (5660) – son.

2. Yoqubov I. Amaliy ingliz tili metodikasi. − T., 2009. – 285b.

3. Sattorov T.Q. Mutaxassislik bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarda bo‘lajak chet til muallimining kasb-uslubiy malakalarini kuzatish (ingliz tili materiallarida): Ped.fan. dok....diss. – T., 2000.− 329 b.

4. Gulyamova M.X.Ingliz tilini o‘qitishda talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga integrativ yondashuv. Ped.fan.buyicha falsafa dok....diss.avtoreferati – T., 2019.− 51 b.

5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild.. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, Davlat ilmiy nashriyoti, − T., 2006. – 582 b.

Mastura NISHANOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
“Umumiy pedagogika” kafedrasi, o‘qituvchi

ANDRAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada andragogik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish masalasi yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik nazariyalar asosida andragogika va kommunikativ kompetensiya o‘zaro qanday bog‘liqlikda rivojlanishi tahlil qilinadi. Muallif interaktiv metodlarning samaradorligi, empirik natijalar va amaliy takliflar orqali bo‘lajak o‘qituvchilarni samarali muloqotga tayyorlashning yo‘llarini ko‘rsatib bergan.

Tayanch so‘zlar. Andragogika, kommunikativ kompetentlik, o‘qituvchi, interaktiv metod, pedagogik trening, verbal muloqot, empatiya.

В статье освещается вопрос формирования коммуникативной компетентности будущих педагогов на основе андрагогического подхода. Также анализируется, как андрагогика и коммуникативная компетентность развиваются во взаимосвязи на основе современных педагогических теорий. Автор показал эффективность интерактивных методов, эмпирические результаты и способы подготовки будущих учителей к эффективному общению с помощью практических предложений.

Ключевые слова. Андрагогика, коммуникативная компетентность, педагог, интерактивные методы, тренинги, вербальная коммуникация, эмпатия.

The article covers the issue of the formation of communicative competence of future teachers on the basis of an andragogical approach. It also analyzes how andragogy and communicative competence develop in correlation based on modern pedagogical theories. The author has shown ways to prepare prospective teachers for effective communication through the effectiveness of interactive techniques, empirical results, and practical suggestions.

Key words. Andragogy, communicative competence, teacher education, interactive methods, pedagogical training, verbal communication, empathy.

XXI asrda pedagogik faoliyatga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar o‘qituvchining nafaqat fan bo‘yicha bilimini, balki uning shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini, ayniqsa, kommunikativ qobiliyatini yuqori darajada rivojlangan bo‘lishini taqozo qilmoqda. Ayni paytda, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida ularning kommunikativ kompetentligini shakllantirish ustuvor masala sifatida ko‘rilmoqda. Ushbu kompetentlik o‘z fikrini aniq va mantiqan izchil ifoda eta olish, o‘quvchilar va jamoadoshlar bilan samarali muloqotga kirishish, ijtimoiy-psixologik muhitni boshqara olish, shuningdek, konflikt holatlarini madaniyatli hal etish kabi ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Bunday ko‘nikmalarni samarali rivojlantirishda andragogik yondashuv alohida o‘rin egallaydi.

Andragogika – bu kattalar ta’limiga xos yondashuv bo‘lib, o‘rganuvchining tajribasi, mustaqil fikrlashi, shaxsiy faolligi va ehtiyojlariga asoslangan o‘quv jarayonini anglatadi. Andragogik yondashuvda o‘quvchi passiv bilim oluvchi emas, balki faol ishtirokchi, o‘z ta’limini ongli ravishda boshqaruvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. M. Knowles

tomonidan ishlab chiqilgan andragogika nazariyasiga ko‘ra, kattalar (shu jumladan, bo‘lajak o‘qituvchilar) ta’lim jarayonida amaliy maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularning tajribasi ta’lim mazmunining asosiy resursi hisoblanadi. Shuningdek, bu yondashuv o‘zini anglash, ixtiyoriylik, motivatsiya va kontekstual o‘rganishga urg‘u beradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirishda aynan shu andragogik yondashuv asos bo‘lishi mumkin. Chunki u o‘rganuvchini shaxs sifatida hurmat qilish, uning o‘tmish tajribasini qadrlash va o‘zini rivojlantirish uchun imkon yaratadi. Bu jarayonda talabalar faqat bilim oluvchilar emas, balki fikr bildiruvchilar, bahs-munozarada qatnashuvchilar, o‘z fikrini himoya qiluvchilar, tinglovchilar va tinglashni o‘rganuvchilar sifatida shakllanadi. Pedagog sifatida shakllanishda bu holat juda muhim, chunki har bir pedagog o‘z fanini yaxshi bilish bilan birga, uni tushunarli, lo‘nda va emotsional jihatdan ta’sirli tarzda yetkazib bera olishi kerak. Ta’lim jarayonida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish uchun interaktiv, ijodiy va talabani markazga qo‘ygan metodik yondashuvlar muhim hisoblanadi. Jumladan, “case-study”, ya’ni hayotiy holatlarni tahlil qilish orqali talabalar real pedagogik muammolar ustida fikr yuritishadi. Bu esa mantiqiy va tanqidiy fikrlashni kuchaytiradi. “Rolli o‘yinlar” orqali esa ular turli ijtimoiy rollarni egallab, o‘zaro muloqotni emotsional jihatdan boshqarish, empatiya va mulohazakorlikni rivojlantiradi. “Debat” metodida esa talabalar o‘z pozitsiyalarini asoslash, e’tirozlarga nisbatan madaniyatli munosabat bildirish, fikrni dalillar bilan mustahkamlashga o‘rganishadi. Bu jarayonlar har bir ishtirokchining verbal va noverbal muloqot ko‘nikmalarini shakllantirib boradi.

Tajribaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, andragogik yondashuv asosida tashkil etilgan interaktiv mashg‘ulotlar orqali kommunikativ kompetentlikning barcha komponentlarini izchil rivojlantirish mumkin. 2024-yilda Toshkent, Andijon va Buxoro viloyatlaridagi oliy ta’lim muassasalarida olib borilgan eksperimentda 120 nafar pedagogika yo‘nalishi talabasi ishtirok etdi. Ular ikki guruhga bo‘lindi: nazorat guruhi an’anaviy metodlar asosida o‘qitildi, eksperimental guruh esa 6 oy davomida andragogik yondashuvga asoslangan kommunikatsion treninglar va mashg‘ulotlarda qatnashdi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, eksperimental guruh talabalari muloqotga kirishish, tinglash, fikrni izchil bayon qilish, murosaga kelish, bahsli vaziyatlarda madaniyatli tarzda ishtirok etish kabi ko‘nikmalarda sezilarli o‘sishni namoyon qildilar. Shuningdek, pedagogik kommunikatsiyani shakllantirishda o‘quv dasturlarini yangilash, baholash mezonlarini zamonaviylashtirish, va eng muhimi – o‘qituvchilik kasbining muloqotga asoslangan tabiatini nazarda tutgan holda, kommunikatsiya ko‘nikmalarini fanlararo integratsiya asosida rivojlantirish zarurati mavjud. Bu borada “portfel” metodikasi muhim o‘rin tutadi – bunda talaba o‘zining kommunikatsiyaviy yutuqlari, yozma va og‘zaki chiqishlari, tahliliy materiallari, taqdimot va baholash varaqalarini muntazam yig‘ib boradi. Bu usul o‘z-o‘zini tahlil qilish va refleksiya qilish madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, u andragogika tamoyillari bilan kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjudligini isbotlaydi. Bu yondashuv nafaqat ta’lim sifati, balki o‘qituvchining shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida ham muhim o‘rin egallaydi. Amaliy jihatdan esa, mazkur usullar asosida o‘quv dasturlarini takomillashtirish, trening-modullar yaratish, o‘qituvchilarning malaka oshirish kurslariga kommunikatsion texnikalarni kiritish kabi takliflar ilgari surilishi mumkin.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni kommunikativ kompetentlikka yo‘naltirishda andragogik yondashuvni joriy etishning samarali natijalarini ko‘rish uchun o‘qituvchilik kasbini tala-

balar o‘zlarining real hayotiy tajribalari va amaliyotlari bilan bog‘lashlari lozim. Shunday qilib, o‘qituvchi talabalar o‘qituvchilik faoliyatiga nisbatan o‘z shaxsiy yondashuvini shakllantirishlari, o‘zaro aloqalar va madaniyatlararo muloqotda yuqori darajadagi muvaffaqiyatga erishish uchun ko‘nikmalarni egallashlari mumkin. Bu jarayon bo‘yicha ba’zi muhim tavsiyalarni quyida keltirib o‘tamiz:

Interaktiv metodlarni kengroq joriy etish. Bo‘lajak o‘qituvchilarni kommunikativ kompetentlikka tayyorlashda interaktiv metodlar muhim rol o‘ynaydi. Ushbu metodlar talabalarga faqat nazariy bilimlarni emas, balki ularni amaliyotda qo‘llash imkoniyatini ham beradi. ‘‘Case-study’’, debatalar, ‘‘Rolli o‘yinlar’’ va ‘‘Simulyatsiyalar’’ metodlari talabalar orasidagi muloqotni kuchaytirish va ularning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vositadir.

Guruh va jamoa faoliyatini qo‘llab-quvvatlash. Muloqotda muvaffaqiyatga erishish uchun guruh bo‘lib ishlash zarur. Har bir talaba o‘zining fikrini erkin ifoda etish, guruhda konstruktiv munozaralarda ishtirok etish va fikr almashish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Jamoaviy muhitda ishlash o‘zaro hurmat, hamkorlik, tinglash va muammolarni birgalikda hal qilish kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi. Shu sababli, jamoaviy mashg‘ulotlarni ko‘paytirish, guruh muhokamalarini o‘tkazish, talabalarni birgalikda ishlashga undaydi.

O‘z-o‘zini tahlil qilish va refleksiya. O‘qituvchilar o‘z faoliyatini baholash va tahlil qilishni o‘rganishlari zarur. Bu o‘z-o‘zini tahlil qilishning samarali usuli bo‘lib, talabalar o‘zlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, muvaffaqiyatlarini qayd etish va kelajakdagi o‘qituvchilik faoliyatlariga xulosa chiqarish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Portfel usuli, yozma refleksiya va o‘z-o‘zini baholash aniq natijalar beradi.

Empatiya va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish. Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun empatiya, boshqa odamlarning nuqtayi nazarini tushunish va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Pedagogik jarayonda o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarining ehtiyojlari, qiziqishlari, hissiyotlari va shaxsiy holatlarini tushunishi zarur. Shunday qilib, talabalardan empatiya va madaniyatlararo muloqotga oid treninglar va mashg‘ulotlarni o‘tkazish talab qilinadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirishda andragogik yondashuvning muhim ta’siri shundaki, bu yondashuv talabalarni nafaqat ma’lumot olish, balki ma’lumotlarni tahlil qilish va tanqidiy fikrlashga o‘rgatadi. Andragogik yondashuvning ta’siri bo‘yicha amalga oshirilgan eksperimentlar va empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, bu yondashuv o‘qituvchilarning:

– mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi;

– muloqotda aniq va samarali fikr bildirish qobiliyatini oshiradi;

– guruhda ishlash va ijtimoiy mas’uliyatni his qilish imkoniyatini beradi.

Andragogik yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini bevosita o‘quv jarayonida amalga oshirgan amaliy mashg‘ulotlar orqali, o‘z-o‘zini anglash va o‘zini tahlil qilish orqali rivojlantirishga xizmat qiladi. Talabalar o‘zlari uchun zarur bo‘lgan bilimlarni faqatgina o‘rganmaydi, balki o‘rganganlarini amaliyotda qo‘llashni o‘rganadilar.

Tadqiqot natijalarini kengaytirish: kelajakda ushbu tadqiqotni kengaytirib, turli pedagogik institutlar va yuqori ta’lim muassasalarida, boshqa mintaqalarda ham o‘tkazish kerak. Bu metodlarning samaradorligini tekshirish va kengroq auditoriyani o‘rganish imkonini beradi.

Interaktiv metodlarni yanada kengaytirish: o‘qituvchilarni interaktiv metodlar bilan kengroq tanishtirish va ularga amaliy mashg‘ulotlar asosida o‘rgatish kerak. Shuningdek, o‘quvchilarni o‘zlarining individual ehtiyojlariga qarab metodlarni tanlashga undash lozim.

Andragogik yondashuv bo‘yicha maxsus treninglar: o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish uchun andragogik yondashuvni qamrab olgan maxsus treninglar va kurslar tashkil etish zarur. Bu o‘qituvchilarning pedagogik metodikalarini yanada mustahkamlashga yordam beradi.

Shaxsiy rivojlanish dasturlari: pedagogika fakultetlarida talabalar uchun shaxsiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish kerak. Bu dasturlar kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi va talabalarga o‘z ta’lim jarayonlarini boshqarish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, andragogik yondashuvning bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirishdagi o‘rni ulkan va nozik. Zamonaviy ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarni nafaqat o‘quvchi sifatida, balki ta’limning faol subyekti sifatida tayyorlash zarurati tug‘iladi. Bu esa kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ta’lim jarayonida interaktiv metodlarni joriy etish, guruh faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va o‘z-o‘zini tahlil qilishni mustahkamlash bo‘yicha amalga oshiriladigan amaliy choralar, bo‘lajak o‘qituvchilarni nafaqat ilmiy jihatdan, balki ijtimoiy, etika va psixologik jihatdan ham yuqori darajada tayyorlashga imkon beradi. Shu boisdan, andragogik yondashuvning samarali amalga oshirilishi, yuqori malakali va kompetent o‘qituvchilarni tayyorlashning garovi bo‘lishi mumkin. Ta’lim tizimida shu kabi yondashuvlar asosida pedagogik metodlarni takomillashtirish, malaka oshirish kurslari va treninglarni tashkil etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Knowles, M. S. (1984). The Adult Learner: A Neglected Species. Houston: Gulf Publishing.

2. Xoliqova M.M., Sanaqulova B.O. (2024). Kommunikativ yondashuvning nazariy asoslari. Ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2(2).

3. Sharofiddinova M. (2023). O‘qituvchilarda kommunikativ kompetensiyalar. ERUS, 2(11).

4. Kalandarova F. (2024). Deontologik yondashuv. Scienceweb.uz.

5. Qayumova D.D. (2024). Ijodiy kommunikatsiya. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(12).

6. Djumanov S. (2023). Kommunikativ qobiliyatlar. JDPU jurnali.

Fazilatxon KALANDAROVA
“University of Business and Science” nodavlat oliy ta’lim muassasasi,
Ijtimoiy gumanitar fanlar fakulteti, “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi, o‘qituvchi

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ISH SINF O‘QITUVCHILARINING DEONTOLOGIK KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi kasbiga tayyorlashning axloqiy-kasbiy jihatlari, pedagogik deontologiya va kompetentlik tushunchalarining mazmuni nazariy jihatdan yoritilib, fanining nazariy metodologik asoslari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, kompetensiya nuqtayi nazardan yondashuvlar, sohada tadqiqot ishlarini olib borgan olimlar va ularning pedagog g‘oyalari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilishga e’tibor qaratilib, pedagogik deontologiya va kompetentlik fanining ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish, metodologik yondashuvlarni izohlashga harakat qilingan.

Tayanch so‘zlar. Pedagogik deontologiya, kompetentlik, fan, metodologik yondashuvlar, bo‘shlang‘ich sinf o‘qituvchisi, odob-axloq, pedagogok, kasbiy etika, xulq-atvor, konsepsiya, ta’lim, ta’limot.

В статье теоретически раскрыты этические и профессиональные аспекты подготовки к профессии будущего учителя начальных классов, содержание понятий педагогической деонтологии и компетентности, а также приведены сведения о теоретических и методологических основах предмета. Также было уделено внимание теоретическому и практическому анализу подходов с точки зрения компетентности, ученых, проводивших исследования в данной области, и их педагогических идей, предпринята попытка изучить научно-теоретические основы педагогической деонтологии и науки о компетентности, объяснить методологические подходы.

Ключевые слова. Педагогическая деонтология, компетентность, наука, методические подходы, учитель начальных классов, этика, педагогика, профессиональная этика, поведение, понятие, воспитание, обучение.

The article theoretically covers the ethical and professional aspects of training a future primary school teacher, the content of the concepts of pedagogical deontology and competence, and provides information on the theoretical and methodological foundations of the discipline. Also, attention is paid to the theoretical and practical analysis of approaches from the perspective of competence, scientists who have conducted research in the field, and their pedagogical ideas, and attempts are made to study the scientific and theoretical foundations of the discipline of pedagogical deontology and competence, and to explain methodological approaches.

Key words. Pedagogical deontology, competence, science, methodological approaches, primary school teacher, ethics, pedagogy, professional ethics, behavior, concept, education, doctrine.

Pedagogik deontologiya va kompetentlik tushunchasi XXI asrda jamiyatimizda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va ma’naviy-ma’rifiy sohada islohotlar jadal amalga oshirilishi, ta’lim tizimining bosqichma-bosqich rivojlanishi, o‘qituvchi faoliyatida pedagogik madaniyati va kasbga loyiqligi davr talabiga aylanishi natajasida vujudga keldi. Shunday vaziyatda mamlakatimiz ta’lim tizimining asosiy maqsadi huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati talablariga javob beradigan barkamol fuqarolarni voyaga yetkazishdan iboratdir. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari faoliyatda kasbiy kompetentligini shakllantirish orqali yoshlarni mehnatga, shaxsiy hayotga,

ijtimoiy munosabatlar va muloqotga tayyorlash bugunning muhim pedagogik hodisasi hisoblanadi. Shunday ma’suliyatli vazifani amalga oshirishda pedagogik deontologiya va kompetentlik fani muhim o‘rin tutadi. Zero, bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy fazilatlari, pedagogik mahorat va pedagogik madaniyat, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish pedagogik jarayonda yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni muvaffaqiyatli hal qila olishni ta’minlovchi metodologik yondashuvlar, amaliy ko‘nikmalar va hissiy sifatlar, o‘z-o‘zini axloqiy tarbiyalash, kasbiy mahoratni rivojlantirish har qachongidan ham dolzarb. Mamlakatimiz kelajagi bo‘lmish yosh avlodga vatanparvarlik, insonparvarlik, milliy g‘urur, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni singdirish vazifasini o‘qituvchi-muallimlar amalga oshirishar ekan, pedagogik deontologiya va kasbiy kompetentlik fani o‘rganish talab etiladi. Biz mazkur maqolada yuqoridagi dolzarb vazifalardan kelib chiqib, o‘z fikrimizni bayon qilishga qaror qildik.

Bugungi kunda pedagogik deontologiya va kompetentlik fanining nazariy metodologik asoslarini ilmiy yoritish ta’lim tizimida muhim vazifa darajasiga ko‘tarildi. Dastavval deontologiya, pedagogik deontologiya va kasbiy kompetentlik tushunchalarini ilmiy-nazariy jihatdan yoritish lozim. Ushbu atamalardan asosiysi bo‘lmish “deontalogiya”ni ingliz huquqshunosi J.Bentham o‘zining “Deontologiya” yoki “Axloqshunoslik to‘g‘risida” asarida axloq nazariyasini axloq haqidagi xususiyatlarni izohlash uchun ishlatgan. Pedagogik deontologoya-pedagog hodimlarning kasbga aloqador etikasi, umuman, ta’lim-tarbiya jarayonini sifat jihatdan ta’sirini oshirishga qaratilgan xulq-atvor taomillaridan biridir. Deontologiya, ya’ni kishining xulqi, odobi haqidagi tushuncha XVI asrning boshlarida ingliz faylasufi va huquqshunosi I.Bent ham tomonidan tamoyilga kiritilgan.

Keyinchalik, kasbiy burchni axloqiy tomonidan berilgan majburiyat sifatida ko‘rib, insoniy burch muammolarini tavsiflash bilan cheklandi. C.D.Brod tomonidan 1930-yilda nashr etilgan “Axloq nazariyasining beshta turi” kitobida atamaning mohiyati zamon talablariga mos tarzda bayon etilgan. Deontologiya yoki deontologik etika (qadimgi yunoncha “deontos” va logos iboralardan kelib chiqqan bo‘lib, axloq va axloq muammolari to‘g‘risidagi ta’limot, axloqning bir shakli. Deontologiya pedagogik mahoratning tarkibiy qismi bo‘lib, pedagogik madaniyat, pedagogik axloq-odob degan ma’nolarni anglatadi. Ba’zi manbalarda burch axloqi (majburiyat) yoki xulq-atvor qoidalariga asoslangan axloqiy tizim deb qayd etilgan. So‘nggi paytlarda “deontologiya” atamasi ta’lim tizimi hodimlari orasida iste’moldagi so‘zga aylandiki, yunon tilidan olingan ushbu atama zamirida kasb, axloq-odob turadi. So‘zning lug‘aviy ma’nosiga to‘xtaladigan bo‘lsak, uni “burch haqidagi ta’limot”, boshqacha aytganda – “huquq to‘g‘risidagi ta’limot” yoki “huquq haqidagi fan” deb tarjima qilishadi. Shuni aniq aytish mumkinki, har qanday soha hodimlarining, shu jumladan, pedagoglarning kasbiy burch yoki majburiyat tushunchasi deb atash mumkin.

Deontologiyaning tamoyillari aynan shu maqsadga qaratilganligi ayni haqiqat. Pedagogik deontologiya va kompetentlik haqida to‘xtalar ekanmiz, quyidagi fikr juda o‘rinli. “Har doim sabrli, diqqatli va xushmuomala, aqlning temir mantig‘iga bo‘ysungan holda, kamtar bo‘ling, kasallarga shifo berishga harakat qiling, o‘zingiz uchun hech qanday qurbonlik va foyda talab qilmang”. Ta’lim tizimi hodimlari faoliyatini axloqiy va huquqiy tartibga solish masalalari bo‘yicha adabiyotlarning ko‘pchiligida bu masalalar o‘z dolzarbligini yo‘qotmaganligini va so‘nggi yillarda ularga tobora ko‘proq e’tibor qaratilayotganidan dalolat beradi, garchi pedagog etika – “pedagogning ruhi”, “ta’lim beruvchining donoligi”– ta’lim rivojlangan davrda paydo bo‘lgan va unga parallel ravishda va ta’lim tarbiyani takomillashtirish bilan rivojlangan. Yuqorida qayd etilganlarni

pedagogika tiliga ko‘chirib qayd etadigan bo‘lsak, u kasb etikasi yohud pedagogik axloq degan mazmunni beradi.

Deontologiya tushunchasi zamonaviy pedagogika kompetentlik atamasi bilan yonma-yon yuradigan tushunchadir. Shu o‘rinda kompetentlik tushunchasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, atamaning quyidagi ma’nolari mavjud. “Kompetentlik” ingl. “competence” so‘zidan olingan bo‘lib, “qobiliyat” ma’nosini anglatadi. Kompetentlik bo‘lajak kasb egasi tomonidan egallanadigan va o‘z faoliyatida qo‘llaniladigan nazariy bilimlardan unumli foydalanish demakdir. Ya’ni yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahoratni iqtidorli namoyon eta olish tushunchasi bilan izohlanadi. Kompetentlik tizimida kasbiy kompetentlik asosiy metodologik hodisa bo‘lib, mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olish demakdir. Kompetensiyalar faoliyatning samarali bajarilishini ta’minlaydigan harakatlarning umumlashtirilgan usullari. Bu insonning o‘z malakasini amalda qo‘llash qobiliyatidir. Zamonaviy pedagogikada mutaxassislarni tayyorlash uchun turli xil yondashuvlar ma’lum. Ular orasida taniqlilari fanlararo yondashuv, ma’lumotli yondashuv, tizimli yondashuv, faoliyatli yondashuv sanalib, yaqin orada paydo bo‘lgan yangi vaziyatli yondashuvi, axborot, konseptual, ergonomik yondashuvlar ham mavjud. Pedagogikada kompetensiyaga asoslangan yondashuv tushunchasi XX asrning 80-yillarida, “Perspektivlar” deb nomlangan jurnalda ilk bor tilga olingan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, mamlakatimiz ta’lim tizimini jahon standartlari darajasida ko‘tarishda munosib o‘rniga ega bilimli, qobiliyatli va iste’dodli bo‘lajak o‘qituvchilarmizda, pedagogik deontologiya va kompetentlikni rivojlantirish, raqobat muhitini shakllantirish, shuningdek, ta’lim olish shakli, metod, vositalarini tanlay olish, ta’limning insonparvarlik, demokratik, shaffoflik, oshkoralik, tenglik, prinsiplarga amal qilish, ta’lim va tarbiya jaroyiniga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, jamiyat kelajagi bo‘lgan yosh avlod tarbiyasida xato va kamchiliklarga boshqalar tomonidan kamsitishlarga yo‘l qo‘ymaslik, ijtimoiy jihatdan himoya qilish bugungi kun jamiyat oldida turgan sharafli vazifa ekanligini unitmagan holda, o‘qituvchi pedagoglar uchun yaratilgan keng imkoniyatlardan unumli foydalanish, yetuk intellektual salohiyatli kadr bo‘lish kabi tavsiyalarga amal qilishlari darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ637-son qonuni. – https://lex.uz

2. Bentham J. Deontology // Bentham J. Deontology together with a Table of the Springs of Action and the Article of Utilitarianism. – Oxford: Clarendon Press, 1983, p. 119-281.

3. Musurmonova O. Pedagogik texnologiyalar ta’lim samaradorligining muhim omili. – T.: “Yoshlar tashkiloti”, 2020. 52-b.

4. Toxirovna K. F. (2024). O‘Qituvchilik faoliyatida deontologik tayyorgarlikni oshirish. Miasto Przyszłości, 51, 146-148.

5. Sahobiddin o‘g‘li S. O., Tohirovna, K. F. (2024). O‘qituvchining kommunikativ kompetentligini oshirishda yapon tajribalarining ahamiyati. Образованиенаукаиинновационныеидеив мире, 47(3), 141-144.

6. Kalandarova, F. T. (2024). Kompetensiyaga asoslangan yondashuv bo‘lajak-boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining deontologik kompetentsiyalarini shakllantirishning nazariy asosi sifatida. Экономика и социум, (5-1 (120)), 375-379.

Rayxan BAZARBAYEVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
“Qozoq tili va adabiyoti” kafedrasi, o‘qituvchi

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING KREATIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada o‘qituvchilarning yuksak ijodiy salohiyatga ega va uni turli sohalarda qo‘llashga qodir kreativ shaxsni tarbiyalash haqida fikr va mulohazalar keltirib o‘tilgan. Bu vazifa ta’limning turli bosqichlarida o‘quv jarayonini innovatsion yondashuvlar vositasida takomillashtirib borishni taqazo etib kelayotganligi chib berilgan.

Tayanch so‘zlar. Kreativ loyiha, aksiya, tadqiqot, matn tahlili, xarakter, ko‘nikma, kognitiv, axborot, kommunikativ, kompetentsiya.

В статье представлены мнения и соображения о воспитании креативной личности, обладающей высоким творческим потенциалом учителей и способной применять его в различных областях. Эта задача требует совершенствования образовательного процесса посредством инновационных подходов на разных этапах образования**.**

Ключевые слова. Креатив, проект, действие, исследование, анализ текста, характер, умение, познавательная, информационная, коммуникативная, компетентность.

The article presents thoughts and reflections on the upbringing of a creative personality with high creative potential and the ability to apply it in various fields. This task requires the improvement of the educational process at different stages of education through innovative approaches.

Key words. Creative, project, action, research, text analysis, character, skill, cognitive, informational, communicative, competence.

Xususan, boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘rganilayotgan adabiy matn mohiyatini idrok etish imkonini beruvchi faol o‘qitish usullarini muntazam qo‘llash o‘quvchilarning jarayonda shaxsiy ishtiroki, bilim olishga qiziqishini oshirish, o‘quv tadqiqotchiligi faoliyatiga asoslangan metod va usullarni oqilona tanlashni talab qiladi. O‘quvchilarda yangi bilimlarni izlanuvchanlik faoliyati orqali o‘zlashtirish malakasini rivojlantirishda kognitiv ehtiyojning paydo bo‘lishiga yordamlashadigan sharoitlarni yaratish ham muhim sanaladi. Ta’lim oluvchilarning badiiy matn ustida ishlash, asar qahramonlarini tanqidiy baholash, adabiy tushunchalar va hodisalarni taqqoslash, xulosalar chiqarish qobiliyatini rivojlantirish bevosita boshlang‘ich sinflardan boshlab kreativlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga zamin yaratadi.

Adabiy ta’limning ustuvor vazifalarini amalga oshirishda asosiy o‘rinni boshlang‘ich sinflardan o‘quvchilarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirishga doir loyiha-tadqiqot faoliyati egallaydi. Bundan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarni o‘quv tadqiqotchiligiga yo‘naltirish, yaratuvchanlik sifatlarini ijodiy rivojlantirish, tashabbuskorligini shakllantirish, mustaqil izlanishga undashdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ kompetensiyani rivojlantirish quyidagilarga imkon beradi:

– o‘quvchilarning yangi bilimlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan tabiiy qiziqishlarini rag‘batlantirish;

– kreativ ko‘nikmalarini shakllantirish;
– kognitiv motivatsiyani kuchaytirish;
– asarda aks etgan muammolarga amaliy yechim topish;
– o‘quv tadqiqotlari olib borish malakalarini rivojlantirish;
– mustaqillik va tashabbuskorlik ko‘rsatish;
– ijodiy jamoalarda hamkorlikda ishlash;

– tadqiqot guruhining har bir a’zosi umumiy natija uchun javobgarligini rivojlantirish[1] kreativ faoliyat, avvalo, axborotlar bilan ishlash, izlanish va yaratish bilan bog‘liq qobiliyatni o‘z ichiga oladi. Izlanish faoliyati o‘quv jarayoniga organik ravishda kiritiladi. Bu yerda o‘quvchilar fanda avvaldan mavjud bo‘lgan, lekin ular uchun yangi bilimlarni kashf etadilar. Kreativlikning birinchi yo‘nalishi o‘quv jarayonini tashkil etishning nostandart shakllari hisoblanadi. Ular o‘quvchilarning kognitiv qiziqishlarini rivojlantirishga, o‘rganish ko‘nikmalarini oshirishga, o‘quv fani mazmunini yanada chuqurroq o‘zlashtirishga undash imkonini beradi. Ko‘rinadiki, izlanish faoliyati boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqilligini ham, kreativligini ham rivojlantiradi. Bu esa pirovardida o‘quv dasturiga tez moslashishni ta’minlaydi.

Hozirgi vaqtda o‘quv jarayoni o‘quvchilarning yangi bilimlarni o‘zlashtirishida faollikka asoslangan yondashuv bilan bog‘liq. U bolalarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni ta’minlaydi, o‘rganilayotgan asarlarga nisbatan qiziqishlarini faollashtiradi. Badiiy asar doirasida muammolarni ko‘rish, kuzatish, tahlil qilish, tasniflash, o‘z g‘oyalarini taqdim etish va asoslash qobiliyatini o‘z ichiga oladigan kreativlik ko‘nikmalari hayotga tayyorlashi nuqtayi nazaridan ham muhimdir. Shu bois kreativ o‘quvchi shaxsini rivojlantiradigan adabiy ta’limda qulay ijodiy muhitni yaratish zarur.

Loyiha va o‘quv tadqiqotchiligi natijasida o‘quvchilarning kreativ, kognitiv, axborot, kommunikativ kompetensiyalari shakllanadi. O‘quv tadqiqotchiligi o‘quvchilarning yoshiga bog‘liq xususiyatlari bilan bog‘liq kashfiyot va tajribalarga doimiy intilish, yangi va noma’lum narsalarni o‘rganish, yangi tajribalarga ehtiyoj mavjudligi bilan baholanadi.

Kreativlikning rivojlanishi 1–2-sinf o‘quvchilarida fikrlash qobiliyatining dastlabki shakllanishi, 3–4-sinflarda esa o‘quv tadqiqotchiligi faoliyatiga tayyorgarlik ishlari orqali amalga oshiriladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv tadqiqoti va loyiha faoliyati mohiyati va maqsadiga ko‘ra turlicha bo‘lib, o‘quvchilar va o‘qituvchilarning ijodiy faollik darajasi va mustaqilligi bilan farqlanadi. Bunda tayyorgarlik va natija-tahlil bosqichlarida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida hamkorlik yetakchilik qiladi. Rejalashtirish, tadqiqot, hisobot va taqdimot bosqichi o‘quvchi va o‘qituvchining o‘zaro aloqasiga asoslanadi. Tadqiqot natijasi o‘qituvchining tadqiqotga kirish bosqichida o‘z vazifasini qanday yo‘lga qo‘yishiga bog‘liq. Ish samarasi, asosan, mavzuning to‘g‘ri tanlanishini taqazo etadi. O‘qituvchida amalga oshiriladigan o‘quv tadqiqoti yo‘nalishi va hal qilinishi zarur muammo haqida aniq tasavvur bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Natija – tahlil bosqichida o‘qituvchining o‘rni, ayniqsa, muhim. Binobarin, o‘quvchilar tadqiq etganlarining barchasini mustaqil tarzda umumlashtirib zarur xulosa chiqara olmaydilar. O‘qituvchi jarayonda hayotiy tajribasi, kasbiy salohiyati va tahliliy tafakkuriga tayanib o‘quvchilarga yordamlashadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining loyiha ustida ishlashga qiziqishlari yuqori bo‘ladi. Ular o‘zlarining ta’limiy mahsulotlarini yaratish va himoya qilishga ehtiyoj sezishadi.

[1] Штербова Л.В. Формирование ключевых компетенций младших школьников/ https://journalpro.ru/articles/formirovanie-klyuchevykh-kompetentsiy-mladshikh-shkolnikov/

Avvalo, loyihaga tayyorgarlik ko‘rayotganda, qo‘shimcha adabiyotlarni mustaqil o‘rganadilar, lug‘at zaxirasini boyitadilar, ko‘plab yangi va o‘zlari uchun noma’lum narsalarni kashf etadilar. Shuningek, kichik loyihalar ustida ishlash va ularni amalga oshirishga harakat qilishadi. Metodist S.Kambarova ta’kidlaganidek, “Tadqiqot xarakteridagi kreativ-metodlar tarbiyalanuvchilarda maqsadga qaratilgan ijodiy tafakkurni qaror toptirib, shaxsiy ta’lim mahsuli yaratish bilan natijalanadi”[2].

Loyiha ishlarini amalga oshirishga doir o‘quv tadqiqotchilik faoliyati ta’lim muassasasining moddiy-texnika bazasi, dasturiy ta’minot va axborot texnologiyalari bilan maxsus jihozlangan xonalarda tashkil etiladi. Loyiha-tadqiqot faoliyatini tashkil qilishda kutubxona, badiiy studiya yoki musiqa xonasi zarur bo‘ladi. Biz tadqiqotimizda loyihaishi uchun tanlangan tadqiqot obyekti tabiat mavzusida bo‘lib, bu 3-sinfda “Ана тілі және оқу сауаттылығы”darsligidan o‘rin olgan“Табиғат сыйы. Өзбекстан табиғаты” bo‘limi[3] doirasida yangi bilimlarni o‘zlashtirishni taqozo etadi. Bo‘lim doirasidagi badiiy matnlarni o‘rganish jarayonida o‘quvchilar bilan suhbat, muhokama va bahslar tashkil etilib, mavzular tahlil qilinadi.

Loyiha maqsadini belgilashda o‘quvchilar bilan suhbat o‘tkazilib, bilim olish uchun zarur bo‘ladigan daftar, kitob, kundalik, albomlar qanday tayyorlanishi yuzasidan fikr almashadi. Buning uchun ancha qog‘oz ishlatilishi, daraxtlar asosiy xomashyo ekanligi haqida ma’lumot beriladi. Loyiha mavzusi sifatida “Daraxtlar” tanlanadi. O‘quvchilar bilan mavzu doirasida muammo shakllantiriladi. Ular ishlatadigan qog‘ozlar og‘irligi, bu hajmdagi mahsulotni olish uchun qancha yog‘och zarurligi, buning uchun qancha daraxt kesilishini aniqlash bo‘yicha vazifalar qo‘yiladi. Qog‘oz olish uchun daraxt necha yil o‘sishi kerakligi ham e’tibor qilinadigan asosiy jihat sanaladi. Natijada kesilgan daraxtlarning o‘rnini qoplash uchun bir yil davomida qancha daraxt ekish muhimligini hal qilish lozim bo‘ladi. Bu muammo o‘quvchilarning o‘zlari yashaydigan hududdagi daraxtzorlar, oilasi yoki maktab bog‘i misolida ham tahlilga tortiladi.

Loyihani amalga oshirish bosqichi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil ijodiy izlanish ko‘nikmalarini shakllantirish va kreativ kompetensiyasini rivojlantirishda yetakchi sanaladi. Ish davomida qog‘oz chiqindilarini yig‘ish, hisob-kitoblar uchun ma’lumotlar to‘plash bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. So‘ngra “Makulaturadan qog‘oz tayyorlash” mavzusida ekologik tajribalar o‘tkaziladi. O‘quvchilar qog‘oz chiqindisini yig‘ish bo‘yicha ishlar orqali resurslarni tejashni isbotlay oladilar, chunki bir tonna chiqindi qog‘oz to‘rt kub metr yog‘ochni tejashi haqidagi ma’lumotlarga asoslanib, o‘qituvchi bu haqidagi fikrlarni umumlashtiradi. Demak, aksiyada ishtirok etish o‘rmonlarni asrashga hissa qo‘shadi.

Olib borilgan ishlar sarhisob qilinib, har chorakda qog‘oz chiqindilarini yig‘ish ishlarida ishtirok etish taklifi qabul qilinadi. O‘quvchilar bilan tabiatni asrash, daraxtlar ekib, ularni parvarish qilish, atrof-muhitni ko‘kalamzorlashtirish, “Yashil zona”lar tashkil etish kabi haftaliklar va aksiyalar o‘tkazish orqali mavzu muammosi bo‘yicha ma’naviyat soatlari o‘tkaziladi. O‘quvchilarga loyiha natijasi sifatida gazeta yoki jurnallarga maqolalar yozib, o‘z qarashlari bilan o‘rtoqlashish vazifasi yuklatiladi. Loyiha ustida ishlash jarayonida bolalarda “Daraxt eking” aksiyasida ishtirok etish istagi paydo bo‘ladi.

[2] Kambarova S. Adabiyot darslarida kognitiv va kreativ yondashuvla rsamaradorligi / Uluslar arasi turk bilim ogrenchi kurultayi. – Turkiya, 2020. 5-sentabr. – B.353.

[3] Абдувалитов Н. [тағы басқ.]. Ана тілі және оқу сауаттылығы 3-сынып [Мәтін]: Оқулық / 1-бөлім. – Ташкент: Республикалық білім орталығы, 2025. – 32 – 38-б.

O‘quv tadqiqotchiligi faoliyati har qanday ijodiy ishlar kabi faqat ixtiyoriy asosda mumkin. Shu bois tadqiqot faoliyatini o‘quvchilarning moyilliklari, qiziqishlari va qobiliyatlarini e’tiborda tutib tashkil etish samaralidir. O‘quv tadqiqoti o‘quvchi nuqtayi nazaridan ijodiy salohiyati va kreativligini rivojlantirish imkoniyatidir. O‘qituvchi nuqtayi nazaridan esa rivojlanish, o‘qitish va tarbiyalashning didaktik vositasi hisoblanadi. U boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida loyihalash va tadqiqotda kreativ kompetensiyani rivojlantirishga zamin yaratadi. Badiiy matn tahlili vositasida o‘quvchilarning o‘quv tadqiqotchiligi faoliyatini tashkil etishga innovatsion ta’lim texnologiyasi sifatida qaraladi. U zamonaviy adabiyot o‘qitishda ijodiy rivojlanish muammolarini hal qilish, ilmiy jamoatchilik me’yorlari va qadriyatlarini adabiy ta’lim tizimiga o‘tkazish, jamiyatning intellektual salohiyatini rivojlantirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. O‘qish savodxonligi darslarida o‘quv tadqiqoti va loyiha faoliyatini tashkil etish murakkab jarayondir. Uni samarali qilish uchun mavzu doirasida qo‘yiladigan muammolarni ko‘rib chiqish muhim. Jumladan:

– o‘quvchilarning faqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirishga e’tibor qaratishi o‘quv tadqiqotchilik faoliyati rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi;

– o‘quv tadqiqotchiligi faoliyatining asosiy turlari mavzuning stereotipikligi va tadqiqot muammolarini hal qilishning minimal darajasiga qisqarishi tufayli haqiqatan ham ijodiy bo‘lmaydigan konspektlar, ma’ruzalar, insholar, laboratoriya ishlarini tayyorlashdan iborat;

– o‘quv tadqiqotchiligi ko‘nikmalari o‘z-o‘zidan, ularning tuzilishi va rivojlanish mantig‘ini hisobga olmasdan shakllanadi, bu esa o‘quvchilarda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishni qiyinlashtiradi;

– amalda o‘qituvchilar, asosan, yuqori sinf o‘quvchilarida tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishga ko‘proq e’tibor beradilar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari kreativ kompetensiyasi loyiha va tadqiqot faoliyatidan foydalanish natijasida rivojlanadi. Bunda ularning kommunikativ (o‘quvchi faoliyat jarayonida barcha ishtirokchilar bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi, muloqotga kirishadi, nuqtayi nazarini asoslaydi, boshqalarning fikrini tinglaydi); ijtimoiy (loyiha yoki tadqiqot faoliyati davomida jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasi shakllanadi) kompetensiyalari ham shakllanadi. O‘z ta’limiy mahsulotini yaratish imkoniyati ortadi.

Xulosa qilganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ kompetensiyani matn tahlili vositasida rivojlantirish adabiy ta’lim maqsadi, natijalari va yutuqlari mezonidir. Bu o‘quvchilarda faoliyat tajribasini shakllantirishi nuqtayi nazaridan ham o‘ziga xosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдувалитов Н. [тағы басқ.]. Ана тілі және оқу сауаттылығы. 3-сынып [Мәтін]: оқулық / 1-бөлім. – Ташкент: Республикалық білім орталығы, 2025. – 128 б.

2. Safo Matjon, Hilola Bakiyeva, Xolida Gulyamova. Ona tilini o‘qitish metodikasi [O‘quv qo‘llanma]: – T.: “Yangi Chirchiq Prints”,2023. – 345 б.

3. Kambarova S. Adabiyot darslarida kognitiv va kreativ yondashuvlar samaradorligi / Uluslar arasi turkbilim ogrenchi kurultayi. – Turkiya, 2020. 5-sentabr. – B. 349 – 355.

4. Штербова Л.В. Формирование ключевых компетенций младших школьников /https://journalpro.ru/articles/formirovanie-klyuchevykh-kompetentsiy-mladshikh-shkolnikov/

Dilfuza SHAMALIKOVA,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi Milliy instituti, mustaqil tadqiqotchi

BOLALAR NASHRLARI VOSITASIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING ODOB-AXLOQ KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH (Pedagogik-psixologik xususiyatlar)

Annotatsiya

Maqolada muallif bolalar nashrlari vositasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining odob-axloq ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik zarurati to‘g‘risida so‘z boradi. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchisining odob-axloq ko‘nikmalarini rivojlantirishda turli xil o‘quv faoliyat va ijtimoiy aloqa turlari bilan shug‘ullanadigan obyektiv munosabatlarga ustunlik berish kerakligi, ushbu munosabatlar pedagogik faoliyatning haqiqiy obyektini tashkil etishi haqida muhokamalar yuritildi.

Tayanch so‘zlar. Odob-axloq, tanqidiy va mantiqiy fikrlash, odob-axloq ko‘nikmalari, o‘quv faoliyat.

В статье автор детское издательское средство рассказывает о педагогико-психологической необходимости развития нравственных навыков младших школьников. Также обсуждалось, что в развитии нравственных навыков младшего школьника следует отдавать предпочтение объективным отношениям, связанным с различными видами учебной деятельности и социальной коммуникацией, что эти отношения составляют реальный объект педагогической деятельности.

Ключевые слова. Этика, критическое мышление, логическое мышление, этические навыки, учебная деятельность.

In the article, the author talks about the pedagogical-psychological need for the development of etiquette skills of elementary school students, the tool of children’s publications. Discussions were also held that in the development of the etiquette skills of an elementary student, preference should be given to objective relationships, which are engaged in various types of educational activities and social communication, these relationships form the real object of pedagogical activity.

Key words. Ethics, critical thinking, logical thinking, ethical skills, learning activities.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining odob-axloq ko‘nikmalari rivojlanishi bolaning o‘zini anglashini; xulq-atvorning shaxsiy mexanizmlarini rivojlantirish; odob-axloqli g‘oyalar, tushunchalar va ular asosida axloqiy baholashni rivojlantirish; harakatlar uchun yangi motivlarning paydo bo‘lishini o‘z ichiga oladi. Bu bolaning ijtimoiy va aqliy rivojlanishining umumiy jarayoni, ajralmas shaxsni shakllantirish bilan bog‘liq.

Odob-axloq ko‘nikmalarini shakllantirish asosida inson o‘zini o‘zi boshqarish madaniyati rivojlantiradi, bu keng ko‘lamli drayvlar, instinktlar va boshqalarni tartibga solish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Bu o‘z-o‘zini nazorat qilish mohiyatan ijtimoiy nazoratdir. U ushbu ijtimoiy guruh uchun qabul qilinmaydigan impulslarni bostiradi va jamiyat hayoti uchun zarur shartni tashkil qiladi. Jamiyat qanchalik taraqqiy etsa shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va tarbiya shunchalik murakkab bo‘ladi.

Pedagogik harakatlar – bu o‘quv jarayonida o‘quvchi va jamoa tomonidan tashkil etilgan va qabul qilingan ta’sirlar bo‘lib, ular munosabat va xulq-atvorda aks etgan natijalar bilan birgalikda o‘zaro bog‘liq bo‘lib, o‘quvchi shaxsiga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadigan jamoa sifatida ishlaydi.

Maktabda odob-axloq ko‘nikmalarini egallashga yo‘naltirilgan tarbiya jarayoni o‘quvchilarga pedagogik ta’sir ko‘rsatilgan vositalarining xilma-xilligi bilan tavsiflanadi. Ushbu faoliyatli jarayonning eng keng tarqalgan shakli – bu “Sinf soati” mashg‘uloti bo‘lib, ushbu jarayon to‘liq tarbiyaviy o‘quv faoliyatidir. Bu jarayonda o‘quvchilar mehnatsevarlik, tejamkorlik, do‘stlik, adolat, mehribonlik, bag‘rikenglik, milliy an’analar, insonparvarlik, sezgirlik, ogohlik, kamtarlik kabi tarbiyaning asosi bo‘lgan fazilatlarlarni rivoyatlar, suhbatlar, video kontentlar, audio vositalardagi taqdim etilgan axborotlar orqali anglab boradilar.

“Sinf soati”da o‘qituvchi hamma o‘quvchini faol, e’tiborli bo‘lishga undashi hamda munosabat va o‘z fikrlarini bayon etishga tayyorlashi maqsadga muvofiqdir. Viktorina, suhbat, sayohat o‘yini yoki musobaqa bo‘lsin, har qanday dars soati o‘quvchilarning odob-axloqqa oid tarbiya ko‘nikmalarini rivojlanishiga hissa qo‘shadi. O‘quvchilarning qiziqishlari va ushbu bosqichdagi ta’limning aniq vazifalarini hisobga olgan holda dars soatlari uchun turli mavzular tanlanadi. “Sinf soati” mazmunli tashkil etishda muhim manbalardan biri bu bolalar uchun tayyorlanadigan ommaviy nashrlardan. Bular jumlasiga: bollar uchun badiiy, intellektual, ko‘ngil ochar jurnallar, ilmiy, tarixiy, ma’naviy ensiklopediyalar, san’at va musiqaga oid to‘plamlar, bolalar badiiy adabiyoti namunalari kabi manbalarni kiritish mumkin.

Bolalar nashrlari o‘quvchilarda odob-axloqqa oid ko‘nikmlarni shakllantirishda samarali didaktik vositadir. Bugungi kunda maktab yoshidagi bolalar orasida ‘‘Tong yulduzi’’ gazetasi, ‘‘G‘uncha’’, ‘‘Gulxan’’, ‘‘Dono’’ nashriyoti tomonidan o‘quvchilarga taqdim etiladigan ‘‘Bilimdon’’, ‘‘Dono word’’, ‘‘Excellent’’, ‘‘Znayka’’ kabi jurnallar keng tarqalgan.

Kognitiv suhbatlar bolaning tafakkurini, voqeani mazmunli idrok etishni rivojlantiradi. Bolalarda xalq an’analariga, milliy merosga odob-axloqli va estetik munosabat shakllanadi va rivojlanadi. Suhbat odob-axloqli tarbiyaning keng tarqalgan shakli bo‘lib, o‘quvchilarni unga kiritish, savollar berish, fikrlarni tinglash, faktlar berish, o‘z e’tiqodlarini isbotlash imkonini beradi. O‘qituvchi o‘quvchilarni tahlil qilishga, ular tomonidan qabul qilingan odob va axloqiy hodisalarni baholashga, ularni xatti-harakatlari bilan bog‘lashga va odob va axloqiy qarorlarni tanlashga o‘rgatadi. Shu tarzda u o‘quvchilarning e’tiborini odob-axloq ko‘nikmalari haqidagi umumiy g‘oyalardan haqiqatga qaratadi.

Boshlang‘ich maktabda bolalar bilan odob va axloqiy qadriyatlarga oid suhbatlar o‘tkazish juda muhimdir. Ular maktab o‘quvchilari orasida odob-axloqni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonlarda suhbat va dialoglar o‘quvchilarning ichki dunyosini, qarashlarini yuzaga chiqarishga ko‘maklashadi. Har bir o‘qituvchi suhbat uchun mavzuni o‘zi shakllantiradi. So‘z ifodali bo‘lishi va qanday harakat qilishni ko‘rsatadigan qoida, xulosani o‘z ichiga olishi kerak. Masalan: “Yaqinlarga qanday g‘amxo‘rlik qilinadi”, “Va’da berish oson – bajarish qiyin”, “Otangiz bilan qanday suhbat qilasiz”, “Onangiz ish buyurganda...”, “Salom beramiz...”. Bunday suhbatlarni oldindan rejalashtirish, taxminiy loyihalash lozim. Chunki, ularga bo‘lgan ehtiyoj sinfdagi hayot va voqealar bilan bevosita bog‘liq. Ba’zida odob va axloqqa oid suhbatlar bir guruh o‘quvchilar bilan yoki alohida o‘quvchilar bilan individual ravishda o‘tkazilishi kerak.

Muloqot va o‘zaro ta’sir jarayonida bolalar suhbatdoshni ko‘rish va eshitishni, uning fikrini ko‘rib chiqishni, muzokara qilishni, tan olishni, birgalikda do‘stona ishlashni, biror narsani baham ko‘rishni o‘rganadilar. Ya’ni ular birgalikdagi harakatlar tajribasini olishadi. Birgalikdagi tadbirlar jamoani shakllantirishga qaratilgan. Boshlang‘ich maktabning o‘quv jarayoniga etnopedagogik komponentlikning kiritilishi o‘quvchilarning odob

va axloq ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshirishi, ma’naviy dunyoqarshini boyitishi mumkin. Natijada hissiy idrok bilish jarayonida ham, ta’lim jarayonida ham ta’minlanadi. Didaktik asarlardan foydalanishga asoslangan odob-axloq ko‘nikmalarini rivojlantirish samarali amalga oshadi.

Bolalar nashrlari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida odob-axloq ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonida uch bosqich kuzatilmoqda.

Birinchi bosqichda asosiy e’tibor o‘qituvchilarni o‘quvchilar uchun tegishli va muhim ma’noga ega bo‘lgan turli xil faoliyat va shakllarga, hukmlar, baholar, motivlar, intilishlar va ma’lum bilim va odob-axloqiy ma’nolarga jalb qilishga qaratiladi.

Ikkinchi bosqichda barqaror xulq-atvor usullarini birlashtirish va odob-axloqiy ma’noda yangi, yuqori xulq-atvor motivlarining paydo bo‘lishi uchun odob-axloq ko‘nikmalari harakatlar tajribasini chuqurlashtirish va kengaytirish mavjud.

Uchinchi bosqichda odob-axloq ko‘nikmalari tajribasini chuqurlashtirish va tarbiyalash, muayyan sharoitlardan qat’i nazar, nafaqat mazmunan, balki mukammal ma’noda ham ishtiyoq bilan shakllanadi.

Odob-axloq ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonida uch davr kuzatiladi:

Birinchi davrda muhim va mazmunli g‘oyalar, mulohazalar, baholar, motivlar, intilishlar va o‘quvchilarni ma’lum bir kognitiv va odob-axloqiy ma’noga ega bo‘lgan faoliyatning turlari va shakllariga kiritishga e’tibor qaratiladi.

Ikkinchi davrda barqaror xulq-atvor usullarini mustahkamlash va xulq-atvorning yangi, yuqori odob-axloqiy motivlarini tug‘ilishi uchun odob-axloq ko‘nikmalari harakatlar tajribasini chuqurlashtirish va kengaytirish mavjud.

Uchinchi davrda esa odob-axloq ko‘nikmalari harakatlar tajribasini chuqurlashtirish va tarbiyalash, muayyan vaziyatlardan qat’i nazar, nafaqat mazmunga, balki bajarilgan ishlarning ma’nosiga ham ishtiyoq shakllanadi.

O‘yin munosabatlari sharoitida bola ixtiyoriy ravishda mashq qiladi, normativ xatti-harakatlarni o‘rganadi. O‘yinlarda, boshqa joylarga qaraganda, boladan qoidalarga rioya qilish qobiliyati talab qilinadi. Ular o‘yindagi xatolarni alohida keskinlik bilan payqashadi va murosasiz ravishda qoidabuzarni qoralashlarini bildiradilar.

Umuman olganda, pedagogik sharoitlar – bu o‘quv jarayoni natijasining turli bosqichlarida uning samaradorligiga erishishni birgalikda belgilaydigan pedagogik faoliyatga qaratilgan maxsus asoslangan va uyushgan holatlar majmui. Shunday qilib, har tomonlama tahlil natijalari “sharoit” tushunchasi umumiy ilmiy va uning pedagogik jihatdagi mohiyati bir nechta qoidalar bilan tavsiflanadi degan xulosaga kelishimizga imkon beradi:

– sabablar, holatlar, har qanday obyektlarning umumiyligi;

– belgilangan umumiylik insonning rivojlanishi, tarbiyasi va tarbiyasiga ta’sir qiladi;

– sharoitlarning ta’siri rivojlanish, tarbiyalash va o‘qitish jarayonlarini tezlashtirishi yoki sekinlashtirishi, shuningdek, ularning dinamikasi va yakuniy natijalariga ta’sir qilishi mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining odob-axloq ko‘nikmalarini rivojlantirish samaradorligining asosiy pedagogik shartlari barcha darslarda maktab soatlarida (o‘qitish usullari, tashkiliy shakllar) yuqori darajadagi bilim faolligi, jamoaviy hayot muhiti, faoliyatning ijtimoiy qimmatli maqsadlariga intilish, o‘zaro munosabatlarning gumanistik uslubi, o‘qituvchi va o‘quvchilar, har bir o‘quvchining o‘quv faoliyatidagi faol pozitsiyasi kabilardan iborat. Shunday qilib, “psixologik-pedagogik sharoitlar” atamasini tushuntirishga tahliliy yondashuvlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda, quyidagilar belgilanishi

mumkin: psixologik-pedagogik sharoitlar pedagogik jarayonning zarur tarkibiy qismi sifatida hamda psixologik va pedagogik sharoitlar tuzilishi quyidagilarga ta’sir qiladi:

a) ta’lim tizimi obyektlarining protsessual komponentlari;

b) o‘quv jarayonida subyektning shaxsiy rivojlanishi.

Biz didaktik asarlar yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining odob-axloq ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik shartlarni aniqladik:

– ta’lim mazmuni va usullarini takomillashtirishda folklorning axloqiy mazmunini aktuallashtirish;

– maktabda va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining odob-axloq ko‘nikmalarini rivojlantirishning etno-pedagogik yo‘nalishini ta’minlash;

– boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini didaktik asarlarning odob va axloqiy qadriyatlari bilan tanishtirishda oila va maktabning birgalikdagi faoliyatini ta’minlash.

Shunday qilib, didaktik asarlar orqali boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining odob-axloq ko‘nikmalari xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

– boshlang‘ich maktab o‘quvchilarini odob va axloqiy munosabatlarni ongli ravishda faol o‘zlashtirish uchun samarali tarbiyalash istagi;

– atrof-muhitga ta’sir qilish istagi, ularning yutuqlarini boshqalar tomonidan tan olish;

– vatanparvarlik, mehribonlik, qarindoshlar, fuqarolikka hurmat, ekologik sharoitlar, kompetensiya, bag‘rikenglik, ijtimoiy birdamlik, hayotiy qadriyatlarni tizimini egallash;

– o‘quvchi shaxsiyatiga va boshqalarning qo‘llab-quvvatlashiga kognitiv e’tibor.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini eng samarali odob-axloq ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan quyidagi pedagogik sharoitlar aniqlandi:

– didaktik asarlar (she’rlar, hikoyalar, maqollar, afsonalar) yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining odob va axloqiy g‘oyalari asoslarini shakllantirish uchun 4-sinf o‘quv materialining tarkibiy tahlilini o‘tkazish;

– didaktik vositalar (she’rlar, hikoyalar, maqollar, afsonalar) materialining mazmuni va shakllarini tanlashda boshlang‘ich maktab o‘quvchilari o‘rtasida odob-axloq ko‘nikmalarini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;

– boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining odob-axloq ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkon beradigan odob va axloqiy tushunchalar tizimidan xabardor qilish va faol o‘zlashtirishga qaratilgan eng samarali usul va usullarni qo‘llash.

Butun jahonda bugungi kunda turli mafkuraviy, ma’naviy hamda ijtimoiy tarmoqlardagi axloq qoidalariga zid bo‘lgan ijtimoiy tahdidilar kichik yoshdagi o‘quvchilarni o‘z ta’siriga olmoqda. Kichik yoshdagi o‘quvchilarni bunday moyilliklari kuchayganligi ma’naviyat o‘chog‘i, milliy an’ana va urf-odatlarni asrab-avaylash manbai sanaladigan oilalarda pedagogik profilaktika ishlarini yuksak darajaga ko‘tarishni talab qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzaolimov B. Yoshlar ongida milliy istiqlol g‘oyasini shakllantirishning pedagogik asoslari. Ped. fan. dokt. ilmiydar. Olish uchun tayyorlangan diss. –T., 2016. 143-b.

2. Mustafoyev Sh.N. Badiiy to‘garaklarda talabalarni g‘oyaviy-estetik tarbiyalash. Ped. Fanlari bo‘yicha falsa fafanlari doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – T., 2018. 178 b.

3. Muslimov N.A., Sharipov Sh.S va boshqalar. Kasbiy malaka va pedagogik mahorat. Uzluksiz malaka oshirish yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv materiallari. – T.: TDPU, 2009.-69 b.

Sayyora AZIMOVA,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi Milliy instituti, tayanch doktorant

OTA-ONALARNING PEDAGOGIK BILIMLARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada ota-onalarning pedagogik kompetensiyalarini oshirishning zamonaviy metodlari va mazkur jarayonda mahalla, oila va maktab zanjirini samarali yo‘lga qo‘yishning zamonaviy usullari to‘g‘risida so‘z boradi.

Tayanch sozlar. Oila, mahalla, maktab, ta’lim tarbiyadagi uzviylik, ota-onalarning pedagogik bilimi.

В статье речь идёт о современных методах повышения педагогической компетентности родителей и современных методах эффективного подход в этом процессе цеп махалли, семьи и школы.

Ключевые слова. Семья, махалля, школа, образование преемственность в воспитании, педагогические знания родителей.

The article deals with modern methods of improving the pedagogical competence of parents and modern methods of effective approach in this process for the mahalla, family and school.

Key words. Family, mahalla, school, education, continuity in upbringing, pedagogical knowledge of parents.

Bugungi kunda yosh avlodni har tamonlama yetuk va zamon talablariga mos kadrlar qilib yetishtirishda ta’lim bilan birga milliy tarbiyaga katta e’tibor qaratish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining IV bo‘lim 11-bob 65-moddasida “Har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o‘z ota-onasini bilish, ularning g‘amxo‘rligidan foydalanish, ular bilan birga yashash huquqiga ega, bola manfaatlariga zid bo‘lgan holatlar bundan mustasnodir. Bola o‘z ota-onasi tomonidan tarbiyalanishi, o‘z manfaatlari ta’minlanishi, har taraflama kamol topishi, insoniy qadr-qimmatlari hurmat qilinishi huquqiga ega. Bolaning ota-onasi bo‘lmaganda yoki ular ota-onalik huquqidan mahrum qilinganda va bola ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan boshqa hollarda uning oilada tarbiyalanish huquqi vasiylik va homiylik organi tomonidan ta’minlanadi[1]”, deb belgilab qo‘yilgan.

Inson kamoloti shunchalik murakkabki, unga hayotiy tajriba yetarli emas uning uchun o‘rganish, bilim, o‘qish nihoyatda zarurdir. K.D.Ushinskiy "Ijtimoiy tarbiyada xalq ruhi" hamda "Pedagogik adabiyot orasida"gi risolalarida ota-ona uchun pedagogik bilim dastlab pedagogik adabiyotlar o‘rganishdan boshlanadi. Bola tarbiyasidagi bilim xalq ruhi bilan sug‘orilgan-xalqchilik g‘oyasiga asoslangandagina ota-ona bilimdon tarbiyachilik san’atiga ega bo‘la oladilar", – deyilgan.

Shiddat bilan rivojlanayotgan axborot asrida, ommaviy madaniyat ta’sirida qolayotgan yigit-qizlarning ongiga milliy qadriyatlarimiz orqali tarbiyani singdirish uchun ota-onadan katta pedagogik hurmat va bilim zarur. Ijtimoiy sohada olib borilayotgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, internet asrida tug‘ilgan hali tili chiqmasdan turib, androidlarni hech bir qiyinchiliklarsiz boshqara olayotgan bolalarni tarbiyalashda, ota-onalar yetarli

[1] https://lex.uz/mact/-104720.

bilim va tajribaga ega bo‘lmasa, kelajakda bu tajribasizliklar ortidan katta yo‘qotishlar yuzaga keladi.

Farzand oilada tug‘iladi, hayot haqidagi ilk bilim va ko‘nikmalari shakllanadi. Oila hayotning abadiyligi, avlodlarning davomiyligini ta’minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga kelajak nasllar qanday inson bo‘lib yetishishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘i ekanligini tan olishimiz kerak.

Ota-onaning vazifasi – oilada avvalo moddiy va ma’naviy muhitni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yib, farzandlarga to‘g‘ri tarbiya va ta’lim berish, moddiy ehtiyojlarini qondirish, uni kasb-hunarga o‘rgatish kabi burch va mas’uliyatni o‘z ichiga oladi. Buning uchun ota-ona pedagogik bilimlarga ega bo‘lishi kerak. Ota-onaning pedagogik bilimiga – farzandni tarbiyalash uchun zarur ijtimoiy, iqtisodiy, pedagogik, huquqiy, tibbiy, psixologik bilimlar majmui kiradi.

Pedagogika fanlari doktori, professor Muhammadjon Quronov “Bola baxtli bo‘lsin desangiz…” nomli qo‘llanmasida bola tarbiyasiga oid shunday fikrlarni bildiradi: “Bola boqish oson – tarbiya qilish qiyin. Biz osh tayyorlash, mashina haydash, kompyuterda ishlashni yaxshi bilamiz. Tarbiyani-chi? Bolamizni biz boqmasak, birov boqadi. Biz tarbiyalamasak, boshqalar tarbiyalaydi. Kim tarbiyalasa, bola o‘shaniki. Tug‘dirgan, tuqqan, boqqanga emas, tarbiyalagan oqibat ko‘radi. Rejani tuzib, uyquni buzib kuzatganga, tuzatganga, qaraganga, taraganga, ko‘rsatganga, o‘rgatganga, mashq qildirganga, chiniqtirganga oqibat ko‘rsatadi. Tarbiya bilimni talab qiladi. Odamlar ko‘p narsalarni bir-birlaridan so‘rab bilishadi. Bolasi shamollasa, qanday kompress qilishni, bolalar kiyim kechaklari sotiladigan do‘kon, o‘quv kurslarini bir-biridan so‘rab bilishadi, lekin negadir, “Menga farzand tarbiyasini o‘rgating”, degan ota-ona juda kam. Borlari ham gap ochilib qolganda, esiga tushsa, so‘raydi[2].

O‘zbek oilalarida tarbiya kattaga hurmat, kichikga izzat kabi insoniy fazilatlarga asoslanadi, oila yumushlari farzandlar o‘rtasida adolatli taqsimlanadi. Ota-onaga bo‘ysunish, kattalarning qarorini hurmat qilish, mehnatsevarlik, ochiqqo‘llik, qo‘ni-qo‘shnichilikni qadrlash ruhida tarbiyalanadi. “Bir mahallaga yetti qo‘shni ota-ona” qabilida ish yuritiladi. Tansiq taom tayyorlansa, qo‘ni-qo‘shniga ulashiladi. Bu urf-odatlar yildan-yilga yo‘qolib bormoqda. Bolalar ham mahalla, qo‘ni-qo‘shnidan uzoqlashib, maktabdan tashqari vaqtini uyda, uyali aloqa telefoni, planshet, kompyuter qarshisida, yolg‘iz o‘tkazishni afzal ko‘rmoqda. Ota-onalar o‘z farzandi tarbiyasi bilan mashg‘ul bo‘lishga yetarli vaqt topolmayotgan bir vaziyatda, ijtimoiy tarmoqlardagi insoniy fazilat va xislatlarga zid kontentlar, vediolar, bloglar bolaning xulq-atvoriga bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Mana shu vaqt yetishmovchiligi oqibatida bolalarda ruhiy zo‘riqish, odamovilik, og‘zaki nutq rivojlanishining orqada qolishi, haqiqiy va virtual olamni bir biridan ajrata olmaslik kabi muammolar kuzatilmoqda. Xorijiy davlatlarda kichik yoshdagi bola shakllanishida ikki muhim dargoh – oila va maktabni o‘z ichiga oladi[3]. Turkiy xalqlarda farzand tarbiyasida oila, maktab, mahalla hamkorligi yo‘lga qo‘yiladi. Tarbiya ruhiy jarayon bo‘lib, shaxsda jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy va umuminsoniy sifatlarini shakllantiruvchi pedagogik jarayon hisoblanadi[4]. Tarbiyaviy jarayon uzluksiz va alohida yondashuni talab qiladi. Tarbiya metodi avloddan avlodga o‘tib boradi.

Pedagogikada tarbiya keng qamrovli tushuncha bo‘lib, oila, maktab, mahalla bilan cheklanib qolmay, adabiyot, san’at, kino, radio, televideniya va boshqa ijtimoiy

[2] Quronov Muhammad. “ Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz” –T.: Ma’naviyat, 2013. -190 b. 10-bet.

[3] Duskaziyeva J. G. Gender psixologiyasi: darslik, J. G. Duskaziyeva. Krasnoyarsk, 2010 -yil. 108-bet.

[4] https://uz.wikipedia.org/wiki/Tarbiya

obyektlarni ham o‘z ichiga oladi. Tarbiya shaxsning ma’naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish va dunyoqarashini kengaytirishga, badiiy va estetik didini o‘stirishga qaratilgan jarayon hisoblanadi. Ota-onalarning pedagogik bilimlarini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalardan keng foydalaniladi.

“Pedagogik texnologiya – barkamol insonni shakllantirish faoliyati”.

Shu bilan birga pedagogik texnologiyaning keng ko‘lamli, serqirra tushuncha ekanligini hisobga olgan holda uning quyidagi yana bir nechta ta’riflarini keltirishimiz mumkin.

Pedagogik texnologiya – axborotlarni o‘zlashtirish, ulardan amalda foydalanish, ulardagi yangi ma’no-mazmunlarni hamda axborotlar orasidagi turli bog‘liqliklarni ochish orqali yangi axborotlar yaratishga o‘rgatish jarayonidan iborat. Pedagogik texnologiya – bu o‘z oldiga ta’lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo‘yuvchi, butun o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini texnik resurslar va odamlarning o‘zaro munosabatlarini hisobga olgan holda yaratish, qo‘llash va aniqlashning tizimli metodidir.

Maktabda bolalar jamoaga moslashadilar, vaqtining ma’lum bir qismini tengqurlari davrasida o‘tkazadilar. Sinfda turli oilaviy muhitda tarbiyalanayotgan o‘quvchilar o‘rtasida do‘stona yoki aksincha, kelishmovchilik holatlari yuzaga kelishi mumkin. O‘qituvchi darsdan tashqari vaqtda o‘quvchilarga umumiy tarbiya qonuniyatlarini tushuntiradi, lekin tarbiyasi og‘ir yoki xulq-atvorida o‘zgarishlar kuzatilayotgan o‘quvchilar bilan ota-ona, mahalladan birlashtirilgan yetakchi va maktab mutasaddilari hamkorlikda ish olib boradilar.

Ota-onaning farzand bilan munosabatda quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak:

– pedagogik xushmuomalalik; (ota-ona bolalar bilan imkon qadar xushmuomilada bo‘lishi zarur)

– bolalarga nisbatan sezgirlik; (ota-ona farzandining his-tuyg‘u, xatti-harakatlari, orzu, qiziqishlariga nisbatan hushyor va e’tiborli bo‘lishlari kerak)

– adolatli va oqilona talabchan bo‘lish qobiliyati; (qattiqqo‘llik, talabchanlik me’yorida bo‘lsa, samara, me’yoridan o‘tsa, zulum bo‘ladi. Bolaning o‘g‘il yoki qizligi, katta yoki kichikligidan qat’iy nazar ota-ona farzandiga teng munosabatda bo‘lishi maqsadga muvofiq)

– ziddiyatli vaziyatlardan oqilona chiqish yo‘lini topish qobiliyatini o‘zlashtirish. (Bolalarda o‘smir yoshdagi bolalarda gormonal o‘zgarishlar natijasida jizzakilik, menini atrofidagilarga bildirish hissi kuchli bo‘ladi. O‘zini yolg‘iz sezsa, turli zararli odat va konfliktli vaziyatlarga tushadi.

Mana shunday vaziyatlarda ota-ona yuzaga keladigan konfliktlarga nisbatan yechim topish mahoratiga ega bo‘lsa, kelgusida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan ko‘ngilsizliklarni oldini olgan bo‘ladi. Oilada farzand tarbiyasi mashaqqatli va uzluksiz jarayon bo‘lib, bo‘lib, ota-onadan o‘z farzandlariga mehr-muhabbat, katta sabr-toqat va o‘zlashtirilishi zarur bo‘lgan pedagogik texnologiyalariga oid bilimlarni o‘zlashtirishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedov B. (2021). Oila va maktabgacha ta’limda tarbiya jarayonlari integratsiyasi. – T.: Fan va Texnologiyalar.

2. Karimova D. (2020). Maktabgacha ta’limda innovatsion texnologiyalarni joriy etish. Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy jurnali, 3(5), 25–30-b.

3. To‘xtasinov U. (2018). O‘zbek oilasining pedagogik qadriyatlari. Samarqand davlat universiteti nashriyoti.

Muhayyoxon ABDULAZIZOVA,
“Turon universiteti” nodavlat oliy ta’lim muassasasi, Andijon filiali, magistrant

TALABALARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA AKSIOLOGIK YONDASHUVNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada talabalarni kasbiy tayyorlash jarayonida pedagogik aksiologiyaning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Pedagogik aksiologiya ta’lim jarayonini takomillashtirishda muhim vosita sifatida qaralib, talabalarning kasbiy malakasini oshirish, ularda ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan tamoyillar muhokama qilinadi. Shuningdek, zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish orqali pedagogik jarayonni takomillashtirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

Tayanch so‘zlar. Pedagogik aksiologiya, kasbiy tayyorgarlik, ta’lim sifatini oshirish, zamonaviy ta’lim texnologiyalari, axloqiy qadriyatlar, innovatsion metodlar.

В данной статье анализируется роль и значение педагогической аксиологии в процессе профессиональной подготовки студентов. Педагогическая аксиология рассматривается как важный инструмент совершенствования образовательного процесса, направленный на повышение профессиональной квалификации студентов, формирование у них социальных и нравственных ценностей. Также рассматриваются возможности оптимизации педагогического процесса за счет использования современных образовательных технологий.

Ключевые слова. Педагогическая аксиология, профессиональная подготовка, повышение качества образования, современные образовательные технологии, нравственные ценности, инновационные методы.

This article analyzes the role and significance of pedagogical axiology in the process of students’ professional training. Pedagogical axiology is considered as an important tool for improving the educational process, aimed at enhancing students’ professional qualifications and shaping their social and moral values. The possibilities of optimizing the pedagogical process through the use of modern educational technologies are also discussed.

Key words. Pedagogical axiology, professional training, improving education quality, modern educational technologies, moral values, innovative methods.

Zamonaviy ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri – talabalarni nafaqat kasbiy jihatdan tayyorlash, balki ularda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishdir. Shu nuqtayi nazardan, pedagogik aksiologiya (qadriyatlar to‘g‘risidagi fan) ta’lim jarayonida markaziy o‘rin tutadi. Aksiologik yondashuv ta’lim sifatini oshirish, talabalarning kasbiy motivatsiyasini kuchaytirish va ularning axloqiy qarashlarini shakllantirish imkonini beradi.

Pedagogik aksiologiya – bu ta’lim jarayonida qadriyatlar tizimini o‘rganish va ulardan samarali foydalanish tamoyillarini ishlab chiqadigan fan sohasi hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi – shaxsning kasbiy va axloqiy rivojlanishiga ko‘maklashishdir. O‘zbekistonda pedagogik aksiologiya sohasida bir qator olimlar muhim ilmiy ishlar olib borgan. Quyida ushbu mavzuda faoliyat yuritgan ba’zi olimlar va ularning ishlariga oid ma’lumotlar keltirilgan:

Mardonov Shavkat tomonidan yozilgan “Pedagogik aksiologiya” nomli o‘quv qo‘llanma oliy ta’lim muassasalarining pedagogika va psixologiya yo‘nalishida tahsil oluvchi talabalarga mo‘ljallangan bo‘lib, unda pedagogik aksiologiya fanining shakllanishi, tarixiy rivojlanishi, o‘ziga xosliklari va zamonaviy aksiologik yondashuvlar batafsil yoritilgan.

Xolov Olimjon Chorshamiyevichning ilmiy maqolasida xalq og‘zaki ijodi vositasida o‘quvchilarda aksiologik ongni shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari haqida fikr yuritiladi. Ushbu ilmiy ishda milliy qadriyatlarimiz va xalq og‘zaki ijodining ta’lim-tarbiyadagi o‘rni tahlil qilingan.

Siddiqov Baxtiyor Saidkulovichning maqolasida umumiy o‘rta ta’limda aksiologik tarbiya mexanizmlarini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida ko‘rib chiqilgan. Maqolada qadriyat, aksiologik kompetensiya tushunchalarining mazmuni va mohiyati yoritib berilgan.

Jamoldinova Odinaxon Rasulovna O‘zbekistonda pedagogika sohasida 100 dan ortiq ilmiy ishlar, jumladan, 2 ta o‘quv qo‘llanma, 3 ta uslubiy qo‘llanma, 3 ta monografiya va 2 ta risola muallifi. Uning ilmiy maqolalari AQSh, Rossiya, Germaniya, Ukraina, Qozog‘iston, Ozarbayjon va Turkiya jurnallarida chop etilgan.

Turg‘unov Mirjalol Mirzahamdam o‘g‘li va Nasirdinova Dinaraning maqolasida pedagogik aksiologiya ta’limda qadriyatli yondashuv sifatida ko‘rib chiqilgan. Ushbu ishda ta’limiy qadriyatlar, ularning tabiati, funksiyalari va o‘zaro aloqadorligi haqidagi masalalar tahlil qilingan.

MDH mamlakatlarida pedagogik aksiologiya sohasida bir qator olimlar muhim ilmiy tadqiqotlar olib bormoqdalar. Quyida ushbu mavzuda faoliyat yuritgan ba’zi olimlar va ularning ishlariga oid ma’lumotlar keltirilgan:

Vladimir A. Slastenin — Rossiyada taniqli pedagog olim bo‘lib, uning asarlari pedagogik aksiologiya, pedagogik faoliyat va ta’lim jarayonining nazariyasi va metodologiyasiga bag‘ishlangan. Uning “Pedagogika” nomli asari Rossiyada pedagogik ta’limda keng qo‘llaniladi.

Rossiyalik pedagog olim Vladimir V. Serikov ta’limning shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvi va aksiologik asoslari bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. Uning “Ta’lim texnologiyasi: g‘oyadan natijaga’’ nomli asari ta’lim jarayonida qadriyatlar va texnologiyalarni integratsiyalash masalalarini yoritadi.

Aleksandr V. Mudrik — Rossiyalik pedagog olim, ijtimoiy pedagogika va ta’limdagi qadriyatlar masalalarini tadqiq qilgan. Uning “Sotsial’naya pedagogika” (Ijtimoiy pedagogika) nomli asari pedagogik aksiologiya va ijtimoiy tarbiya masalalarini yoritadi.

Ushbu olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar MDH mamlakatlarida pedagogik aksiologiya sohasining rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shganlar. Pedagogik aksiologiya sohasida xalqaro miqyosda bir qator olimlar muhim ilmiy tadqiqotlar olib bormoqdalar. Quyida ushbu mavzuda faoliyat yuritgan ba’zi taniqli xorijiy olimlar va ularning ishlariga oid ma’lumotlar keltirilgan:

Monash universitetining faxriy professori David N. Aspin ta’lim falsafasi va aksiologiyasi sohasida keng qamrovli tadqiqotlar olib borgan. Uning asarlari ta’limdagi qadriyatlar, axloqiy tarbiya va umrbod ta’lim masalalariga bag‘ishlangan. London universitet kollejining ta’lim instituti professori Terence W. Moore ta’lim falsafasi va aksiologiyasi sohasida taniqli olimdir. Uning “Ta’lim va qadriyatlar” (Education and Values) nomli asari ta’limdagi qadriyatlar va axloqiy masalalarni o‘rganishga bag‘ishlangan.

Stenford universitetining faxriy professori Nel Noddings ta’lim falsafasi, aksiologiya va g‘amxo‘rlik etikasiga oid tadqiqotlari bilan mashhur. Uning “G‘amxo‘rlik. Ta’limdagi g‘amxo‘rlik etikasiga kirish” (Caring: A Feminine Approach to Ethics and Moral Education) nomli asari ta’limdagi qadriyatlar va axloqiy tarbiya masalalarini yoritadi. Amerikalik faylasuf va pedagog John Dewey ta’lim falsafasi va aksiologiyasiga qo‘shgan hissasi beqiyosdir. Uning “Ta’lim va tajriba” (Experience and Education) nomli asari ta’limdagi tajriba va qadriyatlar masalalarini o‘rganadi.

Braziliyalik pedagog va faylasuf Paulo Freire “Mazlumlarning pedagogikasi” (Pedagogy of the Oppressed) nomli asari ta’limdagi ozodlik, adolat va qadriyatlar masalalariga bag‘ishlangan.

Ushbu olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar pedagogik aksiologiya sohasining rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shgan va ta’limdagi qadriyatlar masalalarini chuqurroq anglashga yordam bergan.

Pedagogik aksiologiyaning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

Ta’lim jarayonida axloqiy qadriyatlarni shakllantirish – talabalarni kasb etikasiga mos ravishda tarbiyalash.

Kasbiy kompetensiyalar va shaxsiy fazilatlarni uyg‘unlashtirish – nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash.

Innovatsion ta’lim metodlari asosida o‘qitish – talabalarni mustaqil fikrlash va kreativ yondashuvga o‘rgatish kabilarni o‘z ichiga oladi.

Pedagogik aksiologiya talabalarni faqat nazariy bilimlarga emas, balki ularning ijtimoiy va axloqiy jihatdan rivojlanishiga ham yo‘naltiradi. Kasbiy ta’lim jarayonida aksiologik yondashuv quyidagi jihatlarga e’tibor qaratadi:

shaxsiy va kasbiy mas’uliyat hissini shakllantirish;

talabalarning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish;

axloqiy va ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirish orqali ijtimoiy moslashuvni ta’minlash kabilar.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar pedagogik aksiologiya tamoyillarini amalga oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Jumladan:

Interaktiv o‘qitish usullari – talabalar o‘z fikrlarini erkin ifoda etishi va tahliliy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Loyiha metodlari – talabalarni kasbiy faoliyatga yaqinlashtirish va amaliy tajriba orttirishga imkon yaratadi.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish – raqamli ta’lim platformalari orqali kasbiy malakalarni oshirish.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, pedagogik aksiologiya ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, talabalarni kasbiy tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Aksiologik yondashuv orqali ta’lim jarayonini takomillashtirish, talabalarda axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish va ularning kasbiy kompetensiyalarini oshirish mumkin. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirilgan aksiologik ta’lim metodlari talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Slastenin V. A., Isaev I. F., Mishchenko A. I. Pedagogika. – Moskva: Akademiya, 2002.

2. Aspin D. N., Chapman J. D. Values Education and Lifelong Learning: Principles, Policies, Programmes. – Springer, 2007.

3. Dewey J. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916.

4. Gurevich P. S. Aksiologiya obrazovaniya. – Moskva: Yurait, 2015.

5. Farrant J. S. Principles and Practice of Education. – Longman, 1980.

6. Mamedov N. M. Pedagogicheskaya aksiologiya kak osnova professional’noy po6. dgotovki // Pedagogika i psikhologiya. – 2018. – № 3. – S. 45-52.

7. Habermas J. Theory of Communicative Action. – Beacon Press, 1984.

Kamola ABDULLAYEVA,
Andijon davlat pedagogika instituti, magistrant

TARBIYACHILARDA KREATIVLIK QOBILIYATLARINING SHAKLLANGANLIGI – TA’LIM-TARBIYA SIFATINI TA’MINLASHNING ASOSI

Annotatsiya

Maqolada tarbiyachilarning ijodkorlik, yaratuvchanlik, yangilik yaratishga qaratilgan faoliyati, kreativlik, kreativ qobiliyat, tafakkur, muloqot, iste’dod, shaxsning o‘z-o‘zini shakllantirishi bayon etilgan.

Tayanch so‘zlar. Tarbiyachi, kreativlik, qobiliyat, faoliyat, tafakkur, ijodiy fikrlash, pedagogika.

В данной статье описывается деятельность педагогов по творчеству, креативности, новаторству, креативности, мышлению, общению, талантам, самоформированию личности.

Ключевые слова. Педагог, креативность, способность, активность, мышление, творческое мышление, педагогика.

This article describes the activities of educators on creativity, creativity, innovation, creativity, thinking, communication, talents, self-formation of the individual.

Key words. Educator, creativity, ability, activity, thinking, creative thinking, pedagogy.

Jadal rivojlanayotgan dunyoda zamonaviy innovatsiyalarga moslashish, doimiy yangilanuvchi jamiyat hayotiga yosh avlodni tayyorlash va uni zamon talablariga muvofiq takomillashtirish jarayonlarida faol ishtirok etish qobiliyatini rivojlantirish maktabgacha ta’lim tarbiyachilarining muhim kasbiy vazifasi hisoblanadi.

O‘zbekistonda kadrlar tayyorlashning sifat darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, har bir oliy ta’lim muassasasi jahonning yetakchi ilmiy-ta’lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalarini o‘rnatishi, ilg‘or texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarni keng joriy qilish, ilmiy-pedogog kadrlarning zamonaviy kasbiy bilimlari va kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish dolzarb masalalardan biridir.

Prizidentimizning “2019-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonida “Jamiyat va davlat hayotning barcha sohalari shiddat bilan rivojlanayotgani islohotlarni mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasi yetakchilari qatoriga kirish yo‘lida tez va sifatli ilgarilashini taminlaydigan zamonaviy innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan holda amalga oshirishni taqazo etadi”, deb alohida ta’kidlangan.

Bugungi kunda ijodkorlik, yaratuvchanlik, yangilik yaratishga qaratilgan faoliyat kreativ faoliyat deb tushuniladi. Kreativlik so‘zi inglizcha “create” – yaratuvchanlik, ijodkorlik so‘zidan olingan bo‘lib shaxsning ijodkorlik qobiliyati, iste’dod darajasi, shaxsning an’anaviylik yoki odat tusiga kirgan fikrlash sxemasidan uzoq bo‘lgan, yangi g‘oyalarni yaratishga tayyorlikni xarakterlovchi, muammolarni o‘zgacha tarzda bartaraf etish, iqtidorning mustaqil faktori sifatida qabul qilingan ijodiy qobiliyatdir. Ko‘pchilik tarbiyachilar aslida “kreativlik” tushunchasi qanday ma’no anglatishini yetarlicha izohlay olmaydilar, shu bilan birga shuni alohida qayd etib o‘tish kerakki, har bir shaxs kreativlik qobiliyatiga ega, shu jumladan tarbiyachilar ham. Xorijlik jamoat arbobi, olima

Patti Drapeau'' o'zingizni kreativ emasman deb hisoblasangiz-da, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman, aslida gap sizning ijodkor va kreativ bo'lganingiz yoki bo'lmaganingizda emas, balki darslarni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g'oyalarni amalda sinashga intilishingizdadir[1]".

Amerikalik olim D Veksler esa "kreativlik fikrning shunday turiki, u shaxsga biron muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta yechimlar paydo bo'lishini taqazo etadi va shablonli, zerikarli fikrlashdan farq qilib, narsa va hodisalar mohiyatini o'ziga xoslik va noyoblik sifatlarini oshirishga yordam beradi" – deb ta'rif beradi[2].

Kasbiy faoliyatda tarbiyachining kreativligi turli shakllarda namoyon bo'ladi. Ular quyidagilar: axborot olish, axborotni yetkazish va boshqalar. Tarbiyachi ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni topish, yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish shuningdek, pedagogik harakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi lozim. Kreativ shaxs bo'lish bizning misolimizda esa tarbiyachi bo'lish bugungi dunyoda avfzalliklarga ega bo'lish, masalan boshqa tarbiyachilar ichida ajralib turish, boshqalarga qaraganda mashg'ulotlarni noan'anaviy tarzda o'ta olish, mashg'ulotlardagi qiyinchiliklar va muammolardan noodatiy usulda chiqib ketish yo'llarini topadigan pedagogdir. Pedagog-tarbiyachi o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi tarbiyachilarning ham kreativ qobiliyatiga ega bo'lishi uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlanib boradi. Bunda tarbiyachini ijodiy faoliyatga o'zini o'zi yo'naltirishi va bu qobiliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega.

Ijodkorlik – muayyan yangilikning ahamiyati va foydali ekanligini belgilovchi shaxs faoliyati va uning natijasi.

Ijodkor shaxs – ijodiy jarayonni muvafaqqiyatli amalga oshira oladiga shaxs

Ijod–ijtimoiy subyektning yangiligi ahamiyati, foydaliligi, jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan tan olinadigan faoliyat yoki faoliyat natijasi

Kreativ shaxs – jarayon yoki natija sifatida ijodkorlikni namoyon etuvchi, masalani yechishga nostandart usullar bilan yondashishga moyil bo'lgan, o'ziga xos xarakatlarni tashkil etish, yangiliklarni ilgari surishga, ijodiy mahsulotlarni yaratishga layoqatli va tayyor shaxs.

Kasbiy ijodiy faoliyat – mutaxassisning kasbiy masalarni ijodiy hal qilish muvafaqqiyatni tavsiflovchi faoliyat, innovatsion xarakterlilik.

Kasbiy ijodiy imkoniyat :

– kasbiy malakaviylikka egalik;

– kasbiy ijod metodologiyasi asoslarini o'zlashtirganlik;

– ijodiy tafakkurni shakllanganlik darajasi;

– kasbiy–ijodiy layoqat va shaxsiy sifatlarning rivojlanganligi.

Tarbiyachilarning pedagogik faoliyatiga kreativ yondashuv yosh avlod vakillarida zamonaviy jamiyatimizga kirib kelayotgan innovatsion texnologik jarayonlarda faol bo'lish imkoniyatlarini kengaytiradi, kreativ fikrlash ko'nikmalarini yanada shakllantiradi. Tarbiyachilar amaliyot davrida o'z kasbiga moyillik, pedagogik faoliyatga ijodiy yondashish, o'zi egallagan zamonaviy bilimlarni amaliy tajribada qo'llash, rahbarlik

[1] Patti Drapeau. Sparking Student Creativity 2016 y p 7-10

[2] Guilford J P (1950) Creativiy, American Psychologist , Volume 5, Issue 9, p 444-454

ko‘nikmalarini egallash, tarbiyalanuvchi shaxsini pedagogik va pisixologik jihatdan o‘rganish, tahlil qilish, madaniy ommaviy tadbirlarni tashkil etish metodlarini o‘zlashtirish kabi ko‘nikmalar faollashadi va rivojlanadi. Bularning barchasi pedagogik tarbiyachini tarbiyachilik faoliyatiga tayyorlash bilan birga o‘z kasbiy faoliyatlari davomida amal qiladigan bir qator qoidalarni ham o‘zlashtirishlari kerak. Bular:

– Bo‘lajak tarbiyachilarda ongli intizomni tarkib toptirish;

– Bolalarga nisbatan adolatli munosabatda bo‘lish;

– Guruhdagi faol tarbiyalanuvchilarni qo‘llab-quvvatlash va ularga yordam ko‘rsatish;

– Tarbiyalanuvchilarning mustaqil faoliyatini mustaqil rag‘batlantirish;

– Tarbiyalanuvchilar bilan topshiriqlar ustida tizimli ishlash va bu jarayonda ularni faollashtirish;

Tarbiyalanuvchilar orasida tarbiyaviy tadbirlarni tizimli tarzda tashkil etish.

Ta’lim sohasida qo‘yilgan talablar orasida maktabgacha ta’lim tashkilotlari mutaxassislarining kasbiy va kreativ kompetentligini oshirish uchun qator chora tadbirlar yo‘lga qo‘yilgan. Pedagog-tarbiyachiga qo‘yilgan talab – eng avvalo o‘z ustida izlanishlar olib borishidir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy yetukligi va kretiv kompetentligi ta’lim sifatini oshirish uchun va rivojlantirishi uchun yordam beradi. Tarbiyachining kreativligi hodisalarni tahlil qilishga, vaziyatga ilmiy nuqtayi nazardan baho berishga ko‘maklashadi.

Ma’lumki, bashariyat tarixida turfa shakldagi, mazmun-mohiyati o‘zgacha fikrlar, g‘oyalar yuzaga kelgan, ko‘plab ijtimoiy-siyosiy kuchlar o‘z maqsad, manfaatlarini ifoda etuvchi ta’limotlari bilan jamiyatga, insoniyatga xitob qilganlar. Ular ichida milliy negizga asoslanib, o‘zgalar manfaati, qadriyatlarini ham hurmat qilishga da’vat etgan, ma’naviy-ma’rifiy yuksalishni o‘z g‘oyalari, mafkuralari markaziga qo‘ygan ta’limotlargina asrlar osha nafaqat shu millatning, balki insoniyatning davrlar o‘tsa ham kundalik hayotda amal qiladigan etaloniga aylanadi. Bu borada o‘zbek zaminida asrlar osha shakllanib, taraqqiy etgan, millatimizning tom ma’nodagi mafkurasiga aylangan, iste’foda etish orqali boshqa xalqlarning ham yuksalishiga omil bo‘ladigan ta’limotlar borki, ular ta’lim-tarbiyada to‘g‘ri yo‘nalish olish uchun mayoq vazifasini o‘taydi[3].

Ijodkorlikni oshiradigan omillar nima? Ijodkorlikni oshiradigan eng muhim omillarni quyidagicha sanab o‘tish mumkin:

• Moslashuvchan fikrlash

Moslashuvchan fikrlash – bu dolzarb muammolarga turli nuqtayi nazardan yondashish qobiliyati. Ijodkor odamlar muammoni hal qilish jarayonida qat’iy fikrlash shakllarini buzadilar va muqobil yechimlarni topadilar. Moslashuvchan fikrlash g‘ayrioddiy va original yechimlar paydo bo‘lishiga imkon beradi.

• Tasavvur

Ijodkorlik va tasavvur o‘rtasida muhim bog‘liqlik mavjud. Tasavvur – bu ijodkorlikning asosini tashkil etuvchi mahorat. Ijodiy xususiyatlarga ega bo‘lgan odamlar o‘zlarining mavjud bilimlari va tajribalaridan foydalangan holda yangi g‘oyalarni ishlab chiqaradilar. Tasavvur muammolarning ijodiy va original yechimlarini topishda muhim rol o‘ynaydi.

• Ichki motivatsiya

Ijodiy fikrlashga ega bo‘lganlar yangi g‘oyalarni ishlab chiqish va loyihalar ustida ishlash uchun o‘zlarining ichki motivatsiyasi bilan turtki bo‘ladi.

• Risk olish

[3] https://doi.org/10.5281/zenodo.10680119

Ijodkorlik ko‘pincha noaniqlik va xavfni o‘z ichiga oladi. Ijodkor odamlar yangi g‘oyalarni sinab ko‘rish va muvaffaqiyatsizlikka duchor bo‘lish uchun jasur bo‘lishi kerak. Tavakkalchilik noan’anaviy va innovatsion yechimlarning paydo bo‘lishiga imkon beradi. Ijodkorlikni rivojlantirish bo‘yicha takliflar va maslahatlar.

Ijodkorlikni qanday rivojlantirish mumkin? Bu savolga turli yo‘llar bilan javob berish mumkin. Ijodkorlikni rivojlantirish uchun siz quyidagi takliflarni ko‘rib chiqishingiz mumkin:

♦ Ijodkorlikni rivojlantirish uchun qiziquvchanlikni saqlang.

♦ Yangi mavzularni o‘rganing, turli madaniyatlarni o‘rganing va turli tajribalarga ega bo‘ling.

♦ Sog‘lom ong va tana uchun zarur bo‘lgan narsalarni qilishni unutmang.

♦ Doimiy ravishda sport bilan shug‘ullaning, yetarlicha uxlang va sog‘lom ovqatlaning.

♦ Ijodkorlikni rag‘batlantirish uchun ilhomlantiruvchi muhit yarating.

♦ Shaxsiy ish joyingizni tartibga soling, unga qiziqarli narsalarni qo‘shing va musiqadan foydalaning.

♦ Kundalik ijodkorlik odatlarini rivojlantiring.

♦ Yozish, chizish, musiqa yoki fotografiya kabi ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanish uchun har kuni ma’lum vaqt ajrating.

♦ Ijodkorlikni rag‘batlantirish uchun turli tajribalarga ochiq bo‘ling.

♦ Turli xil san’at turlarini o‘rganing, yangi ko‘nikmalarni o‘rganing va odatdagidan qoching.

♦ Ijodkorlikni oshirish uchun yangi g‘oyalar va tajribalarga ochiq bo‘ling.

♦ Tavakkal qilishdan qo‘rqmang va xato qilishdan tortinmang, chunki biz xatolardan saboq olamiz.

♦ Ilhom uchun turli manbalardan foydalaning.

♦ Kitoblarni o‘qing, san’at galereyalariga tashrif buyuring, tabiatni o‘rganing va turli madaniyatlar bilan muloqot qiling.

♦ Asl fikrlashni rag‘batlantirish uchun aqliy qiyinchiliklarni qabul qiling.

♦ Muammolarni turli tomonlardan ko‘rib chiqing, mantiqiy fikrlashni kengaytiring va muammolarga noan’anaviy yechimlarni topishga harakat qiling.

♦ Bu takliflar ijodkorlikni rag‘batlantirish va rivojlantirish uchun boshlang‘ich nuqta bo‘lishi mumkin. Har bir inson har xil va siz uchun eng mos usullarni topish uchun sinov va xato orqali o‘z yo‘lingizni topish muhimdir.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, kreativlik tarbiyachilarni nafaqat o‘z salohiyatini balki tarbiyalanuvchilarning ichki, ochilmagan iqtidorini ham namoyon qilib beradi. Bugungi kunda davr talabi ham aslida shundan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2018-yil. PF-5544

2. Patti Drapeau. Sparking Student Creativity 2016 y p 7-10.

3. Guilford J P (1950) Creativiy, American Psychologist , Volume 5, Issue 9, p 444-454.

4. A.Xoliqov. Pedogogik mahorat. – T., 2010, -367b.

To'lqin PARDAEV,
"Alfraganus University" nodavlat oliy ta'lim muassasasi, "Xorijiy filologiya" kafedrasi, o'qituvchi

"XRONTOP" TUSHUNCHASINING ANTIK ADABIYOT NAMUNALARIDA AKS ETISHI

Annotatsiya

Maqolada badiiy xronotopning lirik, epik va dramatik asarlardagi talqini bo'yicha qator tadqiqotlar yaratilganligi haqida hamda muammoning biz ko'zlagan jihatlariga alohida to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, monografiyada xilma-xil janrlar negizida xronotop masalalari tahlil qilinadi.

Tayanch so'zlar. Epik va dramatik asarlar, roman janri, monografiya, ingliz nasri, badiiy xronotop.

В статье особо подчеркивается, что был проведен ряд исследований по интерпретации художественного хронотопа в лирических, эпических и драматических произведениях, а также рассмотрены намеченные нами аспекты проблемы. Также в монографии проанализированы вопросы хронотопа на основе различных жанров.

Ключевые слова. Эпические и драматические произведения, жанр романа, монография, английская проза, художественный хронотоп.

The article highlighted the creation of a number of studies on the interpretation of the artistic chronotope in lyrical, epic, and dramatic works, as well as the aspects of the problem we aimed for. The monograph also analyzes chronotope issues based on various genres.

Key words. Epic and dramatic works, novel genre, monograph, English prose, artistic chronotope.

Badiiylikning mohiyatida odamzodning ruhiy-ijtimoiy, falsafiy-madaniy turmush tarzi akslanar ekan, undan anglashiladigan asosiy tushuncha – borliqdagi narsa va hodisalarning bir-biriga to'g'ri kelganligini dalolatlaydi. Chunki movofiqlik negizida har bir komponent, badiiylikning muhim shartlari o'zaro uyg'unlik kasb etgan bo'ladi. Mana shu tamoyil, badiiy makon va zamon (xronotop) oralig'ida sodir etilib, yozuvchining diqqat markazida qahramon va muhitning eng kichik zarralarigacha turadi. Bu yashab o'tilgan davr bilan romandagi sodir bo'layotgan xatti-harakatlar birligida yuzaga chiqadi. Binobarin, badiiy xronotop muammosini ilk bor rus munaqqidi antik yunon romanlari misolida talqin qilib, masalaga teran nazariy-ilmiy jihatdan yondashishga erishgan bo'lsa, qariyb 50-60 yil davomida ko'plab tadqiqotlar vujudga keldi. Makon va zamon tushunchasi, ayniqsa, poetik talqin ohorining o'ziga xosligigacha murakkab tasvir usullarini ham aniqlay olgani ilm-fanda, yangi o'zbek va jahon adabiyotshunosligida katta o'zgarishlar yasay olgani tahsinga sazovordir.

Rus munaqqidi Mixail Baxtin qayd etishicha: "Antik zamindayoq romanning uch muhim birligi, romanga xos zamon va makonning uch mushtarak o'zlashtirish usuli, qisqacha aytganda, uch roman xronotopi maydonga kelgan edi. Mazkur uch tip favqulodda mahsuldor moslashuvchanligi bilan avantyur roman rivojini XVIII asr o'rtalariga qadar har jihatdan ta'minlab keldi. Shuning uchun ishni mazkur uch tipga mansub romanlarning batafsil tahlilidan boshlash, so'ngra navbati bilan ularning yevropa romanlariga xoslangan variatsiyalarini aniqlash, pirovardida esa bevosita zaminida paydo

bo‘lgan romanlarga oid yangiliklarni belgilash maqsadga muvofiqdir”. Haqiqatdan ham, o‘rta asrlar yevropa xalqlarining “sayyor syujet”ga asoslangan badiiy yutuqlari, tragik asarlar bilan serobligi bilan ajralib turardi. Keyinchalik bu asarlar nasriy yo‘sinda ibtido olib, janrning yangicha ifoda shakllari, tanqidiy realizm, realizm, modernizm kabi qator oqimlar fonida asta-sekin yuzaga chiqardi. Buning zamirida o‘sha badiiy xronotop, tasodif, kutilmagan burilishlar bilan o‘quvchilarga suyumli bo‘lib tuyular, yozuvchilar ayni tasvir moduslarining ustida tinimsiz mehnat qilar, haqqoniy odamlar yashashini, hayot kechirishini qalamga olar, naturalistik g‘oyalarni ko‘proq asar kompozitsiyasiga olib kirishardi. Bu holat birinchi jahon urushi boshlangunga qadar davom etgan bo‘lsa, keyinchalik roman poetikasi ham tubdan o‘zgardi.

Badiiy xronotopning lirik, epik va dramatik asarlardagi talqini bo‘yicha qator tadqiqotlar yaratilgan bo‘lib, muammoning biz ko‘zlagan jihatlariga alohida to‘xtalmagan. Prof. U.Jo‘raqulov mazkur muammoga Baxtning xronotop nazariyasi asosida Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonidagi xronotop shakllariga monografik planda to‘xatilib, mutafakkirning dostonni yozishlishi, makon va zamon tavsiflarini teran idrok etgan holda talqin etishini qayd etish zarur.

Ushbu monografiyada xilma-xil janrlar negizida xrontop masalasi o‘zining yangicha talqinini namoyon etadi. Prof.U.Jo‘raqulov bu haqida quyidagilarni e’tirof etadi: “Roman adabiy janrlar taraqqiy etgan davrlarda ro‘y beradigan umumiy sintezlashuv, kanonlashuv, uzviylashuv jarayonlarida ishtirok etmaydi. Adabiy janrlarning ulkan serkulyativ harakatlaridan chetda turadi. Ayni paytda boshqa janrlar taraqqiyotiga ham, shakl va mazmuniga ham o‘z-o‘zicha ta’sir ko‘rsatadi. Bu poetik ta’sirlanuv hodisasidan nafaqat nasriy janrlar, balki lirik va dramatik janrlar ham bebahra qolmaydi. Ayni holat romanning boshqa janriy shakllanuv jarayonlarida tobe sifatida emas, yagona hokim kuch sifatida ishtirok etishini, o‘z-o‘zicha harakat va o‘zgarishdagi, zamon harakati, tabiati bilan hamohang janr ekanini ko‘rsatadi”.

Prof. A.Nosirov “Odil Yoqubov romanlari poetikasi” monografiyasida badiiy xronotopning tarixiy roman voqeligida yuzaga chiqish uslubini o‘rganadi[1]. Shuningdek, A.Nosirov bu haqida shunday yozarkan. Renal zamon va makonning aniq chegarasi yozuvchi nuqtayi nazaridan ibtido olganini dalolatlaydi: “Inson hayotida zamon tushunchasi katta ahamiyatga ega. Haqiqatdan ham badiiy asarlarda vaqtni aks ettirish, ayniqsa, tarixiy asarlarda tarixni yorita bilishga tutashadi. Tarixiy zamon – adabiy zamon an’anaviy turlaridan biri bo‘lib, badiiy asarda o‘ziga xos ko‘rinish qirralariga ega bo‘ladi. Inqilobiy tarix keng qamrovga ega bo‘lishiga qaramasdan, vaqt qisqaradi, asar syujeti hodisalar atrofida chegaralanib, ular esa, o‘z navbatida, xalq hayotida qadamba-qadam ahamiyatga ega bo‘ladi. Badiiy asarlarda o‘zlashtirilgan vaqt va makonning uzviy aloqasi natijasida hayotiy voqealar silsilasi bilan bir qatorda, davr kishilarining turli hislatlari yoritiladi”. Keltirilgan manbadan anglashiladiki, tarixiy roman bilan zamonaviy romandagi badiiy makon va zamon masalasi alohida estetik ilmiy kategoriya sifatida ekanligini bilish mumkin. Negaki, tarixiy asar o‘tgan zamondagi bo‘lib o‘tgan voqelikning o‘zidir. Zamonaviy romanda voqealik hali sodir bo‘lgani uncha uzoq bo‘lmagan, ayni hozir bo‘lib o‘tayotgan, davom etayotgan voqealikning ifodasi sifatida qarash mumkin.

Xronotopning nazariy jihatlariga diqqat qaratish barobarida, roman janri qanday paydo bo‘lgan, romaniy tafakkur haqiqatdan ham ana shu mezonlarning bir qismini o‘zida aks ettiradigan janrlardan biri ekanligini tekshirish lozim. Romanning bu xilida

[1] Nasirov A. Odil Yoqubov romanlari poetikasi. – T.: Fan, 2012. – B.160.

mavjud masalalar o‘zining poetik talqinini muntazam yangilab borishga qaratilgani bilan o‘lchanadi.

Romanning paydo bo‘lishi va uning taraqqiyot tendensiyalari. Romanning paydo bo‘lish omillari va taraqqiyoti xususida prof. D.Quronov: “Romanga bag‘ishlangan ilk maxsus tadqiqotlardan biri – “Romanlarning paydo bo‘lishi haqida risola” (1666) ning muallifi Per-Daniel Yue janrning ibtidosini Provans yo Italiyadan izlash xatoligini, uning ildizlarini juda qadimdan, uzoq o‘lkalardan qidirish kerakligini ta’kidlaydi. Uning yozishicha, roman antik davrlarda yuzaga kelgan va uzoq asrlar davomidagi rivojlanish jarayonida hozirgi holiga kelgan. Masalaga tarixiy taraqqiyot nuqtayi nazaridan qaragani uchun ham Yue o‘z davriga kelib “roman janri” tushunchasi o‘zgarganini nazarda tutadi va endilikda roman deganda “o‘quvchilarga zavq berish orqali nasihat qilish maqsadida to‘qib chiqarilgan sevgi tarixini nasrda mahorat bilan tasvirlagan” asar tushunilishini ta’kidlaydi”. Haqiqatdan ham, badiiylik shartlari va talqin qilish yo‘siniga ko‘ra romanlarning juda ko‘pchiligida – xalqning ruhini, odamlarga zavq ulashish orqali didaktik ta’sir qilish muhimligi o‘sha davrlarda yetakchi konsepsiya edi. Chunki pand-nasihat adabiyotning ajralmas qismi, mushtarakligi bo‘lib, XX asr boshlariga qadar bu an’ana o‘zining turli xil shaklu shamoyilida yashab keldi. XX asrning boshlariga kelib yozuvchilar hajmni ham, ifodani ham, makon va zamonda ro‘y berayotgan voqelikni ham tubdan o‘zgartirishga qarab ifodani quyuqlashtirdi. Buning natijasida – xrontop tushunchasining qamrovi kengaya boshladi.

Tarixiy sharoit taqozosiga ko‘ra janrning tendension taraqqiyoti haqida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz. Janrlararo sintez hodisasi har bir davrning o‘ziga xos aniq, nazariy haqiqatlarini aytib turadi. Biror-bir janrning taraqqiyotini ilmiy nuqtayi nazarda tekshirish, uning shakllanish jarayoniga baho berish, muammoning ildiziga teran kirib borishga yetaklaydi. Chunki roman poetikasida inson va uning manfaatlari, davrning, zamonning, eng muhimi vaqtning orasida ro‘y berayotgan xilma-xil voqealarni bir nuqtada jamlay olishi bilan mujassamlashadi. Undagi mavzuning ochib berilishi, muammoning, g‘oyaning to‘g‘ri tanlanishi, badiiy to‘qima va hayotiy haqiqatning uyg‘unlashuv jarayoni shular jumlasidandir. Yozuvchi o‘z qahramonlarining qanday muhitda yashashini, nimalarga qodir, ojiz, kuchli va murakkab shaxsligini ham juda yaxshi biladi. O‘zi yaratgan qahramonlar olamida benihoya keng sayr qiladi. Ularning fojeasidan ham, yutuq va kamchiliklaridan ham voqif bo‘ladi.

XII-XIII asrlarda paydo bo‘la boshlagan romanning taraqqiyoti davomida qanchalar shaklu shamoyilga egaligini hozir tahlil qiladigan bo‘lsak, muammoning mohiyati yanada oydinlashadi. Negaki, o‘sha davrlarda ham, antik yunon madaniyatining gullab yashnagan davrida ham odamlar – roman uchun ko‘p kiritilmas, faqat podoshlar va bir-ikki shahzodalar hayoti mantiqan olinib, saroydagi zulm va adovat bosh mezon sifatida trak yakunlanadi. Asta-sekinlik bilan bularga barham berilib, romanning tasvir qamrovi kengaydi, taraqqiy etdi hamda obrazlar xilma-xillashib, undagi voqelik ham juda turfalashdi.

Ingliz romanchilik maktabi ham tarixiy taraqqiyot yo‘llarini bosib o‘tdi. O‘rta asrlar ritsarlik romanining mavzu-mundarijasida ham qahramonlik eposidan ibtido olgan voqealar silsilasi turadi. Ingliz adibi Tomas Melori tug‘ilgan yili noma’lum, vafoti 1947-yil deb beliganadi. Uning bizgacha yetib kelgan “Arturning o‘limi” romani muallif vafotidan keyin do‘sti Vilyam Kekston nomi bilan nashr qilinadi. Keyinchalik asarning qo‘lyozmalari ham topilganligi haqida ma’lumotlar uchraydi. U 1947-yil adabiy sinchi Yu.Vinaver tomonidan nashr etilgan.

Ingliz uyg‘onish davri romannavislarining ko‘pchiligida qahramonlik, jasurlik tuyg‘usini o‘zida jamuljam etgan obrazlar bilan ziynatlanganini ko‘ramiz. Bularning har birida ozodlik, mutelikdan yiroq bo‘lish, inson o‘laroq yashab kun kechirish istaklari barq uradi. Daniel Defo ham o‘z romanlarida gumanistik konsepsiyani ilgari surgani bilan boshqa yozuvchilardan keskin farq qiladi.

Ingliz nasrining yana bir ulug‘ yozuvchilaridan biri Jonatan Svift (1667-1745) kinoyaviy-satirik prozasi bilan shuhrat qozongan adiblardan biridir. U o‘z asarlarida inqirozga yuz tutgan feodal tuzumning asl qiyofasini fosh qilib, Angliyaning tashqi siyosatda olib borayotgan mustamlakachilik aqidalarini keskin qoralab, diniy aqidaparastlikni keng miqyosda tanqid ostiga oladi. Mana shu boisdan ham, uning asarida davrning o‘tkir muammolari qoralanib, Gulliverning qismatidagi o‘sish va o‘zgarishlar bilan payvandlanadi. Chunki adib ana shu asari orqali katta shuhrat qozondi. Romandagi voqealarning barchasi fantaziya va haqiqat bilan uyg‘unlashib, yozuvchi iste’dodining yuksakligidan dalolat beradi. Roman 4 qismdan iborat bo‘lib, har bir qismida Gulliver obrazi markaziy o‘rinda turadi. Ayni paytda, romanning badiiyligi, satirik va haqiqat, kinoyaviy usulning realistik takomili yanada o‘ziga xos tarzda yuzaga chiqadi.

Keltirilgan lavhada badiiy axborot – Gulliverning sayohatining ilk kunida ro‘y bergan qiziqarli sarguzashtidan xabar topamiz. Yozuvchi (muallif) barcha voqealikni o‘zidan ayro tasavvur ham qilolmaydi. Liliputiya mamlakatiga sayohatidagi ilk voqealik xronotopida yozuvchi imperator va u yerda istiqomat qiluvchi mahaliy aholining yashash tarzi hamda urf-odatlarini birma-bir sanab o‘tarkan, kelgan, ya’ni asirga tushgan qahramonning xarakterini obdon o‘rganib olishadi. Bu o‘rganishlar natijasida yozuvchi har bir voqealikka o‘zining shaxsiy: kinoyaviy-satirik munosabatini bildirib ketadi. Natijada, roman voqealigi asta-sekin ochila boradi. Voqealar bir-biridan qiziqarli tus oladiki, har bir epizodda yozuvchining nima demoqchi ekanligi, biron voqeadan keyin yana qanday voqea sodir bo‘lishini o‘quvchi intizorlik bilan kuta boshlaydi. Asarda uslub shiddatli va tekis tus oladi. Imperatorning istak-mayllari va u yerdagi amaldorlarning tayin etilishi, ayni paytda, qahramonga ko‘plab mushohadalarni anglab yetishga sharoit hozirlaganligida bo‘rtib ko‘rinadi.

“Jonatan Svift musibat va tashvishli umidsizlik va alamlarga to‘la og‘ir hamda uzoq hayot kechirdi. Yozuvchining otasi yosh ingliz Jonatan Svift tirikchilik vajidan xotini bilan Angliyadan Irlandiya markazi Dublinga boradi. Biroq o‘g‘lining tug‘ilishidan bir necha oy muqaddam uni bevaqt o‘lim olib ketadi. O‘g‘il tug‘ilgach, ota xotirasi uchun uni Jonatan deb nomlashadi. Kambag‘al ona o‘z chaqalog‘i bilan nochor kun ko‘radi. Sviftning bolalik yillari g‘am-g‘ussada o‘tdi. Uzoq yillar muhtojlikda, badavlat qarindoshlarining ahyon-ahyonda beradigan ozgina yordami bilan kun kechirishga to‘g‘ri keldi. Svift o‘n to‘rt yoshida maktabni bitirgach, hali o‘rta asrlar tartib-qoidalari hukm surayotgan, ilohiyot asosiy dars hisoblangan Dublin universitetiga kiradi”, – deya yozadi rus yozuvchi va adabiyotshunosi Yevgeniy Berandis. Haqiqatan ham, og‘ir-bosiq va bolaligidan boshidan musibat arimagan, kambag‘al oila farzandi Jontan Svift hayotining eng muhim damlarida yolg‘iz qolishga va o‘zini shu tariqa tiklashga urinadi. Bir muddat amaldorlar kotibi, turli xil katta odamlar yonida yordamchi bo‘lib ishlagan J.Sviftni hayot sinovlari toblaydi. Uning kam gapligi, kamsuqumli borasida ko‘pchilik do‘stlari tayinil mulohaza aytolmaydi. Chunki uning shaxsi va tarjimai holi haqida ham ko‘plab chalkashlik va aniq ma’lumotlar kam topiladi. U biror ijodiy g‘oyasi, rejasini hech kimga “churq” etib gapiradigan odam bo‘lmagan. O‘ta sirli va vazminkor Svift ko‘ziga azroildek ko‘ringan amaldorlarni jiddiy tanqid qilar, uning hazil-mutoyibalari

London bo‘ylab shov-shuv bo‘lardi. Shuning uchun ham Jonatan Svift romanida katta bir ramziy kinoyani sayru-sayohatdan olib ifodalaydi. Jarayon esa Avstraliyaning eng chekka orollarida sodir bo‘ladi.

“Ko‘rinadiki, G‘arbiy yevropa romanlarining o‘zbek romanlarining paydo bo‘lishiga ta’sir yo‘li dastlab Sharq mamlakatlari adabiyoti orqali bo‘lgan. Chunki bu (1880) yillardan keyin) G‘arb va Sharq o‘rtasida ma’lum darajada kontakning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq edi. Bir tomondan G‘arbiy yevropa mustamlakachilarining Sharqqa “yurishi” shu davrdan boshlab kuchaya boshlagan.

Ayni chog‘da G‘arbiy yevropa adabiyoti taraqqiyotiga, jumladan, rus adabiyotining rivojida Sharq adabiyotining roli va ta’siri ham ma’lum darajada o‘z iziga ega. Masalan, “Ming bir kecha”, “Kalila va Dimna”, “Panchatantra” singari Sharqning yetuk asarlari XI asrlardan boshlab grek, ispan, nemis, ingliz, golland tillariga tarjima qilina boshlagan”, – deya qayd etadi. Prof.S.Mirvaliev. Aytish joiz, bu adabiy ta’sir, adabiy aloqalar zamirida har bir xalq adabiyoti o‘zining tadrijiy tendensiyalari bilan shuhrat qozonishadi. Chunki biror xalq adabiyotining tadrijiy rivoji o‘sha xalq yozuvchilarining yoki millat iste’dodlarining say’-harakatlari bilan bevosita bog‘langan bo‘ladi. S.Mirvaliyev ham ana shu jihatlarni nazarda tutganligi ayonlashadi.

Prof.U.Jo‘raqulov epos va roman, doston hamda tragik janrlar xususida shunday yozadi: “Antik yunon adabiyotida Gesiodning poleteistik (ko‘pxudolilik) qarashlar aks etgan (yunon ma’budlari haqidagi) “Teogoniya” asari ancha mashhur sanaladi. Bu asar muallif yashagan davrgacha maydonga kelgan turli mazmundagi mifologik qissa va hikoyalardan tarkib topgan. Keyinchalik Ovidiy va Apuleylar ham Gesiodga ergashib “Metamorfozalar” nomli asar yozishgan. Bu asarlar Gesiod asaridan qator tarixiy voqealar, shaxslar haqidagi axborotlarni qamrab olgani bilan farq qilsa-da, umumiy strukturasiga ko‘ra o‘nlab mustaqil mif va hikoyalarni bir jild ostida jamlagani bilan sintetizm prinsipini namoyon etadi. Ushbu asarlardagi mustaqil badiiy shakllarni biriktirib turgan narsa metamorfoza – yemirilish konsepsiyasi va mualliflarning poleteistik e’tiqodidir”. Darhaqiqat, sarguzasht-fantastik asarlarda badiiy kun, yil, oy va ba’zan uzoq cho‘zilgan vaqt belgilari orasida bo‘lib o‘tadi. Jonatan Svifti ham o‘z asarida mana shu vaqtning intensiv ko‘rinishiga amal qiladi. Qahramonlarni to‘qib chiqarar ekan, davlat va xalq o‘rtasidagi devorlarni “buzib tashlash”ga, “imperatorlar”ning o‘yinlariga barham berishga diqqatini jalb etganligida seziladi.

“Ozodlik olgach, eng avvalo mamlakat poytaxti Mildendni tomosha qilish uchun ijozat so‘radim. Imperator paysalga solmay darhol ijozat berdi, lekin aholiga ham, ularning uylariga ham hech qanday ziyon-zahmat yetkazmasligimni qattiq tayinladi. Shahar aylanish niyatim borligi haqida varaqa tarqatilib, aholini xabardor qilindi.

Poytaxt balandligi ikki yarim fut, eni kamida o‘n bir dyum keladigan devor bilan qurshalgan. Devor ustidagi ikkita ot qo‘shilgan kareta bemalol yurishi mumkin. Biri ikkinchisidan o‘n fut masofada joylashgan, ko‘kka bo‘y cho‘zgan mustahkam minoralar shahar ostonasini mudofa qilardi.

G‘arbiy darvoza ustidan hatlab o‘tib, ikkita katta ko‘chadan yonlab, sekin-sekin yurdim. Etagim uylarning tom va bo‘g‘otlariga ziyon yetkazishidan qo‘rqib, kaftanimni ilgariroq yechib qo‘ydim. Uylarga yashirinib olish va hech qayoqqa chiqmaslik haqida farmon berilganiga qaramay, aholi ko‘chalarda bemalol aylanib yurardi. Shuning uchun juda ehtiyotkorlik bilan yurib, ulardan birontasini bosib olmasmikanman deb oyog‘im ostidan ko‘z uzmadim. Yuqori qavat derazalari va uylarning tomiga odam to‘lib ketgandi. Umrim bino bo‘lib, bunchalik ko‘p odam to‘planganini ko‘rmagan bo‘lsam kerak” .

Romanda sayohatning turli ko‘rinishlarida imperator va u yerdagi odamlar, madaniy xalqning og‘irini battar og‘irlashtirgan tizim tanqid qilinar ekan, Jonatan Sviftning asl niyati Angliyaning siyosiy va ijtimoiy hayotini, ayrim mansabdorlarning, butun boshqarish tizimidagi nuqsonlarni fosh qilganligida seziladi. Gulliverga lilliputlar hayoti qanchalik ayanchli ko‘ringan bo‘lsa, pahlavonlar kechirgan turmush ham shu qadar nochor bo‘lib tuyuladi. Yozuvchini odamlarni sevmaslikda ham ayblashadi. Biroq yozuvchi asarni yozishda bunday vaqtning temir iskanjasida umr kechirayotgan Angliya xalqining ichki ozodligi hamda mustamlaka siyosatini bas qilish lozimligiga katta konseptual urg‘u berganida deb tushunish lozim.

Badiiy xronotopning chegaralarida sarguzatshlilik kayfiyati qahramonlarni ketma-ket sinovlarga giriftor etadi. “Bunday xrontopda yetakchilik va hokimiyat faqat tasodifga tegishlidir. Shu bois mazkur dunyoga xos muayyanlik va konkretlilik mumkin darajada chegaralangan bo‘ladi. Zotan, har qanday konkretlashtirish, u hududiymi, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy yoki maishiymi, bundan qat’i nazar avantyurga xos ravonlikka, erkinlikka soya solgan, tasodifning mutlaq hokimlik missiyasini chegaralagan bo‘lar edi. Hatto oddiygina maishiy konkretlashtirish ham insoniy turmushni, inson hayotiga oid zamonni o‘zining qonuniyatlari, tartib-intizomi, lozim munosabatlari talabi bilan cheklab qo‘yar, voqealik bunday tartib-intizomlar, qonuniyatlar, munosabatlar talabi ostida o‘ralashib qolardi. Oqibatda tasodif hokimiyati mutlaq chegaralanar, sarguzashtlar uzviy doiraga torayar, butun faoliyat doirasi makon va zamonning shu nuqtasida aylanib qolar edi”. Darhaqiqat, har bir davrning o‘z ijodiy kriteriylari bo‘ladiki, ayni paytda sarguzatshlilik ifodasi yuqori bo‘lgan romanlarda makon va zamon talqini ham fantastik konsepsiyaga evrilib borishini tayin etmoqda. Negaki, Gulliverning qiziqarli sayohatlari, lilipputlarga, imperator va uning mulozimlariga bergan bahosi ham zamona zayli bilan shu qadar omuhtalashmoqda. Chunki imperator o‘zining kaltabin qarorlari bilan odamlarni “mazax” qiladi. U yerdagi mulozimlar qattiq qo‘lligi, hokimiyatda faqat diktatura hukm surishi, birgina kishi qarori butun mamlakata bo‘ylab tarqalishi, odamlarning mute, qul va o‘z haq-huquqlaridan mosuvoligi kabilar shularni namoyon etadi.

Xulosa shuki, ingliz nasrida badiiy xrontop shakllari o‘rta asrlar uyg‘onish adabiyotidan keyin Angliyaning mustamlakachilik siyosatining avj nuqtalariga chiqishi, shuningdek, har bir yozuvchi o‘z davrining og‘riqlarini, qaltis tutumlarini teran idrok qilganiga, boshqalarni ham bunday jirnakch tuzum boshliqlaridan ogoh bo‘lishga, eng muhimi, odamlarning ozod va obod kun kechirishini istashlik g‘oyasi turadi. Bunday tasvir priyomlarida makon va zamon kengliklari orasida har bir inson xarakteri o‘ziga xos tarzda fosh qilinadi. Dunyoning har bir burchagida bo‘layotgan o‘zgarishlar, “Gulliverning sayohatlari” kabi asarlarda katta masshtabni qamrab olganligini, turli xil voqealiklar prizmasida yuzaga chiqishini ko‘ramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baxtin M.M. Romanda zamon va xronotop shakllari. – T: “Akadem nashr”. 2015. – B.46.

2. Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari. – T : “G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti”. 2015. – B.356.

3. Nasirov A. Odil Yoqubov romanlari poetikasi. – T : “Fan”. 2012. – B.160.

4. Nasirov A. Odil Yoqubov romanlari poetikasi. – T : “Fvn”. 2012. – B.91.

5. Mirvaeliyev S. O‘zbek romani. – T: “Fan”. 1969. – B.66.

6. Jo‘raqulov U. Alisher Navoiy “Xamsa”sida xrontop poetikasi. – T: “Turon-Iqbol” nashriyoti. 2017. -B.37-38.

Shoiraxon MUSAYEVA,
Farg‘ona viloyati, Uchko‘prik tumani,
34-umumiy o‘rta ta’lim maktabi, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA JARANGLI VA JARANGSIZ UNDOSHLARNI O‘RGATISH METODLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarga jarangli va jarangsiz undoshlarni o‘rgatishning ahamiyati va metodik yondashuvlar haqida so‘z yuritadi. Shuningdek, jarangli va jarangsiz undoshlarni o‘rgatish bo‘yicha samarali dars metodlari, mashqlar, o‘qituvchilar uchun amaliy tavsiyalar keltirilgan. Muallif undoshlarning talaffuzi va ularni ajratib olish o‘quvchilarga nafaqat tildan to‘g‘ri foydalanish, balki fonetik tafovutlarni tushunish, tinglab tushunish va nutq madaniyatini rivojlantirishda yordam berishini ochib bergan.

Tayanch so‘zlar. Boshlang‘ich sinflar, jarangli undoshlar, jarangsiz undoshlar, fonetika, talaffuz, til rivojlanishi, nutq madaniyati, o‘qitish metodlari, fonetik tafovutlar.

В статье обсуждается важность и методические подходы к обучению учащихся звонким и глухим согласным в начальных классах. Также представлены эффективные методы обучения звонким и глухим согласным, упражнения, практические рекомендации для учителей. Автор раскрыл, что произношение согласных и их выделение помогает учащимся не только правильно использовать язык, но и понимать фонетические различия, понимать на слух и развивать культуру речи**.**

Ключевые слова Начальные классы, звонкие согласные, глухие согласные, фонетика, произношение, развитие языка, культура речи, методы обучения, фонетические различия.

The article discusses the importance of teaching voiced and voiceless consonants to students in primary grades and methodological approaches. Effective teaching methods, exercises, and practical recommendations for teachers on teaching voiced and voiceless consonants are also presented. The author reveals that the pronunciation of consonants and their isolation helps students not only to use the language correctly, but also to understand phonetic differences, listen, and develop speech culture.

Key words. Elementary grades, voiced consonants, voiceless consonants, phonetics, pronunciation, language development, speech culture, teaching methods, phonetic differences.

Til o‘rgatish jarayonida fonetik jihatlar alohida ahamiyatga ega. O‘quvchilarga to‘g‘ri talaffuzni o‘rgatish, nutq madaniyatining rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. Xususan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga jarangli va jarangsiz undoshlarni o‘rgatish, ularning fonetik ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Undosh tovushlar fonetik tizimning ajralmas qismi bo‘lib, ular talaffuzning aniqligi va to‘g‘riligini belgilaydi. Jarangli undoshlar, odatda, ovozning kuchayishiga olib keladigan tovushlardir, jarangsiz undoshlar esa to‘qnashuv yoki qattiq chiqadigan tovushlardir.

Boshlang‘ich sinflarda jarangli va jarangsiz undoshlarni o‘rgatish o‘quvchilarning tilni tushunishi, eshitish va talaffuz ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu jarayonni samarali o‘tish uchun o‘qituvchilar o‘z metodik yondashuvlarini to‘g‘ri

tanlashlari lozim. O‘quvchilar undoshlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rgangan sari, ular nafaqat tilning fonetik tizimini tushunib, balki nutq madaniyati va yozishmalarda ham yuqori natijalarga erishadilar.

Jarangli va jarangsiz undoshlarni o‘rgatish boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun muhim bosqichdir. Bu jarayon nafaqat tilni o‘rganishga, balki nutq madaniyatining rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Jarangli undoshlar (masalan, [b], [d], [g], [v], [z]) ovoz chiqarish jarayonida tovushni kuchaytiradi, jarangsiz undoshlar esa (masalan, [p], [t], [k], [f], [s]) tovushning kuchini yo‘qotib, to‘qnashuvli yoki qattiq chiqadi. Ushbu tovushlarning farqlanishini o‘rgatish bolalarning talaffuzini to‘g‘rilashda muhim ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni jarangli va jarangsiz undoshlarni ajratishga o‘rgatish, ularga fonetik tafovutlarni tushunishga yordam beradi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning nutqni to‘g‘ri anglash va ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Jarangli va jarangsiz undoshlarni o‘rgatishda o‘qituvchilarning metodik yondashuvi, darslarni o‘quvchilarga qiziqarli va samarali o‘tkazishning kalitidir. Shu bois, o‘qituvchilar fonetik mashqlar, rasmli kartochkalar, jonli muloqotlar va talaffuz bo‘yicha o‘yinlar yordamida o‘quvchilarning bu tovushlarni ajratish va to‘g‘ri talaffuz qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishi mumkin.

Bundan tashqari, o‘quvchilarga jarangli va jarangsiz undoshlarni o‘rganishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar ham bor. O‘quvchilarda ba’zi tovushlarni aniq talaffuz qilishda, ayniqsa, jarangsiz undoshlarni tanib olishda qiyinchiliklar paydo bo‘lishi mumkin. Shu sababli, o‘qituvchilar darsda jarangli va jarangsiz undoshlar o‘rtasidagi farqlarni aniq tushuntirib berishlari va ko‘plab misollar orqali bolalarning eshitish va talaffuz ko‘nikmalarini shakllantirishlari zarur.

Jarangli va jarangsiz undoshlarni o‘rgatish jarayoni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining til rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularning talaffuzini va nutq madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘quvchilar jarangli va jarangsiz undoshlarni ajratish ko‘nikmalarini egallash orqali, tilning fonetik tuzilmasini to‘g‘ri anglashni o‘rganadilar. O‘qituvchilar o‘z metodik yondashuvlarini to‘g‘ri tanlab, o‘quvchilarga talaffuzni aniq va to‘g‘ri shakllantirishga yordam beradi. O‘quvchilarni jarangli va jarangsiz undoshlarni ajratishga o‘rgatish, ular uchun fonetik tafovutlarni tushunishda muhim bir bosqichdir. Darslarni samarali o‘tish va o‘quvchilarning nutq madaniyatini yaxshilash uchun jarangli va jarangsiz undoshlar bo‘yicha muntazam mashqlar va o‘yinlar tashkil etilishi lozim. Umuman olganda, boshlang‘ich sinfda jarangli va jarangsiz undoshlarni o‘rgatish jarayoni o‘quvchilarning fonetik ko‘nikmalarini rivojlantirish, nutqni aniq va to‘g‘ri ifodalash, shuningdek, yozish va o‘qish jarayonlarini samarali o‘tish uchun mustahkam asos yaratadi.

Boshlang‘ich sinflarda jarangli va jarangsiz unoshlar haqida tushunchalarni shakllantirish ancha murakkab ish hisoblanadi. Ba'zan katta yoshdagi o‘qimishli kishilarning ayrimlari ham unli-undosh, jarangli-jarangsiz, bo‘g‘in yoki urg‘u tushunchalarini farqlayolmaydi. O‘quvchilar unli tovushni undosh tovushdan ongli farqlashlari uchun u tovushlarning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘zlashtirishlari talab etiladi. Tovush murakkab tushuncha bo‘lganligi uchun boshlang‘ich sinflarda unga ta'rif berilmaydi. Shunga qaramay, — Bolalarda tovush haqida to‘g‘ri ilmiy tasavvur amaliy mashqlar orqali hosil qilinadi. Shunga e'tibor berish kerakki, adabiy tilning fonetikasini o‘rganish natijasida o‘quvchilar nutqidagi har xillik yo‘qoladi. Shuningdek, fonetik tushunchalarni puxta o‘zlashtirmagan o‘quvchi orfografik (imloviy) tushunchalarga ham ega bo‘lmaydi. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida fonetik-grafik tushunchalar ustida ishlash jara-

yoni o‘quvchilarda imloviy malakalarni shakllantirishda asosiy davr hisoblanadi, bu davr o‘quvchi savodli yozuvining shakllanishida muhim bosqich bo‘lib, fonetik-grafik tushunchalar bilan bog‘liq mavzularni o‘rganish dolzarbligini e‘tirof etadi.

Boshlang‘ich sinflarda jarangli va jarangsiz undoshlarni o‘rgatish til rivojlanishining muhim qismidir. Ushbu jarayon o‘quvchilarga talaffuzni to‘g‘ri shakllantirish, fonetik tafovutlarni tushunish va nutq madaniyatini rivojlantirish imkonini beradi. Jarangli va jarangsiz undoshlar o‘rtasidagi farqlarni ajratish bolalar uchun ko‘plab qiyinchiliklarni keltirib chiqarmasdan, ularning tilni to‘g‘ri va ravon o‘zlashtirishiga yordam beradi. O‘qituvchilar samarali metodik yondashuvlar va mashqlar orqali o‘quvchilarning talaffuz ko‘nikmalarini mustahkamlashlari mumkin.

Darslarda jarangli va jarangsiz undoshlarni o‘rganish o‘quvchilarga nafaqat talaffuzni to‘g‘ri anglash, balki yozish va o‘qish jarayonlarida ham yuqori natijalarga erishishga yordam beradi. O‘qituvchilar o‘z faoliyatida bu jarayonni qiziqarli va samarali o‘tkazish uchun turli xil usullarni qo‘llashlari, bu esa bolalarning tilga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Natijada, jarangli va jarangsiz undoshlarni o‘rgatish o‘quvchilarning umumiy til ko‘nikmalarini yaxshilashga, nutq madaniyatining rivojlanishiga, shuningdek, fonetik va talaffuzga oid ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zuxra N. (2010). O‘zbek tilining fonetikasiga oid muammolar. – T.: Fan va texnologiya.

2. O‘rtaev A. (2007). Boshlang‘ich sinflarda fonetik ta’lim: metodik qo‘llanma. – T.: O‘qituvchi.

3. Tursunov Sh. (2015). O‘zbek tilida undoshlar va ularning fonetik tizimi. – T.: O‘zbekiston milliy universiteti.

4. Jabborov M. (2018). O‘quvchilarga fonetik tushunchalarni o‘rgatish metodikasi. – T.: Yosh g‘olib.

5. Rahmatova S. (2012). Fonetik tafovutlar va ularni o‘rgatish usullari. – T.: Ma’naviyat.

Sharofat AMONOVA,
Samarqand davlat universitetining O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, tayanch doktorant

“KO‘RSATKICHLI TENGLAMALAR” MAVZUSINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O‘QITISHNING AFZALLIKLARI

Annotatsiya

Maqolada 10-sinf algebra darslarida “Ko‘rsatkichli tenglamalar” mavzusini raqamli texnologiyalar asosida o‘qitishning uslubiy ta’minoti yoritilgan. Shuningdek, ko‘rsatkichli tenglamalarning nazariy asoslari va ularning yechimi bilan bog‘liq turli amaliy misollar keltirilgan. Muallif raqamli texnologiyalar, masalan, GeoGebra, Desmos, va boshqa interaktiv platformalar yordamida o‘quvchilarga ko‘rsatkichli tenglamalar bo‘yicha tushunchalarni yanada samarali va vizual ravishda o‘rgatishning afzalliklarini ko‘rsatib o‘tgan.

Tayanch so‘zlar. Ko‘rsatkichli tenglamalar, raqamli texnologiyalar, interaktiv platformalar, GeoGebra, Desmos, animatsiyalar, grafiklar, simulyatsiyalar, matematik vizualizatsiya, o‘qitish metodlari, eksponensial funksiyalar, matematik modellash.

В статье рассматривается методическое обеспечение преподавания темы “показательные уравнения” на уроках алгебры 10 класса на основе цифровых технологий. Также приведены теоретические основы показательных уравнений и различные практические примеры, связанные с их решением. Автор указал на преимущества более эффективного и наглядного обучения студентов понятиям экспоненциальных уравнений с помощью цифровых технологий, таких как GeoGebra, desmos, и других интерактивных платформ.

Ключевые слова. Индикаторные уравнения, цифровые технологии, интерактивные платформы, GeoGebra, desmos, анимация, графики, моделирование, математическая визуализация, методы обучения, экспоненциальные функции, математическое моделирование.

The article covers the methodological support for the teaching of the topic “exponential equations” on the basis of digital technologies in the lessons of algebra of the 10th grade. Various practical examples of theoretical foundations of exponential equations and their solutions are also given. The author has shown the benefits of teaching students more efficiently and visually concepts on exponential equations using digital technologies, such as GeoGebra, Desmos, and other interactive platforms.

Key words. Exponential equations, digital technologies, interactive platforms, GeoGebra, Desmos, animations, graphs, simulations, mathematical visualization, teaching methods, exponential functions, mathematical modeling..

Ko‘rsatkichli tenglamalar matematikaning muhim bo‘limlaridan biridir. Ular ko‘plab amaliy masalalarda qo‘llaniladi, masalan, iqtisodiyot, fizika, informatika va boshqa fanlarda. O‘quvchilarni ko‘rsatkichli tenglamalar bilan tanishtirishda, an'anaviy ta’limga nisbatan, zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida o‘qitish ta’lim sifatini yaxshilashga yordam beradi.

I.A.Xadjayevaning “Al-Farobiy matematik merosidagi masalalarni yechishda GEOGEBRA dasturidan foydalanish” nomli ilmiy tadqiqot ishida al-Forobiy merosidan matematik masalalarni zamonaviy ta’limga joriy etishning maqsadga muvofiqligi va GeoGebra dasturidan foydalanish imkoniyatlari muhokama qilinadi.

Yuqorida keltirilgan olimlar tahlilida kelib chiqadigan bo‘lsak, matematik masalalarni yechishda, ularni ko‘rgazmali tasvirlashda raqamli texnologiyalar, multimedia

vositalarining o‘rni beqiyosdir. Yuqoridagi keltirilgan raqamli texnologiyalarni o‘qitishda qo‘llash o‘quvchilarning darslarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. O‘quvchilar uchun interaktiv va qiziqarli mashqlar va simulyatsiyalar taqdim etish, ular matematik tushunchalarni tezroq va samarali o‘zlashtirishlariga yordam beradi.

Bu borada ta’limni axborotlashtirish sharoitida multimediali o‘qitish vositalaridan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirishning me’yoriy asoslarini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Multimedia vositalari, elektron ta’lim resurslari, o‘quv adabiyotlar va darsliklarni elektron tarzda axborot texnologiyalari asosida takomillashtirish malakali, tajribali va zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashda ustuvor vazifalar sifatida belgilanganligini qayd etish joizdir. Hozirda multimedia vositalari asosida o‘qitishning mazmuni, tarkibiy tuzilishi uzviy hamda ilmiy asoslangan tarzda ifoda etishini taqoza etmoqda.

Ko‘rsatkichli tenglamalar – bu tenglamalar bo‘lib, unda noma’lum o‘zgaruvchilar ko‘rsatkichli (eksponential) funksiyalar shaklida ifodalanadi hamda ko‘rsatkichli tenglama $a^x = b$ ko‘rinishda ifodalanadi. Ko‘rsatkichli tenglamani o‘quvchilar dars jarayonini tashkil etishda raqamli texnologiyalarning o‘rni beqiyosdir. Ko‘rsatkichli tenglamalarni raqamli vositalar yordamida o‘qitish o‘quvchilarning darslarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. O‘quvchilar o‘zlari masalalarni yechib, natijalarni tekshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Grafiklar, animatsiyalar, simulyatsiyalar va interaktiv platformalar orqali o‘quvchilarga matematikaning murakkab tushunchalarini o‘zlashtirishda yordam beriladi.

Grafiklar, video darsliklar, interaktiv mashqlar va animatsiyalar orqali o‘quvchilar ko‘rsatkichli tenglamalarni o‘zlashtirishda qiyinchiliklarni yengib, matematikani o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradilar. Ushbu uslubiy ta‘minot, o‘quvchilarga yuqori sifatli ta‘lim berishning samarali vositasi bo‘lishi mumkin.

Grafik va vizual vositalar. Ko‘rsatkichli tenglamalarni o‘rgatishda grafiklardagi o‘zgarishlarni ko‘rish juda muhimdir. Bu uchun matematik dasturlar (GeoGebra, Desmos) va grafik kalkulyatorlardan foydalanish mumkin. O‘quvchilar ko‘rsatkichli funksiyalarni yaratib, ularning qanday o‘zgarishini ko‘rishlari mumkin. Masalan, funksiyasining grafigi va funksiyasining grafigini solishtirib, ular orasidagi farqlarni tahlil qilish.

Onlayn o‘quv platformalari. Onlayn ta’lim platformalari, masalan, Khan Academy, Coursera kabilar o‘quvchilarga ko‘rsatkichli tenglamalarni tushunishga yordam beradigan video darsliklar va interaktiv mashqlarni taqdim etadi. Bu platformalar o‘quvchilarga o‘z bilish darajalariga mos ravishda darslarni o‘zlashtirish imkonini beradi.

Simulyatsiya va o‘yinlar. Matematika darslarida simulyatsiyalar va o‘yinlar yordamida ko‘rsatkichli tenglamalarni o‘rgatish juda samarali bo‘lishi mumkin. Masalan, o‘yinlar orqali o‘quvchilar ko‘rsatkichli tenglama yechish bo‘yicha amaliy mashqlarni bajaradilar va o‘z ko‘nikmalarini oshiradilar. “Wolfram Alpha” yoki “PhET Simulations” kabi dasturlar yordamida turli masalalar va eksperimentlar o‘tkazish mumkin.

Masalalar va testlar. Interaktiv testlar va masalalar yordamida o‘quvchilarga ko‘rsatkichli tenglamalarni o‘zlashtirishda yordam berish mumkin. Dasturlar va platformalar masalalarni avtomatik tarzda tekshirib, darhol tahlil qilish imkonini beradi. Buning natijasida o‘quvchilar xatolarini tezda tuzatib, o‘rganishni davom ettiradilar.

Video darsliklar va animatsiyalar. Ko‘rsatkichli tenglamalar mavzusini o‘rgatishda video darsliklar va animatsiyalarni yaratish juda samarali usuldir. Animatsiyalar yordamida ko‘rsatkichli funksiyalar va ularning xususiyatlarini ko‘rsatish o‘quvchilarga mavzuni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Masalan, ko‘rsatkichli tenglamalarni

yechish jarayonini animatsiya shaklida ko‘rsatib, ularning qanday bosqichlar orqali yechimi topilishini vizual tarzda taqdim etish mumkin.

Shuningdek, bu texnologiyalar orqali o‘qituvchilar darslarining samaradorligini oshirishi, shaxsiylashtirilgan o‘quv jarayonini yaratishi va o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirishi mumkin. Ko‘rsatkichli tenglamalar yechimini tushuntirishda grafik ko‘rsatkichlardan foydalanish juda samarali. Masalan, GeoGebra yoki Desmos kabi matematik dasturlar yordamida ko‘rsatkichli funksiyaning grafigini chizish mumkin. Bu grafik orqali o‘quvchilar ko‘rsatkichli funksiyaning qanday o‘zgarishini, uning o‘sishini va asimptotik xususiyatlarini ko‘rishlari mumkin. Misol uchun, tenglama va bo‘lsa, grafikalarda ularning kesishish nuqtasi ekanligini ko‘rish mumkin. Bunday visualizatsiya o‘quvchilarga tenglamaning yechimini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

GeoGebra dasturi asosida ayrim ko‘rsatkichli tenglamalar misollari va yechimlarini bajarish texnologiyasini ko‘rib chiqamiz.

Misol 1: Oddiy ko‘rsatkichli tenglama berilgan bo‘lsin

$$2^x = 8$$

Analitik yechimini ham yozamiz:

$$2^x = 8$$

$$2^x = 2^3$$


$x = 3$ ko‘rinishdagi analitik yechimini topdik. Endi $2^x = 8$ tenglamani GeoGebra platformasi asosida yechimi va grafigini hosil qilamiz:

1-qadam: Bu ko‘rsatkichli tenglamani yechish uchun GeoGebra platformasida yangi hujjat ochamiz .

2-qadam: Funksiya sifatida quyidagi ko‘rinishda kiritamiz:

```
f(x) = 2^x
```

3-qadam: g(x)=8 gorizantal chizig‘ini ham chizamiz.



1-rasm. $f(x) = 2^x$ $f(x) = 2^x$ va $g(x) = 8$$g(x) = 8$ funksiyalarning grafiklari tasvirlangan.

Misol 2: Boshqa bir ko‘rsatkichli tenglama

$$3^x = 81$$

tenglamani yechimini GeoGebra platformasida ko‘rib chiqamiz:

Ko‘rsatkichli tenglamani yechimini analitik ko‘rinishini ham yozib qo‘yamiz:

$$3^x = 81$$

$$3^x = 3^4$$

$x = 4$ qiymatga ega. Keyingi bosqich yuqoridagi tenglamani yechimini GeoGebra platformasida ko‘rib chiqamiz:



2-rasm. $f(x) = 3^x\, f(x) = 3^x$ bilan $g(x) = 81 g(x) = 81$ funksiyalarning grafiklari tasvirlangan.

Misol-3: Quyidagi $3^{x+1} = 27$ ko‘rsatkichli tenglamani GeoGebra platformasida grafigini chizamiz:

1-qadam: Bu ko‘rsatkichli tenglamani yechish uchun GeoGebra platformasida yangi hujjat ochamiz .

2-qadam: Funksiya sifatida quyidagi ko‘rinishda kiritamiz.

```
f(x) = 3^{x+1}
```

3-qadam: $g(x) = 27 g(x) = 27$ gorizantal chizig‘ini ham chizamiz



3-rasm. $f(x) = 3^{x+1} f(x) = 3^{x+1}$ va $g(x) = 27 g(x) = 27$ funksiyalarning grafiklari tasvirlangan.

Misol 4: $5^{2x} = 125$

Berilgan ko‘rsatkichli tenglamani analitik yechimini yozamiz.

$$5^{2x} = 125$$

$$5^{2x} = 5^3$$


$$2x = 3$$

$$x = \frac{3}{2}$$

$$x = 1{,}5$$

Logarifm yordamida ko‘rsatkichli tenglama berilgan bo‘lsa, uning yechimini GeoGebra platformasida bajaramiz:

$$5^{2x} = 125$$



4-rasm. $f(x) = 5^{2x} f(x) = 5^{2x}$ va $g(x) = 125 g(x) = 125$ funksiyalarning grafiklari tasvirlangan.

Yuqorida keltirilgan misollar yechimidan shuni ta’kidlash mumkinki raqamli texnologiyalarni matematika darslariga integratsiya qilish o‘quvchilarga o‘quv jarayonini yanada interaktiv va qiziqarli qilish imkonini beradi. Zamonaviy o‘qitish vositalari quyidagi afzalliklarga ega:

Vizualizatsiya. Ko‘rsatkichli funksiyalarni grafik shaklida ko‘rsatish o‘quvchilarga ularning xususiyatlarini tushunishga yordam beradi. Masalan, ko‘rsatkichli funksiyaning o‘sishi, kamayishi va asimptotik xususiyatlarini tushunish osonlashadi.

Interaktivlik. Interaktiv dasturlar va platformalar orqali o‘quvchilar tenglamalarni yechish jarayonini o‘zlari bajarishi mumkin. Bu o‘quvchilarga masalalarni mustaqil hal qilish va o‘z fikrlarini tekshirish imkonini yaratadi.

Qiziqarli va motivatsion elementlar. Raqamli vositalar orqali o‘quvchilar matematikani o‘yin shaklida o‘rganishlari mumkin. Masalan, turli darajalar va ballar orqali o‘qish jarayoni yanada motivatsion bo‘lishi mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, ko‘rsatkichli tenglamalar mavzusini o‘qitishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash o‘qitish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga imkon beradi. Grafiklar, simulyatsiyalar, interaktiv platformalar va animatsiyalar yordamida o‘quvchilar ko‘rsatkichli tenglamalarni o‘zlashtirishda qiyinchiliklarni yengib, matematikani o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradilar. Ushbu uslubiy ta’minot, o‘quvchilarga yuqori sifatli ta‘lim berishning samarali vositasi bo‘lishi mumkin. Ko‘rsatkichli tenglamalar mavzusini raqamli texnologiyalar asosida o‘qitish o‘quvchilarga mavzuni o‘rganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish imkonini beradi.

Grafiklar, animatsiyalar, simulyatsiyalar va interaktiv platformalar yordamida ko‘rsatkichli tenglamalar mavzusini o‘qitish o‘quvchilarga darslarni yanada qiziqarli va samarali o‘rganish imkoniyatini beradi. Bu usullar o‘quvchilarga matematik tushunchalarni tushunishda yordam berib, tenglama yechish jarayonini aniq va ko‘rish orqali o‘rganishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov A.A. Ta’limni raqamlashtirish jarayonida multimediali ta’limning muhim jihatlari.

2. Nurullayeva O.O. Matematika darslarida fazoviy geometrik shakllarni “GEOGEBRA” dasturi yordamida o‘rgatishnomli maqolasida.

3. Ergashyev M.U. Raqamli o‘qitish platformalari orqali ta’lim oluvchilarning AKT kompetensiyasini rivolantirishnomli maqolasida.

4. Xadjayeva I.A. Al-Forobiy matematik merosidagi masalalarni yechishda GeoGebra dasturidan foydalanish.

5. Khan Academy. (n.d.). Exponential Functions and Their Graphs. Khan Academy.

6. GeoGebra. (n.d.). Interactive Mathematics Software. GeoGebra. URL;https://www.geogebra.org/.

Maxzunaxon MAMIROVA,
Andijon davlat pedagogika instituti, magistrant

"O‘YIN TERAPIYASI" VOSITASIDA BOLALARDA IJTIMOIY ODOBNI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarning ijtimoiy odobini shakllantirishda o‘yin terapiyasidan foydalanishning afzalliklari haqida ma’lumot beriladi. Shuningdek, o‘yin terapiyasi yordamida bolalarda jamoa bo‘lib ishlash, o‘zaro ishonch, bir-birini hurmat qilish kabi ma’naviy fazilatlar shakllanishi yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Ijtimoiy odob, jamoa bo‘lib ishlash, o‘yin terapiyasi, o‘zaro hurmat, psixoanaliz, mas’uliyat, hissiy rivojlanish, muammolarni hal qilish.

В статье рассказывается о преимуществах использования игровой терапии в формировании социального поведения детей дошкольного возраста. Также освещается формирование у детей с помощью игровой терапии таких духовных качеств, как работа в команде, взаимное доверие, уважение друг к другу.

Ключевые слова. Социальная этика, командная работа, игровая терапия, взаимоуважение, отственность, эмоциональное развитие, решение проблем.

The article provides information on the advantages of using play therapy in the formation of social behavior of preschool children. Also, with the help of game therapy, the formation of such spiritual qualities in children as teamwork, mutual trust, and mutual respect is highlighted.

Key words. Social etiquette, teamwork, play therapy, mutual respect, emotional intelligence, responsibility, problem solving.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev rahbarligida 2017-yil 16-avgust kuni bo‘lib o‘tgan yig‘ilishida maktabgacha ta’lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur muassasalarga bolalarni to‘la qamrab olish bo‘yicha muhim vazifalar qo‘yildi.

Darhaqiqat, mazkur farmon yuzasidan respublikamizning barcha maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim jarayonlarini yanada rivojlantirish, zamonaviy pedagogik innovatsion texnologiyalar yordamida tarbiyalanuvchilarga ta’lim tarbiya berish va ular orasida ijtimoiy odobni yanada shakllantirish yuzasidan amaliy olib borilmoqda.

Bu boradagi tahlillar natijasida qisqa vaqtda uchta yirik hujjat O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 9-sentabrdagi Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF 5198-sonli Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi PQ 3305-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarorlari qabul qilindi.

Ushbu Qaror va farmonlarga binoan davlatimiz rahbari yosh avlod tarbiyasining birinchi va muhim bog’ini bo‘lgan maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratmoqda. Va bu e’tibor bugungi kunda o‘z ifodasini topmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoy odobini shakllantirishda o‘yin terapiyasining ahamiyati juda katta. Quyida o‘yin terapiyasi haqida batafsil malumot berib o‘tamiz.

O‘yin terapiyasi tarixiga nazar solsak, Aflotun (miloddan avvalgi 429-377) darvridan buyon o‘yin muhim deb tan olingan va “odam haqida bir yillik suhbat davomda emas, bir soatlik o‘yin davomida ko‘proq narsani bilib olish mumkin” deb ta’kidlagan. XVIII

asrda Russo (1712-1778), o‘z kitobida o‘yinni bolalar haqida bilish va tushunish vositasi sifatida kuzatishni muhimligi haqida yozgan. Fridrix Frobel ‘‘Inson tarbiyasi’’ (1903) kitobida o‘yinda ramziylikning muhimligini ta’kidladi. Uning so‘zlariga ko‘ra

“o‘yin bolalikdagi eng yuksak taraqqiyotdir, chunki bu faqat bolaning qalbida mavjud bo‘lgan narsalarni erkin ifoda etishdir”.

1930-yilarda o‘yin pisixoterapiyasida yangi yondashuvlar paydo bo‘ldi, ularning kelib chiqishi, pisixoanalizda yotadi. 1930-yillarda o‘yin psixoterapiyasida yangi yondashuvlarning paydo bo‘lishi psixologiya va pedagogika sohalarida innovatsion o‘zgarishlarning davomi bo‘ldi. Bu yondashuvlarning kelib chiqishi asosan bola psixologiyasini chuqurroq o‘rganish bilan bog‘liq. O‘yin psixoterapiyasi asosan bolalarning emotsional va psixologik muammolarini hal qilishda samarali vosita sifatida rivojlana boshladi. Quyida biz o‘yin terapiyasi yo‘nalishida faoliyat olib borgan asosiy namoyondalar va ularning ishlari haqida haqida fikr yuritishni joiz deb topdik.

1. Anna Freud va bola psixoanalizi:

Anna Freud (Sigmund Freudning qizi) bolalar bilan ishlashda o‘yin va boshqa ijodiy uslublarni qo‘llashning samaradorligini ilgari surdi. U bolaning ichki dunyosini o‘yindagi ifodalari orqali o‘rganish va ularga psixoterapevtik yordam berish mumkinligini aniqladi. Bu jarayonda o‘yin vositasida bola o‘zining emotsional muammolarini va ichki konfliktlarini ifodalaydi. Bundan aniq bo‘ladiki bolalar so‘z orqali ifoda eta olmagan xissiyotlari va ichki kechinmalarini o‘yindagi xatti-harakatini orqali namoyon etadi.

2. Melani Klein va o‘yin orqali psixoanaliz:

Melanie Klein ham o‘z davrining hisoblanadi bola psixo analizi sohasida muhim rol o‘ynagan olimlardan biri. U o‘yinni bolaning ongi va hissiyotlarini tushunishning asosiy vositasi sifatida ko‘rdi. Uning nazariyasiga ko‘ra, bolalar o‘yin orqali o‘zlarining ruhiy holatlarini aks ettiradi, va shu jarayonda terapevtlar ular bilan ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu usul bolaning ichki konfliktlarini psixoanalitik jihatdan o‘rganishga yordam beradi. Uning nazariyasi terapevt va psixologlar uchun juda ajoyib yangilik bo‘ldi va psixoanalizni yanada rivojlanishiga sababchi bo‘ldi.

3. Erik Erikson va o‘yinning rivojlanish nazariyasi:

Erik Erikson o‘yin terapiyasida muhim hissa qo‘shgan psixologlardan biri hisoblanadi. U rivojlanish bosqichlarini tushuntiruvchi psixososial nazariyasini yaratgan va bolalarning rivojlanishida o‘yinning ahamiyatini ta'kidlab, ularni ijtimoiy o‘zaro munosabatlarni o‘rganish vositasi deb hisobladi. Eriksonning fikriga ko‘ra, o‘yin bolalarning o‘zini namoyon qilish va murakkab ijtimoiy rollarni o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.U o‘yinni bolalar uchun "hissiy laboratoriya" deb atagan, bu orqali bolalar o‘z muhitlarini boshqarishni o‘rganadi va dunyo bilan muvofiqlashadi. Erikson o‘yin bolalarga o‘z tajribalarini qayta ishlash, rejalashtirish va tajriba qilish orqali haqiqatni o‘zlashtirish imkonini beradi deya ta’kidlaydi.

4. Virginia Axline va o‘yin terapiyasi:

Virginia Axline o‘yin terapiyasi sohasida yangi yondashuvlar kiritgan mutaxassis sifatida tanilgan. U bolalar uchun yo‘naltirilmagan o‘yin terapiyasi (non-directive play therapy) uslubini ishlab chiqdi. Axline usulida bolalar o‘yin orqali o‘zlarining his-tuyg‘ularini erkin ifodalaydi, terapevt esa faqat kuzatuvchi rolini o‘ynaydi, aralashmasdan bolaning o‘z-o‘zini davolashiga imkon yaratadi.

Bu yondashuvlar o‘yin psixoterapiyasining keyingi rivojlanishi uchun zamin yaratib, hozirgi kunda ham keng qo‘llanilmoqda. O‘yin bolalarning psixologik holatlarini o‘rganishda va davolashda samarali vosita sifatida tan olingan.

O‘yin terapiyasi – o‘yinlardan foydalanishga asoslangan bolalar va kattalarga ta’sir qilishning psixoterapevtik usulidir.

O‘yin terapiyasi bolalarda ijtimoiy odob va ko‘nikmalarni shakllantirish uchun ajoyib usuldir. Bolalar o‘yin orqali o‘zaro munosabatlar, hissiy aloqalar va guruhda hamkorlik qilishni o‘rganadilar. Quyidagi bir necha usullar o‘yin terapiyasi yordamida bolalarda ijtimoiy odobni shakllantirish uchun xizmat qiladi:

1. Rollarni ijro etish: Bolalar turli rollarni ijro etish orqali boshqalarning nuqtayi nazarini tushunishni va empatiya rivojlantirishni o‘rganadilar. Bu ularga ijtimoiy vaziyatlarni va muammolarni hal qilishni o‘rganishga yordam beradi. Masalan, "Do‘kondan narsa sotib olish" yoki "Maktabda dars" kabi rollarni ijro etishlari mumkin.

2. Jamoaviy o‘yinlar: Jamoaviy o‘yinlar bolalarga hamkorlik qilish, navbat kutish va birgalikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, lego konstruksiyalarini birgalikda qurish yoki jamoa bo‘lib turli vazifalarni bajarish.

3. Maslahatli o‘yinlar: Bolalar maslahatli o‘yinlar orqali muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bu ularga ijtimoiy vaziyatlarda qiyinchiliklarni yengishda yordam beradi.

4. Nizolarni hal qilish o‘yinlari: Nizo holatlarida o‘yinlar bolalarga nizolarni hal qilish va murosaga kelishni o‘rganishga yordam beradi.

5. Emotsiyalarni ifodalash o‘yinlari: Bolalar o‘yin orqali o‘z emotsiyalarini ifodalash va ularga boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bu ularga boshqalar bilan sog‘lom munosabatlar o‘rnatishda yordam beradi. Bu usullar yordamida bolalar o‘z ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirib, yaxshi ijtimoiy odobni shakllantiradilar. O‘yin terapiyasi bolalar uchun qiziqarli va samarali usuldir.

6. Qoidalarga rioya qilish: Qoidali o‘yinlar bolalarga tartib-intizom va qoidalarga rioya qilishni o‘rgatadi. Stol o‘yinlari, sport o‘yinlari va karta o‘yinlari bu maqsadga erishish uchun juda mos keladi.

7. Ijodiy o‘yinlar: Bolalar ijodkorliklarini rivojlantirib, o‘z his-tuyg'ularini ifoda etishni o‘rganadilar. Rasm chizish, hikoya yozish yoki qo‘shiqlar kuylash bu maqsadga xizmat qilishi mumkin.

O‘yin terapiyasining asosiy maqsadi bolalarni qiziqtiradigan va ularning rivojlanishiga yordam beradigan vaziyatlarni yaratishdir. Bu orqali bolalar ijtimoiy ko‘nikmalarni va odob-axloq qoidalarini o‘rganishadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, o‘yin terapiyasi bu maktabgacha yoshdagi bolaning psixikasi va shaxsyatida asosiy progressiv o‘zgarishlar sodir bo‘ladigan faoliyatning universal shakli hisoblanib, o‘yin bolaning atrofidagi odamlar bilan munosabatlarini belgilaydi, uni keyingi yosh bosqichiga, yangi faoliyatga o‘tishga tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi. PF-5198-sonli Farmoni.

2. Jose A.Fadul (General 2014).Psixoterapiya va maslahat bo‘yicha nazariya va amaliyot ensiklopediyasi.Lulu.com. ISBN 9781312078369.

3. Игровая терапия /Элекронний ресурс)-Режим доступа: http//psychologes.ru// glossariy/09/igrovaya-terapiya/ Загл. с экрана.

Mahfuza TO'YCHIYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, dotsent, (PhD)

ADABIY TA'LIMDA "STEAM" TA'LIM TEXNOLOGIYASINI QO'LLASH MEXANIZMLARI

Annotatsiya

Maqolada adabiy ta'limda shakllantiriladigan ijodiy va mantiqiy fikrlashga zamonaviy raqamli dunyoda ehtiyojning oshishi yangi g'oyalarni, qarashlarni keltirib chiqarganligi haqida so'z boradi. Shuningdek, bu yangi qarashlar o'z navbatida ta'lim modellarida, texnologiyalarida o'zgarishlarga sabab bo'lishi va zanjir reaksiyasi kabi adabiy ta'lim ham o'z maqsad va vazifalarini shunga muvofiq ko'rishi yoritilgan. Muallif san'at turi sifatida adabiy ta'limga bo'lgan qarashlar STEM ta'limi misolida ko'rib chiqgan.

Tayanch so'zlar. Ijodiy fikrlash, malaka, ko'nikma, konsepsiya, STEM ta'limi, dizayner, tafakkur birlashuvi.

В статье говорится о том, что растущая потребность в современном цифровом мире в творческом и логическом мышлении, которое формируется в литературном образовании, породила новые идеи, взгляды. Также было показано, что эти новые взгляды, в свою очередь, вызывают изменения в образовательных моделях, технологиях и что литературное образование, такое как цепная реакция, соответственно видит свои цели и задачи. Автор взгляды на литературное образование как вид искусства рассматривал на примере STEM-образования.

Ключевые слова. Творческое мышление, навыки, навыки, концепция, образование STEM, дизайнер, объединение мышления.

The article talks about the fact that the increased need for creative and logical thinking, which is formed in literary education, in the modern digital world has brought new ideas, views. It is also illuminated that these new views in turn cause changes in educational models, technologies, and that literary education, such as chain reaction, also sees its goals and objectives accordingly. The author considered views on literary education as an art form using the example of STEM education.

Key words. Creative thinking, competence, skills, concept, STEM education, designer, fusion of thought.

Ta'lim tizimi bir yaxlit organizm singari butunlikda rivojlanadi. Bir bo'g'inidagi muammo ikkinchisiga ham salbiy ta'sir qiladi. Rivojlanish pallasidagi eng zamonaviy fanlar insoniyatning eng qadimgi fanlariga ehtiyoj sezmoqda. Adabiy ta'lim rakursi bo'lgan ijodiy fikrlash faqat san'atda emas, texnologiyada, muhandislikda ham juda muhim. Mantiqiy fikrlash talab qilinadigan matematika bilan mantiqiy fikrlashni shakllantiradigan badiiy tahlil kesishadigan nuqta ham bor. San'at turi sifatida adabiyot bugungi raqamli dunyoda ikkinchi hayotini boshladi deyish mumkin. Buni dunyo ta'lim sohasidagi nisbatan yangi ta'limotlardan STEAM misolida ko'rib chiqamiz.

STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) ta'limi XX asr oxirida AQSh va Yevropa mamlakatlarida texnologik rivojlanish va iqtisodiy raqobatni qo'llab-quvvatlash maqsadida paydo bo'ldi. Bu davrda fan, texnologiya va muhandislik

sohalarida malakali mutaxassislarga talab ortganligi sababli, ta'lim tizimida matematika va tabiiy fanlarga e'tibor kuchaydi. 1990-yillarda "STEM" atamasi rasman qo'llanila boshladi, asosan, texnik yo'nalishdagi kasblarni rag'batlantirishga qaratilgan edi. 2000-yillarning boshlarida STEM ta'limi ko'plab mamlakatlarda ta'lim islohotlarining asosiy qismiga aylandi.

STEM komponentlari	Ta'lim maqsadlari	Rivojlantiriladigan ko'nikmalar
Science (Tabiiy fanlar)	Ilmiy metodlarni o'rgatish	Kuzatish, tajriba o'tkazish, tahlil qilish
Technology (Texnologiya)	Zamonaviy texnologiyalarni o'rgatish	Raqamli savodxonlik, dasturlash
Engineering (Muhandislik)	Loyihalash va yaratish	Muammolarni hal qilish, modellashtirish
Mathematics (Matematika)	Matematik tafakkurni rivojlantirish	Mantiqiy fikrlash, hisob-kitob

STEM ta'limi o'quvchilarni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim rol o'ynasa-da, vaqt o'tishi bilan bu yondashuvning cheklanganlik jihatlari ham namoyon bo'la boshladi. 2000-yillarning o'rtalarida pedagoglar va tadqiqotchilar STEM ta'limida ijodiy fikrlash va innovatsiyalarning yetishmasligini tanqid qila boshladi. Bu davrda san'at va dizayn sohasidagi mutaxassislar fan va texnologiya bilan san'atning integratsiyasi zarurligini ta'kidlay boshladilar.

STEAM konsepsiyasining shakllanishi 2006-yilda Rhode Island School of Design (RISD) prezidenti John Maeda "STEMni STEAMga aylantirish" g'oyasini ilgari surish bilan boshlanadi. Bu STEAM harakatining rasmiy boshlanishishi edi.

Natijada 2009-yilda "STEAM" atamasi rasman qabul qilindi va san'atning STEM ta'limidagi o'rni tan olindi. 2011–2013-yillarda RISD tomonidan STEAM STEAM ta'limini keng targ'ib qilish boshlandi. Harakatlar zoya ketmay 2013–2015-yillarda AQSh va boshqa mamlakatlarda STEAM dasturlari joriy etila boshladi va jahon miqyosida ta'lim tendensiyasiga aylandi. Bu esa o'quvchilarga ijodkorlikni rag'batlantirish va texnologik muammolarni hal qilish usullarini kengroq ochib berish imkonini berdi. RISD rahbari John Maeda STEAM harakatining asosiy g'oyasini quyidagicha ifodalagan: "Ijodiy tafakkur va ijodkorlik innovatsiyalar uchun muhim ingredientlardir''. U olim yoki texnolog tafakkuri bilan rassom yoki dizayner tafakkurining birlashuvi haqiqiy innovatsiyalarni keltirib chiqaradi degan fikrda bo'lgan. San'atning qo'shilishi, o'tgan davrda faqat texnik va ilmiy ko'nikmalarga e'tibor qaratilayotganidan, o'quv jarayoniga uyg'un va ijodiy yondashuvni ham kiritish zaruratidan kelib chiqdi. Bu yondashuv o'quvchilarni turli fanlarni birlashtiruvchi, keng ko'lamli muammolarni hal qilishda hamkorlikda ishlashga o'rgatishi lozim edi.

San'atning STEM ga qo'shilishining asosiy sabablari sifatida muammolarni hal qilishda ijodiy yondashuvlarni qo'llash va san'at orqali real vaziyatlarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish zarurati ko'rsatiladi. Fan va san'at o'rtasidagi dinamik sinergiya masalan, ilmiy tadqiqotlar uchun vizual san'at ko'nikmalariga ega mutaxassislar kerakligi ham ta'kidlanadi. "XX asr ta'lim kompetensiyalari" – kelajak avlod olimlarining nafaqat an'anaviy yozish va gapirish, balki illyustratsiya, animatsiya, videografiya kabi san'at vositalari orqali ham kommunikatsiya qobiliyatlarini rivojlantirish zarurati qayd etiladi.

STEAM konsepsiyasi bir qator pedagogik nazariyalar va metodologiyalarga

asoslanadi. L.S. Vigotskiyning “To‘g‘ri tashkil etilgan ta’lim – bolani rivojlanish sari yetaklaydi” degan qarashi STEAM yondashuvining asosiy pedagogik poydevorlaridan biri hisoblanadi.

STEAM ta’limining asosiy pedagogik tamoyillari

Tamoyil	Tavsifi	Amaliy qo‘llanilishi
Integratsiyalashgan ta’lim	Fanlararo aloqalarni o‘rnatish	Bir loyihada bir nechta fan yo‘nalishlarini birlashtirish
Amaliy tajribaga asoslangan ta’lim	Nazariyani amaliyot bilan bog‘lash	Tajriba o‘tkazish, modellar tuzish, loyihalar yaratish
Ijodiy fikrlashni rivojlantirish	Noan’anaviy yechimlarni izlash	San’at orqali muammolarga yangicha yondashish
Loyihaga asoslangan o‘qitish	Real muammolarni hal qilish	Guruh bo‘lib ishlash, loyihalar yaratish
O‘quvchining ta’lim subyekti bo‘lishi	O‘quvchining faol ishtiroki	Mustaqil izlanish, tajribalar o‘tkazish

STEAM ta’limining metodologik asoslaridan biri – bu loyihaga asoslangan ta’lim (PBL – Project Based Learning) hisoblanadi. Bu metodologiya o‘quvchilarga real muammolarni hal qilish uchun fan, texnologiya va san’atni birlashtirish imkonini beradi. STEAM ta’limida kashfiyot va o‘yin orqali o‘rganish metodidan foydalaniladi. Unda o‘quvchilar tadqiq qilish, eksperiment o‘tkazish va o‘yinlar orqali bilim oladi ijodiy fikrlashni rag‘batlantirish orqali o‘quvchilar g‘oyalarni rejalashtirish va ishlab chiqish jarayonida ishtirok etadi. Prototip yaratish metodi bilan raqamli yoki moddiy mahsulot yaratilish, yaratilgan mahsulotni sinab ko‘rish va takomillashtirish, uni taqdim etishni ham ichiga oladi. O‘quvchilar o‘z ishlarini haqiqiy auditoriya bilan baham ko‘radi va tajribalarini tahlil qiladi.

STEAM ta’limi dunyoning turli mamlakatlarida turli shakllarda amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta’limdan tortib oliy ta’limgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda STEAM yondashuvlari qo‘llanilmoqda.

Maktabgacha ta’limda LEGO markazlari, tajriba xonalarida bolalar konstruktorlar bilan ishlash, oddiy tajribalar o‘tkazishadi. Boshlang‘ich ta’limda interaktiv loyihalar, multistudiyalarda robototexnika, animatsiya yaratish mumkin.

O‘rta ta‘limda fanlararo loyihalar, STEAM laboratoriyalarida 3D modellashtirish, dasturlash, san’at bilan integratsiyalashgan loyihalarda bu ta’lim shaklidan foydalaniladi. Oliy ta’lim doirasida innovatsion markazlar, startaplarda murakkab muammolarni hal qilish, yangi texnologiyalar yaratish jarayonida amal qilinad.

STEAM ta’limining samaradorligi bir qator tadqiqotlar orqali tasdiqlangan. Masalan, Filadelfiyadagi maktab okrugida o‘tkazilgan STEAM dasturi natijalarining tahlili o‘quvchilarning nafaqat akademik ko‘rsatkichlarini, balki ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini ham sezilarli darajada oshirganini ko‘rsatdi.

STEAM ta’limining asosiy natijalari quyidagilarda namoyon bo‘ldi:

1. Ijodiy fikrlashning rivojlanishi – o‘quvchilar muammolarga turli nuqtai nazardan yondashishni o‘rganadi.

2. Amaliy ko‘nikmalarning shakllanishi – nazariy bilimlarni amalda qo‘llash imkoniyati.

3. Fanlararo aloqalarni tushunish – o‘quvchilar fan, texnologiya va san’at o‘rtasi-

dagi bog‘liqlikni anglaydi.

4. Kommunikatsiya ko‘nikmalarining rivojlanishi – o‘z g‘oyalarini turli usullarda ifodalash qobiliyati.

5. Kelajak kasblariga tayyorgarlik – tez o‘zgaruvchan mehnat bozorida talab qilinadigan ko‘nikmalar.

Bugungi kunda STEAM ta’limi global ta’limning bir qismiga aylanib bormoqda. Raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt va virtual reallik kabi yangi texnologiyalar STEAM ta’limiga yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Yaqin kelajakda STEAM istiqbolini ta’limining virtual laboratoriyalar, simulyatorlarda raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayonida; ijtimoiy muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan, ekologik loyihalarda; turli mamlakatlar o‘quvchilari o‘rtasida hamkorlik o‘rnatishda; inklyuziv ta’limda barcha o‘quvchilar uchun imkoniyatlar berishida ko‘rinmoqda, tasavvur qilinmoqda.

STEAM konsepsiyasining paydo bo‘lishi va rivojlanishi ta’lim tizimidagi muhim o‘zgarishlardan biri bo‘ldi. San’atning STEM ga qo‘shilishi o‘quvchilarning nafaqat texnik, balki ijodiy qobiliyatlarini ham rivojlantirishga imkon berdi. STEAM konsepsiyasi ta’limda fan, texnologiya va san’atning sinergiyasini namoyish etadi. Ushbu yondashuv XXI asrning murakkab talablariga javob berish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. San’atning qo‘shilishi nafaqat ta’limni qiziqarli qiladi, balki innovatsiyalarni ilhomlantiruvchi vosita sifatida ham asqotadi. STEAM modeli orqali o‘quvchilar an’anaviy bilimlarni emas, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda qanday qo‘llashni o‘rganadilar. Bu yondashuv turli fanlar o‘rtasidagi aloqalarni chuqurroq anglashga yordam beradi. San’atning qo‘shilishi tufayli o‘quvchilar faqatgina nazariy bilimlarga tayanib qolmay, o‘z tasavvurlarini ifoda etishga va innovatsion yechimlarni topishga harakat qiladi.

Zamonaviy dunyo kreativ fikrlash, jamoa bo‘lib ishlash va texnologiyalardan foydalanishni talab etadi. STEAM yondashuvi esa bu ko‘nikmalarni rivojlantirishni o‘z ichiga oladi bu bilan tarbiyalanuvchilarni yangi kasb va sohalarga tayyor bo‘lish uchun zamin yaratadi. O‘quvchilarni nafaqat aniq va texnik fanlarda, balki ijodkorlikda ham rivojlantirishga qaratilgan ta’lim tizimi sifatida jamiyat oldidagi dolzarb muammolarni hal qilishda samarali yondashuvlarni ishlab chiqishda asos bo‘ladi va yosh avlodni kelajak hayot uchun moslashuvchan qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tuychiyeva M. U. (2023). pedagogical, methodological and psychological aspects of attracting teenagers to fiction. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 3(11), 28-39.

2. Tuychiyeva M. U. (2022). Taking Into Account the Specific Characteristics of the Adolescent in Literary Education.

3.Tuychiyeva M. U. (2021). Pedagogical requirements to teaching materials. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal,11(5), 704-709.

4. Tuychiyeva M. U. (2017). Features of research methods of presentation educational materials in the system of secondary specialized professional education. www. auris-verlag. de.

Ulug‘bek KUBAYEV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali, katta o‘qituvchi

VIRTUAL MUHITLARNI TASHKIL QILISH METODOLOGIYALARINI QO‘LLASH TALABLARI VA ISHLAB CHIQISH USLUBLARI

Annotatsiya

Maqolada virtual ta’lim muhit tashkil qilish metodologiyalari, zamonaviy virtual ta’lim muhitlarining ishlab chiqish uslublari va ularni qo‘llanilish sohalari, virtual reallik (VR) tushunchasi, virtual reallik va virtual ta’lim muhit tushunchasi tariflari bayon etiladi. Virtual ta’lim muhit afzalliklari va kamchiliklari ta’lim sohasining yangi pog‘onasida o‘qitilayotganlar hamda pedagoglar faoliyatida sifatli o‘zgarishlar namoyon bo‘lishi haqida bayon qilingan.

Tayanch so‘zlar. Virtual ta’lim muhit, texnologiya, virtual ta’lim, virtual 3D ta’lim platforma, virtual mashina, virtual xotira, virtual disk, virtual aloqa, virtual sayohat, virtual sinf.

В статье описываются методологии организации виртуальной образовательной среды, методы разработки современных виртуальных образовательных сред и области их применения, понятие виртуальной реальности (VR), определения понятия виртуальной реальности и виртуальной образовательной среды. Преимущества и недостатки виртуальной учебной среды. Утверждается, что качественные изменения проявляются в деятельности преподавателей и учителей на новом уровне сферы образования.

Ключевые слова. Виртуальная образовательная среда, технология, виртуальное образование, виртуальная 3D образовательная платформа, виртуальная машина, виртуальная память, виртуальный диск, виртуальное общение, виртуальное путешествие, виртуальный класс.

The article describes the methodologies for organizing a virtual educational environment, methods for developing modern virtual educational environments and areas of their application, the concept of virtual reality (VR), definitions of the concept of virtual reality and virtual educational environment. Advantages and disadvantages of the virtual learning environment. It is stated that qualitative changes are manifested in the activities of those being taught and teachers at the new level of the education sphere.

Key words. Virtual educational environment, technology, virtual education, virtual 3D educational platform, virtual machine, virtual memory, virtual disk, virtual communication, virtual journey, virtual classroom.

Hozirgi kunda virtual ta’lim muhit doirasida obyektlarni 3D modellari sifatini yo‘qotmasdan ta’sir qilish va ko‘pburchaklar sonini soddalashtirish uchun algoritmlarni ishlab chiqish zarur hisoblanadi.

O‘quv jarayoni murakkab (psixologik, fiziologik va pedagogik) obyekt sifatida ko‘rib chiqilib, virtual kompyuter modellarini qurishga urg‘u beriladi. Virtual muhit dasturiy vositasidan asosiy ko‘zlangan maqsad – virtual muhit uchun eksteryer va interyer uch o‘lchovli modellarini yaratishdir. Bundan tashqari, geometrik modellar, asbob-uskunalarning chizmalari, texnologik asbob-uskunalarni 3D modellashtirish asosida shakllantirish, qayta ishlash va o‘lchash asboblarini yaratish, shu jumladan standart mahsulotlarni parametrik modellashtirish, 3D modellar uchun konstruktiv va texnologik hujjatlar to‘plamlarini avtomatlashtirilgan holda ishlab chiqish ham muhim ahamiyatga egadir.

Virtual o‘quv jarayoni muhitida foydalaniladigan pedagogik texnologiyalar. Masalan: Aralash ta’lim (Blend Learning), Keysstadi, Konusli ta’lim (The Cone of Learning). Shulardan eng ko‘p ishlatiladigan texnologiya konusli ta’limdir.

Aralash ta’lim – ta’lim oluvchilarning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda turli ta’lim berish shakllari, modellarining effektiv integratsiyasi hisoblanadi. O‘quv jarayonini boshqarish tizimlari ushbu masalani hal qiladi.

Case-study – inglizcha case – aniq vaziyat, study – ta’lim so‘zlarining birikmasidan hosil qilingan bo‘lib, aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil etish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan ta’lim metodidir.

Ta’lim muhiti sifatida virtual olamlarning afzalliklari:

– marzon narx va yuqori xavfsizlik;
– foydalanuvchilar va obyektlarni uch o‘lchovli tasvirlash;
– simulyatsiya qilingan kontekstdagi o‘zaro ta’sir;
– ishtirok etish hissi;
– turli xil vositalar;
– ta’lim muhiti sifatida virtual olamlarning kamchiliklari;
– yuqori narx;
– muloqotni foydalanuvchilar guruhi uchun almashtirilmasligi kerak;
– o‘zini keraksizdek his etish;
– virtual dunyoga qaram bo‘lgan foydalanuvchilar;
– texnologiya hali ham sinov jarayonida;
– VR muhitida o‘qitish haqiqiy emas.

“Men ko‘rsam va men unutaman, men eshitsam va men eslayman, men bajarsam va men tushunaman” fikrlarini bayon qilgandi Konfutsiy. Bunda har bir foydalanuvchi konusli ta’limda ikki haftadan so‘ng, ular eslashga harakat qiladi va moslashadi.

Har bir tugunni og‘irlik qiymatiga mos o‘lchamdagi katakchaga solish uchun to‘ldirish algoritmni virtual olamlarni loyihalash sohasidagi yetakchi mutaxassislardan biri Richard Bartl virtual olamning bir qator tamoyillarini shakllantirdi.

Ichki qonunlar tamoyili: har bir virtual olam o‘zining o‘rnatilgan avtomatik qoidalarga ega bo‘lib, ular asosida ishlaydi.

Avatarlar tamoyili: har bir foydalanuvchi virtual olam ichida o‘zining shaxsiy ko‘rinishi bilan ifodalanadi.

Tezkorlik tamoyili: virtual olam harakatlar haqiqiy olamda sodir bo‘ladigandek namoyon bo‘ladi.

Umumiy haqiqat tamoyili: virtual olam uning barcha foydalanuvchilari uchun bir xil narsani ko‘radi.

Doimiylik tamoyili: virtual olam unda foydalanuvchilar borligidan qat’iy nazar mavjud.

Virtual ta’lim muhiti haqida. VR muhiti nafaqat shart-sharoit, balki vosita sifatida ham tushuniladi, bunda innovatsion xususiyatlarni namoyon bo‘lishiga imkon beruvchi belgilar kompleksi tahlil qilinadi. Bundan tashqari, yuqori texnologik ta’lim muhiti tushunchasi ham shakllanadi. Bugungi kunda kompyuter texnologiyalari bazasidagi ta’lim muhit yaratilgan va muvaffaqiyatlilikning turli darajasida deyarli barcha OTMlarda faoliyat yuritadi, jumladan, OTMlarda ham virtual ta’lim bor. Ko‘plab oliy ta’lim muassasalarida u kunduzgi ta’limning virtual qo‘llash muhiti sifatida qo‘llaniladi, bundan tashqari, auditoriyadan tashqari mustaqil ishni tashkil qilishda ham ajralmas qismiga aylangan. Virtual ta’limning pedagogik modeli chiziqli auditoriya yondashuvini takrorlaydi. Bu esa, sirtqi korespondentlik ta’lim bilan taqqoslanadigan sifatning erishib

bo‘ladigan darajasida o‘z aksini topadi. Shartli ravishda bu yondashuvni texnokratik deb belgilash mumkin, unda birinchi o‘ringa qo‘llanadigan vosita va texnologiyalar ta’limni boshqarishning ta’lim kontentining dasturiy vositalari hamda ularni ommaviy oson o‘qitish asosida amalga oshirilishi birinchi o‘rinda turadi.

Umumiy tarzda ilg‘or innnovatsion virtual ta’lim muhitini tassavur qilishga harakat qilamiz. Uni nafaqat o‘zi ta’sirlarning an’anaviy auditoriya muhitini kengaytiruvchi va boyituvchi, balki ta’lim muhitining yangi “pog‘onasi” sifatida tassavur qilamiz, u o‘ziga xos qurilmasi bo‘lib, unda jarayonning yo‘nalishi o‘zgaradi va uning yangi sifat jabhalari namoyon bo‘ladi.

Ta’lim sohasining yangi pog‘onasida o‘qitilayotganlar hamda pedagoglar faoliyatida sifatli o‘zgarishlar namoyon bo‘lishi lozim.

Birinchidan, ta’limdagi o‘zaro harakatlar markazini pedagogdan o‘rganuvchiga qaratish lozim. Muhitning bu qismida o‘rganuvchiga faol va tashabbuskor ta’limni olishni asoslab olgani bo‘lishi lozim. U ta’lim jarayoni kechayotgan markazga aylanishi lozim, buning natijasida shaxsiy axborot va kommunikatsion harakatlari ham namoyon bo‘lishi lozim. Bunda pedagog virtual muhitni loyihalashtirgan, uning resurslarini yaratgan hamda unda kommunikatsiyalarni tashkil qiluvchi shaxs bo‘lib qoladi. Biroq, bu yerda motivatsiya, faollik, tashabbuskorlik, foydalanuvchilarning o‘z ishlarini o‘zlari tashkil qilishlari shaxsiy motivatsiyasi, faolligi, ta’lim muhiti va pedagoglar bilan o‘zaro ta’sirlari xarakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

Ikkinchidan, muhitning virtual qismi pedagogning kasbiy faoliyatining obyektiga aylanadi. Zamonaviy pedagog kasbiy vazifalarini maxsus yaratiladigan va boshqariladigan virtual qismi orqali samarali hal etishni o‘rganishi lozim. O‘rganuvchiga mazkur muhitda mavjud bo‘lgan axborot va kommunikatsion harakatlarning saqlanadigan va to‘planadigan “izlari”dan ko‘rishni o‘rganishi lozim. Ta’lim muhitining virtual qismi orqali ta’limni nafaqat virtual muhitni vosita va uslublari bilan o‘rganishi, tarbiyalash hamda rivojlantirish o‘zaro harakatlarini amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan, pedagog yoshlarning zamonaviy ta’lim talablariga qaratilgan harakatlarini izga tushirishi lozim. Tez o‘zgarayotgan axborot zamonida shart-sharoitlarda rivojlangan avlod kichik yoshidanoq elektron axborotlar bilan o‘zaro hamkorlikda aloqada bo‘ladi. Ular elektron muhitda vazifalarni amalga oshirish haqidagi o‘z tasavvurlariga egadir. Uning misoli tariqasida, ijtimoiy tarmoqlar xizmat qiladi. Unda yoshlar faol, tashabbuskor va yuqori darajadagi motivatsiyalarga ega bo‘ladi. Tarmoqdagi harakatlar o‘z-o‘zini shakillantirishga asoslangan axborot kommunikatsion jarayonlarning nochiziqli yo‘nalishi, harakati bilan farqlanadi.

O‘zaro hamkorlik harakatlarning virtual jarayonida elektron resurslarni faoliyat yuritishining yangi shakl va formatlaridan foydalanish lozim. Ta’lim jarayoni faoliyatning turli modellari orqali amalga oshirish lozim.

To‘rtinchidan, muhitning bu qismida ta’lim va kasbiy amaliyotning yangi maqsad va vazifalari tamoyillarini amalga oshirish lozim. Bunda zamonaviy mutaxassisning tubdan yangi bo‘lgan kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish ham talab qilinadi. Inson va kompyuterni aloqasi shaxsning ilg‘or axborot madaniyatini rivojlantirish zaruriyatiga olib keladi. Kelajakdagi mutaxassisni kasbiy vazifalarini nafaqat an’anaviy shakllarda, balki tarmoq virtual muhit orqali intellektual instrumentlar yordamida faoliyatning yangi kasbiy vositalari sifatida qo‘llash yo‘li bilan bajarishni o‘rgatish lozim.

Virtual muhitning pedagogik mohiyati virtual muhit o‘rganuvchilarni ta’lim, tarbiya va rivojlanishining vazifalarini yechishning vositasiga aylanadi. Muhitning bu

qismida avtomatlashtirilgan ishchi o‘rin (o‘qituvchi, talaba, boshqaruvchi) asosida intellektual faoliyatning kompyuter instrumentlari, ya’ni umumiy va maxsus yo‘nalishdagi dasturiy vositalar asosida elektron resurslar vositasida faoliyat amalga oshiriladi. Muhitning bu qismi elektron resurs, axborot resurslar, kommunikatsion boshqaruv resurslar tomonidan boyitilgan va qo‘llab-quvvatlangan bo‘lishi lozim. Bu muhitda o‘zaro ta’sir telekommunikatsiyaning turli kanallari bo‘yicha o‘zaro hamkorlik onlayn, oflayn rejimlarida yoki ularni birlashtirgan holda faoliyat amalga oshiriladi. Bunda ijtimoiy media faoliyat yuritish hamda ommaviy kommunikatsiya kanallari ham qo‘llaniladi.

Virtual ta’limni o‘qituvchi, o‘quvchi, tyutor, tarmoq rahbarlari va ta’limning boshqa komponentalarisiz tasavvur qilishning imkoni yo‘q. Xuddi insonlarga ta’lim berish kabi, virtual ta’limning asosiy maqsadi inson tomonidan virtual va boshqa imkoniyatlarini ham e’tiborga olgan holda haqiqiy dunyodagi o‘z o‘rnini aniqlash va unga erishishida ko‘mak berishdan iborat.

Virtual ta’limning modelini tuzish insonning ichki dunyosini ko‘plab kengayotgan sohalarda taqdim etilishiga olib keladi. Bu sohalar intellektual, obrazli, madaniy, tarixiy va ijtimoiy yoki sotsial sohalaridir. Ularning barchasi uzviy bog‘liq bo‘lib harakatchandir. Majmuada esa, ular insonning virtual ta’lim muhiti deb nomlanuvchi hodisani tashkil qiladi. Bu muhit tashqi dunyoga kengayish qobiliyatiga ega. Bunda o‘zi uchun tashqi sohani o‘quvchining faoliyati natijasida ochib beradi. O‘quvchi o‘z hissiyot organlari, emotsional obrazli va intellektual qobiliyatlaridan foydalanadi. Virtual obrazli muhit deganda biz lokal, ya’ni mahalliy, korporativ va global kompyuter tarmoqlarining axborot mazmuni va kommunikatsion imkoniyatini tushunamiz, ular ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari tomonidan ta’lim maqsadalarida shakllantiriladi va qo‘llaniladi. Maktab va universitetlarning virtual ta’lim muhitida o‘z ichiga an’anaviy texnologiyalarni kiritgan ta’lim tizimining qayta qurilishining potensial imkoniyatlari to‘liq amalga oshiriladi. Ta’lim muassasalarining o‘qituvchi, pedagog va rahbarlari uluksiz tarzda o‘z kasbiy faoliyatlarini takomillashtirishlari lozim.

Bu pedagogik faoliyatda optimal natijalarga erishish uchun innovatsion texnologiyalardan qo‘llashga hamda ish foydalanishga tayyor bo‘lishlari lozim. Shuning uchun innovatsion faoliyat uchun pedagogik kadrlarni kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlash masalasi ham virtual ta’lim muhitida eng ilg‘or texnologiyalar orqali amalga oshirilishi lozim.

Virtual ta’lim muhitining barcha ishtirokchilarini samarali kommunikatsiyasi uchun yaratilgan va rivojlanmoqda. Mutaxassislar muvofiq texnologiyalarga ega bo‘lishi kompetensiyasining yetishmasligi, ya’ni oldindan uning kasbiy imkoniyatlarini cheklaydi, uni ta’lim sohasidagi progressiv tendensiyalarini orqada qoldiradi. Ta’lim muhiti shaxsni muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuvi, kasbiy shakllanishi va rivojlanishiga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish lozim.

Ochiq universitetlar: Buyuk Britaniya ochiq universiteti, Ispaniyada virtual ta’lim 3D universiteti, Xalqaro boshqaruv instituti, Moskva davlat iqtisodiyot, statistika va informatika universiteti va boshqalar. Zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish jarayonida uni zamonaviylashtirish yo‘li bilan sirtqi ta’lim modelini ishlab chiqish muhim sanaladi.

Virtual universitetlar an’anaviy universitetlardan farq qiladi, chunki uning yagona vazifasi masofaviy virtual 3D ta’lim xizmatlarini taqdim etishdir. Ushbu vazifa uning muayyan tashkiliy tuzilishini belgilaydi. Virtual universitetning ma’muriy xodimlari,

o‘qituvchilari, texnik vazifalari, ishlarning mazmuni an’anaviy universitetning o‘ziga xos xususiyatlaridan sezilarli darajada farq qiladi.

Ochiqlik tamoyilini amalga oshirish, axborotni saqlash, qayta ishlash va uzatish uchun yangi texnologiyalar joriy etilishi sababli, amalda amaliy ravishda amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan muhim tashkiliy innovatsiyalarga olib keldi. Misol uchun, 90-yillarda telekonferensiya texnologiyalari asosida masofaviy virtual 3D ta’limning yangi modeli paydo bo‘ldi.

Virtual universitetlar. Kaliforniya virtual universiteti (AQSH), Berlin virtual universiteti (Germaniya). O‘quv jarayonini tashkil etishning ushbu shakli biz tomonimizdan yangi, zamonaviy ta’lim modeli sifatida ko‘rib chiqiladi. Virtual universitet zamonaviy rahbarlik texnologiyalaridan foydalangan holda ishlaydigan masofalari bilan ajralib turuvchi xodimlar, kursni ishlab chiquvchilar, o‘qituvchilar, texnologlar, talabalar bilan hamkorlik qiladi.

Ushbu modelda ta’lim sohasidagi telekonferensiya texnologiyalariga ega bo‘lgan ta’lim tizimini qayta qurishning to‘liq salohiyati amalga oshirildi. Ushbu texnologiyalar talabalar guruhlari va shaxslarga o‘qituvchilar va bir-birlari bilan har qanday masofada muloqot qilish imkonini beradi. Zamonaviy muloqot vositasi audio va video muloqotlarn o‘rnini bosadigan kompyuter dasturlari bilan to‘ldiriladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Nuraliev F M., Giyosov U.E. Modern teaching approach: virtual reality and 3d modeling. // Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent, 2021, 11, 44-48 Published Online March 2021 in Acta TTPU (http://www.acta.polito.uz/)

2. Носкова Т. Н. Педагогическая сущность виртуальной образовательной среды // Известия РГПУ им. А. И. Герцена. 2014. №167. С. 183-194.

3. Fominykh M., Prasolova-Forland E., Morozov M. and A. Gerasimov Virtual City as a Place for Educational and Social Activities: a Case Study. // Conference Imcl2009 April 21 – 24 AMMAN, JORDAN.pp.2

4. Nuraliev F.M., Maksumova U.A., Otaxanov N.A., Kamalov I.S., Xalilov R.D. vAcademia muhitida o‘quv kurslarini loyihalashtirish. // Toshkent. – 2016. y. 44 b.

5. Сюлькова Н.В., Вострикова Н.А. Организационная структура учебных заведений, использующих дистанционные образовательные технологии при реализации программ профессионального образования. // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Информатизация образования. 2008. №2. С. 39-50.

Vasliddin SHUKUROV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali,
“Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” kafedrasi, assistent

TA’LIMGA OID MILLIY KONTENTLARNI ISHLAB CHIQISHDA INTERNET TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada raqamli kontentlarning ta’lim jarayonida qo‘llanilishi va ularning ahamiyati ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, raqamli kontentlar, jumladan video darslar, interaktiv o‘yinlar va mobil ilovalar ta’lim tizimini modernizatsiya qilishga yordam beradi. Ushbu kontentlar o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishi haqida fikr yuritilgan o‘rganishni qiziqarli va samarali qiladi, shuningdek, o‘quvchilarga individual o‘rganish tezligini belgilash imkonini berishi raqamli kontentlar orqali o‘quvchilar real vaqtda turli xil resurslardan foydalanishi va o‘z bilimlarini amaliyotda sinab ko‘rishi mumkin va raqamli kontentlardan foydalanishning imkoniyatlari va afzalliklari haqida ham ma’lumotlar berilgan.

Tayanch so‘zlar. Kontent, axborot texnologiyalari, ta’lim, AKT, video darslar, ma’ruza, interaktiv kontent.

В статье рассматривается применение цифрового контента в образовательном процессе и его значение. Цифровой контент, включая видеоуроки, интерактивные игры и мобильные приложения, также способствует модернизации системы образования. Эти контенты делают обучение интересным и эффективным, предполагая, что они повышают мотивацию учащихся, а также позволяют учащимся определять индивидуальную скорость обучения. Благодаря цифровому контенту учащиеся могут использовать различные ресурсы в режиме реального времени и проверять свои знания на практике, а также предоставляется информация о возможностях и преимуществах использования цифрового контента.

Ключевые слова. Контент, информационные технологии, образование, ИКТ, видеоуроки, лекция, интерактивный контент.

The article examines the application of digital content in the educational process and its significance. Digital content, including video lessons, interactive games, and mobile applications, will also contribute to the modernization of the education system. This content makes learning interesting and effective, which is believed to increase student motivation, and also allows students to set their individual learning speed. Through digital content, students can use various resources in real time and test their knowledge in practice, and information is also provided about the possibilities and advantages of using digital content.

Key words. Content, information technology, education, ICT, video lessons, Lecture, interactive content.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari har qanday sohaning ajralmas qismiga aylangani ayni haqiqat. Har qanday sohada amalga oshirilayotga islohatlar negizida ta’lim yotadi. Shu boisdan eng avvalo ta’lim sohasini rivojlantirish hamda ta’lim sifatini oshirishda har qanday imkoniyatlardan keng va oqilona foydalanish zarur.

Mamlakatimizda bugungi kunda axborot texnologiylari va ularni turli sohalarga joriy qilish bo‘yicha ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Axborot texnologiyalarning turli sohalarga kirib kelishi, axborot texnologiyalari bo‘yicha mutaxassislarga bo‘lgan talabning yil sayin o‘sib borishiga xizmat qildi. Bunga misol sifatida O‘zbekiston Res-

publikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi tomonida Axborot komunikatsion texnologiylari (AKT) sohasida faoliyat yuritayotgan yuridik shaxslarda ishlovchi xodimlar sonini viloyatlar va yillar kesimida 2015-2023-yillar oralig‘idagi statistik natijalarini ko‘rishimiz mumkin

1-jadval

Klassifikator	**2015**	**2016**	**2017**	**2018**	**2019**	**2020**	**2021**	**2022**	**2023**
O‘zbekiston Respublikasi	33413	34478	37958	40248	47697	50157	53782	60462	71627
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1040	1051	1134	1031	1233	1302	1222	1124	1394
Andijon viloyati	1416	1279	1413	1397	1560	1702	1441	1708	1582
Buxoro viloyati	1315	1417	1428	1506	1693	1770	1801	1979	1826
Jizzax viloyati	465	563	636	731	1012	1113	832	597	672
Qashqadaryo viloyati	891	785	887	927	1152	1052	1243	1248	1407
Navoiy viloyati	1059	1003	1112	1219	1175	1328	1247	1040	1031
Namangan viloyati	1049	989	1086	1234	1303	1491	1538	1511	1458
Samarqand viloyati	1222	1143	1364	1503	1603	1871	1973	1973	2538
Surxondaryo viloyati	735	758	855	855	1063	1031	1007	1073	1067
Sirdaryo viloyati	686	624	624	211	721	776	666	718	934
Toshkent viloyati	1518	1472	1746	1865	1933	2713	2727	2793	3048
Farg‘ona viloyati	2338	2661	1959	2341	2442	2661	2212	2430	2605
Xorazm viloyati	925	873	1015	1039	1133	1205	1186	1304	1469
Toshkent shahri	18754	19860	22699	24389	29674	30142	34687	40964	50596

AKT sohasida faoliyat yuritayotgan yuridik shaxslarda ishlovchi xodimlar sonini (jadval asosida tuzilgan)

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki 2023-yilda AKT sohasida faoliyat yuritayotgan shaxslar 2015-yilga nisbatan 2.14 martaga oshganini ko‘rishimiz mumkin. Albatta bunday mutaxassislarni tayyorlash va ularni mamalakatimizning turli tizimlariga yetkazib berishda birinchi navbatda ta’lim sohasi o‘rtaga chiqadi. Shunday ekan bugungi kunga kelib ta’lim muassasalarida turli fanlarni o‘qitishda AKT dan qanday foydalanmoqdamiz va bizga qanday imkoniyatlar taqdim etmoqda?

Yuqoridagi savollardan kelib chiqib shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, bugungi kunda ta’lim sohasini axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu boisdan quyida fanlarni o‘quvchi va talabalarga yetkazib berishda AKT yordamida yanada samarali qilish bo‘yicha tavfsiyalar beriladi.

Ta’lim sohasiga AKT ni joriy qilish orqali turli raqamli kontentlarni yaratish va ushbu kontentlardan dars jarayonlarida samarali foydalangan holda ta’lim sifatini oshirish imkoniyati paydo bo‘ldi. Shu o‘rinda kontent tushunchasiga to‘xtalib o‘tsak.

Kontent – o‘z-o‘zini ifoda etish, tarqatish, marketing yoki nashr etish uchun “nutq”, yozuv yoki turli xil san’at turlari kabi biron bir vosita orqali ifodalanishi kerak bo‘lgan axborot vositasi.

Kontentning asosiy maqsadi o‘quvchilarni ma’lum bir fikr bilan tanishtirish, bilim berish, o‘zaro munozara qilish yoki o‘quvchilarning qiziqishini oshirishdir. Ta’lim so-

hasida kontent, ayniqsa, o‘qitish va o‘rganish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash uchun muhim ahamiyatga ega. Kontent ishlab chiqishda sifat, aniqlik va maqsadga muvofiqlik muhim hisoblanadi.

Ta’limga oid kontentlar turli xil shakllarda mavjud bo‘lib, har bir turda o‘zining afzalliklari va kamchiliklari bor. Quyida ta’lim kontentlarining asosiy turlari va ularning mazmuni haqida ma’lumot keltirilgan:

Video kontentlar – bu ko‘rish va eshitish orqali taqdim etiladigan multimedia materiallar to‘plami. U turli xil formatlarda va maqsadlarda bo‘lishi mumkin, quyidagi 1-rasmda video kontent turlari keltirilgan



1-rasm. Video kontent turlari

Ta’limga oid video kontentlar ma’ruzalar, video kurslar, vebinarlar va interaktiv o‘yinlar shaklida bo‘lishi mumkin. Ta’limga oid video kontentlardan o‘quvchilarga murakkab mavzularni tushuntirishda va o‘rganish jarayonini qiziqarli qilish uchun foydalanish mumkin. Qolaversa video kontentlar vizual va audio elementlarni birlashtirganligi tufayli ma’lumotlarni yanada aniqroq va samaraliroq taqdim etish imkonini beradi.

Ma’ruzalar va taqdimotlar ko‘rinishidagi kontent – bu ma’lumotlarni o‘quvchilarga yoki tomoshabinlarga taqdim etish uchun tayyorlangan vizual va matnli materiallardir. Ushbu kontentlar odatda o‘qituvchilar, mutaxassislar yoki turli ma’ruzachilar tomonidan ishlab chiqiladi.

Ma’ruzalar yozma (qog‘oz shaklida) yoki og‘zaki (eshitish shaklida) bo‘lishi mumkin. Axborot texnologiyalardan foydalangan holda ma’ruza davomida slaydlar, diagrammalar yoki boshqa vizual materiallar ham ishlatilishi mumkin.

Taqdimot – bu ko‘rsatmalar yoki ma’lumotlarni slaydlar, grafikalar, infografikalar yoki boshqa vizual materiallar yordamida taqdim etish jarayoni. Taqdimotlar PowerPoint,

Google Slides, Prezi va boshqa shunga o‘xshash dasturlari yordamida tayyorlanadi. Bunday kontentlardan foydalanish davomida o‘qituvchilarda o‘quvchilar bilan bevosita muloqot va savol-javob qilish imkoniyati ko‘proq bo‘ladi.

Interaktiv kontentlar – bu foydalanuvchilar bilan o‘zaro aloqada bo‘ladigan va ularni faol ishtirok etishga undaydigan materiallardir. Ushbu kontentlar o‘quvchilarning diqqatini jalb qilish, o‘z-o‘zini baholash va qiziqishni oshirish maqsadida ishlab chiqiladi. Interaktiv kontentning bir nechta turlari mavjud:

– onlayn test va so‘rovnomalar;
– simulyatsiyalar;
– o‘yinlar;
– interaktiv videolar;
– virtual muhit.

Interaktiv kontentlar o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi, bu esa o‘rganish jarayonini qiziqarli qiladi. Qolaversa o‘quvchilar o‘z bilimlarini baholash va mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Interaktiv kontentlar orqali o‘quvchilar amaliy tajribalarni ham ortirib borishlari mumkin.

Yuqorida ta’lim jarayonida keng qo‘llaniladigan asosiy raqamli kontentlar haqida ma’lumot berildi. Ko‘rinib turibdiki ushbu kontentlar ham o‘z tarkibiga ega bo‘lib fanlar va mavzulardan kelib chiqib kerakli kontent turidan foydalangan holda dars samaradorligini oshirish mumkin.

Raqamli kontentlar, jumladan, video darslar, interaktiv o‘yinlar va onlayn kurslar ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishda va individual o‘rganish jarayonini qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu kontentlar orqali o‘quvchilar real vaqtda turli xil resurslardan foydalanish imkoniga ega bo‘lishadi, bu esa bilimlarni amaliyotda sinab ko‘rishga yordam beradi.

Raqamli kontentlar zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, o‘qituvchilar va talabalar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Raqamli kontentlar yordamida:

Ta’lim jarayoni interaktiv bo‘ladi.

Mustaqil o‘rganish orqali bilimlarini chuqurlashtiradi.

Ilg‘or texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq qilish imkoniyati yaratiladi.

Raqamli kontentlarni yaratish va ularni samarali qo‘llash orqali ta’lim sifatini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, raqamli kontentlarning ta’lim jarayonida qo‘llanilishi o‘quvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ta’lim muassasalarida raqamli kontentlardan samarali foydalanish esa, o‘qituvchilarning va o‘quvchilarning o‘rganish jarayonini yaxshilashga yordam beradi, bu esa natijada ta’lim tizimining modernizatsiyasini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi – https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/raqamli-iqtisodiyot.

2. Kontent yaratish - https://uz.wikipedia.org/wiki/Kontent_yaratish.

3. Karimov A. A. “Raqamli trasformatsiya ta’lim sifatining lokomotividir” - https://cyberleninka.ru/article/n/raqamli-trasformatsiya-ta-lim-sifatining-lokomotividir.

4. Karimov A. A. “Ta’limni raqamlashtirishning nazariy asoslari” – https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0024/5.19%20 Karimov % 20A.pdf.

5. “Raqamli texnologiyalarning yangi o‘zbekiston rivojiga ta’siri” Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2023-yil. 100-102 b.

Dilorom ADILOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, "Umumiy pedagogika" kafedrasi, v.b dotsent, (PhD)

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ASARLARIDA MILLIY TARBIYA MASALALARI: AXLOQIYLIK VA KOMILLIK

Annotatsiya

Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning asarlarida milliy tarbiya, axloqiylik va komillik masalalari qanday aks etgani tahlil qilingan. Shuningdek, Boburning "Boburnoma" va she'riy asarlari asosida ma'naviy yetuklik, vatanparvarlik, halollik, sabr-toqat, xalqparvarlik singari fazilatlarning bugungi tarbiya tizimidagi dolzarbligi ochib beriladi. Bundan tashqari, tarixiy-falsafiy, badiiy va axloqiy kontekstda yozilgan bo'lib, amaliy xulosalar va ilmiy tavsiyalar bilan boyitilgan.

Tayanch so'zlar. Bobur, milliy tarbiya, axloqiylik, komillik, Boburnoma, ma'naviyat, vatanparvarlik.

В статье анализируется, как вопросы национального воспитания, нравственности и совершенства отразились в произведениях Захириддина Мухаммада Бабура. Также на основе "Бабурномы" и поэтических произведений Бабура раскрывается актуальность в современной системе воспитания таких качеств, как духовная зрелость, патриотизм, честность, терпение, народность. Кроме того, он написан в историко-философском, художественном и моральном контексте и обогащен практическими выводами и научными рекомендациями.

Ключевые слова. Бабур, национальное воспитание, нравственность, совершенство, Бабурнаме, духовность, патриотизм.

The article analyzes how Zahiriddin Muhammad Babur's works reflect issues of national upbringing, morality and perfection. The relevance of such qualities as spiritual maturity, patriotism, honesty, patience, popularism in today's system of upbringing is also revealed on the basis of Babur's "Boburnoma" and poetic works. In addition, it is written in a historical-philosophical, artistic and moral context, enriched with practical conclusions and scientific recommendations.

Key words. Babur, national upbringing, morality, perfection, Baburnama, spirituality, patriotism.

Zahiriddin Muhammad Bobur – o'z davrining buyuk sarkardasi, adibi, davlat arbobi bo'lish bilan birga, yuksak axloqiy fazilatlar, ruhiy komillik va ma'naviy tarbiyaning kuchli targ'ibotchisidir. Uning "Boburnoma" asari nafaqat tarixiy, balki axloqiy-falsafiy, milliy va estetik qadriyatlarni o'zida mujassam etgan bebaho manbadir. Bobur o'z asarlari orqali nafaqat bir sulolaning, balki butun bir xalqning milliy tarbiya tizimiga xos yondashuv va qadriyatlarini aks ettirgan. Uning hayoti va ijodida axloqiylik, halollik, vatanparvarlik, sabr-toqat, halollik, insonparvarlik, mehr-oqibat kabi tushunchalar markaziy o'rinni egallaydi.

Bobur milliy tarbiyani har bir insonning ma'naviy kamolotida bosh omil deb biladi. U o'z asarlarida insonni faqat ilm, mardlik, rostgo'ylik, sadoqat, sabr, fidoyilik orqali kamolga erishishi mumkin deb hisoblaydi. Bu jihatlar ayniqsa "Boburnoma"da yorqin namoyon bo'ladi. Unda yozuvchi nafaqat o'z harakatlari, balki o'z vaqtining ijtimoiy muammolari, axloqiy inqirozlari haqida ham teran fikr yuritadi. Misol uchun, u zolim hukmdorlar, ochko'z amaldorlar, jamiyatdagi adolatsizliklarni qoralaydi va har bir rahbar

odil, xalqparvar va pok vijdonli bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi.

Boburning axloqiy qarashlari bir necha qatlamda ko‘rinadi: avvalo, shaxsiy namuna – u o‘zini qanday tutgan, qanday hayot kechirgan, bu orqali qanday ibrat ko‘rsatgan. Ikkinchidan, u boshqalarga nisbatan qanday baho bergan: yaxshi xulq, sadoqat, o‘zaro hurmatni qanday qadrlagan va aksincha, xiyonat, xudbinlik, adolatsizlikni qanday tanqid qilgan. Uchinchi jihat – u yosh avlodga qanday vasiyatlar qoldirgan: bu bevosita milliy tarbiya mezonlariga kiradi. U o‘z o‘g‘li Humoyunga yozgan maktublarida unga ilm, donishmandlik, yurtga sadoqat, xalq bilan muomala madaniyati borasida o‘ziga xos dars bergan. Bu esa Boburning milliy tarbiya masalalarida naqadar chuqur fikrlovchi shaxs bo‘lganini isbotlaydi.

Bobur o‘z asarlarida axloqiylikni – nafaqat diniy mezonlarda, balki umuminsoniy qadriyatlar asosida baholagan. U islom axloqi doirasida halollik, kamtarlik, rostgo‘ylik, sabr, mehnatsevarlik kabi xislatlarni targ‘ib qilgan bo‘lsa-da, uni o‘z vaqtining ma’naviy-mafkuraviy kontekstidan cheklab qo‘ymagan. Ya’ni, Bobur asarlarida axloqiy fazilatlar – har bir inson uchun majburiy bo‘lgan ichki ehtiyoj sifatida tasvirlanadi. Shu bois ham uning asarlari bugungi kun tarbiyaviy tizim uchun ham dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Bobur asarlarida komillik – bu faqat ilm bilan cheklangan tushuncha emas. U ruhiy poklik, sabr, jasorat, tafakkur kengligi, mehnatga munosabat, boshqalarga nisbatan hurmat va mehr kabi xususiyatlarni jamlaydi. Bu jihatlar, albatta, bugungi milliy tarbiya tizimi uchun asos bo‘lishi mumkin. Komillik – bu Bobur uchun shaxsiy yetuklik, ichki intizom, ma’naviy barkamollikdir. Komil inson – o‘z nafsini tiygan, xalqiga sadoqatli, adolatli, vijdonli, dono bo‘lgan insondir.

“Boburnoma”dagi tarixiy lavhalarda ham axloqiy kontekst mavjud. Masalan, dushman bilan bo‘lgan munosabatlarda ham Bobur insoniylikni yo‘qotmagan, urushdan keyin asir tushganlarga nisbatan mehr ko‘rsatgan. Bu orqali u shunchaki harbiy sarkarda emas, balki olijanob, mard va komil shaxs obrazini yaratgan. Uning she’riyati ham shu ma’naviy falsafani singdiradi: Boburning g‘azal va ruboiylarida mehr, muhabbat, sabr, dunyo o‘tkinchiligi, ma’naviy poklik asosiy mavzulardan biridir.

Bobur milliy g‘urur va yurtparvarlikni tarbiyaning muhim omili deb biladi. Uning fikricha, o‘z vatanini sevgan, xalqiga xizmat qilgan, adolatli hukm yuritgan kishi chinakam kamolotga erishadi. Shu bois, u har bir rahbarni – sulton yoki lashkarboshi bo‘lishidan qat’i nazar – xalq oldida mas’ul deb bilgan. Bu bugungi kun uchun dolzarb saboqdir. Har qanday ijtimoiy lavozim egasi, ayniqsa yosh avlod vakili, xalq va vatan oldidagi mas’uliyatni anglab, o‘zini doimo komillikka intilishi kerak.

Milliy tarbiya Bobur ijodida doimiy mavzu bo‘lib, u nafaqat amaliy, balki nazariy jihatdan ham chuqur asoslangan. Uning pedagogik qarashlari – tajribaga, kuzatuvga, shaxsiy fazilatga tayangan. Bu qarashlar bugungi ta’lim-tarbiya tizimi uchun ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashda Bobur asarlaridagi ruh, falsafa, tarixiy haqiqatlar va axloqiy ibratlar bebaho manbadir.

Bobur shaxsiyatida mujassam bo‘lgan ma’naviy olam – bu milliy ong, vatanparvarlik, axloqiy yetuklik va adolatga bo‘lgan sadoqat timsolidir. Uning asarlaridan foydalanib, zamonaviy tarbiya konsepsiyasini boyitish, tarixiy qadriyatlarni qayta tiklash, komil inson idealini yoshlar ongiga singdirish bugungi dolzarb vazifalardan biridir.

Bobur ijodida milliy tarbiya tushunchasi oddiy axloqiy nasihat emas, balki butun bir xalqning tafakkuriy, ma’naviy va ijtimoiy poydevorini tashkil etuvchi omil sifatida qaraladi. Uning fikricha, har bir shaxsning komillikka erishish yo‘li tarbiyadan, aynan esa milliy ruh va qadriyatlarni anglab yetishdan boshlanadi. Bobur o‘z asarlarida ja-

miyatni isloh qilishning boshlang‘ich nuqtasi sifatida ma’rifat, axloqiy poklik va ichki intizomni ko‘rsatadi. Bu tushunchalar zamonaviy pedagogikada shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi bilan bevosita bog‘liq.

Masalan, “Boburnoma”dagi quyidagi satrlar uning axloqiy qarashlari qanday amaliy hayot bilan uyg‘unligini yaqqol ko‘rsatadi:

“Shunchaki ulusni o‘zimdin ko‘p yaxshi bilarman, ularning ko‘nglini olishdin boshqa harakat qilmadim.”

Bu yerda Bobur o‘zini xalqiga xizmat qilishga, ularning qalbini olishga, halollik va sadoqat bilan boshqaruvga e’tibor berganini bildiradi. Bu esa bugungi rahbarlik tarbiyasida ham juda muhim jihatdir — ya’ni rahbar avvalo axloqan barkamol bo‘lishi shart. Bobur o‘z zamonasining harbiy va siyosiy to‘qnashuvlari o‘rtasida yashagan bo‘lsa-da, u har bir hodisaga, qarorga va insoniy munosabatga tarbiyaviy va axloqiy mezonlar asosida yondashgan. Uning nazarida haqiqiy hukmdor – bu xalqiga mehribon, o‘ziga adolatli va bilimli insondir. U shunday yozadi:

“Podshohlik qilur erdi, lekin xalqqa zulm qilmas erdi.”

Bu so‘zlar – milliy tarbiyaning eng asosiy tamoyillaridan biri: insonparvarlik, adolat va xalq bilan mehrli munosabatni anglatadi.

Bobur shunchaki sarkarda emas edi – u ijodkor, shoir, tarixchi, muallim, bog‘bon edi. Uning turli sohalardagi bilim va faoliyati bugungi konsepsiyasiga uyg‘un tushadi. Hozirgi kunda ko‘p qirrali shaxs tarbiyasi integrallashgan ta’lim, STEAM yondashuvi, tanqidiy fikrlash, yetakchilik ko‘nikmalari kabi tushunchalarning ildizlari, aslida, Boburga o‘xshagan allomalar faoliyatida mavjud.

Milliy tarbiya Bobur asarlarida:

Boburning fikricha, shaxsning kamol topishida ota-onaning tarbiyasi, o‘z ustida ishlashi, do‘st muhitining ta’siri va eng asosiysi — vatanparvarlik ruhida ulg‘ayishi muhim ahamiyatga ega. U o‘z asarlarida xalq bilan bo‘lgan yaqinlikni ustuvor fazilat deb biladi:

“Ulusni ko‘nglidan tutmoq, har kimga lozimdur.”

Bu satr – bugungi tarbiyachilar uchun aniq yo‘nalish: o‘quvchini mehr bilan tarbiyalash, yuragiga yo‘l topish.

Axloqiylik: nazariy va amaliy jihatlari

Bobur she’riyatida axloqiy fazilatlar – halollik, sabr, poklik, rostgo‘ylik, kamtarlik – asosiy mavzular qatorida turadi. Ammo bu fazilatlar faqat so‘zda emas, uning shaxsiy hayotida ham mujassam bo‘lgan. U doim o‘zining xatolarini tan olgan, tavba qilgan, saboq olgan. Bu esa yoshlar uchun ajoyib tarbiyaviy namunadir: kamchilikni tan olishdan uyalmaslik, lekin undan o‘sish kerak. Bugungi kunda bu yondashuv — ya’ni reflektiv tarbiya, o‘z-o‘zini tahlil qilishga asoslangan rivojlanish — eng samarali metodlardan biri sifatida tan olinmoqda.

Komillik — Bobur qarashlarida:

Bobur uchun komillik bu – bilimdonlik yoki sarkardalik emas, balki ma’naviy yuksaklik, shaxsiy poklik va xalqqa sadoqatdir. U o‘z asarlarida ko‘p bor shunday degan:

“Kishi kamoliga o‘zini emas, elni rizosini asrab bilmoq bilan erur.”

Bu fikr bugungi tarbiya tizimida ijtimoiy mas’uliyat, etika va xalq manfaatini ko‘zlash degan tushunchalarning ildizi bo‘lib xizmat qiladi. Komillik faqat o‘zini emas, boshqalarni ham yuksaltirishga intilish bilan bog‘liq.

Bobur siyosiy faoliyati va tarbiyaviy yondashuvi:

Bobur Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solgach, hukmronlikni kuch bilan emas, balki xalq bilan muloqot, madaniy hamkorlik, adolatli soliq tizimi va ilm-fan

taraqqiyoti orqali mustahkamladi. Bu qarashlar bugungi fuqarolik tarbiyasi, tolerantlik, boshqaruv etikasiga to‘la mos tushadi.

U ayollar huquqi, tabiatni asrash (bog‘lar yaratish), ta’lim maskanlarini barpo qilishga katta e’tibor bergan. U barpo qilgan “Charbag‘” bog‘lari — ruhiy tarbiya, ichki totuvlik va tabiat bilan uyg‘un yashash g‘oyasining me’moriy ifodasidir. Shuningdek, Bobur o‘z asarlarida o‘z zamondoshlari va dushmanlari haqida baho berar ekan, ularning shaxsiy axloqiy sifati, xalq bilan munosabati, vijdon va adolatga munosabati asosida mulohaza bildiradi. Bu jihatlar u kishining tarbiya mezonlari aniq va qat’iy ekanini ko‘rsatadi. U kishi shaxsiy fazilatlar – mas’uliyat, bardavomlik, bag‘rikenglik va muloyimlikni juda yuqori qadrlagan. Ayniqsa, yoshlarni boshqaruv, urush, muomala va shaxsiy intizomda o‘rgatishda Boburning o‘gitlari bugungi pedagogik treninglar va liderlik darslari uchun boy manba bo‘la oladi.

Yana bir muhim jihat shundaki, Bobur komillikni faqat bir necha ijtimoiy guruhga xos emas, balki har bir kishining asosiy insoniy vazifasi deb bilgan. Unga ko‘ra, oddiy dehqon bo‘ladimi, usta bo‘ladimi yoki shoh bo‘ladimi – har kim o‘z kasbiga sadoqat bilan yondashib, halol mehnat qilish orqali komillikka erishishi mumkin. Bu tushuncha zamonaviy mehnat tarbiyasi va kasbiy axloq tamoyillari bilan uyg‘unlashadi. Boburning shaxsiy hayoti ham o‘zining aytganlariga muvofiq bo‘lganini tarixiy faktlar tasdiqlaydi. U umrining ko‘p qismini janglarda o‘tkazgan bo‘lsa-da, bilimga chanqoq, adolatparvar, ma’rifatli rahbar sifatida tarixda qoldi. Uning Hindistonga hukmronlik qilishi davrida ko‘plab madrasa, kutubxona, bog‘, saroylar qurilgan. Bu esa uning komillik va ma’naviyatga bo‘lgan intilishi amaliy harakatlarda ham ifodalanganini ko‘rsatadi. Bobur asarlarini tarbiya vositasi sifatida o‘quv dasturiga kiritish – ayniqsa, umumta’lim maktablari va pedagogika institutlarida “Boburnoma”dan namunalarni tahliliy o‘qitish orqali o‘quvchilarda milliy g‘urur, axloqiy tarbiya, liderlik salohiyatini oshirish mumkin.

Axloqiy fazilatlarni baholash mezoni sifatida foydalanish – Boburda axloqiy komillik: sabr, halollik, fidoyilik, rostgo‘ylik va kamtarlik orqali o‘lchanadi. Bu mezonlar zamonaviy ijtimoiy loyihalarda (yoshlar yetakchiligi, volontyorlik, talabalar uyushmalari) motivatsiya sifatida ishlatilishi mumkin. Rahbarlik va xizmat madaniyatida Bobur namunasi – hozirgi rahbarlar va yosh yetakchilar uchun Boburning davlat boshqaruvidagi odilona qarorlari, xalq bilan muloqotdagi muloyimligi, o‘ziga talabchanligi o‘rnak bo‘lishi mumkin. She’riyat orqali axloqiy o‘gitlarni yetkazish – Boburning g‘azal va ruboiylarida o‘ziga, vataniga, xalqiga, yaqinlariga bo‘lgan sadoqat, poklik, ma’naviy iztiroblar yorqin ifodalangan. Ularning tahlili orqali psixologik tarbiya, ijtimoiy-axloqiy tarbiya samaradorligini oshirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Boburning asarlarida aks etgan milliy tarbiya, axloqiylik va komillik g‘oyalari faqat tarixiy qimmatga ega bo‘lmay, balki bugungi zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimi uchun metodologik asos, ma’naviy negiz va milliy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bobur Z. M. (2006). Boburnoma (I. S. Majidov tarjimasi). –T.: “Yangi asr avlodi” nashriyoti.

2. Yuldashev D. (2015). Bobur va uning ijtimoiy-siyosiy qarashlari. –T.: “O‘qituvchi” nashriyoti.

3. Ismailov R. (2012). Bobur va uning adabiy merosi. –T.: “Ma’naviyat” nashriyoti.

Muxabbat XALILOVA,
Navoiy davlat universiteti, "Pedagogika-psixologiya" kafedrasi dotsenti,
(p,f,n)

"ERASMUS MUNDUS" (EMJM) DASTURI UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA INSON KAPITALINI TA'MINLASHNING HAMKORLIK MEXANIZMI SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada Mobillik – Erasmus+ dasturi talabalar, doktorantlar, o'qituvchilar va boshqa universitet xodimlarining mobilligini tashkil etish orqali tajriba almashish va malaka oshirish, o'qish va o'qitish uchun keng imkoniyatlarning xalqaro yo'nalishi sifatida talqin etilganligi haqida fikrlar yuritilgan. Shuningdek, mobillik qatnashchilari tomonidan to'plangan tajriba O'zbekiston Oliy ta'lim faoliyatida muhim ko'makchi xalqoro tizimning jahon standartlariga javob berishligi, muallif tomonidan ilmiy izlanishlari asosida tatbiq etilganligi kabi masalalar muhokama qilingan.

Tayanch so'zlar. Eramus Mundus, Eramus+, Tempus, Alfa, Edulink, internatsionalizatsiyalash, investitsia, integratsiya.

В данной статье подчеркивается, что программа "Мобильность - Erasmus+" интерпретируется как международное направление широких возможностей для обмена опытом и повышения квалификации, обучения и преподавания путем организации мобильности студентов, докторантов, преподавателей и других сотрудников университета. Также обсуждены вопросы, связанные с тем, что накопленный участниками мобильности опыт является важным вспомогательным в деятельности высшего образования Узбекистана, отвечающим мировым стандартам международной системы, внедренным автором на основе научных исследований.

Ключевые слова. Eramus Mundus, Eramus+, Tempus, Alfa, Edulink, internationalizatsiyalash, investitsia.

In this article, it is emphasized that the "Mobility - Erasmus+" program is interpreted as an international direction of broad opportunities for the exchange of experience and professional development, training and teaching by organizing the mobility of students, doctoral students, teachers, and other university staff. The issues related to the fact that the experience gained by participants in mobility is an important support in the activities of higher education in Uzbekistan, meeting the world standards of the international system, implemented by the author based on scientific research, were also discussed.

Key words. Eramus Mundus, Eramus+, Tempus, Alfa, Edulink, internationalization, investitsia.

Ko'hna Samarqand shahrida Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi davlatlari rahbarlarining global muommolarni hal etilishiga qaratilgan 4-5-aprel, hamkorlik ishlari Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida qo'shni sheriklikning asosiy strategik hamkorlik jihatlari sifatida e'tirof etildi. Sammitda ta'lim, iqtisodiyot, xavfsizlik va barqaror rivojlanishning bugungi va ertangi kun uchun ahamiyatli olamshumul masalalarning hal etilishi tarixiy birlikni yuzaga kelishiga va kelajak avlod oldidagi davlatlararo vazifaning global ustuvorligidan dalolat beradi.

Darhaqiqat, davlatimiz rahbari prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning nutqida ham "Inson kapitaliga kiritilayotgan sarmoyalar Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi

o‘rtasida ta’lim va madaniy hamkorlikni rivojlantirish uchun keng istiqbollarni ochadi”, kabi ma’ruzalari uzluksiz ta’lim tizimida inson kapitalini ta’minlashning hamkorlik dasturlaridan biridir.

Bozor iqtisodiyotidan kelib chiqib ta’lim, raqamlashtirish va ish o‘rinlari yaratish aholini qashshoqlik muhitidan olib chiqishida va turmush darajasini yaxshilab ertangi kunga to‘g‘ri va tizimli fikr yuritishga olib keladi.

Tizimli sarmoya kiritish, uzluksiz ta’lim tizimida inson kapitalini ta’minlash va zamonaviylashtirish bilan birgalikda, mintaqaning yosh aholisi iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy, ma’daniy, siyosiy etnik jihatdan rivojlantirib aholigining intelliktual savodxonligini o‘sishning harakatlantiruvchi kuchiga aylanishi tabiiy hol albatta.

Ushbu sa’y-harakatlardan tashqari, Markaziy Osiyo davlatlarining Erasmus+ kabi Yevropa Ittifoqining ta’lim tashabbuslarida ishtirok etishi hamkorlikning samaradorligi va mintaqalar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga qo‘shgan hissasini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Erasmus+ dasturi 7 ta dasturlarni o‘z ichiga qamrab oladi:

– Uzluksiz ta’lim dasturi (Erasmus, Leonardo da Vinci, Comenius, Grundtvig va Jean Monnet).

– Yoshlar yo‘nalishi dasturi;

– 5 ta xalqaro hamkolik dasturlari (Tempus, Erasmus Mundus, Alfa, Edulink, sanoati rivojlangan mamlakatlar bilan hamkorlik dasturi);

– Sportni rivojlantirish dasturi;

Ushbu dasturning turli yo‘nalishlari bo‘yicha Yevopa davlatlari va Hamkor davlatlar o‘rtasida hamkorlik o‘rnatish va uni moliyalashtirish imkoniyatini beradi.

Erasmus+ xalqaro targ‘ibotni (Hamkor davlatlar bilan hamkorlik), xususan oliy ta’lim va yoshlar yo‘nalishlarni o‘z ichiga qamrab olgan.

Oliy ta’lim sohasida Erasmus+ Hamkor davlatlar bilan hamkorlik qilishga qaratilgan quyidagi asosiy yo‘nalishlarni qo‘llab-quvvatlaydi:

1. Jismoniy shaxslar uchun xalqaro kredit safarbarligida (ES) va Erasmus Mundus Qo‘shma Magisterlik Dasturi (EMJMD), (Key Action 1) Hamkor-davlatlar va Yevropa davlatlar universitetlari o‘rtasida talabalar, professor-o‘qituvchi va xodimlarning safarbarliklarini qo‘llab-quvvatlaydi;

2. Oliy ta’limda salohiyatni oshirish (CBHE), (Key Action 2) yo‘nalishi bo‘yicha Hamkor-davlatlar oliy ta’lim muassasalarning zamonaviyalshtirilishiga va internatsionalizatsiyalashiga hamda oliy ta’lim tizimning ma’lum bir darajada ta’sir etish. Shuningdek, Yevropa Ittifoqiga qo‘shni Hamkor davlatlar asosiy urg‘u beriladi.

Ushbu yo‘nalish Yevropa Ittifoqiga qo‘shni davlatlar, Xalqaro bitiruvchilar assotsiatsiyalar va Hamkor davlatlar o‘rtasida Oliy ta’lim sohasida faoilyat olib borayotgan Milliy ekspertlar komandasi (HEREs), (Key Action 3) siyosiy muloqot olib borishni qo‘llab-quvvatlaydi1;

Jean Monnet dasturining asosiy maqsadi butun dunyo bo‘ylab Yevropa Ittifoqi tadqiqotlar sohasida ta’lim, ilmiy-tadqiqot faoliyatini targ‘ib etish va rag‘batlantirishdan iborat.

Dastur-davlatlari: Erasmus+ dasturining barcha yo‘nalishlari bo‘yicha to‘liq ishtirok etishi mumkin bo‘lgan davlatlar: Yevropa Ittifoqiga a'zo 28 davlatlar va 5 Yevropa Itti-

[1] https://nuz.uz/2025/04/05/uzbekistan-vystupaet-za-rasshirenie-sotrudnichestva-s-esv-sfere-razvitiya-chelovecheskogo-kapitala-v-czentralnoj-azii/

foqiga a'zo bo‘lmagan davlatlar (Makedoniya (sobiq Yugoslav Respublikasi), Islandiya, Lixtenshteyn, Norvegiya va Turkiya).

Hamkor davlatlar esa dasturning ma’lum yo‘nalishlar bo‘yicha ishtirok etishlari mumkin, ular quyidagilar Sharqiy Yevropa, Janubiy O‘rta yer dengizi mamlakatlari, G‘arbiy Bolqon, Rossiya Federatsiyasi va Markaziy Osiyo davlatlari.

Dasturiy davlatlar	Yevropa ittifoqiga a’zo 28 davlat va Islandiya, Lixtenshteyn, Norvegiya, Shimoliy Makedoniya Respublikasi, Turkiya, Serbiya
Hamkor davlatlar	Butun duyoda barcha mamlakatlar (shu jumladan O‘zbekiston)

Erasmus Mundus dasturi doirasida Markaziy Osiyodan kelgan talabalarga 250 dan ortiq magistratura stipendiyalari ajratilgani, mintaqadagi oliy o‘quv yurtlari ishtirokida 69 ta qo‘shma loyihaning amalga oshirilayotgani jahon ta’lim makoniga integratsiyalashuv darajasi oshib borayotganidan dalolatdir.

Erasmus Mundus — (англ. Erasmus Mundus) Yevropa Ittifoqi tomonidan Yevropa va butun dunyo o‘rtasidagi akademik hamkorlikni moliyalashtirish orqali Yevropalik talabalarning harakatchanligini oshirish va oliy ta’lim sifatini oshirish maqsadida yaratilgan talabalar almashinuv dasturi. Erasmus dasturidan farqli o‘laroq, Erasmus Mundus nafaqat Yevropa Ittifoqi fuqarolari uchun mavjud, butun dunyo ta’lim tizimida o‘zining keng imkoniyatlari bilan ajralib turadi.

Dastur uch yo‘nalishda amalga oshirilmoqda:

1-grantlar bilan qo‘shma magistratura va doktorlik dasturlari

2-universitet hamkorligi;

3-Yevropa oliy ta’limining jozibadorligini oshirish[2].

Har yili dastur ma’lum miqdordagi talabalarning ta’limini moliyalashtiradi. Grantlar va stipendiyalar o‘qish, tibbiy sug‘urta, turar joy va qabul qiluvchi mamlakatga sayohat xarajatlarini qisman yoki to‘liq qoplashi mumkin.

Dastur bakalavriat, magistratura, aspirant va o‘qituvchilar uchun ochiq.

Mundus kichik dasturi Yevropa Ittifoqi va boshqa davlatlar, jumladan, Rossiya o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va universitet hamkorligini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Masalan, dastur Rossiya aspiranturasi va PhD talabalariga Yevropa universitetlarida olti oylik amaliyot, tadqiqot va akademik dasturlarda qatnashish uchun stipendiyalar taqdim etadi[3].

Erasmus Mundus Yevropa universitetlarini dunyoning boshqa mintaqalaridagi ta’lim muassasalari bilan birlashtiradi. Dunyoning istalgan davlatidagi universitetlar rasmiy veb-saytda ariza to‘ldirish orqali dasturga qo‘shilishlari mumkin[4].

Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston Prezidentining Erasmus+ dasturi doirasida mintaqa davlatlari uchun maxsus kvotalar joriy etish to‘g‘risidagi taklifi strategik ahamiyatga ega.

U o‘z mamlakatlarining barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shishga qodir bo‘lgan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, shuningdek, Markaziy Osiyoning ta’lim va

[2] http://www.tempus-russia.ru/erasm.htm Архивная копия от 25 августа 2012 на Wayback Machine Национальный офис Темпус в РФ

[3] Агентство Социальной Информации (недоступная ссылка)

[4] Ukraine: EU agrees fifth package of restrictive measures against Russia (англ.). Euporean Commission (8 апреля 2022). Дата обращения: 8 апреля 2022. Архивировано 9 апреля 2022 года.

ilm-fan sohasida Yevropa Ittifoqining asosiy hamkori sifatidagi rolini kuchaytirishga qaratilgan.

Bunday yondashuv nafaqat kadrlar taqchilligi muammosini hal etishga, balki bilim va tajriba almashish orqali hududlar o‘rtasidagi uzoq muddatli aloqalarni mustahkamlaydi.

Markaziy Osiyo va Yevropa o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashda. “Horizon 2020” va “Horizon Europe” dasturlari doirasida viloyatning 62 ta tashkiloti ishtirokida 42 ta loyiha amalga oshirilib, 2,28 million yevro miqdorida mablag‘ olindi. Hamkorlikni yanada kengaytirish maqsadida O‘zbekiston Prezidenti sammitda mamlakatda Horizon Europe dasturining ofisini ochishni taklif qildi. Tashabbus sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar va raqamli texnologiyalar kabi sohalarda hamkorlikda tadqiqotlar o‘tkazish uchun platforma yaratishga qaratilgan. Ushbu taklifning amalga oshirilishi Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan ilmiy va ta’lim sohasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi, shuningdek, kirish orqali mintaqaning raqobatbardoshligini oshiradi ilg‘or bilim va texnologiyalarga.

Madaniy-gumanitar aloqalarning faollashuvi til, din va urf-odatlardagi farqlarga qaramay, Markaziy Osiyo va Yevropa xalqlarining yaqinlashishiga xizmat qilmoqda. Har ikki tomonning qadimiy sivilizatsiyalar va jahon Uyg‘onish davri shakllanishiga umumiy hissasi bor, bu o‘zaro manfaatdorlik va hamkorlik uchun mustahkam zamin yaratadi.

Yevropa ustalari bilan birgalikda “Lazgi. Ruh va muhabbat raqsi” baletining sahnalashtirilgani ana shunday o‘zaro ta’sirning yorqin namunalaridan biri bo‘ldi. YUNESKO ning insoniyatning nomoddiy merosi ro‘yxatiga kiritilgan ushbu qadimiy Xorazm raqsi jahonning yetakchi sahnalarida namoyish etilib, mintaqa madaniyati boyligini namoyon etmoqda. Xalqaro hamjamiyatning Markaziy Osiyo tarixi va san’atiga bo‘lgan qiziqishini madaniy meros ko‘rgazmalari ham tasdiqlaydi.

Luvr, Berlin Neues muzeyi va Vena Weltmuseum. Bu faoliyatlar tarixiy merosni asrab-avaylash va turizmni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslar bilan qo‘llab-quvvatlanadi, masalan, YUNESKO ning “Ipak yo‘li koridorlari” loyihasi Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtiriladi.

O‘zbekiston rahbariyatining sa’y-harakatlari tufayli madaniy merosni jahon miqyosida targ‘ib qilish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shavkat Mirziyoyev bunday tashabbuslarning xalqaro aloqalarni mustahkamlashdagi strategik o‘rnini alohida ta’kidladi. Samarqandda bo‘lib o‘tadigan YUNESKO Bosh konferensiyasi Markaziy Osiyo boyliklarini xorijiy hamkorlarga taqdim etish va mintaqani sivilizatsiyalar muloqoti markazi sifatida ilgari surishda muhim voqea bo‘ladi.

Prezident “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” birinchi turizm forumi o‘tkazilishini ham ma’lum qildi. Buxoroda. Forum Yevropa Ittifoqi tajribasidan foydalangan holda Markaziy Osiyo mamlakatlari sayyohlik yo‘nalishlarini integratsiyalashga qaratilgan “Bir tur – butun hudud” konsepsiyasini amalga oshirish masalalarini muhokama qilish maydonchasiga aylanadi. Asosiy maqsadlarga sayohatchilar uchun viza rejimini soddalashtirish va mintaqaviy hamkorlikning muhim elementi sifatida turizmni rivojlantirish kiradi. Ushbu tashabbuslar O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlikda strategik yondashuvini ta’kidlaydi, bu madaniy almashinuvlarni mustahkamlash, turizmni rivojlantirish va barqaror o‘sishni ta’minlashga qaratilgan. Shunday qilib, Samarqand sammiti Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish, iqtisodiy, ta’lim va madaniy tashabbuslarni mintaqani barqaror rivojlantirishning yagona strategiyasiga birlashtirish uchun mustahkam poydevor yaratdi.

Erasmus+ bu ta’lim, professional ta’limni rivojlantirish, yoshlarni komolatga yetkazish va sportni rivojlantirish sohalari bo‘yicha Yevropa Ittifoqining dasturidir. Ushbu

dastur yuqorida keltirilgan sohalar bo‘yicha Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlar va hamkor davlatlar bilan aloqalarni rivojlantirish maqsadida moliyalashtiriladi.

Eramus+ dasturi (2014-2020) Vevropa Ittifoqiga a’zo davlatlar turli sohalarda, ayniqsa oliy ta'lim sohasida keng va chegaralanmagan hamlorlikning ahamiyatliligi bilan ajralib turadi. Ushbu dastur Yevropa Ittifoqining oliy ta’limga oid Tempus va Eramus Mundus dasturlarining tajribasi va muvaffaqiyatiga tayanadi.

Dastur talabalar, ilmiy xodim va o‘qituvchilar o‘zaro almashuvi hamda oliy ta’lim muassasalari uchun bir qator imkoniyatlarni taklif etadi.

Xulosa qilib aytganda zamonaviy internatsionalizm asosida olib borilayotgan dasturlar o‘zining amaliy ahamiyatliligi bilan qo‘yidagi jarayonlarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

1- dunyo standartlariga javob berib kadrlarning professional jihatdan tajriba almashish;

2- imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi;

3- strategik fikr yuritish, mustaqil qarorlar qabul qilish;

4- erkim muloqat maydoniga ega bo‘lish;

5- do‘stona sheriklikning etnik madaniyatini qaror toptirish;

6- o‘z ustida tinimsiz mehnat qilish, til o‘rganish;

7- qardosh xalqlarning etnopsixologik xususiyatlaridan kelib chiqib ta’limiy yondashish;

8- hamkorlikda ilmiy tadqiqot va ilmiy loyihalarni amalga oshirish;

9- grantlarni qo‘lga kiritish kabi yutuqlarga ega bo‘lishadi;

10- oliy ta’lim muassasalarning zamonaviyalshtirilishiga va internatsionalizatsiyalashiga yordam beradi

Bu esa o‘z navbatida bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyatni barpo etishda yuqori zamon talablari va standartlariga javob beradigan professional kasblarni shakllanishiga olib keladi. Jamiyatda tizimlilik, integratsiya, innovatsiya, internotsionalizmning rivojlanishi qashshoqlik, ishsizlik, boqimandalik kabi illatlarning oldi olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://ru.wikipedia.org/wiki BB:Holbein-erasmus4.jpg.

2. http://www.tempus-russia.ru/erasm.htm Архивная копия от 25 августа 2012 на Wayback Machine Национальный офис Темпус в РФ.

3. Агентство Социальной Информации (недоступная ссылка)

4. Ukraine: EU agrees fifth package of restrictive measures against Russia (англ.). Euporean Commission (8 апреля 2022). Дата обращения: 8 апреля 2022. Архивировано 9 апреля 2022 года.

5.https://nuz.uz/2025/04/05/uzbekistan-vystupaet-za-rasshirenie-sotrudnichestva-s-esv-sfere-razvitiya-chelovecheskogo-kapitala-v-czentralnoj-azii/.

6. https://www.inys.org/erasmus-mundus-scholarship-programme/

7. https://asiaplustj.info/ru/news/tajikistan/society/20241009/12-programm-dlya-besplatnoi-uchebi-v-csha-yaponii-velikobritanii-germanii-i-ne-tolko.

Rishad BADAYEV,
"Zarmed universiteti" nodavlat oliy ta'im muassasasi (Samarqand kampusi),
"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi, o'qituvchi
Norbek MAMADIYOROV,
"Zarmed universiteti" nodavlat oliy ta'im muassasasi (Samarqand kampusi),
"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi, o'qituvchi, (PhD)

JISMONIY TARBIYANING MEHNAT UNUMDORLIGIGA TA'SIRI: KORXONA VA TASHKILOTLARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada jismoniy tarbiyaning mehnat unumdorligiga ta'siri tahlil qilinadi va tadqiqotda iqtisodiyot, psixologiya, tibbiyot, menejment va ijtimoiy fanlar nuqtayi nazaridan yondashuvlar keltirilgan. Shuningdek, ilmiy manbalarga asoslanib, jismoniy faollikning ish samaradorligini oshirishdagi o'rni, stressni kamaytirish, jamoaviy birdamlikni kuchaytirish va kasallanish darajasini pasaytirishdagi ijobiy ta'siri yoritilgan. Muallif ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida sport dasturlarini joriy qilish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish mumkinligi ilmiy dalillar bilan asoslab berilgan.

Tayanch so'zlar. Mehnat unumdorligi, sport, sport dasturlari, jismoniy faollik, jamoaviy birdamlik, kasallanish darajasi.

В статье анализируется влияние физического воспитания на производительность труда, а в исследовании представлены подходы с точки зрения экономики, психологии, медицины, менеджмента и социальных наук. Также на основе научных источников освещается роль физической активности в повышении производительности труда, ее положительное влияние на снижение стресса, укрепление сплоченности команды и снижение заболеваемости. Автор обосновывает научными данными, что экономическую эффективность можно повысить за счет внедрения спортивных программ в производственном и сервисном секторах.

Ключевые слова. Производительность труда, спорт, спортивные программы,Физическая активность, сплоченность коллектива, уровень заболеваемости.

The article analyzes the impact of physical education on labor productivity, and the study presents approaches from the point of view of economics, psychology, medicine, management and Social Sciences. Also, based on scientific sources, the role of physical activity in improving performance is highlighted, as well as the positive effects of stress reduction, strengthening collective cohesion and lowering morbidity. The author substantiates with scientific evidence that it is possible to increase economic efficiency by introducing sports programs in the fields of production and service.

Key words. Labor productivity, sports,sports programs, physical activity, collective solidarity, morbidity.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek, sog'lom xalq, sog'lom millatgina buyuk ishlarga qodir bo'ladi. Shu boisdan Prezidentimiz rahnamoligida yosh avlodning har tomonlama barkamol bo'lib yetishish uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Shu bilan bir qatorda mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning ijodiy-intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishi, mamlakatimiz yigit-qizlarini XXI asr talabalarga to'liq javob beradigan, har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur.

Zamonaviy iqtisodiyotda korxonalar va tashkilotlarda mehnat unumdorligini oshirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Mehnat unumdorligiga ko‘plab omillar ta’sir ko‘rsatadi, ulardan biri jismoniy tarbiya va sog‘lom turmush tarzidir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muntazam jismoniy mashqlar insonning aqliy va jismoniy salohiyatini oshirish bilan birga, samaradorlikni ham yuqori darajada saqlab qolishga yordam beradi.

Mehnat unumdorligi – ishlab chiqarish jarayonida kishilar mehnatining foydaliligi, samaradorligi va mahsuldorligi; Mehnat unumdorligi ishlovchining ma’lum vaqt birligi (soat, smena, oy, yil) ichida tayyorlagan mahsulot hajmi bilan o‘lchanadi. Mehnat unumdorligi tarmoqlari va korxonalarda mehnat unumdorligi yalpi yoki sof mahsulot asosida hisoblanadi. Yillik mahsulot hajmini o‘rtacha ishlovchilar soniga bo‘lish orqali bir ishlovchi hisobiga yaratilgan mahsulot aniqlanadi.

Mehnat unumdorligining o‘sishi mahsulot birligini ishlab chiqarishda mehnat sarfining kamayishi demakdir. Mehnat unumdorligi yuqori bo‘lsa, jamiyat har bir xodim hisobiga ko‘proq mahsulot tayyorlash, binobarin, o‘zining o‘sib borayotgan ehtiyojlarini to‘laroq qondirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Mehnatning asosiy kapital bilan ta’minlanishini yaxshilash, fantexnika taraqqiyoti yutuqlari va yangi texnologiyani joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, xodimlarning malakasini va texnik tayyorgarlik darajasini, madaniyatini, ma’lumotini oshirish mehnat unumdorligi o‘sishining eng muhim omillaridandir.

Jismoniy tarbiya mehnat unumdorligiga bir necha jihatdan ta’sir qiladi. Tadqiqotlarga ko‘ra, muntazam jismoniy mashqlar inson salomatligini mustahkamlash bilan birga, ish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Masalan, J.Anderson tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda jismoniy tarbiya dasturlarini joriy etgan kompaniyalarda xodimlarning samaradorligi 15-20 foizga oshgani aniqlangan. T.Muller esa korxonalarda sog‘lom turmush tarzi strategiyalarini qo‘llash natijasida ish unumdorligi va motivatsiya darajasining sezilarli darajada oshganini ta’kidlaydi. P.Johnson o‘tkazgan tadqiqotda sog‘lom turmush tarzini yo‘lga qo‘ygan kompaniyalarda ishchilarning kasallik ta’tillari soni 30foizga kamayganligi aniqlangan. Smith R. esa jismoniy mashg‘ulotlarning diqqat, qaror qabul qilish tezligi va kreativlikka ta’sirini o‘rgangan bo‘lib, u o‘z tadqiqotida sport bilan shug‘ullanuvchi xodimlarning analitik fikrlash qobiliyati 25 foizga oshishini aniqlagan. Shuningdek, O‘zbekistonda olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, sport bilan muntazam shug‘ullanuvchi ishchilar kasbiy charchoqni kamroq his qilishadi va ish faoliyatida yuqori natijalarga erishishadi.

– jismoniy faoliyatning ish samaradorligiga ta’siri quyidagicha namoyon bo‘ladi:

– stress darajasini kamaytiradi va ruhiy barqarorlikni saqlashga yordam beradi;

– ish jarayonida e’tibor va konsentratsiyani oshiradi;

– mehnat qobiliyatini uzoq muddat saqlab qolishga ko‘maklashadi;

– xodimlarning umumiy salomatligini yaxshilaydi va kasallik sababli yo‘qotilgan ish vaqtini kamaytiradi;

– jamoaviy birdamlik va korporativ madaniyatni rivojlantiradi.

Bu borada O‘zbekistonda olimlari jismoniy tarbiya va sog‘lom turmush tarzining mehnat unumdorligiga ta’siri bo‘yicha quyidagi ilmiy fikrlarni ilgari surganlar. Ularning tadqiqotlari turli dalillar va statistik ma’lumotlar bilan mustahkamlangan.

Olimlarimizdan A. Karimov o‘z ilmiy tadqiqotida jismoniy tarbiyaning inson fiziologik va psixologik holatiga ijobiy ta’sirini ta’kidlaydi. Uning tadqiqotlariga ko‘ra, jismoniy faoliyat bilan muntazam shug‘ullanuvchi xodimlarning mehnat unumdorligi 12-15 foizga oshadi.

B. Tursunov muntazam sport mashg‘ulotlari ish samaradorligini oshirishi va kasbiy charchoqni kamaytirishini qayd etadi. U o‘z tadqiqotida jismoniy faollik bilan shug‘ullanuvchi ishchilarning 80 foizi kamroq stress his qilishini aniqlagan.

Sh. Mirzayev jismoniy faollikning ish joylarida ishchilar orasida ijtimoiy faollik va jamoaviy birdamlikni mustahkamlashga yordam berishini o‘z tadqiqotlarida ko‘rsatadi. U tomonidan 50 ta korxonada o‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sport mashg‘ulotlari tashkil qilingan jamoalarda mehnat unumdorligi 10 foizga oshgan.

X. Norboyev sportning korxonalar samaradorligi bilan bog‘liq jihatlarini tahlil qilib, bu sohada xalqaro tajribani o‘rganishga e’tibor qaratgan. U kompaniyalar rahbarlari bilan suhbatlar asosida jismoniy faollikka rag‘batlantirilgan jamoalarda ish sifati yaxshiroq bo‘lishini tasdiqlagan.

D. Rasulov sog‘lom turmush tarzi targ‘iboti va xodimlarning jismoniy tayyorgarligi darajasining kompaniya iqtisodiy ko‘rsatkichlariga ta’sirini o‘rganib chiqadi. Uning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, sog‘lom turmush tarzini joriy qilgan korxonalarda xodimlarning ishga kelish ko‘rsatkichi 7-10 foizga yaxshilangan.

Shu o‘rinda, jismoniy tarbiyaning mehnat unumdorligiga ta’siri bo‘yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar mavjud bo‘lib, ko‘plab xorijlik olimlarimiz ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. AQShlik olim J. Anderson kompaniyalardagi jismoniy mashqlar dasturlarining ish samaradorligiga ijobiy ta’siri borligini tahlil qiladi. Uning tadqiqotlariga ko‘ra, muntazam jismoniy mashqlar ishchilarning energiya darajasini oshirish, stressni kamaytirish va jamoaviy ishlash qobiliyatini yaxshilash orqali samaradorlikni 15-20 foizga oshirgan.

Buyuk Britaniyalik olim R. Smith jismoniy faollikning kognitiv qobiliyat va qaror qabul qilish jarayonlariga ta’sirini o‘rgangan. Uning tadqiqotlari natijasida muntazam jismoniy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanuvchi xodimlarning analitik fikrlash qobiliyati 25 foizga oshgani aniqlangan.

Xitoyda esa, L. Wangish joylarida sport zaliga ega bo‘lgan va jismoniy mashg‘ulotlar uchun vaqt ajratilgan kompaniyalarda mehnat unumdorligi 18 foizga oshishini aniqlagan. Shuningdek, u stressga chidamlilik va motivatsiyaning yuqori bo‘lishi jismoniy faollik bilan bog‘liqligini ta’kidlagan.

Germalik tadqiqotchi T. Muller sog‘lom turmush tarzi strategiyalarini joriy etgan kompaniyalarning iqtisodiy samaradorligi oshganini ta’kidlaydi. U Germaniyaning yirik sanoat korxonalari misolida jismoniy faollikka yo‘naltirilgan dasturlar ish sifati va ishlab chiqarish ko‘rsatkichlariga qanday ta’sir qilishini o‘rganib chiqqan.

Kanadalik P. Johnsonish joylarida jismoniy faollikni oshirish bo‘yicha dasturlar natijalarini tahlil qilgan va bu orqali xodimlarning kasallik ta’tillarini kamaytirish mumkinligini ko‘rsatgan. Uning tadqiqotlariga ko‘ra, sog‘lom turmush tarzini rag‘batlantiruvchi kompaniyalarda xodimlarning kasallik sababli yo‘qotilgan ish kuni 30 foizga kamaygan.

Jismoniy tarbiyaning mehnat unumdorligiga ta’siri bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sog‘lom turmush tarzi ishlab chiqarish jarayonlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Anderson kompaniyalardagi jismoniy mashqlar dasturlarining ish samaradorligini 15-20 foizga oshirganini aniqlagan. Smith esa jismoniy faollikning kognitiv qobiliyat va qaror qabul qilish jarayonlariga ta’sirini o‘rganib, xodimlarning analitik fikrlash qobiliyati 25 foizga oshishini qayd etgan. Wang tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, ish joylarida sport zaliga ega bo‘lgan kompaniyalarda mehnat unumdorligi 18 foizga oshgan. Shuningdek, Muller korxonalarda sog‘lom turmush tarzi strategiyalarini joriy etish samaradorlikni oshirishini ta’kidlaydi. Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, jismoniy

faollik nafaqat individual xodimlarning samaradorligini oshiradi, balki kompaniyaning umumiy iqtisodiy natijalariga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, xalqaro miqyosda ko‘plab korxonalar xodimlar uchun fitness dasturlari va jismoniy faollik mashg‘ulotlarini yo‘lga qo‘ygan. Masalan, Google va Microsoft kabi global texnologiya kompaniyalari xodimlari uchun sport inshootlari va sog‘lom turmush tarzini rag‘batlantiruvchi dasturlarni taklif etadi. Bu esa xodimlarning mahsuldorligini oshirish bilan birga, ularning motivatsiyasi va umumiy farovonligini ham yaxshilaydi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, jismoniy tarbiya va sog‘lom turmush tarzi mehnat unumdorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muntazam jismoniy faollik ishchilarning energiya darajasini oshiradi, stressni kamaytiradi, ijtimoiy faollik va jamoaviy birdamlikni kuchaytiradi. Bu esa o‘z navbatida korxona va tashkilotlarning umumiy samaradorligiga ijobiy ta’sir qiladi. Jismoniy mashqlarni ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalariga tatbiq etish orqali iqtisodiy natijalarni yaxshilash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov A. Jismoniy tarbiya va inson salomatligi. –T.:O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 2020 y.

2. Tursunov B. Sport mashg‘ulotlarining ish unumdorligiga ta’siri. –T.: Fan va texnologiya. 2018 y.

3. Mirzayev Sh. Jismoniy faollik va ijtimoiy birdamlik. Samarqand: Ilm-fan nashriyoti. 2019 y.

4. Norboyev X. Korxonalarda sport va samaradorlik. Buxoro: Iqtisodiyot va innovatsiyalar. 2021 y

5. Rasulov D. Sog‘lom turmush tarzi va mehnat unumdorligi. –T.: Ma’naviyat nashriyoti. 2022 y.

6. Anderson J. Physical Exercise and Work Efficiency. New York: Oxford University Press. 2017 y.

7. Smith R. Cognitive Benefits of Exercise. London: Cambridge University Press. 2019 y.

8. Wang L. Workplace Fitness and Productivity. Beijing: China Economic Press. 2020 y.

9. Muller T. Corporate Wellness Strategies. Berlin: Springer. 2021 y.

10. Johnson P. Reducing Sick Leave through Exercise. Toronto: University of Toronto Press. 2022 y.

Abbosbek XURSHIDBEKOV,
Andijon davlat pedagogika instituti, tayanch doktorant

TALABALARINING FANLARNI O‘ZLASHTIRISHIDA AUDITORIYADAN TASHQARI SPORT MASHG‘ULOTLARINING AHAMIYATI (Sportning erkin kurash turi misolida)

Annotatsiya

Maqolada oliy ta’lim muassasalari talabalarining fanlarni o‘zlashtirishiga sport mashg‘ulotlarining ta’sirini auditoriyadan tashqari erkin kurash sport turi mashg‘ulotlari misolida o‘rganish borasida dunyoda olib borilayotgan ishlarning samaradarligi yoritilgan. Shuningdek, erkin kurashchilarning musoaqalarda ishtirok etishi, ayniqsa kurashchilarning musobaqalardagi ishtiroki, sportchilarni tayyorlashdagi bir qator tashkiliy va metodik muammolarni keltirib chiqarmoqda, bunday muammolar shug‘ullanuvchilarning yuqori xalqaro arenalarda mahoratini ko‘rsatib berishga halaqit berayotganligi namoyon bo‘lganligi haqida keng muhokamalar yuritilgan.

Tayanch so‘zlar. Erkin kurash, kurash usullari, saralash (selektsiya), ta’lim komponentlari, seksiya, funksional tayyorgarlik, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy tarbiyalash, jismoniy sifatlar,vegetativ,adekvat, jismoniy barkamollik, kriminogen muhit.

В статье освещена эффективность проводимой в мире работы по изучению влияния спортивной подготовки на усвоение дисциплины студентами высших учебных заведений на примере внеаудиторной спортивной тренировки по вольной борьбе. Также широко обсуждалось, что участие борцов вольного стиля в соревнованиях, особенно участие борцов в соревнованиях, порождает ряд организационно-методических проблем в подготовке спортсменов, которые проявляются в том, что такие проблемы мешают спортсменам продемонстрировать свое мастерство на высоких международных аренах.

Ключевые слова. Вольная борьба, методы борьбы, отбор, образовательные компоненты,секция, функциональная подготовка, физическая подготовка, физическая подготовка, физические качества, вегетативный, адекватный, физическая подготовленность, криминогенная среда.

The article covers the effectiveness of the work carried out in the world on the study of the impact of sports training on the assimilation of subjects by students of higher educational institutions on the example of free wrestling sports training in addition to the audience. Also, the participation of freestyle wrestlers in the competitions, especially the participation of wrestlers in competitions, poses a number of organizational and methodological problems in the training of athletes, there has been widespread discussion about the manifestation of such problems that practitioners are still giving an indication of their skill in high international arenas.

Key words. Freestyle wrestling, wrestling methods, selection, educational components, section, functional training, physical training, physical education, physical qualities, vegetative, adequate, physical fitness, criminogenic environment.

Respublikamizda pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining fanlarni o‘zlashtirishiga sport mashg‘ulotlarining ta’sirini auditoriyadan tashqari erkin kurash sport turi mashg‘ulotlari misolida o‘rganildi va erkin kurash bo‘yicha ishlab chiqilgan dasturlar tahlil qilindi, dasturda umumrivojlantiruvchi mashq-

lar texnik-taktik mashg‘ulotlar tarkibini kamaytirish tartibi keltirilgan bo‘lib, bu vaqtda ko‘pincha talabalarda kechroq yuzaga keluvchi jismoniy rivojlanishga emas, balki ta’lim komponentlarini olish uchun seksiyalarda shug‘ullanishga e’tibor qaratilgan. Oliy ta’lim muassasalari uchun ishlab chiqilgan dastur tuzilishida erkin kurashi bo‘yicha boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichlarida kurash usullarini o‘zlashtirish uchun boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida kurash usullarining hajmini, texnik-taktik tayyorgarlik guruhlari va sport takomillashuvi guruhlari uchun texnik-taktik tayyorgarlik bo‘limi bo‘yicha o‘quv materialining to‘liq va tizimli bayonini ham nazarda tutilmagan. Shuningdek, dasturda o‘qituvchi murabbiylarning faqat subyektiv tajribasiga asoslanishiga majbur qiladi, o‘qituvchi murabbiyning asosiy mashg‘ulot turiga mos bo‘lgan tayyorgarlikning borishi borasida samarali nazoratni tashkil etish uchun yo‘nalishlardan mahrum qilmoqda. Bundan tashqari, joriy sport natijalari a’lo bo‘lgan istiqbolli sportchilarning faoliyat turiga qiziqishini yo‘qolishi erkin kurash seksiyalardan ketish holatlari qayd etildi. “Iqtidorli sportchilarni, tanlash va saralash (selektsiya) hamda ularni professional sportchilar sifatida tayyorlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish”[1].

Sport kurashi to‘garaklarini tashlab ketgan talabalarning ijtimoiy so‘rovi natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu davrda, erkin kurashi eng murakkab faoliyat turiga erta ixtisoslashuvda, talabalarning bilim va sport faoliyatini uzoq muddatli rag‘batlantirishga imkon beradigan tashkiliy natijalar deyarli yo‘q. Yaratilgan sharoitlarda erkin kurashidagi natijalarning yuqoriligi asosan ommaviylik bo‘lib, kurashchilarni tayyorlash jarayonida tuzilishi, uslubi va tashkiliy-motivatson tarkibga ega bo‘lgan yagona metodologik tizimida olib borish darkor. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining fanlarni o‘zlashtirishiga sport mashg‘ulotlarining ta’sirini auditoriyadan tashqari erkin kurash sport turi mashg‘ulotlari misolida o‘rganishni ilmiy asosda tashkil etish hamda metodologiyasini ishlab chiqish hozirgi kunda eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Sportchining sport faoliyati mumkin qadar maksimal natijalarga erishishga qaratilgan. Kurashda bu malaka razryadlarinig bajarilishida, turli musobaqalarda g‘alabaga erishishda namoyon bo‘ladi. Bunday yo‘nalish kurash mashg‘ulotining asosi hisoblanadi. U vositalar va uslublardan foydalanish, mashg‘ulot yuklamasi dinamikasi, mashg‘ulot jarayonini tashkil etish xususiyatlarini belgilab beradi. Mumkin qadar maksimal natijalarga yo‘naltirish tamoyili sportchining o‘z kuchi va imkoniyatlarini to‘liq namoyon qilishga bo‘lgan intilishida hamda ularning maksimal rivojlanishi uchun sharoitlarning ta’minlanishida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining fanlarni o‘zlashtirishiga sport mashg‘ulotlarining ta’sirini auditoriyadan tashqari erkin kurash sport turi mashg‘ulotlari misolida o‘rganish va talaba kurashchilarning texnik va taktik tayyorgarligini optimallashtirish muammosi hanuzgacha dolzarb bo‘lib qolmoqda. Hozirgi vaqtda erkin kurash bilan shug‘illanuvchilarning yuqori darajadagi tayyorgarligini ta’minlash hamda ko‘p siklli tayyorgarlik jarayonida funksional va jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishga qaratilgan usul va vositalar o‘rganilgan bir qator tadqiqotlar mavjud.

Ushbu tadqiqot ishida asos sifatida mahalliy olimlarning ilmiy ishlaridan olingan: yosh kurashchilarni texnik-taktik jihatdan reja asosida o‘qitish zarurati to‘g‘risida hamda sport tayyorgarligining turli bosqichlarida kurashchilarga texnik va taktik harakatlarni o‘rgatish muammolari bo‘yicha bir qator ilmiy ishlar olib borilgan. Xususan, respublika

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-iyuldagi PQ-336-son “Sport kurashlarining Olimpiya turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. 1-40 bet. www. Lex.uz.

olimlaridan A.N.Abdiev, F.A.Kerimov, K.B. Muxammadiev, I.B.Aliyev, N.A.Tastanov, Z.S.Artiqov, O.J.Dadabaev, Sh.Sh.Gaziyev, D.Y.Tashnazarov[2], kabi kurashchilarga texnik-taktik harakatlarni o‘rgatish muammolari bo‘yicha tadqiqotlar olib borishgan. Ularda kurashchilarning maxsus mashg‘ulot tizimining asosiy tarkiblari bayon qilingan, o‘rgatish, boshlang‘ich mashg‘ulot jarayonlari mazmunini tizimlashtirilgan, texnik-taktik takomillashtirish texnologiyalari ishlab chiqilgan hamda muvoffaqiyatli sinovdan o‘tkazilgan. Bu tadqiqotlar natijalari erkin kurashchilarning mashg‘ulot jarayoni vositalari hamda uslublarini optimallashtirishda katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi va xorijda mavzuga doir olib borilgan bir qator tadqiqotlarda – I.I.Alixanov, A.A. Karelin, O.N.Saganov, M.V.Tapxarov, S.V.Barayev, A.Y.Kuritsina, L.V.Sareva, A.M.Astaxov, V.P.Serdyuk, G.S.Sultanaxmedov, K.I.Yugay, M. Adam, M. Smaruj, R. Pujszo[3] va boshqalarning tadqiqotlarida kurashda texnik-taktik tayyorgarlikning turli masalalari har tomonlama va chuqur tahlil qilingan.

Shuningdek, A.A. Kolmanovchkiy, ommaviylashtirilgan umumiy jismoniy yuklamalarning nomutanosibligi-noto‘g‘riligi to‘g‘risida, L.P. Matvev erta yoshda B.A. Nikityuk yuksak sport yutuqlarining asosi bo‘lgan ommaviylik haqida N.N. Parxomenko, A.A. Novikov, kurashchilarni ularning malakasi va yoshini hisobga olgan holda tayyorlash haqida O.P. Yushkov, V.I. Shpanov, umuman kurashchining integral modeli va uning birlamchi asoslari haqida, sport kurashida texnik-taktik faoliyat modeli bo‘yicha Yu.A. Shulika ilmiy izlanishlar olib borgan.

Zamonaviy adabiyotlarda kurashchilarning mashg‘ulot jarayonini tashkil qilish yuzasidan taqdim etilgan keng qamrovli tajriba materiallari, odatda yuqori malakali sportchilar mashg‘ulotlariga bag‘ishlangan. Biroq hozirga qadar pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining fanlarni o‘zlashtirishiga sport mashg‘ulotlarining ta’sirini auditoriyadan tashqari erkin kurash sport turi mashg‘ulotlari misolida o‘rganishga doir muhim pedagogik vositalar hamda uslublar kam o‘rganilgan.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining fanlarni o‘zlashtirishiga sport mashg‘ulotlarining ta’sirini auditoriyadan tashqari erkin kurash sport turi mashg‘ulotlari misolida o‘rganish bo‘yicha chuqur nazariy bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish uchun zarur malakalarni egallashga qaratilgan bo‘lishi lozim. Ilmiy asoslangan va musobaqa harakatlarini bajarishning klassik va asosiy qoidalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan texnik-taktik mashqlar komplekslari algoritmini ishlab chiqish hozirgi zamon talabiga aylanmoqda.

Shuningdek, A.A. Kolmanovchkiy, ommaviylashtirilgan umumiy jismoniy yuklamalarning nomutanosibligi-noto‘g‘riligi to‘g‘risida, L.P. Matveev erta yoshda B.A. Nikityuk yuksak sport yutuqlarining asosi bo‘lgan ommaviylik haqida N.N. Parxomenko, A.A. Novikov, kurashchilarni ularning malakasi va yoshini hisobga olgan holda tayyorlash haqida O.P. Yushkov, V.I. Shpanov, umuman kurashchining integral modeli va uning

[2] Абдиев А.Н. Борьба организация востоновительного тренировочного процесса в предсоревновательном этапе. Монография. Т., 1997.-235 с.; Керимов Ф.А. Спорт кураши назарияси ва усулияти. Дарслик. Т., ЎзДЖТИ, 2005. – 340 б., Бакиев З.А. Индивидуализация технико - тактической подготовки борцов, на основе автоматизированного анализа соревновательной деятельности /кан...пед...наук: дисс.автореф., Ташкент. УзГИФК. 2009. – 58 с.;

[3] Алиханов, И.И. Техника и тактика вольной борьбы / И.И. Алиханов. Изд. 2-е, перераб., доп. – Москва : Физкультура и спорт, 1986. – 304 с., Карелин А.А. О рациональной последовательности обучения технике спортивной борьбы / А.А. Карелин, В.В. Нелюбин // Проблемы педагогической деятельности в физической культуре и спорте и пути их решения в физкультурном образовании: Матер, науч.-практ. конф. каф. педагогики СпбГАФК . НИИХ СПбГУ, 2002.-Вып. 2.- С. 69-72.,

birlamchi asoslari haqida, sport kurashida texnik-taktik faoliyat modeli bo‘yicha Yu.A. Shulika ilmiy izlanishlar olib borgan.

Kundalik va maishiy jismoniy yuklamalarning kamayishi hamda keraksiz ma’lumotlarning (qo‘l telefonlari, kompyuter, televizor va boshqalar) ko‘pligi tufayli yuzaga kelayotgan talabalarda harakat faolligining surunkali yetishmovchiligi ularning jismoniy rivojlanishini sekinlashtiradi va sog‘lig‘iga tahdid solmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida (OTM) o‘qish davrida talabalarning turli kasalliklarga chalinishi xozirgi glaballashuv davrda 4-5 baravar ko‘payadi. Bu talabalarning qariyb 30 foizi salomatlik holatiga ko‘ra maxsus guruhiga kiradi degan xulosaga kelishga asos bo‘lmoqda.

Bir qator mualliflarning ma’lumotlariga ko‘ra (M.A. Bala, A.A. Kartamishev, T.V. Rudeva, N.K. Vakulenko, A.F. Frolov va boshqalar) maktab o‘quvchilari, kasb hunar ta’limi va OTM talabalari harakat faolligining pasayishi ulardagi aqliy va jismoniy ish qobiliyati pasayishiga olib keladi. Shu bilan birga, ularda turli yuqumli va yuqumsiz kasalliklar bilan kasallanishining sezilarli o‘sishi kuzatilmoqda. Fanlarni o‘zlashtirish, imtihonlarga tayyorgarlik ko‘rish va topshirish vaqtida jismoniy mashqlar bilan muntazam shug‘ullanishni to‘xtatmaydigan o‘quvchilar yuqori aqliy ish qobiliyati ko‘rsatkichlariga hamda somatik va vegetativ muhitda adekvat funksional xususiyatlarga ega bo‘ladilar.

Keltirilgan natijalar va muhokamalar jismoniy tarbiyani samarali tashkil qilish uchun muhim metod va prinsiplarni yoritadi. Individual yondoshuv, tadrijiy yuklama va har tomonlama rivojlanish jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Jismoniy tarbiyaning muntazamligi va motivatsiyasi insonning umumiy rivojlanishi va sog‘lig‘ini yaxshilashga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi har bir shaxsning jismoniy va ruhiy rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan. Bu nazariyaga amal qilish sportchilarga yuqori natijalarga erishishga va aholining sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aliyev B. Kurash bilan shug‘ullanuvchi talaba sportchilarni mashg‘ulot yuklamalarining optimal nisbatlari // Ped.fan.nom.: diss.avtoref., – T.: O‘zdjti. 2012. – 58 b.;

2. Алиханов, И.И. Техника и тактика вольной борьбы / И.И. Алиханов. Изд. 2-е, перераб., доп. – Москва : Физкультура и спорт, 1986. – 304 с.

3. Tastanov N.A.– Kurashturlari nazariyasi va uslubiyati. Darslik. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 328 b.; артиқовз.С.

4. Belbog‘li kurash dastatik va dinamik kuchlanish davomida muvozanat saqlash funksiyasini shakllantirish metodikasi //Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori: diss.avtoref., Ch.: o‘zdjtsu. 2019. – 62 b.

Zuhraxon BOZOROVA,
Andijon davlat pedagogika instituti, katta o'qituvchi

BO'LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY TAYYORGARLIK JARAYONLARIDA TARBIYALANUVCHILAR BILAN O'ZARO MUNOSABATLARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarlik jarayonlarida tarbiyalanuvchilar bilan o'zaro munosabatlarini shakllantirish metodikasining ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan. Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagog va tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi interaktiv muloqotning ahamiyati, pedagogik metodlarning samaradorligi va tarbiyachilarning kasbiy mahoratini oshirish usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar va psixologik omillar ta'siri muhokama etiladi.

Tayanch so'zlar. Tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, pedagogik muloqot, kasbiy tayyorgarlik, metodika, interaktiv ta'lim, innovatsion texnologiyalar.

В данной статье освещены научно-теоретические основы методики формирования взаимоотношений будущих воспитателей с воспитанниками в процессе профессиональной подготовки. Проанализированы значение интерактивного общения между педагогом и воспитанниками в образовательном процессе, эффективность педагогических методов и методы повышения профессионального мастерства воспитателей. Также будет обсуждаться влияние современных подходов, инновационных технологий и психологических факторов.

Ключевые слова. Воспитатель, воспитанник, педагогическое общение, профессиональная подготовка, методика, интерактивное обучение, инновационные технологии.

This article highlights the scientific and theoretical foundations of the methodology for forming future educators' relationships with students during professional training. The importance of interactive communication between the teacher and students in the educational process, the effectiveness of pedagogical methods, and the methods of improving teachers' professional skills were analyzed. The impact of modern approaches, innovative technologies, and psychological factors will also be discussed.

Key words. Educator, student, pedagogical communication, professional training, methodology, interactive learning, innovative technologies.

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachining roli beqiyosdir. Ular nafaqat bolalarni o'qitish va tarbiyalash, balki ularda ijtimoiy, axloqiy va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish uchun ham javobgardir. Shu sababli, tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida ularning tarbiyalanuvchilar bilan o'zaro munosabatlarini to'g'ri shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada bo'lajak tarbiyachilar uchun samarali metodika va yondashuvlar muhokama etiladi.

Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarlik jarayonida tarbiyalanuvchilar bilan o'zaro munosabatlarini shakllantirish masalasi ko'plab xorijiy, MDH va O'zbekiston olimlari tomonidan o'rganilgan. Quyida ushbu mavzuga oid muhim tadqiqotlar keltirilgan: O'zbekiston olimlari D.Shukurova o'zining "Bo'lajak tarbiyachilar kasbiy madaniy shakllanishining psixologik omillari" nomli maqolasida bo'lajak tarbiyachilarning

kasbiy madaniyatini shakllantirishda psixologik omillarning ahamiyatini tahlil qilgan; Sultansaidova Mushtariy Abzalxanovna “Bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy moslashtirish omillari va shart-sharoitlari” maqolasida bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy moslashuvi uchun zarur omillar va shart-sharoitlarni yoritgan. To‘raxonova Mohinur Abdunazar qizi “Bo‘lajak o‘qituvchilar shaxsiy hislatlarining kasbiy tayyorgarlik jarayonida shakillanishi, kasbga xos hislatlarining ahamiyati” nomli maqolasida bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy sifatlari va ularning kasbiy tayyorgarlik jarayonidagi ahamiyatini tahlil qilgan. MDH olimlari: M.Rahmatullayeva, U.Karakulova, S.Anvarova “Oliy o‘quv yurtlarida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy moslashtirishning pedagogik-psixologik jihatlari” maqolasida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy moslashuvi jarayonidagi pedagogik va psixologik jihatlarni o‘rgangan. D.G.Zaylobidinova “Bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchilarining kasbiy o‘zini o‘zi takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari” nomli ilmiy maqolasida o‘qituvchilarning o‘zini-o‘zi rivojlantirish jarayonidagi ijtimoiy-psixologik omillarni tahlil qilgan.

Ushbu tadqiqotlar bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarlik jarayonida tarbiyalanuvchilar bilan samarali o‘zaro munosabatlarni shakllantirish uchun muhim nazariy va amaliy asoslarni taqdim etadi.

Tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar mohiyati tarbiyachining tarbiyalanuvchilar bilan samarali munosabat o‘rnatishi ularning rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bolalar bilan muloqot jarayonida ishonch, tushunish va hurmat asoslari shakllanadi. Ushbu munosabatlar bolalarning ijtimoiylashuvi, psixologik barqarorligi va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Tarbiyachining kasbiy tayyorgarligi jarayonida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish.

Kasbiy tayyorgarlik jarayonida bo‘lajak tarbiyachilar o‘z pedagogik faoliyatlarida muhim ahamiyat kasb etadigan kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishlari kerak. Bunga quyidagilar kiradi:

– faol tinglash ko‘nikmalari;

– bolalarga nisbatan individual yondashuv;

– empatiya va hissiy barqarorlik;

– noverbal muloqot qobiliyatlari.

– o‘zaro munosabatlarni shakllantirish metodikasi:

a) interaktiv metodlardan foydalanish tarbiyalanuvchilar bilan munosabatlarni shakllantirishda juda samarali hisoblanadi. O‘yinli ta’lim, rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlar orqali bolalar va tarbiyachilar o‘rtasidagi aloqa kuchayadi.

b) innovatsion texnologiyalardan foydalanish raqamli texnologiyalar va zamonaviy pedagogik dasturlar yordamida bolalar bilan individual va guruh shaklidagi ishlash imkoniyatlari kengayadi.

c) psixologik yondashuvlarda har bir bolaning shaxs sifatida e’tirof etilishi, uning shaxsiy qiziqishlari, ehtiyojlari va rivojlanish darajasi inobatga olinishi lozim. Tarbiyachilar o‘z muloqotlarida psixologik xususiyatlarni hisobga olgan holda yondashuvlarni ishlab chiqishlari kerak.

Tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish yo‘llari:

– muntazam malaka oshirish kurslari;

– amaliy mashg‘ulotlar va tajriba almashish;

– rivojlangan pedagogik texnologiyalarni qo‘llash;

– o‘z-o‘zini tahlil qilish va refleksiya jarayonlari.

Bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida tarbiyalanuvchilar bilan o‘zaro munosabatlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Interaktiv metodlar, innovatsion yondashuvlar va psixologik aspektlarni hisobga olgan holda tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish kerak. Bu esa bolalarning har tomonlama rivojlanishi va ijtimoiylashuvini ta’minlashga xizmat qiladi.

Bo‘lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining kreativ fikrlash ko‘nikmalari ulardagi kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda harakatga keltiruvchi kuch sanaladi. Aynan mazkur ko‘nikmalar ijodiy faollik, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat uchun yo‘naltira olish, nostandart tafakkur tarzini shakllantira olish, muammolarga nisbatan sezgirlik, intellektual qobiliyatlar, hissiy jihatdan erkin va ijobiy fikrlar, konstruktivlik, innovasiyalar transformasiyasi bilan bog‘liq divergent tafakkur tarzining shakllanishiga xizmat qiladi. Bo‘lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatlari rag‘batlantirilsa va samimiy muhit yaratilsagina, kreativ fikrlashni odatga aylantira oladilar.

Kreativ muhitda o‘qituvchi va bo‘lajak pedagoglar boshqalarga nisbatan samimiy munosabatda bo‘lishni va ularning fikr mulohazalarini hurmat qilishni o‘rganadilar. Xato qilishdan yoki muvaffaqiyatsizlikka uchrashdan qo‘rqish, haddan tashqari baholarga e'tibor qaratish, boshqalardan ajralib turish, mensimaslik va tanqidga uchrashdan, kamsitilishdan qo‘rqish hissi mavjud bo‘lajak pedagoglarda kreativlik odatga aylanmaydi. Kreativlikni odatga aylantirish, bo‘lajak pedagoglarning o‘qishdagi muvafaqqiyat va o‘z-o‘ziga bo‘lgan hurmatini oshirishda yordam bo‘ladi. Kreativ fikrlashni muvofiq ravishda qo‘llash orqali va sog‘lom muhitdagina erishish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ta'lim taraqqiyotida pedagogik innovatsiyalarni to‘liq o‘zlashtirish nazariyasi va amaliyoti ta'lim sohasida yangicha fikrlashga olib kelishi shubhasizdir. Bu o‘rinda shuni ta'kidlash joizki, yuqorida keltirilgan usullarni qo‘llashda tarbiyachidan yuqori malaka va bolalar fikrlarining to‘g‘rinoto‘g‘riligini baholash, sharhlab borish talab qilinadi. Biror ko‘rinishda baholangan faoliyat yanada jonlanish, fikrlash jarayonini faollashtirish xususiyatiga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vygotskiy L.S. “Bolalar psixologiyasi asoslari”. Moskva, 1986.
2. Abdullaeva N. “Maktabgacha ta’limda innovatsion metodlar”. – T., 2020.
3. Hasanov R. “Pedagogik muloqot va uning samaradorligi”. – T., 2018.
4. Dewey J. “Education and Experience”. New York, 1938.
5. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. “Ilk qadam” davlat ta’lim dasturi. – T., 2021.

Dilfuza KAMOLJONOVA,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi Milliy instituti, tayanch doktorant

MILLIY KONTENTLAR VOSITASIDA O‘QUVCHILARDA KITOBXONLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada kichik hajmdagi nasriy asar (ertak, hikoya, kichik qissa) larda tilga olingan qahramonlar misolida kichkintoy dunyoni idrok etishni, oq va qora, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik, egrilik va to‘g‘lik rostgo‘ylik va yolg‘onchilik o‘rtasidagi farqni o‘zaro taqqoslab, bir biridan farqlash haqida fikrlar keltirilgan. Shu bilan birgalikda alla, ertak, rivoyat, hikoyalarning bolalar hayotidagi o‘rni qay darajada muhim ekanligi tahlil qilinadi.

Tayanch so‘zlar. Ertak, badiiy adabiyot, kitob mutolaasi, bolalar adabiyoti, tarbiya, yosh kitobxon.

В статье на примере героев, упомянутых в небольших прозаических произведениях (сказках, рассказах, коротких повестях), представлены идеи о восприятии маленького мира, сравнении и различении между белым и черным, добром и злом, добром и злом, кривизной и прямотой, правдивостью и ложью. Вместе с тем проанализировано, насколько важна роль колыбельных, сказок, легенд, рассказов в жизни детей.

Ключевые слова. Сказки, художественная литература, чтение книг, детская литература, воспитание, юный читатель.

The article presents ideas about the perception of the little world, comparing and distinguishing between white and black, good and evil, good and evil, crookedness and straightness, truthfulness and falsehood, using the example of the characters mentioned in small prose works (fairy tales, short stories). At the same time, the importance of lullabies, fairy tales, legends, and stories in children’s lives was analyzed.

Key words. Fairy tales, fiction, reading books, children’s literature, upbringing, young reader.

Ertak tarbiya vositasi vazifasini bajaradi. Kichik hajmli ertak, hikoya va matnlar orqali o‘quvchida kitobxonlik ko‘nikmalari oson, sodda va bosqichma bosqich shakllanadi. Badiiy kitoblar, shu jumladan nasriy asarlar o‘quvchining his-tuyg‘ulari, ichki dunyosi va xulq-atvorini tarbiyalaydi. Bugun zamonaviy ta’limda kitobning vazifasi ma’lumot berish hisoblanib u aynan didaktik tamoyilga asoslanishi shart emas, degan ilmiy farazlar ham mavjud. Ammo kitoblar, ayniqsa bolalar kitoblari o‘zining didaktik prinsiplarga asoslangani bilan ahamiyatli hisoblanadi. 7 yoshgacha bolalar ham jisman ham aqlan shiddat bilan rivojlanadi, bu vaqt oralig‘ida kichkintoyning jismonan rivojlanishi uchun turli vitamin va menerallar ne chog‘lik zarur bo‘lsa, aqliy kamoloti uchun kitob shu qadar muhim hisoblanadi. Kitob mutolaasi bola rivojlanishiga quyidagicha ta’sir qiladi – katta odamning 70 foiz intellektual qobiliyatlari hayotining birinchi 5 yilida shakllanadi. Kichik yoshdagi o‘quvchilarda kitobxonlikni shakllantirish-da ota-ona, maktab va kutubxonachi hamkorligi to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsa, ish samarali natija beradi.

Kitob o‘qimaslikning salbiy oqibatlari:

– kitob o‘qimagan bolaning voqea-hodisalarni tahlil qilish ko‘nikmalari bo‘lmaydi. Bu nimaga sodir bo‘ldi, nima sababdan sodir bo‘ldi, bu voqeaning sodir bo‘lishiga

qanday omillar sababchi, degan savollar kitob o‘qimagan bolani umuman qiziqtirmaydi;

– dunyoqarashning tor bo‘lishi – badiiy obrazda ifodalaganda, atrofdagi voqea-hodisalarga befarq, hissiz insonga aylanib qolishi;

– bola aql-u tafakkurida g‘oyalar tanqisligi, kreativlikning yitishmovchiligi. Bu kabi bolalardan ixtirochi, olim va ijodkorlar yetishib chiqmaydi;

– muammoli vaziyatda undan chiqish yo‘lini bilmaslik. Tushkunlik, dipressiya, bola bir qiyinchilikka tushsa, muammoga mustaqil yechim topa olmasligi;

– sabr qilishni bilmaslik, biror bir ishg 10-15 daqiqadan ortiq diqqat qarata olmaslik.

Kitobni bilimlar va ma’lumotlar koniga o‘xshatish mumkin. O‘quvchi kitobni varaqlagani sari, kondan xazina topgan konchidek boyib boraveradi. Bu boylik uning tafakkur xazinasini to‘ldiradi.

– badiiy adabiyot o‘qigan boladan ijodkor, ilmiy kitob o‘qigan boladan olimlar yetishib chiqadi. Kitob o‘qiganda uni yodlab olib emas, mazmunini tushungan holda o‘qigan muhim. Kitob o‘qimagan bolaning o‘z shaxsiy fikri ham bo‘lmaydi;

– kitob so‘z boyligini rivojlantirib, nutqini ravon qiladi. Kitob o‘qimagan bolaning nutqi qashshoq, yozma nutqi imloviy xatolarga to‘la bo‘ladi;

– kitoblar eng yaxshi motivatorlar, ilhom va g‘oya manbai. Kitob mutolaa qilmaslik, bu ne’matlardan bebahra qolishga olib keladi.

Ba’zi kishilar uchun kitob vaqtini maroq bilan o‘tkazishga yordam beradigan ko‘ngil ochar vosita hisoblanadi. Bugun ta’lim sifati bo‘yicha yetakchi o‘rinlarda turgan Finlandiya va Buyuk Britaniyada maktab o‘quvchilari uchun “Reading for pleasure” – Rohatlanib mutolaa qilish dasturi faoliyat ko‘rsatadi.

Buyuk Britaniyaning Oxford Universiteti tomonidan yaratilgan mazkur platforma “Bolalar uchun kitob o‘qib berishda ota-onalarga ko‘maklashadi”. Platformada kitoblarni o‘quvchi yoshiga qarab tanlab o‘qishingiz mumkin. 8 ta yacheykada 3-4 yoshdan boshlab 10-11 yoshgacha bolalarning yoshiga mos ilmiy, badiiy va innovatsion g‘oyalar bilan sug‘orilgan adabiyotlar jamlangan. Platforma ota-onalarga nima o‘qish, necha daqiqa o‘qish va qanday o‘qish haqida ma’lumot berib, kitobxonlarni ma’lum bir adabiyotga yo‘naltiradi.

Nasriy asarlarga ertak, hikoya, qissa kiradi. Prozaiklardan Xudoyberdi To‘xtaboyev, Yayra Sa’dullayeva, Erkin Malik, Farhod Musajonov, Xidoyat Olimova, Muhabbat Hamidovalarning sara qissa, hikoya, ertaklari boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga sinfdan tashqari o‘qish uchun tavsiya etiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida kitobxonlik kompetensiyasini oshirish uchun avvalo kitobxonlik muhitini yaratish zarur. Buning uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining o‘zi kitobxon bo‘lishi kerak. Respublika bolalar kutubxonasi tashabbusi bilan 2023-yil 3-mayda kitobxonlik forumi o‘tkazildi. So‘rovnoma natijasiga ko‘ra 1994-yil maktab o‘quvchilarining kitobxonlik darajasi 24% ni tashkil qilgan bo‘lsa, bugungi kunda bu ko‘rsatgich biroz pasaygan. O‘quvchilarni kichik yoshdan kitobxonlikga qiziqtirish, sinfdan tashqari darslarda mutolaa soatini ajratish, unda tarbiyaviy ahamiyatga ega asarlar yuzasidan insho, bayon yozish yozma nutqini rivojlantirish, o‘g‘il-qizlarda ijobiy fazilatlarni shakllantirishda ijobiy natijalarni ko‘rsatadi.

Inson yashashi, rivojlanishi uchun bir qancha faktorlarga ehtiyoj sezadi. Moddiy ehtiyojlari kabi, aql tafakkuri ham hamisha ozuqa olishi, boyib borishi zarur. Mutolaa orqali inson tafakkuri yuksaladi, rivojlanadi. Tarbiya – pedagogik jarayon bo‘lib, kishilarda jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratiladi. Farzand tarbiyasida badiiy adabiyot muhim rol o‘ynaydi. Kaykovusning “Qobusnoma” asarida:

“Bu jahon bir ziroatgohdir, har nima eksang, shuni o‘rasan, har na so‘z desang, shuning javobini eshitursan”[1] deydi.

Farzand tarbiyasi ham nihoyatda mas’uliyatli vazifa bo‘lib, bolaning qanday shaxs bo‘lib yetishishi olgan tarbiya va ta’limiga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Bola kitob orqali qanday tarbiyalanadi? Badiiy adabiyot kichik kitobxonga nimalar bera oladi? Kitob – arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, ‘‘yozilgan’’, ‘‘muqovalangan’’ asar ma’nosini anglatadi[2].

Kitoblar o‘zida ma’lum bir g‘oyalarni ilgari surib, o‘quvchiga estetik zavq beradi. YUNESKO tavsiyasiga ko‘ra, 48 varoqdan kam bo‘lmagan, bosma taboqga ega, davriy bo‘lmagan nashrni shartli ravishda kitob, deyish qabul qilingan.

Adabiyot nima? Adabiyot – arab tilidan olingan bo‘lib, adab so‘zining ko‘plik shaklidir[3]. Biror soha, mavzuga ixtisoslashtirilgan ma’lumotlar, asarlar majmui.

Badiiy asarlar o‘quvchiga estetik zavq berishi, dunyoqarashini shakllantirishi bilan birga tarbiyalovchi funksiyaga ega. Kichik yoshdagi bolalarga kitob tanlashda adabiyotning shu jihatlariga ko‘proq e’tibor qaratish zarur. Kaykovusning “Qobusnoma” asarining 27-bobida “Otadan farzand xaqlaridan biri go‘dakga chiroyli ism tanlash, uni yaxshi xulq bilan parvarishlash bilan bir qatorda, o‘qishni o‘rgatish farz” ekanligi to‘g‘risida so‘z boradi.

Farzand tarbiyasida oilaviy muhit katta rol o‘ynaydi. Sog‘lom muhit, urf-odat va an’analar, chiroyli tarbiya ostida voyaga yetgan farzandlar kelajakda komil insonlar bo‘lib ulg‘ayadilar.

Tarbiya – o‘zidan kichiklarga eng yaxshi, eng chiroyli xulqlarni o‘rgatish, ezgu xulqni yoshlar ongiga singdirishdir. Har bir kishi ikki xil yo‘l bilan, birinchisi bilvosita, ya’ni kattalardan ularning tajribalarini o‘rganish orqali, ikkinchisi bevosita, o‘z hayotiy tajribalari orqali egallaydi.

Kichik yoshdagi bolalarga kitob o‘qib berish ham komil tarbiyaning bir qismidir.

Kichik yoshdagi o‘quvchining birinchi kitobi – bu ertak kitoblaridir. Nima uchun bolaga tunda uyquga yotishdan avval ertak o‘qib beriladi? Rus ruxshunoslari bolaga tunda ertak o‘qib berish uning ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini, hayotda sodir bo‘ladigan turli voqea-hodisalarga to‘g‘ri nuqtayi nazar orqali qaray olishini fanda isbotlashgan. Oddiy hayotiy misollar orqali yaxshi va yomonni, oq va qorani bir-biridan ajratishni o‘rganadi.

Buning uchun bolaga ertaklarni to‘g‘ri tanlab, aytib berish kerak. Ertak zamirida yaxshilik, ezgulik bo‘lishi zarur. Ertak bolaga voqea-hodisalar ustidan xulosa qilishni o‘rgatadi, unda kattalarni tinglash kompetensiyasi rivojlanadi. Ertak kichkintoylarga yashashni o‘rgatadi. Ertakda ko‘p hollarda qahramonlar turli qiyinchiliklarga duch keladilar va ularni aql, sabr, kuch va idrok orqali yengib o‘tadilar. Bolalar ham turli asar syujetlarini eshitish orqali o‘zlarida qiyinchiliklarga qarshi kurashishga nisbatan ong osti immunitetni hosil qiladi, bolada ijobiy fazilatlarni shakllantiradi. Kimgadir yaxshilik qilishsa, yaxshilik, aksincha, hasad, yomonlik qilishsa, yomonlik qaytishini bilishadi. Bolani biror nomaqbul xatti-harakati uchun jazolashdan oldin unga shu mavzuga oid ertak o‘qib bering.

Bolalarni tez-tez kutubxonaga olib borish, ulardagi bir qancha salbiy odatlarning oldini olib quyidagi ijobiy vazilatlar hosil qiladi:

Bola kitobga mehr qo‘yish kerakligini o‘rganadi.

Bola kutubxonada o‘zini qanday tutish madaniyatini o‘rganadi.

[1] Kaykovus. Qobusnoma.: - T “O‘zbekiston” NMIU 1994. Muqaddima.

[2] O‘ktam Nosirov “Mutolaa madaniyatning muhim elementi sifatida”. INFOLIB №1, 2024.

[3] https://qomus.info/encyclopedia/cat-a/adabiyot-uz/

Badiiy adabiyotlarni bir-biridan farqlay olish didi shakllanadi.

Tinch va sokin muhitda soatlab kitob o‘qish orqali tinchlanishni o‘rganadi.

Finlandiya ta’lim sifati bo‘yicha dunyoda yetakchi mamlakatga aylandi. Ta’lim sifatining oshishiga bevosita fanlarni yaxshi o‘zlashtirish, o‘qish va uni tushinish kiradi. Ta’lim erkinlik va qulaylik asosiga qurilgan. Uyga vazifa tarzida kutubxonaga, teatrlarga borishni topshiriq qilib berishadi. Olimlar muntazam ravishda ertak eshitgan bolalarning so‘z boyligi ko‘p bo‘lishi, tasavvur va xotirani yaxshilashini aniqladilar. Kitob mutolaasi kognitiv, estetik va tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Bola 4-5 yosh oralig‘ida uning so‘z zaxirasi boyib, nutqi rivojlanadi. Bu yoshda ota-onalar bolaning diqqat-e’tiborini narsa-buyumlarning nomlanishi, ular nima vazifani bajarishi va qanday xususiyatga ega ekaniga qaratishi zarur. Bunda bolajonlarga kichik matnli o‘zbek xalq erataklarini o‘qib berish tavsiya etiladi. 6-7 yoshli bolalar endi o‘qishni o‘rgangani bois bu yoshdagi bolalarga ixcham, kichik hajmdagi, rangli kitoblarni olib berish tavsiya etiladi.

3-4-sinf o‘quvchilari uchun tavsiya etilgan nasriy adabiyotlar ro‘yxti:

jadval.

№	**Asar muallifi**	**Asar nomi**
1.	G‘afur G‘ulom	“Shum bola”
2.	Anvar Obidjon	“Quyonning tug‘ilgan kuni”
3.	Xudoyberdi To‘xtaboyev	“Peshonasiga televizor yopishgan bola sarguzashtlari”
4.	Abdulhay Nosirov	“Yaxshilar bog‘i”
5.	Kavsar Turdiyeva	“Xatolar mamlakati”
6.	Muhabbat Hamidova	“Kokilli ilon”
7.	Erkin Malikov	“Chumolilar saltanati”
8.	Muazzam Ibrohimova	“Sumalakxo‘r samolyot”
9.	Dilfuza Kamoljonova	“Katak daftardagi shumtakalar”
10.	Qobiljon Shermatov	“O‘tkirjonning o‘nta o‘rdak bolasi”
12.	Muxabbat Yo‘ldosheva	“Uchar hammom”
11.	Gulnoz Tojiboyeva	“Jayxun va alanga”
13.	Charos Rahimqulova	“Men ikkiga kirguncha”
14.	Dinara Muminova	“Ajoyib kaktus”

Kitob bizga yangi bilim, yangi ko‘nikmalarni beradi. Til boyligimizni oshiradi, sarguzasht qissalar tasavvurimizning chegaralarini kengaytiradi. Kichik yoshdagi o‘quvchilarda o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, kitob o‘qiganda bolalarning asab tizimi dam oladi, ruhiy bosimlardan xalos bo‘lishini ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva N. Bolalar adabiyoti. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Erudit” 2024.

2. Hamidova M. “Alisherning navbahori”: – T 2024-yil “O‘zbekiston” nashryoti.

3. Quronov M. “Bolam baxtli bo‘lsin desangiz”. – T.: Ma’naviyat, 2013.

4. “G‘uncha” jurnali 2018, 1-son, 6-bet.

5. Kamoljonova D. ‘‘Xorijiy tajribalar vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik kompetensiyasini rivojlantirish” Konferensiya to‘plami. 2024. 30.10.

6. Mo‘minova D. “Kitobxonlikni shakllantirishda xorij tajribalari NamDU ilmiy axborotnomasi 2021, 8-son 529-bet.

Dilnoza BADRIDDINOVA,
"Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti" nodavlat ta'lim muassasasi, mustaqil tadqiqotchi

O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA MEHNAT VA HALLOLIKNING ULUG'LANISHI, DONISHMANDLIK TARBIYASINING BADIIY TALQINI

Annotatsiya

Maqolada o'zbek xalq maqollarining tarbiyaviy axloqiy ta'limiy, va motivatsion imkoniyatlaridan foydalanish borasida fikr yuritiladi. Shu sohaga oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, xalq og'izaki ijodi namunalaridan maqollarning axloqiy yo'nalishlari haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, o'zbek xalq maqollarining kasb-kor, xalq o'yinlari, udumlar, vaqt, o'simlik, tabiat hodisalari bilan uyg'unligi imkoniyatlar tahlil qilingan va o'zbek xalq maqollarining donishmandlik tarbiasi, badiiy estetik qiymati yoritilgan.

Tayanch so'zlar. Xalq odobnomasi, kasb-kor, xalq maqollari, xalq donishmandligi, kattaga hurmat, xalqning pedagogik qarashlari, ma'naviy ustuvorlik, axloqiy va falsafiy yetuklik, xalq pedagogikasining sharqona an'analari.

В статье рассматривается использование воспитательных, нравственно-воспитательных и мотивационных возможностей узбекских народных пословиц. Дана информация о педагогических условиях развития знаний, умений и навыков, относящихся к данной сфере, о нравственных направлениях пословиц из образцов устного народного творчества. Также были проанализированы возможности сочетания узбекских народных пословиц с профессиями, народными играми, обычаями, временем, растительностью, явлениями природы и освещены воспитание мудрости, художественная эстетическая ценность узбекских народных пословиц.

Ключевые слова. народный этикет,профессия-кор, народные пословицы, народная мудрость, уважение к старшим, педагогические взгляды народа, духовное первенство, нравственно-философская зрелость, восточные традиции народной педагогики.

The article reflects on the use of educational moral educational, and motivational capabilities of Uzbek folk Proverbs. Pedagogical conditions for the development of knowledge, skills and abilities in this area, moral directions of proverbs from samples of folk oral creativity are described. Also, the combination of Uzbek folk proverbs with professions, folk games, deeds, time, plant, natural phenomena is analyzed in opportunities and the wisdom of Uzbek folk proverbs, the artistic aesthetic value is covered.

Key words. Народный этикет,профессия-кор, народные пословицы, народная мудрость, уважение к старшим, педагогические взгляды народа, духовное первенство, нравственно-философская зрелость, восточные традиции народной педагогики

Maqollar xalq og'zaki ijodining eng qadimiy va qimmatli namunalaridan biri bo'lib, ular turmush tarziga, urf-odatlarga, axloqiy me'yorlarga va hayotiy tajribalarga asoslangan. Ular avloddan avlodga o'tib, kishilarni yaxshilikka, mehnatsevarlikka, adolat va halollikka chaqirib kelgan. Masalan, "Mehnat qilsang, rohat topasan", "O'qigan biladi, o'rganishdan to'xtagan unutadi" kabi maqollar insonlarni ilm olish va mehnat qilishga undaydi. Maqollar har bir xalqning asrlar davomida orttirgan tajribasi, donishmandligi va hayotiy haqiqatlarini o'zida mujassam etgan hikmatli so'z-lardir. Ular qisqa, lo'nda va chuqur ma'no kasb etuvchi iboralar bo'lib, insonlarni ibrat

olishga, to‘g‘ri yo‘lni tanlashga undaydi.

Maqollar xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy va qimmatli namunalaridan biri bo‘lib, ular turmush tarziga, urf-odatlarga, axloqiy me’yorlarga va hayotiy tajribalarga asoslangan. Ular avloddan-avlodga o‘tib, kishilarni yaxshilikka, mehnatsevarlikka, adolat va halollikka chaqirib kelgan. Masalan, “Mehnat qilsang, rohat topasan”, “O‘qigan biladi, o‘rganishdan to‘xtagan unutadi” kabi maqollar insonlarni ilm olish va mehnat qilishga undaydi.

Har bir maqol o‘zining chuqur mazmuni bilan inson hayotining turli jabhalariga ta’sir qiladi. Masalan, do‘stlik va hamjihatlik haqida “Do‘stning do‘sti – do‘st”, “Birlikda ish bitadi” degan maqollar kishilarni o‘zaro hamkorlikka, ahillikka chorlaydi. Shuningdek, maqollar insonning yaxshi va yomon xatti-harakatlari haqida ham ta’lim beradi. “Yaxshilik qil, dengizga tashla” degan maqol saxovat va ezgulikning ahamiyatini uqtirsa, “Yolg‘onning umri qisqa” degan maqol esa halollik va rostgo‘ylikning ustun ekanligini bildiradi. Maqollar millat tafakkurining mahsuli bo‘lib, ularni o‘rganish va ularga amal qilish har birimiz uchun muhimdir. Ular bizga nafaqat hayotiy saboq, balki insoniylik mezonlarini ham o‘rgatadi. Shu bois, maqollarni anglash va ularga rioya qilish – donishmandlikka yo‘l ochish demakdir.

Albatta! Ilmiy maqolani asoslashda quyidagi maqollar bilan dalillash mumkin:

Mavzuni aniq belgilash – “Ilm ustidan ilm – nur ustidan nur.” Har qanday ilmiy maqola aniq mavzuni belgilash bilan boshlanadi. Agar mavzu noaniq bo‘lsa, maqolaning ilmiy qiymati pasayadi.

Nazariy asoslar – “O‘qigan biladi, o‘rgangan topadi.” Ilmiy maqola ilgari o‘rganilgan manbalar va olimlarning fikrlariga asoslanishi lozim. O‘qib-o‘rganish natijasida mustahkam ilmiy dalillar keltiriladi.

Tahliliy yondashuv – “O‘ylamay so‘zlasang, og‘zing kuyadi.” Faqat faktlarni keltirish yetarli emas, balki ularni chuqur tahlil qilish va to‘g‘ri xulosa chiqarish ham zarur.

Eksperimental yoki empirik asos – “Ko‘rmagan ko‘zni qo‘l yetaklar.” Tajriba va tadqiqot natijalari aniq isbotlar bilan mustahkamlanmasa, ilmiy maqola ishonchli bo‘lmaydi.

Xulosa va takliflar – “Aql bilan ish tutsang, olam seniki.” Har bir maqola aniq xulosa bilan yakunlanishi kerak. Olingan natijalar asosida kelajak uchun tavsiyalar berilishi muhim.

Manbalar ro‘yxati – “Ilmning boshi – tinglash, o‘rtasi – tushunish, oxiri – amal qilish.” Ishlatilgan barcha manbalar aniq ko‘rsatilishi shart, chunki ilmiy maqola boshqa olimlarning tadqiqotlariga tayanib yoziladi.

Shunday qilib, ilmiy maqolalar ham hayotiy tajribaga asoslangan maqollar kabi aniq, ishonchli va asoslangan bo‘lishi kerak! Inson tarbiyasi – jamiyatning kelajagi tarbiyali inson – jamiyatning eng muhim tayanchlaridan biri. Chunki inson tarbiyasi uning fe’l-atvori, odob-axloqi va dunyoqarashida o‘z aksini topadi. Shaxsning shakllanishida esa oila, maktab, muhit va jamiyat muhim rol o‘ynaydi. Farzandning ilk tarbiyasi oilada boshlanadi. U ota-onasidan odob-axloqni, muomala madaniyatini o‘rganadi. Farzandga mehr bilan yondashish, unga yaxshi fazilatlarni singdirish kelajakda jamiyatga foydali inson bo‘lib yetishishiga xizmat qiladi. Maktab insonning ilm olishi va tarbiya topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ustoz shaxs tarbiyasida ota-onadan keyin eng muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, ustozlarning bilimli, mehribon va halol bo‘lishi juda muhim. Yaxshi muhit – yaxshi insonni tarbiyalaydi. Atrof-muhit va do‘stlar insonning shaxs sifatida shakllanishida katta ta’sir ko‘rsatadi. Yaxshi muhitda ulg‘aygan inson ezgulik, hurmat va mehr-oqibatni qadrlaydi. Shu bois har bir inson o‘z atrofiga yaxshilarni yig‘ishga

harakat qilishi kerak. Inson tarbiyasi – bu jamiyat kelajagini belgilovchi muhim omildir. Tarbiyasi to‘g‘ri shakllangan inson halol, vatanparvar, mehribon va odobli bo‘ladi. Shunday ekan, har birimiz farzandlarimiz va atrofimizdagilarga to‘g‘ri tarbiya berishga harakat qilaylik. Maqollar – Ota-bobolarimizning donishmandlik xazinasi.

Har bir xalqning asrlar davomida shakllangan, hayotiy tajribalar asosida boyigan ma’naviy merosi mavjud. O‘zbek xalqining bunday bebaho meroslaridan biri – maqollardir. Maqollar qisqa, lekin mazmunan chuqur bo‘lib, unda hayot haqiqatlari, tajriba va pand-nasihatlar mujassam. Maqollar – donishmandlik xulosasi.

Ajdodlarimiz shunday degan: “Bilganing – bir quloch, bilmaganing – bir olam.” Bu maqol insonni doimiy ravishda ilm olishga, yangilikka intilishga chorlaydi. Chunki inson qanchalik bilimli bo‘lmasin, bilmaganlari doimo ko‘p bo‘lib qolaveradi. Shu sababli, ilm va tajribaga e’tibor qaratish zarur. Shuningdek, hayotda qiyinchiliklarga duch kelgan inson uchun “Har ishning boshi qiyin, oxiri – shirin” degan maqol kuch-quvvat bag‘ishlaydi. U insonni sabr-toqatga, harakat va bardavomlikka undaydi. Maqollar – mehnat va halollik tarbiyachisi. Xalqimiz doim mehnatni ulug‘lagan va uning qadriga yetgan. “Mehnat qilgan elga bardavom davlat yor” maqoli ham ana shu haqiqatni tasdiqlaydi. Kimki mehnat qilsa, u albatta o‘z mehnatining hosilini ko‘radi. Dangasalik esa insonni orqaga tortadi. “Halollik – eng katta boylik” degan hikmat bizga to‘g‘ri yo‘ldan yurish, haqiqat va adolatga rioya qilish lozimligini eslatadi. Halol mehnat qilgan inson hech qachon yutqazmaydi, balki uning hayoti farovon bo‘ladi. Maqollar – xalqimizning hayotiy tajribasidan kelib chiqqan bebaho xazina. Ular bizni tarbiyalaydi, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi va hayotning muhim qoidalarini o‘rgatadi. Har birimiz bu donishmandlik xazinasidan bahramand bo‘lib, unga amal qilsak, hayotimiz yanada mazmunli va muvaffaqiyatli bo‘ladi. Maqollar har bir millatning asrlar davomida to‘plangan donishmandligi va tajribasining natijasidir. Ular xalq og‘zaki ijodining ajralmas qismi bo‘lib, insonni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish, axloqiy qadriyatlarni shakllantirish va hayotiy tajribalarni avloddan-avlodga yetkazish vazifasini bajaradi. Quyida maqollarning inson uchun foydali jihatlari haqida batafsil to‘xtalamiz.

Maqollar ajdodlarning hayotiy tajribalariga asoslanadi. Ular insoniyat tarixida sodir bo‘lgan voqealardan saboq chiqarishga va xatolarga yo‘l qo‘ymaslikka yordam beradi. Masalan, “Sabrning tagi sariq oltin” maqoli sabrli bo‘lishning naqadar muhimligini anglatadi. Maqollar inson axloqiy fazilatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular odob, halollik, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi fazilatlarni targ‘ib qiladi. Masalan, “Yaxshilik qilsang, dengizga tashla” degan maqol ezgulikka undaydi.

Maqollar insonlar o‘rtasidagi muomala madaniyatini shakllantiradi. Masalan, “Yaxshi gap – jon ozig‘i” maqoli shirinso‘z bo‘lish va boshqalar bilan yaxshi muomala qilish zarurligini eslatadi. Ba’zan inson hayotiy qaror qabul qilishda ikkilanib qoladi. Shunday holatlarda maqollar maslahat sifatida foydali bo‘lishi mumkin. Masalan, “O‘n o‘ylab, bir kes” maqoli shoshqaloqlikdan saqlanish va har qanday qarorni puxta o‘ylab chiqarish lozimligini bildiradi. Maqollar nutqni yanada boyitadi, fikrni lo‘nda va aniq ifodalashga yordam beradi. Ular insonning so‘zlash madaniyatini rivojlantirib, muloqotda ta’sirchanlikni oshiradi. Har bir xalqning o‘ziga xos maqollari mavjud bo‘lib, ular milliy urf-odat, qadriyat va tarixiy an’analarning aksidir. Maqollar orqali ajdodlar merosi saqlanib qoladi va kelajak avlodga yetkaziladi. Maqollar insonning hayot yo‘llanmasi bo‘lib, uni donolik, odob-axloq, sabr-toqat va haqiqatga ergashishga undaydi. Ular nafaqat fikrlashni o‘stiradi, balki insonlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlaydi. Shuning uchun ham maqollarni o‘rganish, ularga amal qilish va kelajak avlodga yetkazish muhimdir.

Maqollar badiiy jihatdan juda boy va mazmunli xalq ogʻzaki ijodi namunalaridan biri hisoblanadi. Ular qisqa, loʻnda shaklda hayotiy tajriba, donishmandlik va axloqiy qadriyatlarni ifoda etadi. Ularning badiiy jihatdan asoslanishi quyidagi mezonlar orqali tushuntiriladi:

Maqollar juda qisqa boʻlishiga qaramay, ularda chuqur ma’no mujassam. “Birovga choh qazima, oʻzing tushasan.” Ushbu maqolda ogohlantirish va pand-nasihat ixcham, lekin aniq shaklda ifodalangan.

Maqollarda koʻpincha metafora, taqqoslash, allegoriya kabi badiiy vositalar qoʻllanadi: “Baliq boshidan sasiydi.” Bu yerda bosh metaforik ma’noda rahbar, yetakchi sifatida ishlatilgan. Koʻpgina maqollar oʻz ichida qofiya va ritmga ega boʻlib, yodlab olishni osonlashtiradi: “Koʻp bilan bellashma, kuching yetmaydi.” “Olma pish, ogʻzimga tush.” Bunday maqollar oʻzining tovush uygʻunligi bilan esda qoladi. Maqollarda qarama-qarshi tushunchalar orqali ma’no kuchaytiriladi: “Mehnat qilsang – toʻyasan, qilmasang – qoʻyasan.” Bu yerda mehnat va dangasalik oʻzaro qarama-qarshi qoʻyilib, ta’sir kuchaytirilgan.

Maqollarda tabiat, hayot, inson fe’l-atvori bilan bogʻliq obrazlar koʻp uchraydi: ”Ekin ek, yer bexazon, odam ek, el bexazon.” Bu maqolda yer va inson taqdirining bogʻliqligi ta’sirchan qilib tasvirlangan.

Maqollar badiiy jihatdan oʻzining obrazliligi, ixchamligi va oʻqishli ohangdorligi bilan tilimizning ajralmas qismi boʻlib qolgan.

Maqollar xalq ogʻzaki ijodining eng yorqin va hikmatli janrlaridan biri hisoblanadi. Ular qisqa, loʻnda, lekin mazmunan boy boʻlib, xalqning donishmandligini oʻzida aks ettiradi. Maqollar nafaqat ma’nosi, balki badiiy boʻyoqdorligi bilan ham ajralib turadi. Ular oʻziga xos tasviriylik, ritm va ifodalilik xususiyatiga ega boʻlib, nutqqa ta’sirchanlik bagʻishlaydi. Maqollarning badiiy boʻyoqdorligi ularning xalq hayoti, urf-odati va dunyoqarashini aks ettirishida muhim rol oʻynaydi. Ular koʻpincha metafora, oʻxshatish, mubolagʻa va jonlantirish kabi badiiy tasvir vositalari yordamida yaratiladi. Masalan:

“Olmani olma dermas, yegan bilmas.” – Bu maqolda taqqoslash orqali inson xulq-atvori tasvirlanadi.

“Koʻp bilan koʻrgan toʻy, yolgʻiz bilan yoʻqotgan boy.” – Oʻxshatish va antiteza orqali hamjihatlikning muhimligi aks ettirilgan.

“Suvchi suvini ichar, dehqon donini.” – Bu maqolda obrazlilik va jonli tasvir koʻzga tashlanadi.

Maqollarning badiiyligi ularning ta’sirchanligi va esda qolarli boʻlishiga xizmat qiladi. Ular xalq ogʻzaki ijodining boshqa janrlari bilan hamohang holda rivojlangan. Maqollar xalq ogʻzaki ijodining boshqa janrlari – topishmoqlar, matallar, ertaklar, afsonalar bilan uzviy bogʻliq. Quyida ushbu janrlardan namunalar keltirilgan:

Topishmoq:

“Oy emas, quyosh emas, Yoru-gʻu nur sochar.” (Javob: Yulduz)

Matal:

“Yaxshilik qilsang, unut, yomonlik koʻrsang, esla.”

Ertak:

“Zumrad va Qimmat” ertagida yaxshilik va yomonlik oʻrtasidagi kurash aks etadi.

Afsona:

Oʻzbek xalq afsonalaridan biri – “Buxoro va Samarqand afsonasi” shaharlarning tarixiy kelib chiqishini ifodalaydi.

Maqollar xalqning uzoq asrlik hayotiy tajribasini, donishmandligini va ma'naviy merosini o'zida mujassam etgan. Ularning bo'yoqdorligi esa badiiy tasvir vositalari orqali yanada oshadi. Xalq og'zaki ijodining boshqa janrlari bilan uyg'un holda maqollar nafaqat didaktik ahamiyat kasb etadi, balki adabiy-estetik jihatdan ham qimmatli hisoblanadi. Shu sababli, maqollar bugungi kunda ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

Maqollar xalq og'zaki ijodining eng qadimiy va hikmatga boy janrlaridan biri hisoblanadi. Ular qisqa, lo'nda shaklda aytilgan, hayotiy tajribaga asoslangan fikrlarni o'z ichiga oladi. Maqollar har bir xalqning ma'naviyati, dunyoqarashi, turmush tarzi va hayotiy tajribasini aks ettiradi. Ularning uslubiy xususiyatlari ko'p qirrali bo'lib, turli janrlar va nutq uslublarida qo'llaniladi. Maqollar qisqa shaklda ifodalanib, ortiqcha so'zlardan xoli bo'ladi. Ular odatda ikki yoki uch so'z birikmasidan iborat bo'lib, fikrni to'liq yetkazish xususiyatiga ega. Masalan, "Mehnat qilgan – rohat topar" maqolida qisqa, ammo aniq fikr ifodalangan. Maqollarda obrazli fikrlash va jonli tasvir keng qo'llaniladi. Metafora, o'xshatish, mubolag'a kabi badiiy san'at vositalari ular tarkibida uchraydi. Masalan, "Suvchi suvini ichar, dehqon donini" maqolida obrazlilik seziladi. Ko'plab maqollar qofiyali va ritmli tuzilishga ega bo'lib, bu ularning esda qolishini osonlashtiradi. Masalan, "Yaxshilik qil – yomonlik kutma" maqolida tovush takrorlari uchraydi. Maqollar xalqning uzoq yillar davomida orttirgan tajribasiga asoslanganligi sababli, ular ishonchli va ta'sirchan bo'ladi. Ular orqali odamlarga nasihat, ibrat yoki pand-nasihat beriladi. Masalan, "Ko'pni ko'rgan bilag'on, ko'pni yegan semiz" maqolida tajribaga asoslangan fikr aks etgan.

Maqollar ko'pincha umumlashgan holda aytilib, muayyan voqea-hodisalar bilan cheklanib qolmaydi. Ular turli sharoitlarda qo'llanilishi mumkin. Masalan, "Yolg'onning umri qisqa" maqoli turli kontekstlarda ishlatilishi mumkin.Maqollar odatda qotib qolgan tuzilishga ega bo'lib, ularni o'zgartirish yoki so'zlarini almashtirish mumkin emas. Masalan, "O'n marta o'lchab, bir marta kes" maqoli aynan shu shaklda ishlatiladi. Maqollar ko'pincha ko'p ma'noli bo'lib, ulardan har xil vaziyatlarda foydalanish mumkin. Masalan, "Elga yetti, menga sakkiz" maqoli ochko'zlik yoki adolatsizlikni bildirishi mumkin. Maqollar xalq donishmandligining durdonalari bo'lib, ular turli hayotiy vaziyatlarga mos keladi. Ularning uslubiy xususiyatlari ularni yanada ta'sirchan, esda qolarli va o'qituvchi vosita sifatida foydalanishga imkon yaratadi. Shu sababli, maqollar asrlar davomida o'z qadrini yo'qotmagan va xalqning og'zaki nutqida faol ishlatilib kelmoqda.

Maqollar – xalq og'zaki ijodining bebaho durdonalaridan biri bo'lib, ularda chuqur hayotiy tajriba, donishmandlik va tarbiyaviy ahamiyat mujassam. Bugungi kunda ham maqollar o'z ahamiyatini yo'qotmagan holda ta'lim jarayonida muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, ularning tabiiy jihatlari o'quvchilarga atrof-muhitni tushunishda, tabiat qonuniyatlarini anglashda va hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishda katta yordam beradi.

Maqollar tabiiy voqelik va inson hayotining uzviy bog'liqligini ifoda etadi. Ular orqali avlodlar o'z hayotiy tajribalarini, tabiat bilan bog'liq bilimlarini keyingi avlodlarga yetkazganlar. Quyida maqollarning tabiiy tomoni qanday aks etishini bir necha jihatlar orqali ko'rib chiqamiz. Xalq maqollarida tabiat hodisalari, fasllar va ob-havo sharoiti bilan bog'liq hikmatlar keng uchraydi. "Qishning qahri qattiq bo'lsa, yozning mehnati shirin bo'ladi. "Bulutning quyuqligi – yomg'irning yaqinligi." Bu kabi maqollar orqali o'quvchilar ob-havo va tabiat o'zgarishlarini oldindan kuzatish va taxmin qilish ko'nikmalarini rivojlantirishlari mumkin.

Xalq maqollari hayvonlar va o'simliklar hayoti bilan ham bog'liq. Ular orqali insonlar tabiat bilan uyg'un hayot kechirish muhimligini anglashgan:

“Ari chaqmasa, asal bo‘lmas.” “Bo‘ri bor joyda qo‘y bexavotir yurmang.” Bu maqollar orqali o‘quvchilar hayvonlarning tabiiy xatti-harakatlarini o‘rganishlari va ularning hayotdagi o‘rnini tushunishlari mumkin.

Bugungi kunda atrof-muhit muhofazasi dolzarb masalalardan biri bo‘lib, maqollar orqali bu borada muhim saboqlar olinishi mumkin: “Baliqqa suv kerak, insonga – havo.” “Yerni asrang – u sizga ne’mat beradi.” Bu maqollar orqali o‘quvchilarga tabiatni asrab-avaylash, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik madaniyatni shakllantirish muhimligi tushuntiriladi. Dars jarayonida maqollardan foydalanish o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi va ularning tabiat bilan bog‘liq bilimlarini boyitadi. Quyidagi usullar orqali maqollar dars jarayoniga tatbiq etilishi mumkin: Maqollar tabiatshunoslik, geografiya va biologiya darslarida misol sifatida keltirilishi mumkin. Masalan, ob-havo hodisalari haqida gap ketganda, “Qor qalin yog‘sa, bug‘doy mo‘l bo‘ladi” kabi maqollar orqali mavzu tushuntirilsa, o‘quvchilar mavzuni yaxshiroq anglab yetadilar.

Maqollar til boyligini oshirish va ifoda uslublarini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarga maqollarning ma’nosini tahlil qilish, ularni hayotiy misollar bilan bog‘lash orqali ijodiy fikrlash ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

Xulosa qilib aytganda, maqollar o‘quvchilarning hayotiy tajribalarini boyitishda, ularning to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Misol uchun, “Yerga urug‘ eksang – baxt ekasan” maqoli mehnat va halollik haqidagi saboqlarni o‘rgatishda ishlatilishi mumkin.

Maqollar xalq donishmandligi va hayot tajribasining yorqin ifodasi bo‘lib, ularning tabiiy tomoni hozirgi kunda ham o‘quvchilar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Dars jarayonida maqollardan foydalanish orqali o‘quvchilarning ekologik savodxonligi oshadi, ularning tabiatga bo‘lgan e’tibori kuchayadi va hayotiy ko‘nikmalari rivojlanadi. Shunday ekan, o‘qituvchilar ushbu bebaho ma’naviy merosni o‘quv jarayonida keng qo‘llashlari maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mutalipova M. “Xalq pedagogikasi” – T.: “Bayoz”. 2013 y.
2. Bobomirzayev X. “Xalq og‘zaki ijodi va uning ta’lim-tarbiyadagi
3. "Samarasi”. – T.: “O‘qituvchi”. 1996 y. 173-bet.
4. O‘qish kitobi [Matn]: 3- sinf uchun darslik/ M. Umarova, X.Xamrakulova, R.Tojiboyeva. – T.: “O‘qituvchi” NMIU, 2019 й.
5. “Mashrq zamin – hikmat bo‘stoni” –T.: “Sharq”, 1997.
6. Shirinov M.K. Umumiy pedagogika tarixi. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Yashil yaproq nashiryoti” 2024-yil 366 b.
7. Yusupov E. “Ma’naviy kamolot omillari”. –T.: Universitet, 1995.
8. Farmonova, Muzayyamxon Qadriyatlar – ma’naviy kamolot asosi/ Ilmiy uslubiy qo‘llanma. – T.: “Tasvir nashriyot uyi”, 2019, 36 b
9. Xoshimov K. “O‘zbek pedagogikasi antalogiyasi”. –T., 1995 y.
10. https://uz.wikipedia.org/wiki/Didaktika.

Jamoliddin FAYZULLAYEV,
"Alfraganus University" nodavlat oliy ta'lim muassasasi,
"Xorijiy filologiya" kafedrasi, o'qituvchi

TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASI

Annotatsiya

Maqolada hozirda jadal rivojlanib kelayotgan turizim sohasini xorij tajribalari asosida yana qanday rivojlantirish mumkin ekanligi haqida muhokamalar yuritiladi. Shuningdek, to'siqsiz turizm infratuzilmasi, turizm markazlarining o'ziga xos vazifalari va boshqa dasturlar bilan aloqasi xususida fikrlar keltirildi.

Tayanch so'zlar. Turizm, agrar turizm, qishloq turizm, etno turizm, ziyorat turizm, madaniy meros, infratuzilma, turizm darvozasi.

В статье обсуждались пути дальнейшего развития быстро развивающейся туристической отрасли на основе зарубежного опыта. Также были высказаны мнения об инфраструктуре безбарьерного туризма, специфических задачах туристических центров и их связи с другими программами.

Ключевые слова. Туризм, аграрный туризм, сельский туризм, этнотуризм, паломнический туризм, культурное наследие, инфраструктура, туристические ворота.

The article discussed how to further develop the rapidly developing tourism sector based on foreign experiences. Opinions were also expressed on the infrastructure of barrier-free tourism, the specific tasks of tourist centers, and their connection with other programs.

Key words. Tourism, agrarian tourism, rural tourism, ethno-tourism, pilgrimage tourism, cultural heritage, infrastructure, tourism gateway.

Bugungi globallashuv sharoitda turizm sohasi iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biriga aylanmoqda. Turizm sohasining rivojlanishi o'z navbatida turizmga turdosh bo'lgan bir nechta sohalarning rivojlanishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, turizm sohasining rivojlanishi ishsizlik muammosini bartaraf etishda yordam beradi. Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatga tashrif buyurgan har 20 ta turist 1 ta bevosita turizm sohasida va 2 ta turizmga bog'liq bo'lgan iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida yangi ishchi o'rinlarining ochilishiga yordam beradi. Dunyoda ish bilan band aholining har o'ninchisi ushbu sohada faoliyat yuritmoqda. Rasmiy statistik ma'lumotlar turizm sohasining yaqin besh yillar ichida sayyohlar oshib borishi bilan mamlakat iqtisodiyotida yetakchi o'rinlarni egallab kelayotganligini isbotlamoqda. 2023-yil hisobi bo'yicha taxminan 7 millionta sayyohlar yurtimizga turli maqsadlarda tashrif buyurishdi. Bu ko'rsatkichni 2024-yil uchun prognoz natijalariga ko'ra, sayyohlar sonini 10 milliontaga oshirish belgilandi.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasida turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan bir qancha maqsad va vazifalar belgil0angan. Jumladan, 2030-yilga qadar xorijiy sayyohlar sonini 15 million nafarga, ichki sayyohlar sonini 25 million nafarga, ziyorat turizmi bo'yicha keladigan sayyohlar sonini 3 million nafarga yetkazish ko'zda tutilgan. Shuningdek, xususiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga respublikada mehmonlar uchun mo'ljallangan o'rinlar sonini kamida 2 barobar oshirish, turizm mahallalari sonini 175 taga, turizm xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga, tibbiyot va ta'lim turizmi eksportini yiliga 1,5 milliard dollarga yetkazish belgilangan (Farmon, 2023). Bundan tashqari,

“2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash bobi, 35-maqsadida “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling” dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish belgilangan bo‘lib, bu asosida:

– to‘siqsiz turizm infratuzilmasini mamlakatning asosiy turizm shaharlarida keng joriy qilish. 2026-yilgacha turizm sohasida band bo‘lgan aholi sonini 2 baravar oshirib, 520 ming nafarga yetkazish;

– turizm va madaniy meros obyektlari infratuzilmasini rivojlantirish hamda 8 mingdan ortiq madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish bo‘yicha davlat dasturini qabul qilish;

– Samarqandni “Turizm darvozasi”ga aylantirish orqali kelgusi besh yilda turizm xizmatlari hajmini kamida 10 baravarga oshirish. Turizm sohasida 40 ming kishi bandligini ta’minlash, 2022-yilda “Abadiy shahar” tarixiy majmuasini o‘z ichiga olgan Samarqand turizm markazini va zaruriy infratuzilmani tashkil etish;

– Xorazm viloyatida turizm yangi ish o‘rinlarini yaratishda asosiy drayver soha bo‘lishi uchun alohida dastur qabul qilish;

– Toshkent viloyatida turizm salohiyatini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha alohida dastur ishlab chiqish kabi vazifalar belgilangan. Albatta bu vazifalarning ijrosini ta’minlash maqsadida bir qator professor olimlar, tadqiqotchilar, turizm eksportlari tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Ko‘p manbalarda turizm sohasi rivojlanish tarixining ildizlari g‘arb davlatlarida boshlangan, deb talqin qilinadi. Ammo, O‘zbekistondagi turizm fanining asoschilaridan biri To‘xliyev (2021) tomonidan sohani rivojlantirish tarixining ildizlari Markaziy Osiyo davlatlariga borib taqalishi asoslab berilgan, ya’ni turizm qadim zamonlardan boshlab sayyoramiz xalqlari o‘rtasida do‘stlik rishtalarini mustahkamlashga xizmat qilgan. Odamlar yangi hududlarni kashf etish, dunyoni ko‘rish va bilish, savdo sotiqni rivojlantirish, madaniy va diplomatik aloqalarni o‘rnatish maqsadida sayohatga chiqqanlar. Savdo karvonlari yo‘llari kesishgan, madaniyatlar va sivilizatsiyalar tutashgan chorrahada joylashgani uchun Markaziy Osiyo mintaqasi bu jarayonda muhim o‘rin tutadi.

Turizmning shakllanish jihati xronologik jihatdan tahlil qilinganda, bugungi kunda ilmiy adabiyotlarda turizm asoschisi sifatida tan olingan Angliyalik Tomas Kukning 1843-yilda dastlabki temir yo‘l orqali safarini tashkillashtirgani XIX asrga to‘g‘ri keladi. Demak, Markaziy Osiyolik qomusiy olimlarimiz IX-XI asrlarda o‘z sayohatlarini amalga oshirish natijasida turizmning ziyorat va ilmiy turlarini shakllantirishda asoschilar bo‘lib hisoblanishadi (Eshtaev, 2023).

